

Ilm kelajagimiz
ravnaqidir

№-2. 2024



СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР SURKONDARYO: ILM VA TAFAKKUR СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасгимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-2 2024



ТАЪСИСЧИЛАР;
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТРАНСФЕРИ
МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ
ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Ҳар чоракда 1 марта чиқади.

**Jurnal 25-05-2020 yil. №-11-079
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVONNOMA N-11-079.

My.gov.uz. Yagona interaktiv davlat
xizmatlari portali.
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.

Ariza raqami: 19051279.

НАШР ИНДЕКСИ 190-111.

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ
магбаа бўлимида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,
Бунёдкор кўчаси 28-уй.
Босишга рухсат этилди: 17.07.2024.
Қоғоз бичими 60x84 1/8.
Босма табоғи 12,0. Офсет босма.
Офсет қоғози. Адади 100.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма № 19.

Техник ходимлар:
Мамаражабов Ғайрат
Қаршиев Ислон
Раҳмонов Махаммади
Саҳифаловчи:
Қўшоқова Мохигул

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.
tursunovsafullo12@mail.ru
Тел: 876 223 07 66.
+99 891 577 90 50,
+99 894 200 49 55,
+99 891 229 22 29.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

Пардаев Тошкенбой Раджабович
Тарих фанлари доктори, доцент
Термиз давлат университети

Журналнинг илмий котиби:

Файзуллаева Мавлуда тарих фанлари
доктори, Термиз давлат университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:

Тошқулов Абдуқодир
Асқаров Ахмадали
Каримов Соҳибназар
Муртазоева Раҳбархон
Сагдуллаев Анатолий
Воҳидов Шодмон
Вистор Агаджаниан
Юнусова Хуршида
Абдуллаев Улуғбек
Дониёров Алишер
Шамсиддинов Рустам
Обломуродов Наим
Эшов Баходир
Саидов Илхом
Хайитов Шодмон
Ғаффоров Шокир
Мусаев Нуриддин
Бобожонова Дилором
Абдуллаева Яхшибека
Эргашева Юлдуз
Қобулов Эшболта
Давлатова Саодат
Маткаримова Садоқат
Файзуллаева Мавлуда
Раҳмонов Фаҳриддин
Турсунов Нурулло
Холмўминов Хусан
Тилекулов Гаухар
Бўриев Очил
Қурбонова Манзила
Турсунов Жавли
Ҳўшбоқов Панжи
Раҳимов Баходир
Акчаев Фаррух

Усмонов Муртоз
Ирискулов Олимжон
Турсунов Анвар
Якубова Диларам
Ботирова Халима
Аҳмедова Гулчехра
Умаров Иқром
Менглибоев Акмал
Назирев Бахтиёр
Мамаражабов Ғайрат
Дуланов Отабек
Қаршиев Ислон
Саидов Бахтиёр

**ЖАМОАТЧИЛИК
КЕНГАШИ:**

Турдиев Тоштемир
Алланов Қилич
Муртозоев Бобоназар
Шариф Ёқубов
Туропова Мохдил
Эргашева Сайёра

ETNOGRAFIYA

TABIAT KULTLARI BILAN BOG'LIQ E'TIQODIY QARASHLAR
(SURXON VOHASI MISOLIDA)

Tursunov Saypulla Narzullayevich,

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini mudiri,**Tarix fanlari doktori, professor**e-mail: tursunovsafullo12@mail.ru.**UDK: 94(575.1)**<https://orcid.org/0009-0005-2553-6164>*

Annotatsiya: Maqolada Surxon vohasi tabiati, iqlimi va joylashuv geografiasining qulayligi bois tabiat kulti bilan bog'liq tabiat yodgorliklari, bahaybat va qadimiy daraxtlar, tosh hamda suv manbalari, bahaybat tog'lar bag'ridagi ulkan g'orlar, chuchuk suv manbai bo'lgan mo'jizaviy buloqlar kabi g'ayrioddiy tabiiy majmualarning mo'jizaviy kuchlari hamda davolash xususiyatlariga ishonish kabi masalalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar. Surxon vohasi, tabiat, iqlim, kult, yodgorlik, daraxt, tosh, tog', buloq, ziyoratgoh, mo'jiza, shifo.

Аннотация: В статье в связи с удобством природы, климата и географического положения Сурхандарьинского оазиса приводятся памятники природы, связанные с культом природы, деревьями-великанами и древними, каменными и водными источниками, огромными пещерами в лоне гор-великанов, чудотворными в статье верят в источники с пресной водой, чудодейственные силы и целебные свойства.

Ключевые слова: Сурхандарьинский оазис, природа, климат, культ, памятник, дерево, камень, гора, родник, святыня, чудо, исцеление.

Abstract: In the article, due to the convenience of the nature, climate and geographical location of the Surkhan oasis, natural monuments associated with the cult of nature, giant and ancient trees, stone and water sources, huge caves in the lap of giant mountains, miraculous springs with fresh water source, miraculous powers and healing

properties are believed.

Keywords: Surkhan oasis, nature, climate, cult, monument, tree, stone, mountain, spring, shrine, miracle, healing.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida munosib hissa qo'shgan O'zbekiston hududida ilk insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zida shakllantirgan Surxon vohasi tarixi masalasi jahon tarixchilarini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Surxon vohasi tabiati, iqlimi va joylashuv geografiasining qulayligi bois tabiat kulti bilan bog'liq tabiat yodgorliklari, bahaybat va qadimiy daraxtlar, tosh hamda suv manbalari, bahaybat tog'lar bag'ridagi ulkan g'orlar, chuchuk suv manbai bo'lgan mo'jizaviy buloqlar kabi g'ayrioddiy tabiiy majmualardan iborat. Ana shunday boy tarixga ega Sherobod tumaniga qarovchi bugun Ko'hitang tog' oldi qishloqlariga kiruvchi Shalqon, Poshxurt, Qorabog', Zarabog', Sherjon, Kampirtepa, Qizilolma, Vandop qishloqlarida ekinlarni sug'orishda soy va buloq suvlaridan foydalangan. Shalqon qishlog'ida Gusfan, Xurgardan, To'pli, Soyxo'ja kabi soylari, Poshxurt qishlog'ida esa Uybuloq, Chillabuloq, Yakkatut, Ko'kchinor, Xolajibuloq, Anjirotabuloq'i, Tulxotinbuloq'i, Arabuloq, Gulibuloq, Yigitlik bulog'i, Jumabuloq, Xojibuloq, Kovushbuloq, Halqazar bulog'i, Zarabog' qishlog'ida Gumbazbuloq, Jo'yabuloq, Rahimbuloq, Lolabuloq, Kayg'ubuloq, Xo'jabuloq, Chuqurbuloq, Shuturbuloq, Vandop qishlog'ida Chashmdilli bulog'i,

Xiloba, Jirdanak, Chilonota, Chashmihayot, Chashminajot, Chashmi polvon, Darnov, Ko'iqishloq, Bandibaland, Darg'ul, Olmabuloq, Jiydabuloq, Kampachinor, Bog'yoroq, Bog'iso'xta kabi buloqlarni sanab o'tish mumkin.

Xomkon qishlog'ida ham o'nlab soylar va buloqlar bo'lgan. Jumladan Oxurlisoy, Oqbuloqsoy, Jiydalisoy, Tollisoy va boshqalar. Buloqlariga Beshbuloq, Xujaipok bulog'i, Osmonbuloq, Oqbuloq kabi 70 dan ortiq buloq bo'lgan. Panjop qishlog'ida esa 114 buloq bo'lgan, Hazorxon, Binirez, Kachdara, Kamarak, Tovsang buloqlaridan foydalangan holda panjobliklar dehqonchilik qilganlar. Panjob nomi ham ana shu buloq suvlarning alohida-alohida ariqlarda oqishidan, ya'ni besh suv ma'nosidan kelib chiqqan[2;114].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani markazidan 40 km masofa uzoqlikda tog' yon bag'rlarida joylashgan tarixi 500 yilga borib taqaladigan ko'hna Zarabog' (Zar buloq) qishlog'i, har bir qishloqning nomlanishi ma'lum bir voqeylik sababli yuzaga keladi, qishloqda taxminan 12 ta buloqlar mavjud bo'lgan, qishloqning Zarabog' (Zar buloq) qishlog'i deb nomlanishi buloqlarning ko'pligidan bo'lsa ajabmas[7].

Bundan tashqari, Zarabog' — Sherobod tumanidagi qishloq nomi. X-XI asrlar yodgorliklari asosida tuzilgan "Lug'ati furs"da bu so'z «Zamini zarog'an va sathi chu sang. Na oromgohu na obu giyoh» (tosh-singari qattiq, qumloq yer, unda na suv, na giyoh, na oromgoh bor) deb izohlanadi. Tojik tili tarixida zarog'an, zarog'ang (varianti jarog'an, jarog'ang)-qumli joy, zarang yer, qattiq joy; qumloq, qumi ko'p maydon; sho'rxok yer, sho'razor. Zarag'on va bog' so'zlaridan tuzilgan va quyidagicha o'zgarish yuz bergan: Zarog'onbog' > zaronbog' > zarangbog' > zarabog'. Qishloq tog' ichkarisida, Poshxurtning yuqorisida joylashgan, o'rnining toshloq joy ekanligiga nisbat etilgan. Mahalliy aholi zarang; (qizil po'stli, mevasiz, qattiq cho'pli tog' daraxti-zarang; ko'p yillar o'zlashtirilmay tuprog'i

zichlanib, qotib ketgan yer-zarang) va bog' so'zlaridan (qattiq yerdagi bog', zarang joyidagi bog') tuzilgan deb tushuntiradi. Zaron (tilloli, oltinli) bog' deb izohlovchilar ham bor[2;85].

Shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Hazrati Xizr bilan bog'liq qarashlar; 2. Islom dinidagi mashhur sahobalar va ularning izdoshlari bilan bog'liq tasavvurlar; 3. Avliyolar bilan bog'liq qarashlar; 4. Ayol tasviridagi kultlar bilan bog'liq qarashlar; 5. Muqaddas buyumlar bilan bog'liq qarashlar; 6. Hayvonlar bilan bog'liq qarashlar; 7. Tog'-u tosh va g'orlar bilan bog'liq qarashlar; 8. Daryo, ko'l va buloqlar bilan bog'liq qarashlar; 9. Daraxt va o'simliklar bilan bog'liq tasavvurlar; 10. Tush ko'rish bilan bog'liq qarashlar; 11. Shayx (sayyidlar, xo'jalar va eshonlar)lar nomi bilan bog'liq qarashlar[3;18].

Sherobod tumani Zarabog' qishlog'idagi buloqlar ichida eng qadimiysi va hozirgi kunga qadar zilol va shifobaxsh suvi bilan barchaga tanilgan, qishloq markazidan 6-8 km chamasi uzoqlikda joylashgan «Qo'tir buloq» xalq tilida Hayitbiy bobo (Ko'kboy ota) bulog'i nomi bilan mashhur qaynar buloq bo'lib, misoli buloqni himoyasiga olgan sarkardadek turgan, ikki odam qulochi zo'rg'a yetadigan chinor daraxti tagida joylashgan qaynar buloq ichida yuzlab baliqlar mavjud bo'lib, u baliqlarni mahalliy aholi olib iste'mol qilishdan qo'rqishadi[7].

Buloq yonida uyi joylashgan Ashraf opaning so'zlariga qaraganda ushbu baliqlarni iste'mol qilgan insonlar har-xil teri kasalliklarga chalinishi, hattoki o'lim yoqasiga kelib qolishi haqida rivoyatlar uchraydi. Ushbu qaynar buloq 3-4 asrlardan buyon mavjud bo'lib, yilning sovuq fasllarida suv harorati ko'tarilib issiq holatga kirib o'zidan bug' hosil qiladi. Yoz fasllarda esa sovuq haroratni o'zida mujassam etgan buloqning suvidan to'yib ichsangiz ham tomog'ingiz og'rimaydi. Eng muhimi u ko'plab kasalliklarga: oshqozon-ichak, jigar, buyrak kasalliklarini davolash va ichki a'zolaridagi toshlarni maydalashda juda

foydali[7].

Rivoyatlarga ko'ra qishloqda yashab, buloq yonidagi qabristonga dafn qilingan Hayitbiy bobo qishloq tabibi bo'lib, qishloqda betob bo'lib qolgan insonlar tabibning yoniga kelib davo topishgan, tabibning qo'llari tekkan bemor tezda tuzalib sog'ayib ketgan. Hozirgi kunga qadar ushbu qaynar buloqqa kelib buloq suvini iste'mol qiluvchi insonlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi desam mubolag'a bo'lmaydi[7].

Ma'lumki, tabiat kulti bilan bog'liq ziyoratgohlarga odamlar asosan, shifo izlab kelgan, bu yerda iltijo qilish bilan bir qatorda muqaddas obyektidan davolovchi kuchni olish maqsadida magik harakatlar va marosimlar (buloq suvidan ichish va cho'milish, ziyoratgoh tuprog'ini tanaga surtish, toshni tavof qilish va atrofini aylanib niyat qilish, tosh ustida yotish, daraxtlarni quchoqlash, alam bog'lash, niyat qilib, suvga tanga tashlash) bajarilgan[3;22].

Demak, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan is chiqarish, chiroq yoqish, daraxtlarga latta bog'lash, tosh va muqaddas buloqlarning mo'jizaviy kuchlari hamda davolash xususiyatlariga ishonish kabi urf-odatlar saqlanib qolganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, Surxon vohasi aholisining tabiat unsurlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabati va ularni e'zozlash bilan bog'liq qarashlar xalqimiz orasida "qadamjo", "aziz joy", "muqaddas qadamjo" kabi nomlar bilan ataladi.

Bunda odamlar asosan, shifo izlab, iltijo qilish bir qatorda muqaddas obyektidan davolovchi kuchni olish maqsadida ma'lum harakatlar va marosimlar (buloq suvlaridan ichish, cho'milish, toshni tavof qilish, atrofini aylanib niyat qilish, tosh ustida yotish, daraxtlarni quchoqlash, mato bog'lash, niyat qilish, suvga tanga tashlash) bajariladi.

Musulmon ulamolari tomonidan tabiat kulti bilan bog'liq qarashlar shirk amal sifatida qaraladi. Ammo, shunday bo'lsa-da, barcha tabiat kultlari, ya'ni muqaddas tog', g'or, daryo, daraxt va buloqlar poklik ramzi hisoblanib, niyat qilish amallari baribir uchrab turadi.

Ziyoratgohlarga xos yana bir narsa

shundaki, uning hududida biror qadimiy daraxt yoki buloq mavjuddir. Masalan, Oltinsoy tumanidagi Xo'jasoat qishlog'i chekkasida joylashgan Qurbon Soat ziyoratgohida (XVII asr) qadimiy, azim tut daraxti o'sadi. Bu joy XVII asrning o'rtalarida yashagan islom ilmining bilimdoni Qurbon o'g'li Soat dafn etilganligi sababli Qurbon Soat ostonasi deb atalgan[5;27].

Daraxtlar kultiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Xonjiza mahallasi yo'lining chap tomonida, qishloqdan ancha uzoqda Mozori To'q ziyoratgohi joylashgan bo'lib, uning atrofida do'lana daraxti bor. Xonjiza mahallasi Debodom qishlog'ining tepasida Xo'jai Murid ziyoratgohi, undan sal yuqoriroqda Darvozaho ziyoratgohi joylashgan bo'lib, bu yerda tog'ning uch joyidan suv chiqib turadi. Xonjiza jamoa xo'jaligi Xo'jayi Asmin qishlog'i tepasida Ko'yi safet (Oq tog') etagida Qirq qiz (Chil duxtaron) ziyoratgohi joylashgan. Tog' oppoq ko'ringani va tepasida doim qor bo'lgani uchun shunday deb ataladi. Tog' orasida qirqta archa bor. Bu yerda Shakarsib (Shakar olma) bulog'i ham bor. Xo'jayi Asmin nomli avliyo bilan bog'liq ziyoratgoh qishloq tepa qismidagi Ko'yi safet tog'i etagida joylashgan.

Shuningdek, Boysun tumanidagi Sayrob chinoriga nisbatan ham aholi orasida ehtiyotkorona munosabat va uni e'zozlash bilan bog'liq diniy-ekologik qarashlar shakllangan. Bu daraxt tabiat yodgorligi sifatida davlat qaramog'iga olingan. Chinorning yoshi 950 yilga yaqin. Balandligi – 26 m. Shox-shabballarning diametri – 21 m. Tanasining balandligi bo'yicha o'lchami — 9,7 m. Tanasining ildizi bo'yicha o'lchami - 16,5 m. Kavagining yer sathidan o'lchami — 3,5 m. Kavagining balandligi bo'yicha o'lchami – 7 m. Kavagining og'zi to'g'ri uch burchak shaklda[8]. Daraxtning kavagida oktyabr to'ntarilishiga qadar eski maktab joylashgan. 1920 yilda qishloq kengashi idorasi bo'lgan. 1932-1934- yillarda 1-otliq askarlar polkining lageri kutubxonasi joylashgan. 1936-yilda qishloq savdo do'koni bo'lgan. Sayrob chinori yonida muqaddas buloq va unda baliqlar bemalol suzib yuradi.

Hech kim baliq ovlamaydi, aksincha, ziyoratga kelganlar baliqlarni oziqlantiradilar.

Umuman olganda, tabiat kultlari asosan, davolovchi funksiyani bajargan. Masalan, buloq suvlari tarkibidagi turli minerallar sababli ularning shifobaxsh xususiyatlari buloqlarga nisbatan “muqaddaslik” tushunchasini shakllantirgan.

Dunyo xalqlari o'rtasida ham daraxt kultiga sig'inish va uni muqaddaslashtirish bilan bog'liq bir qancha qarashlar hamda marosimlar mavjud. Bunday qarash va marosimlar zahirida olam hamda odamning yaratilishini daraxt timsoli bilan bog'lab, “Hayot daraxti” ni olamning asosi (o'zak, o'q, ustun) sifatida tasavvur etish yotadi. Shu sababli, turli ezgu niyat va tilaklarni amalga oshirish hamda kasalliklarga shifo izlash maqsadida daraxtlar bilan bog'liq marosimlar o'tkazilgan. Dunyoning turli xalqlarida “Hayot daraxti” ramzlari mavjud bo'lib, mazkur ramzlar kundalik turmushda keng foydalanilgan. Jumladan, sopol va chinni buyumlar hamda me'moriy obidalaridagi naqshlarda “Hayot daraxti” ramzlarini ko'rish mumkin[4;222]. Umuman olganda, daraxt kulti bilan bog'liq qarashlarda hayotning boshlanish nuqtasi o'simliklar hisoblanadi. O'lim – hayot bilan aloqani qayta tiklashdir. Ya'ni, inson vafot etgach, ruh sifatida daraxtga aylanadi: jasad inson shaklini daraxt shamoyiliga o'zgartiradi. Ya'ni, o'lim shunchaki moddiylikning o'zgarishi va insonning boshqa darajaga o'tishini anglatadi. Bu hayot formulasi bo'lib, tabiat va inson o'rtasidagi uzviylik hamda bog'liqlikni anglatadi. Insonning daraxt va o'simlikka aylanishini ko'p hollarda inson qoni bevaqt

to'kilgan joyda paydo bo'ladigan o'simliklar misolida ko'rish mumkin.

Kishilarni o'z o'tmishi bilan bog'lovchi rishta, insonning tabiat, hayvonot va o'simlik olami haqidagi ilk qarashlari totemistik tasavvurlarni aks ettirgan. Totemlar bilan bog'liq ko'plab asotir va rivoyatlar to'qilgan. Totemizmning asosi bo'lgan “totem” (Shimoliy Amerika hindularining “Ojibve” qabilasi lahjasidagi “ot-otem” so'zidan olingan – “uning urug'i”) atamasini birinchi marta 1791 yilda Jon Long “insonning hayvon va o'simliklar bilan qon-qarindoshligi haqidagi ishonch” ni anglatuvchi so'z sifatida qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, har bir qabila yoki urug' o'zlarini biror o'simlik yoki hayvon bilan atagan va ularga aloqador hisoblagan[6;28]. Bu aloqadorlik o'ziga xos qarindoshlik sifatida anglangan. Bunday hayvon, o'simlik yoki buyum muqaddaslashtirilib, unga sig'inilgan.

Fetishizm unsurlari hozirgi davrda ham turli xalqlar urf-odat va e'tiqodlari (haykal, surat, tumor, ko'zmunchoq va har xil ramzlar) da saqlanib qolgan. Shuningdek, muqaddas joylarga sig'inish, daraxtlarga latta bog'lash, is chiqarish, qabrlarni ilohiylashtirish, ularning mo'jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning o'ziga xos ko'rinishidir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, Surxon vohasining muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlariga oid qimmatli tarixiy hamda etnografik ma'lumotlar mavjud bo'lib, o'zbek milliy madaniyatida ziyoratning tutgan o'rnini anglashda tarixiy asos vazifasini o'tashi bilan ham qadrlidir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ashirov A. “Avesto” dan meros marosimlar. – T., 2001.
2. Tursunov S. va boshq. Sherobod tarixi va etnografiyasi. – T. 2014. B. – 85, 114.
3. Jumayeva Sh. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati. Termiz. 2022. – B. 18, 22.
4. Karomatov H. S. O'zbekistonda moziy e'tiqodlari tarixi. – Toshkent, 2008. – B. 222.
5. Pardayev M. Oltinsoy ziyoratgohlari. Ona qishlog'im. – B. 27.
6. Dinshunoslik asoslari. (Mas'ul muharrir: I.Usmonov) – Toshkent: Toshkent islom

universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. – B. 28.

7. Dala yozuvlari. Sherobod tumani, Zarabog‘ qishlog‘i. 2022 yil.

8. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Sayrob qishlog‘i. 2022 yil.

YUZ (JUZ) LARNING SURXON VOHASIGA KIRIB KELISHI VA ETNIK TARKIBI

Dulanov Otabek Yuldashevich,

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi,**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**otabekdulanov56@gmail.com*

UDK: 39:316.334.52(091)(575.151)

<https://orcid.org/0009-0008-1141-7475>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuz (juz) larning Surxon vohasiga kirib kelishi va ularning hududiy joylashuvi shuningdek dahalarga bo'linishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yuz (juz), Yuz-jilontamg'ali, Qarg'a, Iyarchi, Ko'sa, Potas, Bolaxo'r, Yo'rg'a, Bog'anali, Qoratamg'ali, qo'ng'iro't, uyg'ur-juzlar, ko'kan juzlar, tojik, kenagas, qozoyoqli, gardan.

Аннотация: В данной статье говорится о приходе жузов (джузов) в Сурханский оазис и их территориальном расположении, а также их разделении на дахи.

Ключевые слова: Юз (джуз), Юз-джилонтамгали, Ворона, Иярчи, Коса, Потас, Мальчикоед, Йорга, Боганали, Черноклювый, конг Ирот, Уйгуры, Кокан Жуз, Таджик, Кенас, Казах, Гардан.

Abstract: This article talks about the arrival of the Juz (juz) into the Surkhan oasis and their territorial location as well as their division into dahas.

Key words: Yuz (juz), Yuz-jilontamgali, Crow, Iyarchi, Kosa, Potas, Boy-eater, Yorga, Boganali, Black-billed, kong' Irot, Uighurs, Kokan Juz, Tajik, Kenagas, Kazakh, Gardan.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mamlakatimizning janubiy darvozasi hisoblanmish Surxon vohasi qadim va boy tarixga ega hisoblanadi. Surxondaryo viloyati geografik-iqtisodiy jihatdan mamlakatimizning geosiyosiy muhim strategik hududidir. Surxondaryo hududiy joylashuvi Amudaryo orqali janubdan Afg'oniston, shimoli-g'arbdan Turkmaniston, janubi-sharqdan Tojikiston bilan chegaradosh. Surxondaryo viloyatining umumiy maydoni 20,1 ming kv.km., 1774,4 mingdan ziyod aholisining 80 foizi qishloqlarda, 20 foizi esa

shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyatda 14 ta tuman, 8 ta shahar, 7 ta shaharcha va 114 ta qishloq yig'ini mavjud.[1:5]

Surxondaryo hududi tog', tog' oldi, adirlik, cho'l, sun'iy sug'orma, lalmi, daryo bo'yi hududida yashovchi xalqlarning turmush tarzini o'zida ifodalaydi.

Surxon vohasi XVIII asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. Bu davrda Boysun, Sherobod va Denov beklilari hududlari tadqiq etilayotgan mintaqa doirasiga kirgan.

Tadqiqotda qo'ng'iro'tlar kabi o'zbeklarning eng katta urug'laridan biri yuz (juz) lar bo'lib, Surxon vohasida ularning qarapchi hamda turkman-yuz guruhlarini yashaydi. Ular asosan Sho'rchi, Oltinsoy, Denov va Uzun tumanlarida istiqomat qiladilar.[2:162-164]

Yuzlarning Markaziy Osiyoga kelishi, ijtimoiy turmushi va xo'jaligi haqida o'z davrida N.A. Mayev, N.A. Aristov, V.V. Bartold, V.I. Lipskiy, L.P. Potapov, I.P. Magidovich, X. Doniyorov, B.X. Karmisheva kabi olimlar o'z ishlarida to'xtalib o'tganlar. X. Doniyorov «O'zbek xalqining shajara va shevalari» kitobida Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan olingan ma'lumotlar asosida yuzlarning qarapchi, marqa bolasi, rejab bolasi kabi uch guruhini keltirib o'tadi.[3:86]

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tadqiqotda B.X. Karmishevaning ta'kidlashicha, turkman-yuzlarining Surxon-Hisor vohasiga kelib qolishi borasida uchta qarash mavjud: birinchisi, qo'ng'iro'tlar kabi «orqa yurtdan»; ikkinchisi, avlodlari yurti O'ratepa va Nurotadan. Sohibqiron Amir Temur davrida Surxon vohasida Turkman dasht mavjud bo'lib, rivoyatlarga qaraganda, Turkman

dasht Amir Temur otasining qo'rg'oni bo'lgan; uchinchi, Sulton Sanjar moziy tomonidan yuzta turkman oilasi ko'chirib keltirilgan. Shuning uchun ulardan tarqalgan avlodlar yuz (juz), ya'ni turkman-yuz deb nomlangan. Surxon vohasidagi yuzlar o'zlarining ota-bobolari Jizzax va Samarqanddan ko'chib kelganligini aytishadi.[4] X. Doniyorovning ta'kidlashicha, samarqandlik yuzlarning avlod-ajdodlari asli Hisor-Ko'lobdan kelgan.[5:86]

Tadqiqotda 1924-yilgi aholi ro'yxatiga asoslanib I. Magidovich quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. O'zbek urug'lari orasidan «Qirq yuz» degan urug'lar ittifoqini (birlashmasini) ajratib, ularni qandaydir harbiy ma'noga ega bo'lgan urug'lar ittifoqining qoldig'i, deb hisoblaydi va bu ittifoqdagi ba'zi guruhlarini ham ko'rsatib o'tadi: marqa (Kofirnihon vohasida), xitoy-yuz (Qoratog'daryo vodiysida), qorapchi (Surxondaryoning yuqori oqimida), qirq (Qashqadaryo va Samarqandda) va yuz (Samarqandda). I. Magidovich etnografik hisobot ma'lumotlariga tayanib, yuz urug'ining Farg'ona, Xo'jand va Toshkent viloyatlarida ham istiqomat qilganligini ta'kidlaydi. Biz o'z tadqiqotimizda bu urug'lar ittifoqini quyidagi ilmiy asoslangan bo'limlarga ajratib o'rgandik. Qorapchi va marqadan tashqari, so'rov natijalariga asoslanib, biz yuz urug'i tarkibiga yana ikkita urug'ni kiritdik: vaxtamg'ali (yoki baxtamg'ali) va jilontamg'ali. So'rovlar natijasida bu ikki urug' yana mayda dahalarga bo'linishi aniqlandi:

Yuz-jilontamg'ali

- | | |
|------------|-----------------------------|
| 1. Qarg'a | 5. Bolaxo'r |
| 2. Iyarchi | 6. Yo'rg'a |
| 3. Ko'sa | 7. Bog'anali |
| 4. Potas | 8. Qoratamg'ali [6:162]164] |

Qayd etilgan kesovli va qoziyoqli urug'lari xususida N.F. Sitnyakovskiy tuzgan o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i geneologik jadvalida qoziyoqli va kesovli vaxtamg'ali qabilasi tarkibida, ko'sa esa qo'shtamg'ali tarkibida ko'rsatiladi, qoziyoqli esa, biz yuqorida qayd etganimizdek, qo'ng'iroq urug'i tarkibida gavdalanadi. I. Magidovichda ham

qoziyoqli qo'ng'iroq urug'i tarkibiga kiritilgan. Yuz urug'ining mayda guruhlariga ham odamlarning laqabi bo'yicha nomlash odat bo'lgan. Sho'rchi tumani Ko'ltepa va To'la qishloqlarida istiqomat qiluvchi 81 yoshli Toyir Berdiyev va 72 yoshli Xursand Ismoilovlar bergan ma'lumotlarga ko'ra, yuz urug'i tarkibida qo'yidagi mayda guruhlar yoki laqab bilan aytiladigan urug'-qarindosh jamoalari bo'lgan: 1. Xalfabachcha (ustaga taalluqli bola, shogird). 2. Yungbachcha (jun bosgan bola). 3. Saribachcha (sariq bola, sariq kishining bolasi). 4. Ko'sa (soqoli yo'q). 5. Bangibachcha (nasha chekadigan kishining bolasi). 6. Kalbachcha (sochi yo'q kishining bolasi yoki sochi yo'q bola) va hokazo.

Yuz urug'i to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy manbalarda uchramaydi. Yozma manbalarda na turk, na mo'g'ul qabilalari tarkibida bu urug' haqida fikr yuritilmaydi. Xususan Surxondaryoga qanday kelib qolganliklari haqida ham aniq ilmiy etnografik manbalar hozirgacha to'liq yoritilmagan. Faqatgina o'zbeklarning yuz urug'i XVI asrdan boshlab Buxoro, Samarqand, XVII asrdan boshlab Xo'jand va O'ratepada yashagan aholi tarkibida yashaganligi ba'zi bir manbalarda qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, yuz urug'i Surxondaryo viloyatiga Buxoro va Samarqand hududlaridan ko'chib kelib joylashgan, degan mulohazani bildirish mumkin. Chunonchi, bu borada yuqorida eslatib o'tilgan Sho'rchi tumani To'la qishloq fuqarosi Xursand Ismoilovning ma'lumotiga ko'ra, qachonlardir yuz urug'i «Qirq yuzdan» ajralib chiqqan va Jizzaxdan ko'chib kelgan. Boshqa dalillarga kelsak, ularning shevasi, bizning kuzatuvlarimizga qaraganda, qo'ng'iroqlarning shevasiday, ya'ni ular ham «j» lab qipchoq lahjasida gapirishadi.[7]

O'rganilayotgan hududda keng tarqalgan qavmlardan biri yuzlardir. Yuzlar asosan Surxon vohasining yuqori va o'rta qismida yashaydilar. Surxon vohasida yuzlarning yirik bo'linmasi turkman-juzlar keng tarqalgan. Ular joylashgan hudud ilgari sug'orish uchun qulay bo'lgan va oktyabr (1917-y) to'ntarilishigacha doimiy ravishda o'troqlasha boshlaganlar. Surxon vohasida yuzlarning

qarapchi hamda turkman-juz guruhlarida yashashgan. Ular asosan Shoʻrchi, Oltinsoy, Denov tumanlarining Tolli, Obodon, Xoʻjasoy, Xayrobod, Hazarbogʻ qishloqlarida turishgan. Yuzlarning qarapchi urugʻi asosan Oltinsoy tumanining Obshir, Jobu, Degrez, Chinor, Bodihavo qishloqlarida joylashgan. Juzlar asosan Vaxshivor zonasini egallagan. Vaxshivor guruhi: 8 ta qishloqdan iborat, yaʼni Katta Vaxshivor, Kichik Vaxshivor, Lukka, Badihavo, Chinor, Zardaql, Obshir, Toʻxtamish qishloqlaridir. Katta Vaxshivorda juzlar Samarqand va Gʻuzordan kelgan turli oʻzbek urugʻlari, yaʼni kaltatoylar, turklar, hardurilar va toqchilar bilan aralash yashaydi, kichik Vaxshivorda turklar, juzlar bilan birga yashaydi, Lukkada-turklar, Bodihavoda juz-qarapchilar, Zardaql va Chinor qishloqlarida uygʻur-juz, gardan juz, qarapchi juz urugʻining shaxobchasi yashaydi. Zardaql qishlogʻi Chinor qishlogʻidan ajralib chiqqan. Obshir qishlogʻida qoʻngʻirotlar, juzlar, uygʻur-juzlar, koʻkan juzlar, tojiklar, kenagaslar aralash yashagan. Toʻxtamish qishlogʻida juzlarning qozoyoqli va gardan shaxobchalari yashaydi [8:53-54]

Vaxtamgʻalining alifli urugʻi Jindibuloq (Oltinsoy tumani) da, kesovli urugʻi Obodon, Tolli (Shoʻrchi tumani) hamda Hazorbogʻ (Denov tumani) da, joriqbosh urugʻi Yalti va Sovjirona, qozoq urugʻi Mirishkor va Olatemirda, qoʻshtamgʻali urugʻi Kultepada, qozoyoqli urugʻi Xoʻjasoat, Qumpaykal, Toʻxtamish, Loʻkka (Oltinsoy tumanida), boʻgajili urugʻi Hayrabod (Denov tumani) da va boshqa hududlarda yashaydilar.[9]

Jilontamgʻalilarning koʻsa urugʻi Toʻla, Olatemir (Shoʻrchi tumani), Paxtakor, Ikkiraz, Degrez (Oltinsoy tumani), iyarchi urugʻi Oxunboboev, patos urugʻi Xidirsho, Dugʻoba, Ikkiraz, Mormin, Sayrak, Qoratepa, Jolti, Moʻminqul (Oltinsoy tumani) da, bolaxoʻr urugʻi A. Safarov fermer xoʻjaliklari uyushmasi (Shoʻrchi tumani) da, Sayrak (Oltinsoy tumani) da, qargʻa urugʻi Tolli fermer xoʻjaliklari uyushmasida, yoʻrgʻa urugʻi Ijtimoiyot fermer xoʻjaliklari uyushmasida, bogʻonali urugʻi 8-mart fermer xoʻjaliklari uyushmasi (Denov tumani) da, Boshtepa (Shoʻrchi tumani) da, qoratamgʻali

urugʻi Regar atroflarida yashaydilar.

Vaxtamgʻali urugʻining yuqorida 8 urugʻga boʻlinishini taʼkidlagan edik. Vaxtamgʻalining alifli urugʻi besh ota alifli deb – boʻkay, kakuvot, beshbotir, bolxi, chuluqqa boʻlingan.

Qozoq urugʻi toʻrt ota qozoq deb – koʻk kalabosh, kirmoli, oʻntoʻrt, goʻrga sigʻmasga boʻlingan.

Qozoyoqli urugʻi oʻn ota qozoyoqli deb – tuyajaq, koʻmovuz, hayitqoraqosh, galahaya, qovchin, olchin, paritoʻp, kuyabosh, kaltoʻp, goʻrxovga boʻlingan.

Kesovli urugʻi toʻqqiz ota kesovli deb – xalfabachcha, kalbachcha, qozibachcha, saribachcha, junbachcha, cholishbachcha, oynakoʻz, goʻrga sigʻmas, badirga boʻlingan.

Urugʻlarning bu kabi nomlanishida oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqea-hodisalar sabab boʻlgan. Masalan, qozoyoqli deb nomlanishi haqida xalq orasida shunday rivoyat mavjud: «Sirdaryoda bir podsho boʻlib, qozisi bilan er-suv masalasida tortishib qoladi. Aholining maʼlum qismi qozini qoʻllab-quvvatlaydi. Podsho qozini oʻldirmoqchi boʻlganda, podsholikda xizmat qiladigan bir kishi qoziga podshoning niyatini aytadi. Shunda qozi oʻzining tarafdorlari bilan tunda podsholik hududidan qochadi. Hozirgi Surxondaryo hududlariga kelib joylashadi. Qozoyoqlilar qozi bilan kelgan kishilar avlodidir».[10]

Yuzning katta urugʻlaridan yana biri bu qarapchi urugʻi boʻlib, qarobchilar Oltinsoy tumanining Obshir, Chuqur Obshir, Jobu, Degrez, Ovchi, Zardaql, Toʻxtamish, Chinor, Bodihavo qishloqlarida, Shoʻrchi va Denov tumanlarining Oxunboboev fermer xoʻjaliklari uyushmasida yashaydilar.

Qarapchi deb nomlanishi haqida shunday rivoyat bor: «Amir zamonida 40 ta qaroqchi boʻlib, bu qaroqchilar amir yasovullari tomonidan qoʻlga olinadi. Qaroqchilarni oʻldirtirishga amirning koʻzi qiymaydi. Chunki ularning har biri bir yurtga bek boʻladigan sogʻlom, baquvvat yigitlar boʻlgan. Shundan soʻng amir bularning har birini bir qishloqqa boshliq qilib joʻnatgan. Shundan tarqalgan bu urugʻ qaroqchi soʻzining buzilib talaffuz qilinishidan

qarobchi deb atalib ketgan».[11] Qarapchilar bir necha urug‘ga bo‘linib, gardon, chichqoq, xolmat, ko‘kan, ashurbek, jahastubi, gadoyxo‘ja urug‘laridan iborat. Qarobchilarning Surxon vohasiga kelishini So‘fi Olloyor bilan bog‘laydilar. Qarobchilar u kishi bilan birga. Kattaqo‘rg‘ondan kelishgan deb, e‘tirof etishadi.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib qayd etish kerakki, O‘zbekistonning turli tarixiy-etnografik mintaqalarini o‘rganish dolzarb

muammolardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bunda Respublikaning boshqa tarixiy-etnografik mintaqalari qatorida Surxon vohasida yuz (juz) larning hududiy joylashuvidagi etnik o‘ziga xosligi (XVIII asr va XX asr boshlari)ni tahlil etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Surxon vohasida yuz (juz) larning hududiy joylashuvidagi etnik o‘ziga xoslikni o‘rganish maqsadida voha o‘ziga xos tarixiy-etnografik mintaqa bo‘lib, ushbu hudud mamlakatimiz janubidagi eng qadimgi shaharsozlik madaniyati markazlaridan biri bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Termiz, 2-kitob, 2022 yil. Ma‘lumot hisoboti №-1. -B.5.
2. Dala yozuvlari. 2019-2020 — yillar. Bu haqida yana qarang: Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX вв.). Материалы к исторической географии Средней Азии. –Ташкент, 2001. –С. 162-164.
3. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –Toshkent, 1968. –B. 86.
4. Dala yozuvlari. 2020 yil. Sho‘rchi tumani To‘la qishlog‘i.
5. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –Toshkent, 1968. –B. 86.
6. Dala yozuvlari. 2019 yil. Oltinsoy tumani Botash qishlog‘i.
7. Tursunov N.N. Janubiy O‘zbekiston aholisi moddiy madaniyatidagi transformatsion jarayonlar. –T.: “Yangi nashr”, 2019. –B.53-54.
8. Dala yozuvlari. 2019 yil. Oltinsoy, Sho‘rchi, Denov tumanlari.
9. Dala yozuvlari. 2021 yil. Sho‘rchi tumani Shaldiriq qishlog‘i.
10. Dala yozuvlari. 2019 yil. Sho‘rchi tumani To‘la qishlog‘i, 2020 yil. Oltinsoy tumani Degrez, Jobu, To‘xtamish, Obshir, Chuqur Obshir, Zardaqo‘l, Chinor, Bodihavo qishloqlari. 2020 yil. Denov tumani Oxunboboyev jamoa xo‘jaligi.
11. Dala yozuvlari. 2020 yil. Oltinsoy tumani Chuqur Obshir qishlog‘i.

AN'ANAVIY SURXON BOZORLARINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b.,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

UDK: 39:314.114(091)(575.151)

<https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

Annotatsiya: Shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishida savdo-sotiq bo'ladigan yerlar-bozorlarning ahamiyati beqiyos edi. Odatda shaharlarning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan biri bozorlarga doimo alohida ahamiyat berilgan. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o'rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Agar mamlakatda iqtisodiy tanazzul kechayotgan bo'lsa bozorlarning ahvoli og'irlashgan, aksincha bo'lsa bozorlar gullab yashnaganligini kuzatish mumkin. Maqolada an'anaviy Surxon bozorlarining o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bozor, Mirshodi, "mol bozor", "don bozor", Pattakesar bozori, Qarluq bozori, ixtisoslashuv, savdogar, narx-navo.

Аннотация: В превращении городов в крупные торговые центры значение торговых мест и рынков было несравненным. Рынкам всегда придавалось особое значение как одному из признаков существования городов. Размер, богатство и другие аспекты рынков были тесно связаны с положением городов в стране и политической ситуацией. Если в стране экономический спад, то положение рынков ухудшилось, и наоборот, можно наблюдать, что рынки процветают. В статье говорится об уникальных аспектах традиционных рынков Сурхана.

Ключевые слова: рынок, Миршоди, «товарный рынок», «рынок зерна», рынок Паттакесар, рынок Карлук, специализация, купец, цена.

Abstract: In the transformation of cities into large trade centers, the importance of trading places and markets was incomparable. Markets have always been given special

importance as one of the signs of the existence of cities. The size, wealth and other aspects of the markets were closely related to the position of the cities in the country and the political situation. If there is an economic recession in the country, the situation of the markets has worsened, and on the contrary, it can be observed that the markets are flourishing. The article talks about the unique aspects of the traditional markets of Surkhan.

Key words: market, Mirshodi, "commodity market", "grain market", Pattakesar market, Qarluq market, specialization, merchant, price.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). An'anaviy Surxon vohasi bozori o'ziga xos etnomadaniy jihatlarga ega. U an'anaviy qadriyatlar, xalq urf-odatlarini saqlab kelayotgan an'anaviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek u madaniyatlar va axborot almashish joyi bo'lgan. Bozor makoni insonlarning ma'naviy boyishi, birlashishiga yordam bergan, bu yerda aholi turli qatlamlarining vakillari savdo-sotiq bitimlarini tuzishda qatnashgan. Hafta davomida to'plangan charchoq va zo'riqishdan forig' bo'lishda ham bozor muhim ahamiyat kasb etgan. Turli musobaqalar va teatrlashtirilgan tomoshalar, yaqin kishilar bilan muloqot qilishdan iborat bo'lgan madaniy dam olish keyingi bozorgacha ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lish imkonini bergan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bozor — savdo-sotiq qilinadigan muayyan joy, maydon. Har bir mamlakat bozorlarining me'morchiligi va qurilishi iqlim sharoiti, iqtisodi, geografik o'rni va savdo sohasidagi an'analar bilan bog'liq bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan

shaharlarning ravnaq topishida savdo-sotiq va unga xizmat qiladigan bozorlar hamda karvon yo'llari muhim ahamiyatga ega. Katta savdo maydonchasi bo'lgan shaharning rivojlanishida uning geografik joylashuvi muhim ahamiyat kasb etgan. Katta bozorlari bo'lgan shaharlarning aksariyati yirik karvon yo'llarida joylashgan edi. Katta bozorga ega shaharning shakllanishida ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ko'plab odamlarning mavjudligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum rol o'ynagan. Yirik bozorga ega shaharning shakllanishida ishlab chiqarish, xo'jalik bilan band aholi sonining ko'pligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omil muayyan o'rin egallagan.

Surxon vohasida bozorlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tog' va tog' oldi hududlari aholisining tekisliklarda yashaydigan aholi bilan savdo aloqalari olib borishi va bir-biriga kerakli mahsulotlar uchun ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil qilingan bozorlar. Bularga Xatak, Poshxurd, Zarabog', Ko'hitang, Boysun, Darband va Xo'jayipok bozorlarini misol keltirishimiz mumkin. Surxon vohasi aholisining katta qismi tog' va tog' oldi hududlarida istiqomat qilib, ular asosan bog'dorchilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik hamda uy hunarmandchiligi bilan mashg'ul bo'lganlar. Shu sababli tog'da istiqomat qilayotgan aholi o'zida yetishtirilgan mahsulotlarni sotish va ayribosh qilish uchun tekisliklarda istiqomat qilayotgan aholi bilan savdo-sotiq qilishgan. Denov bekligining Denov, Yurchi, Dashnobod va Sariosiyoda katta bozorlari bo'lib, bu bozorlarga nafaqat beklkning turli amloliklaridan, balki qo'shni beklklardan ham savdogarlar, dehqonlar va chorvadorlar kelib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar. Beklikdagi eng katta bozorlardan biri Denov bozori bo'lib, unda 100 ga yaqin kichik do'konchalar bo'lib, do'konlarda turli xil mayda-chuyda narsalar sotilgan va haftaning dushanba, payshanba kunlari faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, mahsulotlar saqlaydigan uchta katta ombor ham aynan

bozor ichida joylashgan[1;85]. Yurchi va Denov bozorlari Buxoro, Qarshi bozorlaridan don mahsulotlari sotishda va katta miqdorda zaxiraga egaligiga ko'ra keyingi o'rinda turgan[2;19]. Beklikning Hovuz, Sina, Vaxshivor kabi tog' qishloqlari aholisi o'zlarini yetishtirgan uzumlarni mahalliy yaqin bozorlarga chiqargani holda, mayizni Qorliq, Denov, Yurchi bozorlariga ham olib borishgan va o'z navbatida u yerlardan o'zlariga kerakli mahsulotlarni xususan Boysundan qishloq xo'jaligi va uy-ro'zg'or uchun zarur mehnat qurollarini xarid qilishgan[3;120]. Bundan tashqari, tog' xalqi aholisi paxta tolasini sotib olishga alohida e'tibor berganlar. Undan uzoq qish kunlari tog'lik ayollar paxta yigirib uni kalavalaganlar, ma'lum qismini mahalliy bo'zchilar to'qigan bo'lsalar katta qismi bozorlarga chiqarilgan. Kalavaning yarim funti 50 tiyin turgan[13]. Tog' xalqi aholisi masalan, Sangardak va Changloq aholisi bog'larida yetishtirilgan yong'oq, olma, nok kabi ho'l mevalarni Sharqiy Buxorodagi eng katta paxta tolasini va kalava iplari sotiladigan Sherobod bozoriga olib kelib sotganlar. Bu bozordan paxtaning "ko'k yong'oq" navini xarid qilganlar.

2. Tabiiy-iqlim sharoiti (qulay landshaft, daryo yoki kanal yaqinida joylashganligi) tufayli tashkil etilgan bozorlar. Bunga Termiz va Ko'hitang bozorlarini misol keltirishimiz mumkin. Termiz bozori Amudaryo qirg'og'ida joylashgani va bu hududda qulay kechuvlarning bo'lishi tufayli ham bu yerda savdo-sotiq yuksaldi. Ko'hitang bozori paydo bo'lishi va savdo ishlari yuksalishida tuz tog'ining ham ahamiyati yuqori.

3. Shahar yaqinidan o'tadigan karvon yo'li ham bozorlar vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada shaharlar va mamlakatlarni biri-biri bilan bog'lab turuvchi savdo yo'llarining muhimligini e'tirof etgan holda, savdo karvon yo'llarining o'z ahamiyatiga ko'ra ikkiga bo'linganligini ko'ramiz. Birinchisi, xalqaro miqyosdagi tashqi savdo karvon yo'llari, ikkinchisi, mamlakat shahar va qishloqlarini bog'lab turadigan ichki savdo karvon yo'llari[4;150-151]. Vohaning G'arbiy Buxoro beklklari bilan bo'ladigan

savdo aloqalarida Boysun, Darband, Sherobod va Termiz shaharlari muhim ahamiyat kasb etgan. Surxon vohasining qo'shni bekliliklar va G'arbiy Buxoro bekliliklarining Afg'oniston, Hindiston bilan olib boradigan savdo aloqalarida eng qulay yo'l Hisor tog' tizmalari orqali amalga oshirilgan. Xususan janubi-g'arbiy qismidan o'tuvchi yo'llar, asosan Boysun va Darband shaharlari orqali o'tgan. Qadimdan shakllanib kelgan bu yo'l o'rganilayotgan davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar (xo'jalik munosabatlarning rivojlanganligi). Boysun vohaning hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan bekliliklaridan biri hisoblangan. Boysun hunarmandlari to'qigan ipak va yarim ipak olacha matolari bilan mashhur bo'lib (alachadan qavilgan erkaklar choponi, bozorda 5 so'ngacha baholangan)[14], ular bu matolarni mahalliy bozorlardan tashqari tashqi hududlarda ham sotishgan, bundan tashqari maxsus kashta, do'ppi, hunarmandchilik buyumlari sotiladigan rastalari bo'lgan[5;58]. Temirchi ustalari tomonidan qishloq xo'jalik, chorvachilik va uy-ro'zg'or uchun tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari qo'shni beklilik bozorlarida ham o'z xaridorini topa olgan.

5. Bozorlarning ma'lum bir maxsus vazifalarni o'tashi. Sharq davlatlari bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalariga e'tiborning oshib borishi, bunda Sherobod, Termiz, Pattakesar bozorlarining ombor vazifasini o'tashlari, savdo-sotiqning jadal o'sishiga olib keldi. Bu esa bozorlarning dunyoning turli mamlakatlardan, xususan Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'lib borishiga imkon berdi. Bundan tashqari mintaqadagi boshqa shaharlar qatori, savdo yo'li ustida joylashgan Termizning Sharq davlatlari xususan, Hindiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida ahamiyati oshib bordi. Hindistondan shol ro'mollarning turli xillari, nil buyog'i (indigo), ziravorlar: murch, dolchin, zircho'pa, oziq-ovqat mahsulotlari-shakar, novvot; aqiq, serdolik; Peshavordan lungi, guruch, charmdan tayyorlangan tarozilar,

Xitoydan tukachoy, oqquyruq (ko'k choy), chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar keltirilganligi manbalarda qayd qilib o'tilgan[7;6061].

Mahalliy bozorlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning ixtisoslashganligidadir. Ularning "mol bozor", "don bozor", "o'tin bozor", "paxta bozor" va boshqalar. ixtisoslashganligini nomlanishidan ham bilishimiz mumkin. Masalan, vohaning eng katta mol bozori Denov bekliligining Mirshodi qishlog'ida, don bozori Yurchi va Denovda, paxta bozori Sherobodda bo'lgan. Sherobod bekliligining tog'li Ko'hitang qishlog'idagi bozor haftaning chorshanba va shanba kunlari faoliyat yuritib, bu bozorga Amudaryodan G'uzorgacha bo'lgan yerlardan aholi chorva, qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish va evaziga hunarmandchilik mahsulotlari xarid qilish uchun kelgan[8;91]. E'tiborli tomoni shundaki. aynan bugungi kunda ham bu bozor faoliyat yuritib, asosan chorva va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Arxiv hujjatlariga ko'ra Sherobod bekligidagi Sho'rob mavzeyida ruslar uchun maxsus bozor ochilgan edi[15].

Denov bekliligining Denov, Yurchi, Dashnobod va Sariosiyoda katta bozorlari bo'lib, bu bozorlarga nafaqat beklilikning turli amloliklaridan, balki qo'shni bekliliklardan ham savdogarlar, dehqonlar va chorvadorlar kelib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar. Beklikdagi eng katta bozorlardan biri Denov bozori bo'lib, unda 100 ga yaqin kichik do'konchalar bo'lib, do'konlarda turli xil mayda-chuyda narsalar sotilgan va haftaning dushanba, payshanba kunlari faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, mahsulotlar saqlaydigan uchta katta ombor ham aynan bozor ichida joylashgan[1;85]. Yurchi va Denov bozorlari Buxoro, Qarshi bozorlaridan don mahsulotlari sotishda va katta miqdorda zaxiraga egaligiga ko'ra keyingi o'rinda turgan[2;19]. Beklikning Hovuz, Sina, Vaxshivor kabi tog' qishloqlari aholisi o'zlari yetishtirgan uzumlarni mahalliy yaqin bozorlarga chiqargani holda. mayizni Qorliq, Denov, Yurchi bozorlariga ham olib borishgan va o'z navbatida u yerlardan

o'zlariga kerakli mahsulotlarni xususan Boysundan qishloq xo'jaligi va uy-ro'zg'or uchun zarur mehnat qurollarini xarid qilishgan[3;120]. Bundan tashqari, tog' xalqi aholisi paxta tolasini sotib olishga alohida e'tibor berganlar. Undan uzoq qish kunlari tog'lik ayollar paxta yigirib uni kalavalaganlar, ma'lum qismini mahalliy bo'zchilar to'qigan bo'lsalar katta qismi bozorlarga chiqarilgan. Kalavaning yarim funti 50 tiyin turgan[13]. Tog' xalqi aholisi masalan, Sangardak va Changloq aholisi bog'larida yetishtirilgan yong'oq, olma, nok kabi ho'l mevalarni Sharqiy Buxorodagi eng katta paxta tolasini va kalava iplari sotiladigan Sherobod bozoriga olib kelib sotganlar. Bu bozordan paxtaning "ko'k yong'oq" navini xarid qilganlar. Shuningdek, Rossiya bozorlarida paxta kalavasiga talabning kattaligi sababli, aholining katta qismi paxta kalavasini tayyorlashga asosiy e'tibor qaratgan. 1868-1869 yillarda Buxoro amirligidan 5500 pud (43.000 so'mlik) kalava chiqarilib, Nijegorod yarmarkasida sotilgan[16]. Denov bekligi savdogarlari Sherobod bekligiga quyidagi yo'nalishlar orqali borishgan: Kaptarxona–Po'stundara–Mirshodi, Tangimush–Bandixon, Karmak–Gilambob–Qiziriq dala orqali Sherobodga chiqilgan. Sangardakliklar o'rik va olmani Yurchi va Pattakesar bozorlarida ham sotishgan. Yurchi bozorlaridan sopol idishlar, Pattakesardan esa fabrika matolarini xarid qilishgan. Denovdan yo'lga chiqqan savdogar Pattakesargacha quyidagi qishloqlar orqali o'tgan. Denovdan Olatemirgacha 23 km. bo'lib, u boshidan oxirigacha qumli-tuproqli, 4-6 km.larida oddiy uslubda qurilgan ko'prik orqali o'tilgan. 14-17-22 km.larida soyliklar bo'lib, ular qor eruvi paytida to'lib oqqan, boshqa paytlarda aravalar bemalol o'tishi mumkin bo'lgan. Olatemirdan Qumqo'rg'ongacha 35,5 km, Qumqo'rg'ondan Arpapoyagacha 17 km, Arpapoyadan Jarqo'rg'ongacha 22 km. bo'lib, bu yo'llar Surxon daryosi yoqalab o'tgan, qumli-tuproqli Arpapoya–Jarqo'rg'on yo'li 4 km.da ikkiga bo'linib, biri Surxon daryosi yaqinidagi tepalik bo'ylab, ikkinchisi tekislik bo'ylab o'tib, Oqqo'rg'on qishlog'iga kelib

birlashgan. Jarqo'rg'ondan–Solihobodgacha 27,5 km., Solihoboddan–Pattakesargacha 9 km. bo'lib, yuk tashish va aravalar yurishi uchun qulay bo'lgan[9;394-398].

Boysun bekligidagi eng yirik bozorlar Boysun, Darband va Xo'jayipok bozorlari bo'lgan. Boysun vohaning hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan beklklaridan biri hisoblangan. Boysun hunarmandlari to'qigan ipak va yarim ipak olacha matolari bilan mashhur bo'lib (alachadan qavilgan erkaklar choponi, bozorda 5 so'mgacha baholangan)[14], ular bu matolarni mahalliy bozorlardan tashqari tashqi hududlarda ham sotishgan, bundan tashqari maxsus kashta, do'ppi, hunarmandchilik buyumlari sotiladigan rastalari bo'lgan[5;58]. Temirchi ustalari tomonidan qishloq xo'jalik, chorvachilik va uy-ro'zg'or uchun tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari qo'shni beklk bozorlarida ham o'z xaridorini topa olgan. Boysun hunarmandchiligining muhim tarmoqlaridan biri qandolatchilikdir. Qandolatchilar tomonidan tayyorlangan holvani Kichik O'rtadaryo va hatto Ko'hitangdaryo bo'ylaridagi qishloq va ovullarga olib borib sotishgan. Ko'hitangda holvani paxtaga almashishgan[3;120]. Boysun tog' qishloq aholisi yetishtirgan uzum, o'rik, olma, nok mahsulotlarini yoz oylarida chorva mollarini haydab kelgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga sotganlar. Ular bog'dorchilik mahsulotlarini qayerda paxta arzon bo'lsa o'sha yerga borib sotishga harakat qilganlar. Sherobod, Ko'hitang, Denov bozorlari ular uchun ma'qul hisoblangan. Boysun bekligi bilan Sherobod bekligi o'rtasida harakatlanadigan karvon yo'li nafaqat ichki savdoda balki tashqi savdoda ham muhim o'rin tutgan. Bekorga bu yo'lni katta karvon yo'li deb atashmagan[1;80]. Sherobod– Boysun karvon yo'li tog' bag'irlab o'tgan bo'lsa–da, keskin ko'tarilishlar yoki pastga tushishlar yo'q. Sheroboddan Laylogon qishlog'igacha 17 km. bo'lib, bu yo'l Sherobod daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab ketgan. Dastlab Nondahana darasi boshlanib, undan so'ng Poshxo'rt, Xo'jaulkan, G'urjak, Kallamozor

qishloqlaridan o'tib Laylogon qishlog'iga chiqiladi. Laylogondan–Gazagacha 22 km. bo'lib, Laylogon qishlog'idan so'ng Egarchi, Shodiboy qishloqlari keladi, undan keyin Chilonzor, Qurusoy, Tomchi, Kamarsuv, Ko'rquduq suv, Toshliqsuv soylarini kesib o'tib Gazak qishlog'iga o'tiladi. Gazak qishlog'idan to Boysun shahrigacha 32 km.ni tashkil qilgan. Uzunazda, Tandasoy, Munchoq soyni kesib o'tib Munchoq qishlog'iga, undan so'ng Sutupa-soyni kesib o'tib Xo'jabulg'on qishlog'iga o'tiladi. Undan so'ng Sherobod daryosidan kechib o'tib. To'danasoy yoqalab 21 km.da Rabot qishlog'idan Darband qishlog'iga, 22 km.da Buloq qishlog'i tomonga boruvchi yo'lni kesib o'tadi. 29 km.da uncha katta bo'lmagan dovonga ko'tarilib Boysun shahriga kirib boriladi[10;405-406]. Boysun bekligi aholisi va savdogarlari Denovga quyidagi yo'llar orqali borishgan: birinchi yo'l tog' yoqalab. mahalliy sharoit bilan taqqoslaganda to'g'ri va qulay yo'l bo'lib, Qizil gazli, Kampir, Ankadut, Dashtig'oz va Choshtepa orqali o'tgan. Oxirgi qishloqda yo'l past-balandliklardan iborat bo'lib, Bo'ritaxta tizmasiga olib va Choshtepa qishlog'ida Boysunga olib boruvchi yo'lga Darband yo'li qo'shilgan; ikkinchi yo'l Boysuntog' massiviga kiruvchi Qayroqbel tog' oldi bo'ylab, Boysundan Denovga o'tgan. Umuman olganda Boysun bekligining Sherobod va Denov beklilari bilan olib boriladigan savdo aloqalari o'nlab qishloq yo'llari orqali o'tgan. O'z-o'zidan bu qishloqlar aholisi ham bekliliklar o'rtasidagi savdo aloqalarida faol ishtirok etgan. Boysun bekligining Darband amlokdorligi kosib va savdogarlari Buxoro amiriga ariza bilan murojaat qilib, xarob holga kelgan bozorni qayta qurish va ta'mirlashga ruxsat so'raydilar. Darband bozori obodlashib, 40 ta do'kon qurilib, har haftaning chorshanba va shanba kunlari bozor deb e'lon qilingan va tushgan daromad Buxoro amiri xazinasiga berilgan[17]. Boysun bozori haftaning dushanba va payshanba kunlari bo'lgan. Rus tadqiqotchilari to'plagan ma'lumotlarga qaraganda g'alla mahsulotlari pishib yetilganidan so'ng uni quyidagi narxlarda

xarid qilish mumkin bo'lgan: tiramoyi (kuzgi) 250 botmon bug'doyning har botmonini 3 rubl 20 kopeekdan 4 rublgacha; lalmi 250 botmon bug'doyning har botmonini 3 rubl 76 kopeekdan 4 rubl 70 kopeekgacha; tariqni 2 rubl 80 kopeekdan 3 rubl 29 kopeekgacha; 5000 bog'gacha bedani har 100 bog'ini 3 rubl 50 kopeekdan 4 rubl 11 kopeekgacha; 800 pudgacha somonni har pudini 20 kopeekdan – 23 kopeekgacha; 50 eshak o'tin yoki 200 pud o'tindan, bir eshakka ortilgan o'tin (4 pud) 30 kopeekdan 35 kopeekgacha bo'lgan narxlarda sotilgan. Sharqiy Buxoro beklilari Qorategin va Darvozda sigir 10-15 rubl, ho'kiz 10-30 rubl, ot 20-40 rubl[11;457] bo'lgan bir paytda, Boysun bekliligida 5 yoshli sigir 16 (18 rubl 80 kopeek) rubldan 20 (23 rubl 50 kopeekgacha) rublgacha; qo'ylar semizligiga qarab 4 (4 rubl 70 kopeekdan) rubldan 8 (9 rubl 40kopeekgacha) rublgacha; ot 26 (30 rubl 55 kopeekdan) rubldan 40 (47 rublgacha) rublgacha narxlarda sotib olish mumkin bo'lgan. Xaridorlarning talabi va ehtiyojiga qarab oy davomida 50 sigir, 500 qo'y, 20 ot sotish imkoni bo'lgan. Bundan tashqari savdogarlar va boshqa hojatbarorlarga 50 ta tuya kunlik kira haqi 80 kopeekdan – 94 kopeekgacha, 100 ta eshak kira haqi 40 kopeekdan – 47 kopeekgacha narxlarda yollash mumkin bo'lgan[12;28]. Boysun bekligining har bir amlokdorligida mahalliy ahamiyatga ega bozorlar tashkil etilgan. Masalan, Yangiariq mavzesi Boysun bekligidan ancha uzoq, Termiz va Jarqo'rg'on hududlariga yaqin yerda joylashgan bo'lib, bu yerda 500 xonadon istiqomat qilgan, bu joyda bozor tashkil etish choralari ko'rilgan[18].

Vohadagi yirik va gavjum bozorlar Sherobod bekligi bozorlari hisoblangan. Sherobod bozoriga Buxoro va Balxdan qo'y va paxta sotib olishga kelishgan. Paxta va qo'ylar G'uzor yo'li orqali Qarshiga undan Buxoroga jo'natilgan[6;25]. Ayniqsa beklilikning katta qismida rus armiyasi va fuqarolarining istiqomat qilishi hamda Sharq davlatlari bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalariga e'tiborning oshib borishi, bunda Sherobod, Termiz, Pattakesar bozorlarining ombor vazifasini o'tashlari, savdo-sotiqning jadal o'sishiga olib keldi. Bu esa bozorlarning

dunyoning turli mamlakatlardan, xususan Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'lib borishiga imkon berdi. Bundan tashqari mintaqadagi boshqa shaharlar qatori, savdo yo'li ustida joylashgan Termizning Sharq davlatlari xususan, Hindiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida ahamiyati oshib bordi. Hindistondan shol ro'mollarning turli xillari, nil buyog'i (indigo), ziravorlar: murch, dolchin, zircho'pa; oziq-ovqat mahsulotlari-shakar, novvot; aqiq, serdolik; Peshavordan lungi, guruch, charmdan tayyorlangan tarozilar, Xitoydan tukachoy, oqquyruq (ko'k choy), chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar keltirilganligi manbalarda qayd qilib o'tilgan[7;60-61]. Beklikda uning amlokdorliklari markazlarida Xatak, Poshxo'rd, Zarabog', Ko'hitang, Jarqo'rg'on, Kakaydi va Xo'jamulkida bozorlar bo'lgan. Pattakesar bozori ancha gavjum bozor bo'lib, bu yerda Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolarni ancha qulay narxda sotib olish imkoni bo'lgan. Beklik markazi sanalmish Sherobod shahri don mahsulotlari va paxta sotishda eng katta bozor sanalgan. Bu bozorga vohada yetishtirilgan paxtadan

tashqari, Kelif bekligidan sotish uchun paxta aynan shu bozorga olib kelingan. O'z navbatida Ko'hitangdan tuz olib ketilgan[6;37].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bozorlar nafaqat shaharlardagi, balki uning atrofidagi iqtisodiy hayotning rivojlanishiga ham ijodiy turtki bo'lgan. Shahar atrofi va qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar paxta, zig'ir, galla, sholi, tamaki, chorvachilik mahsulotlari va boshqa ko'pgina boshqa mahsulot turlariga shaharlarda talab katta bo'lgan. Bu mahsulotlar shahar mahsulotlarning ayrimlari shahar hunarmandlari uchun xom-ashyo hisoblangan. Bu esa ko'plab hunar turlarining, xususan, qishloq ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishiga samarali tasir ko'rsatgan. Shu tariqa, shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi-hunarmandchilik bilan qishloqlar o'rtasida vujudga kelgan o'zaro aloqadorlik bir tomondan, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyotni, ikkinchi tomondan esa shahar xo'jaligini shu jumladan shahar bozorlarining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Петров. Рекогносцировка Бухарских владений. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. XX1. – СПб., 1888. – С. 80, 85.
2. Полк. Галкин. Краткий военно-статистический очерк в Бухарском ханстве и в южной части Самаркандской области. – С. 19.
3. Кармышева Б. Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией. – С. 120.
4. Холиқов З. Э. Термиз ва Чағониён сўнги ўрта асрларда. Тарих фан. ном. дисс. – Самарқанд: ЎзФА АИ, 2001. – Б. 150-151.
5. Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар (XIXаср охири – XXаср бошлари). – Тошкент: Yangi nashr, 2011. – Б. 58.
6. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и северный Афганистан. – С. 25, 37.
7. Агзамова Г.А. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик. – Б. 60-61.
8. Маев Н. Рекогносцировка горных путей по Бухарскому ханству// Известия ИРГО. – СПб., 1879. Т. ХУ. – С. 91.
9. Поруч. Караульщикова. Маршрут от г. Денау до Патта-Гиссара. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – С. 394-398.

10. Кап. Васильев. Маршрутное описание дороги от г. Ширъабада до г. Байсуна 1893 г. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – СПб., 1894. – С. 405-406.
11. Арандоренко Г. А. Досуги в Туркестане. – С. 457.
12. Кап. Гинтылло. Сведения по интендантской части, собранные в Бухаре // Сборник геогр. топог. и статист. мат. по Азии. Вып. XXI. – СПб., 1886. – С. 28.
13. O'zR MA, 596-jamg'arma, 1-yozuv, 3-ish, 11-varaq.
14. O'zR MA, 596-jamg'arma, 1-yozuv, 3-ish, 40-varaq.
15. O'zR MA, I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1012-ish, 2, 7-varaq.
16. O'zR MA, R-53-jamg'arma, 1-yozuv, 20-ish, 31-32 varaq.
17. O'zR MA, 126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1011-ish, 17-varaq.
18. O'zR MA, 126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1011-ish, 9-varaq.

SURXON-SHEROBOD VOHASI AHOLISINING DAFN MAROSIMLARIDAGI ETNIK JIHATLAR

Bo'riyev Ravshan Rustamovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch doktoranti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0004-0397-4118>

Annotatsiya: Ma'lumki, har bir xalqni boshqa millatlardan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri uning marosimlaridir. Marosim insonning hayotiy ehtiyojlari, ya'ni moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan ijtimoiy hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbiridir.

Kalit so'zlar: motam, dafn bilan bog'liq marosimlar, ta'ziya bilan bog'liq marosimlar, janoza, "mayyit", kafan, yettisi, qirqi.

Аннотация: Известно, что одним из важных этнографических признаков каждой нации из других стран являются его церемонии. Церемония — это социальные потребности, решаемые потребностями человеческой жизни, то есть спросом и потребностями материальной и моральной жизни. Любая церемония происходит и проживает на уровне социально-экономического, политического и культурного развития этого народа в определенном историческом развитии. Другими словами, церемония — это жизненное событие с общими символическими мерами, принятыми символическими действиями.

Ключевые слова: траур, церемонии, связанные с весельем, церемониями, похоронами, «труп», плащаница, семь, сыпь.

Annotation: It is known that one of the important ethnographic signs of each nation from other nations is its ceremonies. The

ceremony is a social needs addressed by human life needs, that is, the demand and need of material and moral life. Any ceremony occurs and lives through the level of socio-economic, political and cultural development of this people in a certain historical development. In other words, the ceremony is a life event with general symbolic measures taken by the symbolic actions.

Keywords: mourning, ceremonies associated with fun, the ceremonies, funeral, "corpse", shroud, seven, rash.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asr oxiri — XX asr boshlarida o'rganilayotgan hudud aholisining ijtimoiy, oilaviy-maishiy turmush-tarzida dafn va motam marosimlari bilan bog'liq rasm-rusumlar ham muhim o'rin egallab kelgan. Ma'lumki, xalqimiz turmush tarzida dafn va xotirlash marosimlarini o'tkazish turli mintaqalarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Surxon-Sherobod vohasi aholisining dafn va xotirlash marosimlarini boshqa marosimlar bilan qiyosiy o'rganish ushbu marosimlarning mazmun-mohiyatiga boshqacha nazar tashlash imkonini beradi.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Motam — inson vafoti munosabati bilan o'tkaziladigan mungli marosimdir. Motam marosimlari juda ko'p rasm-rusum, odat va kichik marosimlar majmuidan tashkil topadi. Motam marosimlaridagi marosimiy xarakterdagi rasm-rusum, tabular, urf-odatlar, ularni o'tkazish tarzi respublikamizning har bir hududi uchun o'ziga xos ko'rinishga ega[1].

Surxon-Sherobod vohasida dafn va ta'ziya marosimlarini o'rganar ekanmiz, uni shartli ravishda 3 qismga bo'lib tavsiflashni lozim topdik: 1) Kishi vafot etgunga qadar

bajariladigan rasm-rusumlar; 2) Dafn bilan bog'liq marosimlar (vafot etganda bajariladigan marosimlar yoki tartib qoidalar); 3) Ta'ziya bilan bog'liq marosimlar.

Agar inson keksa yoshda bo'lib, o'limi yaqinligi aniq bo'lsa mulla chaqirilib "yosin tushirilgan", ya'ni "Qur'oni karim"dan "Yosin" surasi o'qilgan. Kishi vafotidan so'ng uning tanasi tartibga solib qo'yilgan: tanasi qotmasidan oldin qo'l va oyoqlarini to'g'rilab ikkita katta bosh barmog'i (boshmoldog'i)ni bir-biriga qo'shib bog'lashgan, ko'zlarini yumishgan, iyagini bog'lashgan, keyin esa ko'ylagining oldi va orqasidan kesib yechib olishgan. Marhumni, ya'ni o'lgan kishini mahalliy aholi "murda", "mayyit" deyishgan. Marhum ayol kishi bo'lsa, sochlarini tarqatib ikki qo'lini yon tomonga yotqizishgan, barcha taqinchoqlari olib qo'yilgan. Marhum yengilgina suvga yuvintirilgan ("mahram suvga olish"), toza matoning (ko'pincha ko'rpacha) ustiga yotqizilgan. Marhumning jasadi uy(o'tov)ning kiraverishida o'ng tomonga boshini shimolga, oyog'ini eshikka ro'baru qilib yotqizilib, ustiga qimmatbaho matolar yopilgan[5;115]. Qo'ng'irotlarda hozir ham qariyalar vafot etganda albatta "o'tov" tikishib marhumni o'tovdan chiqarishadi[9]. Qo'ng'irot qariyalari odat bo'yicha yoshi o'tavergach, "o'tov" (qora uy) tayyorlab qo'yishni buyurishadi. Sherobod tumanining Kampirtepa qishlog'idagi ko'pgina xonadonlarda taxlab, yig'ishtirib qo'yilgan "qora uylar"ning uskunalarini ko'rdik. Uy egalari "Qora uylar"ni hozir ham ishlatasizlarmi" — degan savolimizga qisqa qilishib, "Uyda qarri-qurri bor", — deb yuqorida aytganlarimizga ishora qilishdi[10].

Ta'ziyaga kelgan har bir kishi marhumning yaqinlariga "bandachilik" so'zini aytishib, o'z hamdardligini izhor etishgan. Agar marhum kechqurun o'lgan bo'lsa, kechasi davomida va ertalab "tovush chiqarilgan". O'g'il-qizlari "otam", nevaralari "bobom", "momom", "enam", yaqinlari "jigarim", "bovirim" deb yig'lashgan. Marhumning qarindosh-urug'lari marhumning fazilatlarini aytib yig'lashgan, shu tariqa mayyitga o'z hurmatlarini bajo keltirishgan. Bu marsiyalar "yig'i", "yo'qlov", ba'zi qishloqlarda "bo'zlov" deyilib, marsiya

aytuvchilar "yig'ichi", "go'yanda" deb yuritilgan[11].

Agar marhum tushdan keyin o'lsa, og'aynilari uzoqda bo'lsa, ertasiga ko'mishgan, jasadni bir kecha uyda saqlashgan, ya'ni "mehmon qilishgan". Iloji boricha, mayyitni kelgusi kunga qoldirilmasligiga harakat qilingan, chunki "o'likning og'irligi tushishi mumkin" deyilgan. Ta'ziyaga kishilarni aytish, uzoq-yaqinga xabarchilar yuborish, qabr qazuvchilar tayinlash va boshqa ishlar rejalashtirilgan.

Agar qizaloq vafot etsa 9, o'g'il bola bo'lsa 12 yoshgacha janoza o'qilmagan, ya'ni "janoza buyurmagan", o'z joniga qasd qilganlarga ham "janoza buyurmagan"[5;115]. O'troq yashaydigan aholida qabr qazish uchun maxsus kishilar bo'lib, ular "go'rkov" deb yuritilgan, yarim o'troq o'zbek urug'larida esa qabrni yaqin qarindoshlar qazishgan[12].

Shuningdek, murdani yuvish uchun o'troq aholida maxsus yuvuvchi ("juvg'uvchi") "murdashuy" -"g'assol"lar bo'lgan bo'lsa, yarim o'troq aholida "suyakni begonaga ushlatmaslik" aqidasiiga asosan eng yaqin qarindoshlaridan marhum vasiyat qilgan uch kishi yuvgan. Bu holat zardo'shtiylik bilan bog'liq urf hisoblanadi. Zardo'shtiylik marosimlariga muvofiq o'limdan so'ng uch kechayu-kunduz o'likning ruhi narigi dunyoga yetib borguncha, maxsus xonaga qo'yilib, pok narsalardan ma'lum masofa uzoqlikda saqlangan. Marhumlarga o'lik xizmatchilari – "nasasalar"gina (nasu – bu o'lim ifodasi, o'limni shimoldan uchib kelgan pashsha olib keladi, deb faraz qilingan) shug'ullanganlar[3;101]. Murdalarning suyaklari "naus" deb ataluvchi maxsus joyda saqlangan. Yilda ikki marotaba, ya'ni bahorgi Navro'z va kuzgi Mehrjon bayramlarida odamlar ota-bobolarining arvohlariga atab, is chiqarib, sadaqa va qurbonliklar qilishgan[4;46].

Surxon-Sherobod vohasida marhumni bir marta yuvishadi[13], lekin Toshkent viloyatining ba'zi mahallalarida o'lgan kishini ikki marta yuvish odati ham mavjud, qirg'izlarda ham marhumni ikki marta

yuvadilar[6;71]. Bunda kishi jon bergan zahoti dastlab marhumni yaqin qarindoshlari yuvadilar. Bu "mahram suviga olish" deb atalib, begona shaxslar qatnashadigan ikkinchi marta yuvish paytida marhumning tanasi toza bo'lishi uchun qilinadi. Yuvish bilan bir vaqtda, ba'zan yuvish amalga oshirilgandan so'ng gunohlardan forig' qilish (fidiya, davra) marosimi o'tkaziladi, ya'ni faqat tanagina emas, balki ruh ham tozalanadi[7;127-128]. Marhumning tanasini albatta toq marta – 3 yoki 5 marotaba yuvadilar. Ko'rinib turibdiki, dafn marosimlarida hamma narsa "toq" son bilan bog'liq bo'ladi, yuvg'uchilarning soni, mayyitni, yuvish, kafanning qavati (ayollarga 5, erkaklarga 3 qavat), ma'rakalarning o'tkazilish kuni ham toqdir. Buning sababi, "marhumlar bu dunyodan yolg'iz o'tdilar, ketidan boshqa o'lim bo'lmasin, toq ketsin" degan niyat bilan amalga oshirilgan[14]. Yuvg'uchilik uchun haq olish-olmaslik borasida qat'iy tartib bo'lmasa-da, yuvg'uchilarga marhumning kiyim-boshlaridan berishgan. Kiyim-bosh aslida animistik tasavvurlarga asoslangan holda, agar bu dunyoda uning kiyimlari kiyilsa, narigi dunyoda uning o'zi kiygandek bo'lishiga ishonch asosidagi aqidaga amal qilinib beriladi. Sherobod, Boysun tumanlarida mazkur sarpolar "o'lim toq bo'lsin" deb toq kiyim-boshlar tarqatiladi[15]. Murda suvga olinishi bilan mulla "davrani" boshlagan. Davraning asosiy ma'nosi shundan iboratki, oila a'zolaridan biri mullaga qo'y topshiradi, mulla uchinchi bir kishini chaqirib o'lgan odamning gunohini bir yilga qadar ko'tarib yurishni qabul qildiradi. Davra va murdani yuvish tamom bo'lganidan keyin mulla yoki g'assol "kafan"ni bichgan. O'rta Osiyoning turli xalqlarida kafanning shakli turlicha bo'lsa-da, kafan odatdagi ma'nodagi kiyim emas, balki chaqaloqning katta yo'rgagini eslatadi[8;133]. Erkaklar kafani uch bo'lakdan iborat.

1. Lifofa (ustidagi choyshab) – mayyitning boshidan oyog'igacha yopib turadigan va har to'rta tarafidan 40 sm.dan uzun bo'lgan gazlama. Mazkur choyshab mayyitni o'rash va keyin ikki uchidan bog'lash uchun xizmat

qiladi. 2. Izar (ishton kindik ustidan to tizza pastiga qadar yopish uchun) – mayyitni kafanlash uchun gazlama bo'lagi. 3. Qamis (uzunligi mayyitning tizzasigacha yetadigan qadimgi ko'ylak). Biroq, u tikilmaydi. Erkak mayyitning avratini yopib turishi kerak. Ayollar uchun kafan besh bo'lakdan iborat bo'ladi. Xuddi erkaklar uchun bo'lgan 3 bo'lak va unga qo'shimcha. 4. Ximor (ro'mol) – mayyitning boshini va sochlarini yopuvchi ro'mol. Uzunligi 1,5 metr, eni 60 sm. 5. Xirfa – mayyit ko'ragini yopuvchi gazlama bo'lagi. Uzunligi 1,5 metr, eni 60 sm.

Surxon-Sherobod vohasida norasida go'daklar va o'lik tug'ilgan bolalar uchun lifofagina kifoya bo'lib, 8 va 9 yoshga yetgan bolalarni imkoniyatiga qarab, katta kishilardek yoki norasida go'daklardek kafanlasa bo'lavergan. Imkoniyat bo'lgan hollarda marhumni alohida uyga yotqizib qo'yishgan[2;7]. Bu harakatlar jasadning notozaligi yoki o'lik oldidagi qo'rquv bilan izohlanadi[7;131-135,132].

Voha aholisi orasida erkaklarni kafanlash tartibi quyidagicha bo'lgan: marhum kafanlanishidan oldin lifofa taxtaga yotqizilib, unga xushbo'y mushklar sepilgan. Lifofa – mayyitning boshidan oyog'igacha to'rt tarafi 40 sm. ortiqcha mato qoldirilgan kattalikdagi surp. Ortiqcha mato qismlari kafanlikni bog'lash va ushlab uchun qoldiriladi. Marhum lifofaga yotqizilgach, uning avval ustidan qamis keyin izar yopiladi. Qamis – avratni yopishga mo'ljallangan kafanlik mato. Izar-kindikdan tizzaning pastigacha uzunlikdagi kafanlik mato (avrat yopish uchun). Qamis (ko'ylak)ning o'rtasida bosh sig'ishi uchun mo'ljallangan teshik bo'lgan. Marhum yotqizilib, boshi qamisdan o'tkazilib kiydiriladi. Izar esa marhumning avval chap tomoni, keyin o'ng tomoniga qistirilib o'raladi.

Shundan so'ng marhumning qo'llari ikki yoniga uzatilib to'g'rilanadi. Xushbo'y hidli mushk sepiladi. "Qur'oni karim"dan oyati karimalar o'qilib, marhum bilan vidolashiladi. So'ngra lifofaning avval chap, keyin o'ng tomonidan boshlab o'raladi va bosh-oyoq tomonlaridan ushlab uchun tutqich shaklida

tugun tugiladi. Mazkur tugunlar yechib tashlanadi. Ayol kishilarning kafanlanishi erkaklarnikidan farqlanadi.

Ayollarni qamisga olishdan avval hirfa qo'yiladi. Hirfa – uzunligi 1,5 metr, eni 60 sm kattalikdagi siynabanddir. Qamis kiygizilib, sochi undan chiqariladi, so'ngra yuzi boshi ostidan himor bilan berkitiladi. Himor (ro'mol) – uzunligi 1,5 metr, eni 60 sm kattalikdagi kafanlik matodir. Ayollarda kafanlik ba'zan toza ipak matodan ham bo'lishi mumkin. Marhum kafanlab bo'lingach, tobutga solinib qabristonga jo'natiladi.

Surxon-Sherobod vohasida yoshi ulug' qariyalar vafot etsa, ya'ni marhumni chiqarishda uning tobutining ustiga yangi, toza matolar, kiyimliklar tashlanadi[16]. Tobutni 4 tomonidan qirq qadamdan ko'tarish savob hisoblanadi. Tobut oldiga tushib yuriladi.

Qabrlarning ham ikki xil ko'rinishi mavjud: 1) Lahad. 2) Yorma. Lahad usulida ayvon va lahad bo'ladi. Ayvon 1,5x2,5 m kattalikda qazilib, undan keyin mayyit sig'adigan o'lchamda "uy (hujra)" qaziladi. Yorma usulida ayvon va uning ichida ochiladigan tokcha mavjud bo'ladi. Ayvon umumiy hisobda mayyitdan har ikki tomondan 0,5 metrdan uzun bo'lishi kerak. Tokchani eni va uzunligi 70 sm bo'ladi[17].

Murda kafanlangach bosh, bel va oyog'idan bog'lab ko'rpa orasiga olib tobutga solingan. Kafan tashqarisidan oq surpdan tayyorlangan belbog' bilan bog'langan va u marhum bilan birgalikda lahadga kiritilgan. Amalda marhum dafn qilingan kuni, ta'ziyaxonada taom tayyorlanmagan, lekin ko'pchilik qishloqlarda marhum keksa kishi bo'lsa yoki qarindosh-urug'lar uzoqdan kelgan bo'lsa jonliq (kichikroq qo'chqor) so'yilib qon chiqarilgan[18].

Marhumni olib chiqishdan oldin erkaklarga bir parchadan enlik mato — "sarandoz", ayollarga qizil matodan "yirtish" berilgan. Murdani uydan chiqarishda oyoq tomoni bilan chiqarishgan, bu uning oxirgi yo'li shu bo'lsin, degan maqsadni bildirgan. Uydan chiqarishda ostona oldida uch marta ko'tarib

yoki tushirib olishgan, ya'ni bu xonadonda boshqa odam o'lmasin, degan ma'noni anglatadi. Mayyit solingan tobut toza yerga, ko'pincha bedapoyaga qo'yilib janoza o'qilgan, janoza o'qilib, tobut yana uch marta yerga qo'yib olingan. Mulla odamlarga "Marhum qanday odam edi?" deb savol bergan, davra ishtirokchilari "Marhum yaxshi odam edi", deb javob berishgan. Mulla marhumning qarzi bor-yo'qligini surishtiradi, qarzi bo'lsa o'g'li, aka-ukalari to'lashini ko'pchilik oldida aytadi[5;115].

Marhum o'z qarindosh-urug'lari ko'miladigan joy-xilxonasiga dafn etilgan. Marhumni qabrga tog'asi qo'yan. Odatda, har bir qishloqning maxsus qabristoni bo'lib, bu qabristonda har bir urug'ning alohida joyi – xilxonasi bo'lgan. Marhum ko'milgandan keyin hamma yana marhum xonadoniga qaytishgan. O'rganilayotgan hududning ba'zi qishloqlarida kishilar qabristondan qaytgach, ayollar, marhumga qarindosh erkaklar yana yig'i qilishgan. Masalan, Panjob, Sayrob, Darband, Inkabod kabi qishloq ayollari yig'i qilganda "Sadr tepishgan", ya'ni o'zlarini urib, aytuvchiga jo'r bo'lib yig'langan. Marhum atrofida yig'i qilganda uning yuzi yopilib, ustiga mato qo'yiladi va o'lim yo'li uzilsin degan ma'noda qaychi qo'yiladi. Qo'shnilar marhumning arvo'higa shom oshi pishirib kelishgan.

Mayyit chiqqan uyga qirq kungacha chiroq yoqib qo'yishgan, juma kunlari "is" chiqarishgan. Imkoniyati borlar qo'y, echki, ho'kiz so'yishgan, kambag'al aholi esa bo'g'irsoq va cho'zma pishirishgan.

Janozadan 3-5 kun o'tgach "ettisi", 17-19 kuni "yigirmasi", 37-39 kuni "qirqi", 9-11 oy o'tgach "yili" o'tkazilgan. Hududning ba'zi aholisi, masalan, tojik-chig'atoylarida "payshanbalik" (bir oy ichida har payshanba oqshomi) o'tkazilib, yigirmalik marosimlarini elga "qora osh" berib o'tkazishadi. Dasturxonga sho'rva, osh bilan birga talqon va holvaytar kabi an'anaviy taomlar ham qo'yiladi. Biroq yarim o'troq aholi yashagan qishloqlarda "yigirmasi" o'tkazilmagan. Shuningdek, dafn marosimlari bilan bog'liq bir qancha atamalar mavjud: "xudoyi" – marhumni eslash uchun qirq va yillik

ma'rakalaridan so'ng beriladigan osh; "jilov" – marhumni eslab yig'lash odati; "juma oshi" – marhumni eslab payshanba kuni oqshomda beriladigan osh. "Is chiqarish" – hayit kunlari taom pishirib, mozor boshiga borib marhumni eslash marosimi. "Ko'k kiyimoq" – yiligacha azador ayollarning azalik kiyimida (oq yoki ko'k rangdagi uyida, taqinchoqlarsiz) yurish tartibi. Qari kishi vafot etsa, "tuproq bosti" deyilib, qon chiqariladi. Marhumning yili o'tgach uni tezroq unutishga harakat qilishgan.

Aholi orasida dafn marosimlari bilan bog'liq bir qator udumlar ham mavjudki, ularning ayrimlarida animistik tasavvurlar va zardushtiylik dini izlarini kuzatish mumkin. Ko'pgina joylarda marhum chiqqan uyda to yettisiga qadar olov yoqib taom tayyorlanmagan, yegulik taomlar esa qo'ni-qo'shnilarnikidan olib chiqilgan. Bunday taomlar "qora osh" deb nomlangan. Ma'lumki zardushtiylar falsafasida o'lim yovuzlik timsoli sanalgan. Inson o'lgach, uning jasadi yovuzlik olamining mulkiga aylanadi, deb tushunilgan. Shu sababli, jasad havoda ochiq qoldirilmagan, suvga tashlanmagan, tuproqqa dafn qilinmagan, olovda kuydirilmagan. Ayniqsa, olov muqaddas sanalgan. Shu bois murda chiqqan xonadonda olov yoqilmagan. Marhum ruhining yashovchanligi, ya'ni animizm bilan bog'liq bir qator udumlar ham mavjud, bunga ko'ra mayyit dafn etilgach,

uning ruhiga atab chiroq yoqilgan. Shuningdek, marhumning ruhini shod qilish yoki esga olish maqsadida is chiqarish odati mavjud bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, marhumning ruhi bu dunyo bilan aloqada bo'lib, umidvor bo'lib turishi sababli marhumlar ruhini shod qilish maqsadida ramazon va qurbon hayitidan oldin is chiqarilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Demak, yuqoridagi fikr-mulohazalarga xulosa qilib aytish mumkinki, Surxon-Sherobod vohasi ning an'anaviy oilaviy-maishiy marosimlari va diniy qadriyatlar ham tadqiq qilinayotgan davrda Respublikamizning boshqa mintaqalaridagi etnik guruhlar bilan mushtarak jihatlariga ega bo'lishi bilan birga ko'plab lokal ko'rinishdagi o'ziga xosliklari bilan ham ajralib turgan. Ayniqsa, sunnat to'yi, nikoh va motam marosimlarida vohaning o'troq aholisi bilan birga yarim o'troq aholisi o'rtasida ma'lum farqli xususiyatlar bo'lgan. Umuman olganda oilaviy turmush bilan bog'liq jarayonlarda turli xalqlarga xos xususiyatlar, milliy mentalitetimiz asoslari birmuncha yorqin bo'lishi bois bu turkumga kiruvchi marosim va urf-odatlar dunyoqarashimiz asoslarini tadqiq qilishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turganligini guvohi bo'ldik.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Насриддинов К. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент, 1996; Хисматуллин А.А., Крюкова В.Ю. Смерть и похоронный обряд в исламе и зорастризме. – Санкт-Петербург. 1997.
2. Холиков Д., Бўриев О. Оилада дафн ва таъзия билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар. — Тошкент.: 2002. –Б.6-10.
3. Маковельский А.О. Авеста. –С.101.
4. Сулаймонов Р., Исхоқов М. Заратуштрининг ватани ва яшаган даврига оид мулоҳазалар // О'zbekiston tarixi. 1999. № 1. –Б.46.
5. Бўриев О. ва б. Ўзбек оиласи тарихидан. –Б.115.
6. Баялиева Т.Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов. – Фрунзе, 1973. – С.71.
7. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов узбеков Хорезма. – М., 1969. –С. 127-128, 131-135, 132.
8. Бабаева Н., Бахтатаршаева Л. Саван / Костюм народов Средней Азии. –М., 1979. –

С. 133;

9. Дала ёзувлари, 2023 йил. Қизирик тумани, Истара қишлоғи.
10. Дала ёзувлари, 2022 йил. Шеробод тумани, Кампиртепа қишлоғи.
11. Дала ёзувлари, 2022 йил. Бойсун тумани, Жарқишлоқ қишлоғи.
12. Дала ёзувлари, 2023 йил. Шеробод тумани, Майдон қишлоғи.
13. Дала ёзувлари, 2024 йил. Шеробод тумани, Зарабоғ қишлоғи.
14. Дала ёзувлари, 2023 йил. Шеробод тумани, Чўянчи қишлоғи.
15. Дала ёзувлари, 2022-2023 йиллар. Шеробод, Бойсун туманлари.
16. Дала ёзувлари, 2022-2024 йиллар. Музработ, Шеробод, Ангор туманлари.
17. Дала ёзувлари, 2021-2023 йиллар. Бойсун, Шеробод, Жарқўрғон туманлари.
18. Дала ёзувлари, 2024 йил. Жарқўрғон тумани, Тортувли қишлоғи.

SURXON VOHASI AHOLISI XALQ O'YINLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI

Normuratov Botir Ravshanovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi

normuratovbotir@gmail.com

UDK: 398.54:796.2-047.44(575.151)

<https://orcid.org/0009-0008-0112-6325>

Annotatsiya: Har bir xalqning o'z milliy o'yinlari mavjud bo'lib, ular xalq an'analari, millatlarning madaniyati va turmushiga xos xususiyatlar zaminida vujudga kelgan. Ularda etnik tarixga borib taqaladigan an'analalar, ijtimoiy munosabatlar, mafkura, e'tiqodning ayrim elementlari, axloqiy estetik me'yorlar aks etadi. Xalq o'yinlari mamlakatning milliy xususiyatlarini, katta yoshli kishilarning fe'l-atvorlarini, odatlarini, mehnat jarayonlarini, jug'rofiy sharoitlarni ifodalaydi. Shuning uchun bugungi kunda xalq o'yinlari tarixini o'rganish orqali axloqiy-estetik, jismoniy, ma'naviy barkamolligini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida hayotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: "miyonadaro", "barg koshanak", "parbozi", "xonadaroyak", "lappakbozi", "tuftaka", "dandon ba qoshiq", "oq so'ngak o'yini", "to'piq".

Аннотация: У каждого народа существуют свои национальные игры, которые созданы на основе национальных традиций, культуры и особенностей быта народов. Они отражают традиции, общественные отношения, идеологию, отдельные элементы веры, этические и эстетические нормы, восходящие к этнической истории. Народные игры отражают национальные особенности страны, характеры, обычаи, трудовые процессы, географические условия взрослых. Вот почему сегодня при изучении истории народных игр одной из актуальных задач остается реализация их как одного из факторов, формирующих нравственно-эстетическое, физическое и духовное совершенство.

Ключевые слова: «миёнадаро», «барг кошанак», «парбози», «хонатораяк», «лаппакбози», «туфтака», «дандон ба

кошик», «оқ сўнғак ўйини», «тўпик».

Abstract: Every nation has its own national games, which were created on the basis of national traditions, culture and life characteristics of nations. They reflect the traditions, social relations, ideology, certain elements of faith, ethical and aesthetic norms that go back to the ethnic history. Folk games represent the national characteristics of the country, the characters, customs, work processes, and geographical conditions of adults. That's why today, by studying the history of folk games, implementing them as one of the factors that shape moral-aesthetic, physical, and spiritual perfection remains one of the urgent tasks.

Key words: "miyonadaro", "barg koshanak", "parbozi", "khonatorayak", "lappakbozi", "tuftaka", "dandon ba qoshiq", "oq songak o'yini", "topiq".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jahon xalqlarining milliy madaniyati bugungi globallashuv va integrasiyalashuv jarayonlarida tobora unifikatsiyalashib, umuminsoniy xarakterga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayon BTM tashkiloti tomonidan madaniy merosni o'rganishda xalq o'yinlarini kengroq tahlil etish hamda xalqaro miqyosiga olib chiqish bo'yicha tadbirlari an'anaviy milliy madaniyatining rang-barang etnik va lokal xususiyatlarini o'zida aks ettirgan xalq o'yinlarini ilmiy jihatdan o'rganish va insoniyat sivilizatsiyasining madaniy merosi sifatida saqlab qolish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mustaqillik yillarida olib borilgan

tadqiqotlarda tom ma'noda milliy qadriyatlarni, an'analarni tiklash, jahondagi turli ilmiy maktablarning ilg'or tajribalaridan foydalanib, muammoga yangicha ilmiy-nazariy jihatdan yondashish kuzatiladi. Shuningdek, xalq o'yinlari masalalari pedagogik va psixologik aspektida M.Jo'rayev, T.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev, R.Yo'ldoshe-va, Habibulla G'ofur, F.Nasriddinov, A.Qosimov, M.Daminova, G.Adambekova, E.G'G'oziyev, Sh.Anarmetova, V.Mirzayev, Sh.Galiyev, T.Abduraximov, A.H.Nosirov, P.A.Usmonovlar xalq o'yinlarining tarixi, ularning turlari, ma'naviy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi hamda tarbiyaviy ahamiyati borasida tadqiqot olib bordilar.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxon vohasi xalq o'yinlari bilan bog'lik etnomadaniy jihatlarni tahlil qilar ekanmiz, bu hududda istiqomat qiluvchi o'zbek, tojik va turkman millatlari orasida bir xil tarqalgan umumiy o'yinlar mavjudligi masalaning muhim tomonlaridan biridir. Biroq shunday o'yinlar borki, o'zbek, tojik va turkman aholisi orasida bir xil o'ynalsa-da, lekin ularning nomlanishi til belgilariga qarab farqlanadi. Bunday o'yinlar o'zbek tilida nomlanishi kengroq tamoyilga kirgan bo'lsa-da, tojik va turkman millati vakillari yashaydigan hududlarda tojikcha va turkmancha nomlarda atalgan. Shunga ko'ra, bir qator o'yinlarda nomlanish turlicha tillarda har xil bo'lsa-da, xususiyatlarida umumiylik belgisi ustunlik qiladi. Biroq tojik va qirg'iz aholisi orasida ayniqsa, ko'p o'ynaladigan ayrim o'yinlar va bolalar o'yinlarida lokal xususiyatlar mavjudligi kuzatildi[1;123].

Xalq o'yinlarini tadqiq etishda o'zbek, tojik, turkmanlarning milliy o'yinlarini o'rganishga e'tibor qaratdik. Xalq o'yinlarini alohida bir milliy guruh misolida tasniflash Surxon vohasi uchun ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki, voha aholisi tarixan ko'plab millatlardan tashkil topgan va madaniyati sinkretik xususiyatga ega. Shu sababli o'yinlarni ko'p qismini o'zbek-tojik o'yinlari tashkil etganligini ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, tojik millati aholi orasida bir

necha o'yinlarning tavsifini keltirish yuqoridagi fikrlarni ilmiy jihatdan isbotlaydi[5;79].

Jumladan, **“Miyonadaro”**[6] — arg'amchini ikki tomonidan ikki kishi ushlab turadi, o'rtaiga bir kishi kiradi. Agar aylanayotgan arg'amchini ichiga kira olmasa yoki uning ichida qolib ketsa, u mag'lub hisoblanadi. **“Barg koshanak”**[7] o'yini mavsumiy o'yinlar sirasiga kirib, asosan, bog'dorchilik xo'jaligi yaxshi rivojlangan hududlarda keng tarqalgan, asosan, daraxt bargining to'liq yozilgan paytlarida o'ynaladi. Bu o'yinda ko'proq qiz bolalar ishtirok etib, guruhlariga bo'linadilar, guruhlariga boshlovchi tomonidan ma'lum bir belgi qo'yilgan barglarni uzib olib kelish kerak bo'ladi. Qaysi barglarni olish o'yin boshqaruvchisi tomonidan yashirin xolda avvaldan belgilab qo'yiladi. Belgilangan barglarni topib olib kelgan qizlar g'olib hisoblanadilar. Mazkur o'yin yoshlarda topqirlik tuyg'usini shakllantiradi.

“Parbozi”[7] (asosan kech kuz oylarida o'ynaladi) — bu o'yinda ro'molcha uchiga xazon solib, tugun hosil qilinadi. Bu tug'ilgan ro'molchani, xuddi echki yoki qo'yi terisidan olib tayyorlangan panni oyoqni aylantirib tepish qoidasiga o'xshab ketadi. Kim ko'p marta tepa olsa, u g'olib.

“Xonadaroyak”[6] o'yinida oddiy to'rtburchakli belgini sakkizga bo'lib, ushbu bo'lingan burchaklarga ma'lum bir harakatlar asosidagi sakrashlar amalga oshiriladi. Bu o'yin yosh bolalardagi oyoq muskullarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Lappakbozi”[8] (o'zbekcha lappak) deb nomlanuvchi o'yinda lappak (tosh yoki sopol parchasi) shunday tepilishi kerakki, parcha teng bo'lingan to'rtburchak kataklardan chiqib ketmasligi kerak. O'yin bolalarda mo'ljalni to'g'ri olish qobiliyati shakllanishiga yordam beradi. Bu o'zbek, tojik millati aholisi orasida ikki xil tilda nomlansa-da, amal qilish tartibi deyarli bir xil.

“Tuftaka”[8] mavsumiy o'yinlar sirasiga kirib, asosan, bahor faslida o'ynaladi. O'yin boshlanishida sanoq orqali (33 sanog'i yoki toq son orqali — o'yin ishtirokchilari soniga

qarab) ma'lum bir bola tanlab olinadi. U belgi qo'yilgan devor, daraxt yoki toshga boshini tirab, ko'zi yumilgan holda bolalar yashirinishini ma'lum bir sanoq orqali kutib turadi. Sanoq bitgach, poyloqchi bola barcha bolalarning qayerga yashiringanligini topadi. Agar topa olmasa, yana o'zi poyloqchilik vazifasini bajarishga majbur bo'ladi. Poyloqchi bola barcha ishtirokchilarni topa olsa, birinchi topilgan bola poyloqchilik vazifasini oladi. O'yin shu tariqa davom etadi. Ushbu o'yindan maqsad, bolalarning sezgirlik, topqirlik, hushyorlik kabi ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

“Dandon ba qoshiq”[8] o'yini musobaqa — bellashuv o'yinlari sirasiga kirib, bunda bolalar ikki guruhga bo'linadilar. O'yin boshlovchisi tomonidan ikkita qoshiqqa (albatta, yog'och qoshiq talab qilinadi) suv to'ldirilgan yoki tuxum solingan holda ma'lum bir masofaga olib borish belgilab qo'yiladi. Belgilangan masofaga birinchi, talofatsiz va ko'p miqdorda yetkazib olib borgan guruh g'olib hisoblanadi. Mazkur o'yin nafaqat xalq o'yini, balki hozirda maktab o'quvchilari o'rtasidagi ommaviy sport turi sifatida “Quvnoq startlar” musobaqasi tarkibidan o'rin olgan.

“Oq so'ngak o'yini”[9] O'yin boshlanishida boshlovchi tomonidan qo'y, echki yoki qoramol boldir suyagi tanlab olinib, ishtirokchilarga o'yin tartibi, shartlari tushuntiriladi va belgilangan sovrin-mukofot e'lon qilinib, suyakni xohlagan tarafga irg'itadi. Suyakni topa olgan bola qolgan ishtirokchilar ta'qibidan qochib, boshlovchi qo'lga tutqazsa, u g'olib hisoblanadi va sovrin egasiga aylanadi. (Bu o'yin bolalarining quloq cho'zma o'yiniga mazmunan o'xshab ketadi. Faqat predmet ishtiroki boshqa). Ushbu o'yinning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'smir yoshlar o'rtasida abjirlik, topqirlik, chapdastlik kabi xususiyatlarni shakllantiradi. An'anaviy xalq o'yinlaridan biri **«oq suyak»** mavsumiy bo'lib, ko'proq yoz va kuz fasllarida o'ynalgan. Bu o'yin bolalarning sevimli o'yinlaridan biri bo'lib, to'y yoki ma'lum marosimlarda, asosan, tunda o'ynaladi.

Mazkur o'yin bolalarni qorong'u tunda qo'rqmas, tez ilg'ab olish hamda chaqqon bo'lishida katta rol o'ynagan o'yinlardan biridir. U asosan oy chiqqan tunda o'ynaladi. O'yinda o'ndan oshiq bolalar teng ikki guruhga bo'linadilar. Oralaridan o'zlariga jo'raboshi saylaydilar. O'yinni qaysi tomon boshlashini jo'raboshining tepaga qarata otgan tangasi aniqlab beradi. Bu imkoniyatni qo'lga kiritgan guruh boshlig'ining qo'lida oq suyak (sigirning to'pig'i) bo'ladi. Raqib o'yinchilar ularga teskari qarab turishadi. Suyak qorong'ilikka otiladi. Bo'ldi deyishgach, tomonlar yoyilishib uloqtirgan suyakni axtarishga tushadi. Axtarayotgan vaqtda raqib guruhdagi bolalar ham kuzatadi. Suyakni topgan bola «topdim» deb baqirishi shart. Suyakni topgan bola poyga joyga qarab chopadi. Agar raqib guruhdagi bolalar yetib kelsa, qochishning ilojini qilolmagan taqdirda uzoq joyga qarata uloqtiradi. Ishtirokchilar soni qancha ko'p bo'lsa, suyak shuncha marta otilib, shuncha marta topilishi kerak. Birinchi bo'lib shu ishni nihoyasiga yetkazgan guruh g'olib hisoblanadi. G'oliblar mag'lublarning ustilariga minib, oldindan kelishilgan masofagacha ko'tarib borishlarini talab qilishadi. Talab bajarilgach, guruh boshlig'i uy egasini chaqirib, «otliqlar oldikmi, piyodalar oldikmi» deb so'raydi. Uy egasi «otliqlar oldik» desa yana navbatdagi uygacha ko'tarib borishadi. Manzilga yetishgach, yana yuqoridagi holat takrorlanadi. Mabodo «piyodalar oldik» desa, o'yin qaytadan boshlanadi. Endi g'olib guruh o'z o'rnini raqiblarga bo'shatib berishga majbur. Voqealar talqini ham vaziyatga qarab o'zgarib turadi. «Oq suyak» bolalarni ahillikka o'rgatadi. O'yinning tunda ijro etilishi esa ijrochilarda sezgirlik qobiliyatini kuchaytiradi[9].

Voha aholisining an'anaviy o'yinlaridan yana biri **«to'piq»** o'yini bo'lib, bu o'yinda «ushoq mol» go'shtidan pishirilgan taom iste'mol qilingan vaqtda kosasidan to'piq suyagi bor go'sht chiqqan odam bir iloj qilib, ana shu suyakli go'shtni sheriklaridan birortasining qo'lga tutqaza olsa, u kishi to'piqqa yutqazgan bo'ladi. To'piqni asosan yog'li go'shtga o'rab berishgan, ayrim hollarda non orasiga solib ham uzatishgan.

To'piqni bilmasdan olib qo'ygan kishi to'piq bergan kishiga «to'piqqa yutqazgan» hisoblanadi. O'yin shartiga ko'ra yutilgan kishi to'piqni davra oldidagi odamlar oldida yutib yuborishi yoki yonida hamisha saqlab turishi lozim bo'lgan. O'yinda yutgan kishi xohlagan vaqtda, xohlagan joyida to'piqni so'rasa yutilgan kishi o'yin shartiga ko'ra topib berishi kerak bo'lgan. Shu bois, yutqazgan kishi to'piqni doimo yonida ko'tarib yurgan. Ayrim kishilar bu suyakni teshib, yonlariga yoki bo'yinlariga taqib yurganlar. O'yin shartiga ko'ra to'piq istalgan vaqtda so'ralganda ko'rsatilsa yutgan hisoblanadi. Aksincha esa yutilgan hisoblanib, o'rta qanday shart qo'yilgan bo'lsa, bajarishga majbur bo'lgan. Voha aholisining ko'pchilik qismi dehqonchilik bilan birga chorvachilik bilan ham

shug'ullanganligi bois ko'pincha bir mol so'yib, ziyofat berish shart qilib belgilangan. Albatta, so'ralgan to'piqni bera olsa, to'piq bergan kishi yutqazgan hisoblanib, o'zi o'sha o'yinda ishtirok etganlarga o'yin sharti bo'yicha ziyofat qilib bergan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xalq o'yinlari uzoq tarixiy jarayonda aholining kundalik turmush tarzi va xo'jalik an'analari zaminida shakllangan. Xalq o'yinlari mintaqadagi ijtimoiy hayot, etnosotsial jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatib, mintaqada va butun dunyoda tinchlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, milliy va diniy bag'rikenglik singari umuminsoniy fazilatlarini saqlash va mustahkamlashda samarali vositalardan biridir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. “Сурхондарё –этнографик макон”. Тошкент., “Akademiknashr”, 2012. Б. 123.
2. Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида). Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Ташкент, 1998. – 26 б .
3. Курбанов А.Э. Этнические и локальные особенности традиционной культуры жителей Северосурханского оазиса (конец XIX- первая половина XX в.) Автореф. Дисс... канд. ист. наук. — Ташкент, 2009. — С.23
4. Йўлдошев С.В Фарғона водийси аҳолисининг халқ ўйинлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. — Т., 2019. -54 б.
5. Қорабойев У.Х. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. Б. 79
6. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Sayrob, Panjob, Darband qishloqlari. 2021-yil
7. Dala yozuvlari. Sariosiyo va Denov tumanlari. Sina va Xufar qishloqlari. 2022-yil.
8. Dala yozuvlari. Sariosiyo tumani. Xondjiza, Debodom, Chosh va Kapsh qishloqlari. 2021-yil.
9. Dala yozuvlari. Sho'rch'i tumani Shaldiroq, Obodon, To'la qishloqlari. 2021 yil.

ONA TILI TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDOSHU

Ikrom Xolmurotov,

*Samarqand davlat veterenariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

Email: xolmurotov1968@mail.ru

UDK 811.811.512.133.

<https://orcid.org/0009-0008-4147-6603>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini integrativ yondashuv asosida tashkil etish, fanlararo integratsiyalarning uzviyligini uzliksiz davom qilish usullari haqida fikrlar bildirishga harakat qilindi.

Kalit soʻzlar: integrativ, kimyo, botanika, tarix, integratsiyalashgan dasturlar, tasviriy sanʼat, tafakkur.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка выразить идеи о способах организации занятий родным языком на основе интегративного подхода, непрерывного продолжения преемственности межпредметных интеграций.

Ключевые слова: интегратив, химия, ботаника, история, интегрированные программы, изобразительное искусство, мышление.

Annotation: In this article, an attempt was made to express ideas about ways to organize mother tongue classes based on an integrative approach, to continuously continue the continuity of interdisciplinary integrations.

Key words: integrative, chemistry, botany, history, integrated programs, visual arts, thinking.

Bugungi kunda “Ona tili” darslari orqali oʻquvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash koʻnikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bogʻlanish yoʻlga qoʻyilmoqda. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga eʼtibor qaratiladi.

Taʼlim tizimida axborot texnologiyalarini

uzviyligini taʼminlanishi ham taʼlim integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Taraqqiyot sari yuz tutib borayotgan bugungi axborotlar asri ertangi kun yoshlaridan turli muammoli vaziyatlarda oʻzini-oʻzi toʻgʻri baholay oladigan, mustaqil fikriga ega boʻlgan, aqliy va ruhiy imkoniyatlaridan yuksak saʼyi-harakatlar yoʻlida foydalana oladigan ijobiy xususiyatlar sohibi boʻlishni taqozo etmoqda. Bu esa toʻgʻri tashkil etilgan taʼsirchan taʼlim hamda oʻqitish jarayonida tarkib topib boradigan insoniy sifatlar, ahloqiy xususiyatlar, koʻnikmaga aylanib boradigan ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

Insoniyatning kelajagi taʼlim mazmunining integrativ rivojlanishi bilan bogʻliq. Shu sababdan zamonaviy inson chuqur integrativ bilim, keng madaniyatga ega boʻlish bilan birga, hozirgi zamonaviy taʼlimning asosiy gʻoyalari, uslublari va natijalari haqida ilmiy tasavvurga ega boʻlishi kerak.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi taʼlim tizimida integrativ dastur va darsliklardan foydalanmoqdalar. Zamon talabiga koʻra, rivojlangan mamlakatlarning ish tajribalariga tayanib, aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalab oʻqitish muammosini hal etish zarur deb hisobladik. Ushbu muammoni hal etish muhim iqtisodiy va pedagogik samaradorlikni taʼminlaydi. Muammoni ijobiy hal etilishi oʻquvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod etadi, olamni yaxlit holda anglashga, undagi voqea va hodisalar mohiyatini kompleks oʻrganishga, bir butun mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirishga, barkamol shaxsning shakllanishiga imkon yaratadi.

Shu bois hozirgi davrda oʻquv fanlarini

integratsiyalashning nazariy asoslari, integratsiyaga bo'lgan yondashuv, integratsiyalashgan dasturlar, integratsiyalashgan darsliklar modelini yaratishga oid masalalar o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning vujudga kelishi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Mazkur holat jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

“Qanday qilib integratsiyalangan darsni tashkillashtirish mumkin?” nomli maqola mualliflari I.Kalojvari va L.Pechnikovalarning ta'birlaricha: “Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul asosida o'quvchilar ongida olamning faol va ko'p tomonli tasviri shakllanadi. O'quvchilarning bilimlarini amalda faol olib borishga rahbarlik qiladi.

Bilimlarning amaliyotga xos ishlab chiqarishni aniqlaydi, yangicha fikrlay chunki, fanni tez o'z harakatini, uning boshqa fanga munosabatini ravshan bo'lishini”.

Maktab ta'limida ona tili, adabiyot, botanika, biologiya, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, “Ona tili va botanika” mavzusidagi maqola muallifi pedagogika fanlari doktori Sh.Yusupova dars davomida o'quvchilardan behi guli haqida ma'lumotlar berishni so'raydi, javob olingandan keyin behi gulining tasvirini chizish o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. T.Yusupovaning “Behi guli” she'ri o'quvchilarga ifodali o'qitilib bu she'rda berilgan ot va fe'l so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtirib yozishlari kerak bo'ladi.

Mazkur maqolada bir paytning o'zida ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, biologiya fanlarini bog'lab o'qitish mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Botanika va ona tili fanlarini bog'lashda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki ular o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari, qissadan hissa chiqarish, o'z maqsadlarini bayon etishga undaydi. Maqollarda keltirilgan o'simlik yoki daraxtlarga ta'riflab berishlari esa ularning

nutqiy faoliyat darajasini yanada rivojlantiradi, – deb ta'kidlaydi Sh.Yusupova.

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya — differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

– o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmuni integratsiyalab o'rganish;

– turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

– ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlarida bunga alohida e'tibor qaratish

lozimligi uqtiriladi. O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bog'lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

Integratsiya tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin.

A.G'ulomov hamda H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lmoq lozim. O'quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini

huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari zarur.

Masalan: Geografiya fanidan ekanligi

1-guruhga
“Buloq”
Oydinbuloq
Mingbuloq
Muzbuloq
Shirmonbuloq

2-guruhga
“Daryo”
Amudaryo
Sirdaryo
Qoradaryo
Sirdaryo

3-guruhga
“Ko'l”
Issiqko'l
To'rtko'l
Sho'rko'l
Oltinko'l

4-guruhga
“Soy”
Enasoy
Teraklisoy
Kosonsoy
Quvasoy

aniqlanadi. O'quvchilar yana ixtiyoriy 4 guruhga bo'linadilar. Berilgan so'zlar ishtirokida qo'shma so'zlar hosil qiladilar.

Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z -o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Shuningdek, “Ona tili. 5-sinf uchun elektron o'quv-metodik majmua”siga jamlangan mashq va topshiriqlarning aksariyati 5-sinfda o'rganiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan.

Foydalanuvchilar “Botanika”, “Tarixdan hikoyalar”, “Geografiya”, “Musika”, “Jismoniy tarbiya”, “Rus tili”, “Ingliz tili”, “Tasviriy san'at”, “Adabiyot” fanlari bilan integratsiyalashgan 10 dan ortiq turdagi mashq va topshiriqlar esse, krossvord, test savollari orqali bilimlarini oshiradilar, asosiy materiallarni mustahkamlaydilar. Majmuada elektron pochta orqali bog'lanish, mualliflarga yoki o'qituvchiga murojaat qilish, bajarilgan ishlarni bosmaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Hozirgi kunda o'quv fanlarini integratsiyalash mazmunini, rivojlantirish tarixini, fanlarni integratsiyalashning shakli usul va vositalarini aniqlash, uning kelajak istiqbolini belgilash asosiy vazifa bo'lib turibdi. Shuningdek, fan tizimini tashkil etgan qismlarning ham o'zaro aloqada bo'lishida ilmiy-texnik axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fanlar o'rtasidagi

o'zaro aloqalar rivojining ta'siri va bu sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi natijasida erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi– moddiy olamda namoyon bo'lmoqda. Bu o'zaro ta'sir – fanlar rivoji, har bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun zarur bo'lgan ehtiyoj, har bir fan rivojiga xos xususiyatdir.

Ilmiy tarzdagi o'zaro ta'sirga ega bu xususiyat shundan iboratki, u fan bilan axborot vositalari o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi, tezlashtiradi. Bu tezlashish esa, fanning ijtimoiy tuzumga bo'lgan ta'sirini oshiradi.

Ta'limni integratsiyalashtirish o'quvchilarda jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi, o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlanadi, o'quv materiallarining o'zaro, tabiiy ravishda uzviylikda bo'lishini ta'minlaydi. Darsda o'quvchilarda ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi; ularda o'quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo'lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta'lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O'quv fanlarini uzviylikda o'rganish o'quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o'quv tarbiya jarayonining ham uyg'unlikda bo'lishini taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar ma'naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik axloq-odob tushunchalarining mazmuni va tarkibini bilib olishlari kerak. Shundagina ular bu tushunchalarning mohiyatini puxta anglab, bu ulug' fazilatlarini egallashga ongli ravishda

harakat qiladilar.

Fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va fanlar tarkibidagi o'ziga xos qonuniyatlarning yuzaga kelishi ularning tuzum bilan aloqadorligiga yorqin dalildir.

O'quv fanlarini integratsiyalash, bu – turli o'quv fanlarini sun'iy ravishda bir-biri bilan birlashtirishi degan gap emas. Ularni o'zaro uyg'unlik, uzviylikni o'rganish fanlar

o'rtasidagi umumiy o'xshashlikni, har biriga xos xususiyatni va har birini olgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Shundagina o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi, ular mehnat jarayonida, ijtimoiy hayot, tabiatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar o'rtasidagi uyg'unlik, uzviylikni chuqur anglab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matov H., G'ulomov A. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. – T.: 1992.
2. Shernazarova R.X. Fanlararo aloqadorlik ta'lim samaradorligini oshirish omili. // Ta'lim texnologiyalari, 2016. 1-son, 83-84 b.
3. Ergasheva A. Ona tili darslarida rasmlar vositasida mazmundor gaplar tuzish // Uzluksiz ta'lim, 2006. 2-son, 59-62 b.
4. Yusupova Sh. Ona tili va botanika fanlarini uyg'un holda tashkil qilish mumkinmi? // Til va adabiyot ta'limi, 2015. 7-son, 13-14 b.
5. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. – T.: Sharq, 2005.
6. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarov M. Ona tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma. – T.: 2012.
7. Do'stmurodova O. Matn tuzish topshiriqlari ona tili ta'liming texnologik etaloni sifatida // Xalq ta'limi, 2005. 3-son, 73 b.
8. Xolmurotov I. O'quvchilarni insho yozishga o'rgatish: O'quv qo'llanma. -N.: 2019.
9. Xolmurotov I. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion mashg'ulotlar: O'quv qo'llanma.- N.: Bilim, 2020.

SYNTAXES EXPRESSED BY NEGATIVE CONJUNCTIONS

Khalikova is the daughter of Mushtari Sultanali,
Teacher of legal technical school of Surkhandarya region

UDK: 811.512.133.

<https://orcid.org/0009-0008-8556-0343>

Abstract: In this article, negative syntactic units in English and Uzbek are relevant as they are divided into components and syntaxes in the sentence device, and are devoted to a comparative analysis. Because the traditional syntactic analysis of the sentence device cannot fully meet the requirement, that is, the interpretation of the syntactic units in the sentence into primary and secondary parts indicates the need to determine the semantic essence of these units at the syntactic level and to perform a perfect comparative analysis of them typologically.

Key words: English and Uzbek languages, elements expressing negativity, syntax.

Аннотация: В данной статье отрицательные синтаксические единицы в английском и узбекском языках являются актуальными, поскольку они разделены на компоненты и синтаксисы в аппарате предложения, и посвящены сопоставительному анализу. Поскольку традиционный синтаксический анализ устройства предложения не может в полной мере удовлетворить этому требованию, то есть расшифровка синтаксических единиц предложения на главные и второстепенные части, указывает на необходимость определения смысловой сущности этих единиц на синтаксическом уровне и выполнения совершенный сравнительный анализ их типологически.

Ключевые слова: английский и узбекский языки, элементы, выражающие негатив, синтаксис.

INTRODUCTION. Elements expressing negativity are widely used in the sentence structure of English and Uzbek languages. In the comparative-typological study of sentence devices with negative elements in the example of these languages, the study of the

system relations of the category of negativity by dividing it into components constitutes the external device of the sentence, while the analysis by dividing it into syntaxes constitutes the internal device of the sentence. Comparatively typological analysis of syntactic units with negative elements in the sentence structure, determination of their isomorphism, allomorphism are also relevant issues, and researches in this regard provide a wide opportunity to determine the syntactic position of the category of negativity in different systematic languages. Analyzing the category of negativity using such linguistic methods synsemantically contributes to the further development of the sciences of theoretical and applied grammar, comparative typology of English and Uzbek languages.

METHODS. In world linguistics, the category of negativity has been a constant focus of attention of scientists. P.A.Afanasev, R.O.Yakobson, A.I.Bakharev, T.G.Tsakalidi, V.N.Bondarko, M.V.Andriychekova conducted research on the basis of materials of Indo-European and Turkic languages in the study of this category. V.G. Kolshansky, A.M. Mukhin, F. Allan, R. Lakoff, T. Baller, R. A. Close, Z. S. Henis, H. Sweet, A. Nurmonov, S. Rahimov, O. Usman, D. Lutfullaeva, M. Yoldoshev, The studies of linguists such as E. Qilichev and V. Vositov are noteworthy.

DISCUSSION. In English and Uzbek, neither ... nor, na ... na are included in the group of connectives (1.203; 2.211; 3.145), which mainly express the negative form of the connected parts of the sentence. Or in the Uzbek language, na ...na comes as a connector, they are mostly repeated in front of conjunctive clauses and serve to express the meaning of negation (4.168). In some grammars of the English language, the conjunction neither ... nor is given the

following definition: "neither ... nor is a coordination expressing the negative meanings of more than one syntactic unit that has a syntactic function in the sentence device" (5.33). Compound clauses Regardless of the syntactic position of compound clauses in the sentence device, "they are connected on the basis of coordinative relation"(6.11).

Analyzing the syntactic units that have been combined in the sentence into syntaxes, we can see that they appear in different syntactic positions in the sentence structure and are preceded by the conjunctions neither ... nor in Uzbek.

1. Neither Pop nor the widow would find me again (M. Twain)

2. Denis neither tried to persuade Dave nor discourage him (D.Carter)

3. He raised his head looking neither to the right nor to the left (E.L. Voynich)

When we analyze these sentences, Neither Pop nor the widow are connected with each other on the basis of coordinative relation, and they participate in the sentence device on the basis of core predicative relation with syntactic units would find. So, the syntactic units connected by the coordinative relationship come in the place of the core predicative 1 in the sentence, and their differential syntactic-semantic signs are also the same. That is, they represent substantial negative agentive syntaxes. In this sentence, the meaning of negativity applies only to the agentive syntax. To prove this case, they can be transformed as follows:

1) Neither Pop nor the widow would find me again → Neither Pop nor the widow would find me again but the others would find.

It seems that in the substantive negative agentive sign of Neither Pop nor the widow, it is possible to observe the expression of the (partial) syntax of partivity. In English, if the element in the place of the core predicative 2 in this sentence is converted into the infinitive form, the element either can be added to the end of the sentence by adding only the subtractive conjunction instead of Neither ... nor: Neither Pop nor the widow would find me again → Pop or the widow wouldn't find

me again either. In this case, the combined clauses Pop and the widow represent only substantial agentive syntax.

In the next sentence Denis neither tried to persuade Dave nor discourage him combined elements neither tried to persuade nor discourage core predicative 2, their differential syntactic-semantic signs represent procedural negative active syntax. The syntactic unit that replaces the core predicative 1, Denis, remains a substantial agentive syntax. From the derivation of this analysis, it is known that the elements in the core predicative 2 position in the sentence device are implemented using the transformation of adding elements of neither ... nor instead of didn't ... or ... either, the elements in the core predicative 2 position remain procedural negative active syntax: Denis neither tried to persuade Dave nor discourage him → Denis didn't try to persuade Dave or discourage him either.

When the third sentence is analyzed by dividing it into syntaxes, the existence of negative partitiveness is also shown in it.

3) In the sentence He raised his head looking neither to the right nor to the left, cohesive clauses take the place of a non-core dependent component, and they represent a substantial negative locative syntax. To the right or to the left subordinate components can be replaced by here/there locative sign: He raised his head looking neither to the right nor to the left → He raised his head looking neither here nor there. It is known from the result of the exchange transformation that together with the negative locative syntax, partitiveness is expressed. It can be determined that there is a partitive syntax by adding the elements but to the straight to this sentence: He raised his head looking neither to the right nor to the left but to the straight.

Cohesive clauses are also found in the Uzbek language sentence structure in various syntactic functions, they are connected with their connectives na ... na in the base of coordinative communication. Let's analyze the following examples by syntax:

1. There is neither a good doctor nor a habib here (O. Yakubov).

2. These vagabonds know neither good nor evil (O. Yakubov).

3. He neither works nor studies anywhere (B. Rahim).

Before analyzing these sentences, we use the drop-down transformation method to identify the main core components.

1) There is neither a good doctor nor a habib here. here there is neither tabib, nor habib, in the derivation of the transformation, neither tabib nor habib is the core predicative 1 in the sentence structure of the syntactic units. When we turn the core predicative 2 component of this sentence into the form of indivisibility, neither ... nor instead of ... also + no. Both ... and elements are used after the core predicative 1 components:

There is neither a good doctor nor a habib here → There is neither a good doctor nor a habib here. At the first appearance of this sentence, when it is expressed using neither ... nor etc., the negativity mainly applies to the elements of doctor and habib, and with the help of both ... and + no, we see that the negativity appears in the element that comes in the place of the core predicative 2 of the sentence.

So, in this sentence neither tabib nor habib syntactic units represent substantial negative existentiality, the core is connected with procedural existential syntax based on predicative relation. In the sentences tabib and habib, the elements of tabib and habib represent substantial existential, while the elements of no ... no represent procedural negative existential syntax.

We use the drop-out transformation to determine the kernel components of the second sentence as well.

2) These humrohs know neither good nor evil → ... humrohs know. According to the result of the transformation, the syntactic units of neither good nor bad syntactic units come in the place of non-core subordinate component in the sentence, they are connected to each other on the basis of coordinative relationship, and are connected to the core predicative 2 component of the sentence (knows) on the basis of subordinate

relationship. The combined clauses in the sentence represent the qualifying negative object syntax, the elements of which are neither good nor bad. It reflects the presence of qualification, negative object and partivity.

If we convert the combined clauses in this sentence into the form neither ... nor → both ... and + Vng, the negativity will only be characteristic of the syntactic unit that is in the position of the core predicative 2 of the sentence: These humrohs know neither good nor evil → These humrohs know both good and evil doesn't know or → These people don't know.

The combined elements in the sentence express qualification, objectivity and partitiveness in the place of non-core subordinate component, neither good nor bad, and are connected with the procedural active syntax by means of subordinating relation.

But in the last sentence, without expressing the sign of partitiveness, the combined clauses are expressed using na ... na, the nucleus comes in the place of predicative 2 in the sentence and represents the procedural negative active syntax. Syntactic units in the place of core predicative 2 remain procedurally negative active syntactically when the connectives expressed by means of coordinative relationship are replaced by elements VfNg + and VfNg +.

3) He neither works nor studies anywhere → He neither works nor studies anywhere.

In English, the use of the conjunction neither ... nor between united components corresponds to the connecting conjunctions na ... na in Uzbek. However, no other negative form is used in the English sentence structure, regardless of which component it replaces, and in Uzbek, when neither ... nor cohesive clauses replace the subordinate components, the component that replaces the core predicative 2 can be given in an undivided form:

He knew neither to run nor to swim → He didn't know neither to run nor to swim. He could neither run nor swim →

He could neither run nor swim.

In English, if the element replaced by the core predicative 2 component is converted

into the form of infinitive, then "neither ... is dropped, and either is added after the unitary component or conjunction and the last unitary clause"(7.142).

He knew neither to run nor to swim → He didn't know to run or to swim either.

In the Uzbek language, neither ... nor instead of ... and the element in the place of the core predicative 2 can be turned into a non-divisive form.

He can neither run nor swim → He can neither run nor swim.

In such cases, negative syntaxes change their place in both languages.

CONCLUSION. It is known that there are different approaches to the research of negativity category in world linguistics, i.e., there are approaches to it from philosophical,

logical, psycholinguistic, and paralinguistic aspects. In our work, the devices with negative elements were studied at the syntactic level using comparative-typologically specific linguistic methods (analysis by dividing them into components and syntaxes, distributive analysis method, experimental method). This linguistic method is a new approach to the analysis of negative elements in both languages. In particular, identifying the external and internal devices of sentences with negative elements, i.e., determining the syntactic relations of syntactic units in the sentence, identifying differential syntactic signs and their semantic field, and their comparative analysis is one of the unique new approaches of modern syntactic typology.

REFERENCES:

1. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. (Теоретический курс грамматики) – Москва: Литература на иностранных языках, 1956. - 350 с.
2. Винокурова Л.П. Грамматика английского языка. - Ленинград: Учпедгиз, 1954. - 344 с.
3. Ballmer T. Logical Grammar - Amsterdam. - North-Holland, 2004. - 416 p.
4. Kiličev E. Modern Uzbek literary language. - Bukhara: Bukhara University Publishing House, 2001. - 228 p.
5. Cook G. Discourse and Literature. - Oxford University Press, 1994. - 340 p.
6. Одилов Б.Б. Уюшган қўшма гапларнинг семантик-прагматик хусусиятлари: Филол.фан. номз... дисс. афтореферати. –Тошкент, 2008.- 29 б.
7. Blokh M.G.Course of Theoretical English Grammar. - Москва: Высшая школа, 1983. - 383 p.

TARIX

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ВАТАН ТАРИХИГА
МУНОСАБАТИ

Шомат Саматов

*Термиз давлат университети Фалсафа кафедраси профессори,
фалсафа фанлари доктори*

UDK: 396(575.1)

<https://orcid.org/0009-0008-0221-9398>

Аннотация: Ўз насл-у насабини билиш, келиб чиқишини ўрганиш, кишининг ҳаётда омонат ё тасодифий эмаслигини тушунишга имкон беради. Шу билан бирга атроф-муҳит, уни ўраб турган олам хусусида ўйлайди. XX аср бошларида юрт мустақиллиги учун курашган жаҳидларимиз ҳам тарихни чуқур ўрганмасдан туриб келажакда мустақил давлат қуриб бўлмаслигини англаб етганлар.

Калит сўзлар: Маҳмудхўжа Беҳбудий, жаҳид, Туркистон, “Тарих ва жуғрофия” асари, “Туркистон тарихи керак” номли мақоласи, XX асрнинг биринчи чораги.

Аннотация: Знание своей генеалогии, изучение своего происхождения позволяет понять, что жизнь человека – это не навес и не случайность. В то же время окружающая среда думает об окружающем мире. Наши предки, боровшиеся за независимость страны в начале XX века, также осознавали, что без глубокого изучения истории невозможно построить независимое государство в будущем.

Ключевые слова: Махмудходжа Беҳбудий, Джаҳид, Туркистон, труд «История и география», статья «Нужна история Туркистана», первая четверть XX века.

Abstract: Knowing one's genealogy, studying one's origins allows one to understand that one's life is not a deposit or an accident. At the same time, the environment thinks about the world around it. Our ancestors who fought for the country's independence at the beginning of the 20th century also realized that an independent state

cannot be built in the future without a deep study of history.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, Jadid, Turkestan, the work "History and Geography", the article "The history of Turkestan is needed", the first quarter of the 20th century.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуси билан 2020 йилда комусий олим, улуғ аллома ва жамоат арбоби Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 145 йиллиги кенг нишонланди. 2023 йилнинг 11-12 декабрида Тошкентда «Жаҳидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари» мавзусида жаҳидчиликнинг дунё тарихида тутган ўрнига бағишланиб Халқаро илмий назарий конференция ўтказилди. Конференция иштирокчиларига қарата Юртбошимиз томонидан табрикнома баён этилди. 2024 йил 1 январдан бошлаб мамлакатимизда энг нуфузли нашр— “Jadid” (Жаҳид) номли газета чоп этила бошланди. “Jadid” газетаси жамоаси ва муштарийларига қарата мухтарам Президентимиз оташин мурожаатнома баён этдилар. Юртбошимиз ибораси билан айтганда: “Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади”.

Шу нуктаи назардан қараганда,

тараккийпарвар аждодларимизнинг илғор ғоя ва қарашларини тадқиқ этиш ва тизимлаштириш Туркистон жадидларининг миллий давлатчилик ривожигаги ўрни ва таъсирини ўрганиш, XX асрнинг биринчи чорагида улар томонидан барпо этилган давлат тузилмаларининг қонунчилик базасини таҳлил қилиш, дунёвий, ҳуқуқий ва демократик жамият қуришга қаратилган фаолиятига тарихий баҳо бериш, Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанснинг бунёд этишда ушбу мероснинг мустақкам пойдевор бўлиб хизмат қилиши билан боғлиқ масалалар бугунги куннинг асосий муаммоси бўлиб қолмоқда.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Маълумки, ҳақиқий комил инсон, баркамол авлод, тарих мисолида тарбияланади. Ўзликни англаш тарихни билишдан, ундан сабоқ чиқаришдан бошланади. Демак, ўзликни англаш-энг аввало, ўтмишни ўрганишдан бошланади. Дарҳақиқат, ўзини англаётган, ўзини тушунаётган ҳар бир одам қандай оилада дунёга келгани, ота-боболари нималар билан шуғулланишгани ва қандай умр кечиришганини билиб олишга интилади. Уларнинг фазилатлари ва мерослари билан фахрланиб яшайди.

Ўз насл-у насабини билиш, келиб чиқишини ўрганиш кишининг ҳаётда омонат ё тасодифий эмаслигини тушунишга имкон беради. Шу билан бирга атроф-муҳит, уни ўраб турган олам хусусида ўйлайди.

Махмудхўжа Бехбудий “Тарих ва жуғрофия” асарида бундай деб ёзган эди: “Дунёга ишонмоқ учун, комил ва одил бўлмоқ учун тарихни ўқумоқ ва билмоқ керак. Подшо-ю вазир, ҳукумат одамлари ва сиёсий кишилар учун тарих ўқумоқ керак. Паст қолган ва ё тараккий қилган халқларни, жаҳонгир бўлган давлат ё нопадид (мустамлака) бўлган ҳукуматларни билмоқ учун тарих ўқумоқ керак... Мусулмонлик қандай кўпайди ва тараккий этди ва алоҳон на учун мусулмонлар таназзул этдилар? Буни билмоқ учун тарих ўқумоқ керак. Хулоса:

дин-у дунёдан бохабар бўлмоқни хоҳлайдурган ҳар ким учун тарих ўқумоқ керак. Чунки ҳар нимарса ва шунинг асли ва насли тарихдан билинур”.

Буюк маърифатчи ва ватанпарвар М.Бехбудий Ватан ва миллат тарихини яратиш зарурлиги ғоясини илгари сурди. Жумладан, “Туркистон тарихи керак” номли мақоласида таъкидлаган эдики: “Тарих кўп аҳамиятли ва фойдали бир нарсадур. Тарихнинг фойдаларидан баъзиси ушбудири, бир миллатнинг на тариқада, қайси йўл ила тараккий этганини ўқиб, ибрат олмоқ ёки бир миллатнинг на сабаблардан таназзул этиб, охири мунқариз бўлиб кетганини ўқуб, мундан ҳам истифода этмоқ мумкиндур. Шунинг учун бизнинг ўз шеваимизда Туркистонда ўтган боболаримизнинг маиший, сиёсий аҳволига доир “Туркистон тарихи” бор бўлганда, они кўз олдимизда кўюб, бурунги қахрамон боболаримизнинг на йўл ила тараккий ва маданият даврига кируб ва нима сабабдан охири мунқариз бўлуб кетганларини ўқуб, билуб, хейли ибрат олар эдук. Ўшандоқ, ҳозирги ҳолимизни боболаримиз давридаги ҳолларга бир даража муқояса этмоқ ила баробар ўз-ўзимиздан бир инфиоли зарурий хис эдук, юзларимиз кизарар эди. Холо, биз туркистонийлар марҳум боболаримиз аҳволи ҳам Туркистон воқеоти тарихиясидан бутун ғофил ва беҳабардурмиз. Чунки ҳануз Туркистон тарихи ҳақинда янги тадқиқот ила ёзилғон, тартибли ва истифодали мукамал бир асар вужудга келгани йўқ. Тўғриси, мундай тарих ёзувчи киши турк ўғлонларидан ҳануз майдонга чиқғон йўқки, бу эса турк болаларининг ноҳалаф бўлуб, чин ўғул эмасликларига далилдур. Бу сўзлардан тарихсизлигимиз англашилмасун. Бизнинг тарихимиз бор”.

Айтиш жоизки, М.Бехбудийнинг бу қарашлари, **биринчидан**, Ватан тарихи ва уни яратиш муаммолари бобида ўзига хос илмий дастурдир. **Иккинчидан**, чоризм ва бўлажак тоталитар тузумнинг Туркистон тарихига нисбатан тутган сиёсатини у олдиндан башорат қилган эди.

Учинчидан, М.Бехбудий орзулари ҳақиқий Туркистон тарихи-Ватан тарихини яратиш Ўзбекистон мустақиллиги туфайлигина амалга ошдики, бунини у олдиндан башорат қилган эди.

Туркистон забт этилгач, руслар маҳаллий халққа “сартлар” деб ном бердилар. Н.Остроумовнинг бир китоби худди шундай номланганлиги ҳаммага маълум. Бу сўз, аслида турли вақтда турли этник қатламга, гоҳо ижтимоий (социал) қатламга нисбатан айтилган. XX асрнинг ўнинчи йилларида бу сўз атрофида яна баҳс кетди. Чунончи, Бухоро амирининг русчага таржимони Баҳромбек 1911 йилда “Шўро” журнаliga “Биз, Туркистон ва Бухоро халқининг турклиги маълум бўлиб туруб... на учун сарт атайдурлар?” деган савол билан мурожаат қилади. Журналнинг 19-сонида М.Бехбудийнинг “Сарт сўзи мажхулдур” деган жавоби босилади. 24-сонида эса самарқандлик Бақоҳўжа “Сарт сўзи аслсиздур” деган мақола билан чиқади. Бу билан баҳс босилгандай бўлади. Бироқ ордан 2-3 йил ўтиб, “Садойи Фарғона”нинг 1914 йил 30-сонида Мулла Абдуллабек деган кишининг “Сарт сўзи маълумдур” деган мақоласи босилади. Табиийки, М.Бехбудий ундан қаноатланмайди, чунки унда мавзуга доир бирор янги гап айтилмагани ҳолда, “маълум” деб даъво қилган эди. Шу сабабли М.Бехбудийнинг “Сарт сўзи маълум бўлмади” мақоласи эълон қилинди (“Ойна” журнаli, 1914 йил, 39-сон). “Сарт сўзи мажхулдур” мақоласи эса қайта чоп этилди. (“Ойна” журнаli, 1915 йил 22, 23, 25, 26-сонлар).

М.Бехбудий “Сарт” сўзининг халқона этимологиясидан тортиб, Алишер Навоий, З.М.Бобур, Мухаммад Солиҳ, Абдулғози Баҳодирхоннинг асарларигача, Н.Остроумов китобидан Д.Г.Лагофетнинг

“Бухоро хонлиги” ю, Л.М.Будогов луғатларигача, И.И.Гейер “Саёхатнома” асаридан А.Вамбери “Кундалиқлар”игача, жадидчилик ҳаракатининг Аҳмат Заки Валидийдан Исмоилбек Гаспринскийгача бўлган намоёндаларининг бу соҳадаги кузатишларини тўплаб хулосалайди.

Мутафаккирнинг барча тарихий-илмий мавзудаги мақолалари сингари бу ҳам ўтмишга қамоли эҳтиром ва чуқур эътиқод билан ёзилган. “Қабиласининг исмини ва етти отасининг отини билмай турғонларни Кул-марқуқ (кул-манкурт-Ш.С.) дерлар” - деб ёзади у.

Шунингдек, М.Бехбудий тарих сохтакорлигига қарши курашди. “Асли номаълум бир ривоят ила улуғ масалаи тарихияни ҳал этмоқликни эса тарих ҳақида жинойт санайдурлар”, деб ёзган эди аллома.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). М.Бехбудий, миллат ўзини англагандагина ижтимоий-сиёсий масалаларга бошқалар билан тенг аралаша олади, деган фикрда бўлди. Шу билан бирга, фақат Ватан тарихини эмас, балки Европа, қолаверса жаҳон халқлари тарихини ҳам билиш, сафарларга бориб, хорижий эллардаги маданият, таълим, давлат қурилиши соҳасидаги тажрибалар билан танишиш М.Бехбудийни юрт тақдири ҳақида чуқур тафаккур қилишга ундади.

Худди мана шу зарурат уни босқинчилик сабабларини англаб етиш, таракқиёт ва мустақиллик сари бориш йўллариини излаб топишга йўналтирди. Тарих мисолида тарбияланишни тавсия этди. Шунинг учун ҳам тарихга алоҳида эътибор берди. Зеро, тарбияда энг олий ҳакам-бу тарихдир.

М.Бехбудийнинг Ватан тарихи тўғрисидаги ғоялари янги Ўзбекистон истиқлоли учун дастуриламалдир!

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида.-Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. // «Халқ сўзи», 2019 йил 30 октябрь.

2. Таълим тўғрисида. - Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. // «Халқ сўзи», 2020 йил 24 сентябрь.
3. Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида. - Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. // «Халқ сўзи», 2021 йил 21 январь.
4. Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида.- Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2020 йил 29 октябрь // «Халқ сўзи», 2020 йил 30 октябрь.
5. Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида.-Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2020 йил 26 май. // «Янги Ўзбекистон», 2020 йил 28 май.
6. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. -Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори-2021 йил 26 март // «Халқ сўзи», 2021 йил 27 март.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари - Т.: «Ўзбекистон», НМИУ. -2020, 4-жилд, 4-50-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Мактаб таълимини ривожлантириш биз учун умум-миллий мақсадга, умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур // Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари.-Т.: «Ўзбекистон НМИУ», 2020, 4-жилд, 142-160-б
9. Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир // «Халқ сўзи», 2021 йил 20 январь.
10. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатнома. 20 декабрь 2022 йил // «Янги Ўзбекистон», 2022 йил 21 декабрь.
11. Мирзиёев Ш.М. «Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари» мавзусидаги Халқаро конференция иштирокчиларига // «Янги Ўзбекистон», 2023 йил 12 декабрь.
12. Mirziyoyev Sh.M «Jadid» gazetasi jamoasi va mushtariylariga // «Jadid», 2024-yil 1=yanvar №1
13. Бехбудий М. «Туркистон тарихи» керак // Бехбудий М. Танланган асарлар.-Т.: «Маънавият», -1997, 154-156-б.
14. Бехбудий М. Сарт сўзи мажхулдир //Бехбудий М. Танланган асарлар.-Т.: «Маънавият», 1997, 171-177-б.
- 15.Бехбудий М. «Сарт» сўзи маълум бўлмади. // Бехбудий М. Танланган асарлар.-т.: «Маънавият», 1997, 177-179-б.
- 16.Маънавият юлдузлари.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. -1999.
- 17.Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси. - «Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва мустақил Ўзбекистоннинг миллий истиқлол ғояси» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари - Т.: - 2002.
18. Ўзбек халқи миллий-озодлик ҳаракатининг тарихий муаммолари. Ўзбекистон Республикасининг мустақилликка эришиши ва ютуқлари (1867-2001 йиллар). Андижон-«Андижон» нашриёти. 2001.
19. Маҳмуджўжа Бехбудий-ўзбек жадидчилигининг асосчиси (Республика илмий-амалий конференция материаллари). - Қарши-2020.
20. Саматов Ш.Б. М.Бехбудий Ватан тарихи тарғиботчиси // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Ж., 2001, №6, 60-61-б.
21. Саматов Ш.Б. М.Бехбудий ва миллий анъаналар. // Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси.-Тошкент-2002, 139-141-б.
22. Саматов Ш.Б. М. Бехбудий маънавиятида миллатпарварлик ғояси // Маҳмуджўжа Бехбудий - ўзбек жадидчилигининг асосчиси.-Қарши-2020, 38-44-б.
23. Саматов Ш.Б. М.Бехбудий илмий меросида замон, халқ, Ватан. // «Тафаккур» Ж.,

2020 №3, 55-57-б.

24. Ризаев Ш., Каримов Б., Абдирашидов. Жадидлар фаолияти ибрат мактаби ёхуд Халқаро жадидчилик академиясини ташкил этишга доир айрим муаммолар. // «Янги Ўзбекистон», 2022 йил 28 декабрь.

25. Шодмонов Н. Бехбудийнинг васияти. // «Янги Ўзбекистон», 2023 йил 1 август.

26. Тожимаматова М. Уйғониш, бирлашиш онлари муборак бўлсин! // «Янги Ўзбекистон», 2023 йил 13 декабрь.

27. Ислом Эгамберди ўғли. Маънавий уйғоқлик ва огоҳликка чорлов. // «NURRIYAT», 2023-yil 13-dekabr.

ИЛМИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА МАЪРИФАТЛИ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ЗАРУРАТИ

Қамбаров Абдумутал Аҳаджонович

Фарғона давлат университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (DSc)

UDK: 396(575.1)

<https://orcid.org/0009-0007-4844-1102>

Аннотация: Мамлакатимизда кейинги йилларида маънавий мерос тубдан қайта тикланди ва идрок этила бошланди, кўхна илмий, диний, тасаввуфий манбалар қатларидаги комилликка элтувчи, маърифатли баркамолликка даъват этувчи ғоялар, фикрлар ўрганилиб, уларни бугунги кунларимиз эҳтиёжлари нуктаи назаридан тадқиқ этишга киришилди. Шу нуктаи назардан мазкур мақолада “Маърифатли авлод” тушунчаси ўзининг моҳият эътибори билан ушбу давр авлодига хос умумийликни акс эттириши ҳамда илмий ва диний қадриятлар трансформацияси орқали маърифатли авлодни тарбиялаш зарурияти, шунингдек, жамиятда юксак маърифат муҳитини яратиш жараёнида дунёвий ва диний илм уйғунлигининг ижтимоий-маънавий жиҳатлари, шу билан бирга Марказий Осиё мутафаккирларининг “Маърифатли авлод” ҳақида фикрлари илмий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Маърифатли авлод, комил инсон, маънавий мерос, илмий ва диний қадриятлар, ижтимоий-маънавий муҳит, трансформация, ақл, билим, таълим-тарбия.

Аннотация: В последующие годы духовное наследие нашей страны было полностью восстановлено и стало восприниматься, изучались идеи и мысли, ведущие к совершенству, просвещенному совершенству в слоях старых научных, религиозных и мистических источников, стали быть исследованы с точки зрения потребностей сегодняшнего дня. С этой точки зрения в данной статье понятие «Просвещенное поколение» с его вниманием к сути отражает общность поколения данной эпохи и необходимость

воспитания просвещенного поколения через трансформацию научных и религиозных ценностей, как а также социально-духовные аспекты гармонии светского и религиозного знания в процессе создания среды высокого просвещения в обществе, одновременно научно анализируются мнения среднеазиатских мыслителей о «просвещенном поколении».

Ключевые слова: Просвещенное поколение, совершенный человек, духовное наследие, научные и религиозные ценности, социально-духовная среда, трансформация, интеллект, знание, образование.

Annotation: In subsequent years, the spiritual heritage of our country was completely restored and began to be perceived, ideas and thoughts leading to perfection, enlightened perfection in the layers of old scientific, religious and mystical sources began to be explored from the point of view of the needs of today. From this point of view, in this article, the concept of “Enlightened Generation” with its attention to the essence reflects the commonality of the generation of a given era and the need to educate an enlightened generation through the transformation of scientific and religious values, as well as the socio-spiritual aspects of the harmony of secular and religious knowledge in the process of creating an environment high enlightenment in society, at the same time the opinions of Central Asian thinkers about the “enlightened generation” are scientifically analyzed.

Key words: Enlightened generation, perfect person, spiritual heritage, scientific and religious values, socio-spiritual environment, transformation, intelligence,

knowledge, education.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Илмий ва диний кадриятлар трансформацияси орқали жамиятда юксак маърифат муҳитини яратиш жараёнида дунёвий ва диний илм уйғунлигидан, илм-фан натижаларидан, ривожланган давлатларнинг таълим ва ўқитиш методологиясидан, шунингдек, миллий урф-одат ва анъаналардан, диний анъана ва одатлар, қонун-қоидалардан унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Миллий урф-одатларимиз, анъаналаримиз ижтимоий ҳаётга сингиб кетган бўлиб, улар шахснинг кадр-қимматини юксалишига хизмат қилади.

Мамлакатимиз кейинги ривожланиш йилларининг яна бир тарихий аҳамияти шу бўлдики, маънавий мерос тубдан қайта тикланди ва идрок этила бошланди, кўхна илмий, диний, тасаввуфий манбалар қатларидаги комилликка элтувчи, маърифатли баркамолликка даъват этувчи ғоялар, фикрлар ўрганилиб, уларни бугунги кунларимиз эҳтиёжлари нуктаи назаридан тадқиқ этишга киришилди. Ана шу чуқур тарихий, миллий-маънавий, умуминсоний негизлардан келиб чиқиб, “Эркин фуқаролик жамиятини маънавий баркамол, эзгу ғоялар, ҳаётий эътиқоди бўлган инсонларгина бунёд эта олиши, шунинг учун янгиланаётган жамиятимизда соғлом авлодни тарбиялаш, эркин фуқаро маънавиятини шакллантириш, маънавий-маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали баркамол инсонларни вояга етказиш ишига муҳим аҳамият берилаётгани асослаб берилди, яъни миллий истиқлол мафқурасининг асосий ғоялари қаторида комил инсон ғояси алоҳида ўрин тутиши белгилаб берилди” [1, Б. 56-57]. Шу сабабли ҳам ўсиб келаётган ёшларни комил инсон даражасида тарбиялаш, маърифатли авлод бўлиб шаклланишларида ўз хиссаларини қўшиш жамият аъзоларининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Бу вазифа юксак илм-фан, маънавият ва илғор тафаккур эгалари сифатида дунёни

ҳайратга солиб келган буюк аждодларимизнинг бош мавзуи бўлиб келган. Шундай экан, бугуннинг долзарб вазифаси сифатида билимли ва маърифатли авлодни тарбиялаш ва жамият тафаккурини ўзгартириш эканлигини келиб чиқади.

“Маърифатли авлод” тушунчаси ўзининг моҳият эътибори билан ушбу давр авлодига хос умумийликни акс эттиради. Бу умумийлик эса, биринчи галда, мазкур авлоднинг мустақилликни мустаҳкамлашдаги ижодий изланиши билан характерланади. Айни вақтда, мазкур тушунча баркамол инсон деб, номланувчи давр кишиларининг энг муҳим белгиларини, улар табиатини белгилайдиган жиҳатларини, уларнинг қизиқиш ва интилишлари билан боғлиқ бўлган ҳолатларини, турмуш тарзини, мафқуравий умумийликни ҳам ифодалайди. Шу ўринда алоҳида таъкидлаш керакки, бир жиҳатдан маърифатли авлод тушунчасининг мазмуни шу авлодда содир бўлаётган ижтимоий-маънавий сифат ўзгаришлари ташкил қилса, айни вақтда, мазкур тушунча жамиятдаги ўзгаришларнинг системали амалга ошишида, уни билишда муҳим рол ўйнайди. Шу нуктаи назардан маърифатли авлод табиий-ижтимоий борлиқ билан гармония қонуниятларига мувофиқ рационал, анланган муносабатда бўладиган инсондир. Шунингдек, ижтимоий идеал нуктаи назаридан маърифатли авлод билан олам ўртасидаги гармоник уйғунлик ўзининг қонуниятларига итоат этиб, фаолиятида уларга амал қилиб, ижтимоий-маънавий ҳаётда гармоник ривожланишни барқарор кадриятга айлантириб, ўзи ҳам ушбу уйғунликдан завқланиб, баҳра ва илҳом олиб яшайдиган инсондир.

“Маърифатли авлод” тушунчаси ўзбек халқи тарихида алоҳида фахр ва ифтихор билан қўлланадиган, баҳоланадиган ва қадрланадиган авлоддир. У ўз елкасига жамиятни тубдан қайта қуриш, янги мафқуравий маконни вужудга келтириш, ўзбек миллатини ва давлатни жаҳон

хамжамиятига танитиш вазифаларини олади.

“Маърифатли авлод” тушунчаси давр кишига хос бўлган умумийликни акс эттиради. Бу умумийлик эса, биринчи галда шу давр кишисининг мамлакатини мустаҳкамлаш учун олиб бораётган ижодий изланишлари билан характерланади. Айни вақтда, мазкур тушунча маърифатли авлод деб номланувчи давр кишиларининг энг муҳим белгиларини, улар табиатини белгилайдиган жиҳатларини, шунингдек, уларнинг қизиқиш ва интилишлари билан боғлиқ бўлган муаммоларини, турмуш тарзини, мафкуравий умумийликларини ҳам ифодалайди. Маърифатли авлод мамлакат келажаги, жамият таянчи ва унинг ажралмас қисми, давлат ва жамиятнинг ноёб ҳамда тенгсиз интеллектуал бойлигидир.

ADABIYOTLAR TASHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

“Маърифатли авлод” тушунчаси Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарида марказий ғоя сифатида талқин этилади. Мутафаккир “Маърифатли авлод” ҳақида гапирар экан, камолотнинг қатор белгиларини кўрсатиб ўтади. Уларнинг энг асосийси сифатида эса алоҳида шахснинг ўз манфаатлари, шахсий истаклари доирасини ёриб чиқиб, бошқалар ғами билан ҳам яшаши, кўпчилик манфаати учун фидойи бўла билишидир[2, Б. 21-22], - деб таъкидлайди. Мовардий, Абул Ҳасан ўзининг “Дунё ва дин одоби” асарида эса илм эгаси, яъни баркамол авлод ўз нафсини тийиб, унга лозим ишни қила олса, дўстларининг маломати ва душманларнинг таҳқиридан сақланадилар, - дейди. Шунингдек, профессор Нажмиддин Комилов ўзининг “Тасаввуф” асарида комил инсон, яъни баркамол инсонлар жамияти ичида етишиб чиқадиган мўътабар зотдир. У азалдан мартабаси аниқ бўлган руҳ эмас, балки ахлоқий-маънавий покланиш жараёнида камолга эришадилар, - деган фикрни айтадилар.

Маърифатпарвар олим Алихонтўра Соғуний ҳазратлари ҳамда Аҳадхонтўра Ғаффоровнинг “Биздан эмасдирлар, ватанни севмаганлар” номли рисоаларида таъкидлаганларидек, дин ва илм маърифатли авлоднинг ички зиддиятини бартараф этиш учун энг олий йўлидир.

Файласуф олимлардан Ҳасан Пўлатов, Мамажон Маматовнинг “Тасаввуф тарихидан лавҳалар” номли китобида “Маърифатли авлод”ни шаклланишида диний муассасаларнинг аҳамияти катта эканлигини айтиб ўтадилар.

Бугунги кунгача олимлар илмий ва диний қадриятлар трансформацияси ва маърифатли авлодни тарбиялаш йўллари турли ракурсларда ўрганиб, янги илмий методологик усуллар асосида таҳлил қилиб келмоқдалар. Жумладан, мазкур мақолани ёзишда диалектик, тарихийлик ва мантиқийлик, тизимлийлик, комплекс ёндашув, қиёсий таҳлил усуллардан оқилона фойдаланилди.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Бугунги кунда жамият аъзолари билимли, юксак ахлоқли, маданиятли, чуқур илмий дунёқараш ва тафаккурга эга бўлишлиги талаб қилинади. Бунда таълим муассасалари тизими ёшлар илмий дунёқарашининг шаклланишида муҳим восита ҳисобланади. Шу боис ёшлар дунёқарашининг юксалишида унга объектив таъсир этувчи позитив омиллар – қадриятлар тизими, бу тизимда дунёвий билимнинг ўрни, маърифатли авлод тарбиясида қандай билимлар зарурлиги ва уларни қандай услублар асосида узатиш, инсон қадриятлари тизимидаги муайян ўзгаришлар, миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги мазкур тизимдаги трансформацияларни ташкил этади.

Ҳозирги даврда жамият аъзолари эгаллаган билим даражаси, миқдори, мазкур билимни тарқатиш, ўзлаштириш, қайта ишлаш ва янги билим ишлаб чиқариш имкониятлари миллий маданият тараққиётини, юксалишини белгиловчи асосий мезондир. Ақл, билим ва таълим инсонларни бирлаштирувчи омил бўлиб, ҳар қандай модернизация ёндашувнинг

зарурий компонентидир. Ақл, аксарият маънода, фалсафий тушунча бўлиб, инсоннинг билиш, фикр юритиш қобилиятини англатади, заковат, етуклик даражасини ифода этади. Ақл инсоннинг идрокини, фикр-мулоҳазасини, фахм-фаросатини акс эттирса, шулар заминиди унинг ижтимоий ҳаётга муносабатини шакллантиради ва фаолиятини вужудга келтиради. “Агар илм эгаси ўз нафсини ҳақиқатда тийиб, унга лозим ишни қила олса, дўстларининг маломати ва душманларнинг таҳқиридан сақланади. Шунда илм фазилат устига гўзал ҳимоя ва поклик иззатини жамлайди ва ўз фазилатлари туфайли ҳақли бўлган мартабага эришади”[3, Б. 42].

Маънавий-ахлоқий ва аксиологик қадриятлар маърифатли авлодни тарбиялашда муҳим омиллар деб кўрсатилса-да, бу билан чекланиб қолмаслик зарур. Чунки, маърифатли авлодни тарбиялаш ҳамда жамият тараққиётида уларнинг ҳар томонлама иштирокини таъминлаш билан намоён бўлади. Жамият аъзоларини илм-маърифатли қилиб тарбиялашда ижтимоий муҳит ҳолати муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда маърифатли авлодни тарбиялашда лозим бўлган маънавий-ахлоқий ва аксиологик қадриятларнинг асосий таркибини белгилаб олиш керак. Шунингдек, белгилаб олинган қадриятларни инсон онгига сингдиришнинг қулай ва замонавий технологияларини ишлаб чиқиш эса ҳамон долзарб бўлиб турибди.

Бу ўринда, комил инсонга (маърифатли авлодга) хос сифатлар алоҳида олинган камдан-кам инсонлардагина учрайди, бинобарин жамиятда комил инсонларни топиш, улар билан суҳбат куриш, фазилатларидан баҳра олиш имкони чегараланган эканда, деган иштибоҳларга ўрин йўқлигини ҳам айтиб ўтиш лозим. Бундай саволларга жавобан мазкур мақолада шундай хулосалар келтирилади: “Комил инсон инсонлар жамияти ичида етишиб чиқадиган мўътабар зотдир. У азалдан мартабаси аниқ бўлган руҳ эмас,

балки ахлоқий-маънавий покланиш жараёнида камолга эришгандир. Шу учун ҳар бир пок ахлоқли, илоҳсевар шахс комилликка интилиши ва бу йўлда насиба олиши мумкин. Комилликнинг олий белгиси Ҳақ йўлдан бориб, халққа фойда келтиришдир. Киши ўз сўзи, амалий ишлари, нияти билан одамларга қанчалик наф келтирса, ёмонларни тўғри йўлга солса, Ҳақ йўлида фидо бўлса, у шунча комилдир”[4, Б. 136].

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ислом таълимотида маърифатли авлодни шакллантириш муаммоси бош мақсад даражасига кўтарилган бўлиб, кишини руҳий ва маънавий жиҳатдан поклаш орқали баркамол, комил инсонни тарбиялаш масаласи туради. Шуниси эътиборлики, тасаввуф диний фалсафий дунёқараш бўлиб, унинг асосий мазмуни инсонни комиллик томон етаклашдир. Бу таълимот вакиллари шахсий руҳий тажриба орқали Оллоҳ билан руҳий мулоқотда бўлиш (Оллоҳга етишиш ва унга сингиб кетиш) мумкин деб ҳисоблайдилар. Бунга дилида Оллоҳга муҳаббати, илоҳий йўлда борадиган киши жазба (зикр) ва тажалли воситасида эришади [5, Б. 27].

Маърифатли авлодни шаклланишида диний муассасаларнинг аҳамияти ислом динини вужудга келишининг сарчашмаларидаёқ беқиёс бўлганлиги ва муқаддас динимизни асосий таянчи бўлганлигини барча исломшунос тадқиқотчилар таъкидлайдилар. Бу мавзу ўзининг ғоят кенг, кўп қиррали ва узок тарихий заминларга эга эканлиги билан алоҳида ва фундаментал изланишларни талаб қилади. Ушбу ишда, маълум манбаа ва тарихий адабиётларга таянган ҳолда мавзунинг ислом диний муассасаларининг баркамол инсон тарбиясидаги ўрни ва роли, инсонни баркамоллик мартабасига кўтарилишидаги диний ташкилотлар эришган тажриба ва уларни таълим тарбиядаги аҳамияти мухтасар кўриб чиқилади. Шунини қайд этиш лозимки, диний-исломий ташкилотлар кўлами ва таркиби жуда кенг. Улар фаолиятининг

негизда шубҳасиз, инсон уни ислом дини, Қуръони Карим, шариат, ҳадислар асосида маърифатли авлодни тарбиялаш вазифаси туради.

Аслида, маърифат илм-фан ва билим олиш билан чамбарчас боғлиқ. Содда қилиб айтганда, билимли инсонни маърифатли инсон сифатида таърифлаш мумкин. Билим – шахснинг зарурий таркибий қисми бўлиб, у инсонни таълим олишида ёрдам беради ва мустақил ҳаётга бўлган интилишини фаоллаштиради. Дунёвий ёхуд диний мазмундаги билимга эга бўлиш юксак бахт, баркамоллик, комиллик ва кадр-қиммат, эътиборга лойиқлик билан тенглаштирилади. Зеро, файласуф Афлотун: “Оламда билимдан кучли нарса йўқдир. Билим ҳар қандай ҳузур-ҳаловатдан ҳам, бошқа нарсалардан ҳам зарурроқдир”, - деган бўлса, “Инсон билим туфайлигина барҳаётдир. Билим, тафаккур инсон ҳаёти, барҳаётлиги негизидир”, - дейди Гегель[6, Б. 13]. Ҳақиқатан ҳам барча ижтимоий кадриятлар орасида билимга бўлган муносабат юксак бўлиб, инсоннинг жамиятдаги мавқеи, унинг баркамоллиги бевосита билимга боғлиқдир. Мутафаккир Имом Бухорий бўлса “Дунёда илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмаслигини”[7, Б. 156] таъкидлаган эди. Бугунги кунда жамиятимизнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш, маърифатли авлодни тарбиялашнинг асоси бўлган таълим-тарбия соҳасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Шундай қилиб, таълим-тарбия тизимини ислоҳ этиш ва модернизация қилиш, уларни маърифатли авлодни тарбиялашдаги ўрни ва ролини оширишда муҳим босқич бўлди.

Илмий ва диний кадриятлар уйғунлиги асосида маърифатли авлодни тарбиялаш орқали ижтимоий онгга ижобий таъсир кўрсатиш мумкин. Теран тафаккур ва кенг дунёқарашга эга маърифатли ёшларни тарбиялаш жараёнининг мазмуни ва характерли хусусиятлари, шунингдек, бевосита фуқаролик жамияти вазифалари билан боғлиқ. Жамиятнинг янги тараққиёт босқичида илмий ва диний кадриятлар

трансформацияси орқали маърифатли авлодни тарбиялаш орқали жамиятда тинчлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини яратишдир. Бу борада давлатимиз раҳбарининг ўз йўли ва яқдил қараши мавжудлигини таъкидлаш жоиз.

“Ўзбекистон миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик соҳасида ўз анъаналарига доимо содиқ бўлиб, бу йўлдан ҳеч қачон оғишмасдан илгари боради. Мамлакатимизда турли миллат ва диний конфессиялар вакиллари ўртасида ўзаро ҳурмат, дўстлик ва аҳиллик муҳитини мустаҳкамлашга биринчи даражали эътибор қаратилади”[8, Б. 54]. Жамият аъзоларида илм ва динни кадрлаш ва уларга ҳурмат кўрсатиш, илм ва дин уйғунлигини яратиш орқали диний конфессиялар ўртасида ҳамжихатлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш мумкин.

Зеро, “Ислом дини ақлга аҳамият берган диндир. Инсон хоҳ ўз борлигида ва хоҳ кўкларда ва ерда бўлсин, Оллоҳнинг бутун қудрат асарларини англай билиш учун фақат соғлом бир ақлга эга бўлмоғи лозим. Мусулмонлик ақлга юксак бир мавқе бергани каби илмнинг ҳам қийматини юксалтирган, ҳар кимга илм олишни фарз қилган, ҳақиқат қаерда бўлса, олинишини билдирган. Бу сабабдан мусулмонликдан фойдали илмларга, фанларга тескари бир ҳукм йўқдир ва бўлмади ҳам”[9, Б. 338]. Демак, исломдаги илм олиш, ҳақиқатга интилиш даъватларини ислом дунёсига сингдириш орқали улардаги илмий-интеллектуал фаолиятни жонлантириш ва тараққий эттириш мумкин.

Ўзбекистоннинг илм ва динни бирдай кадрлаш ва уларни уйғун ҳолда ривожланишини таъминлаш сиёсати жаҳон ҳамжамияти томонидан ҳам тасдиқланмоқда. Ушбу ишларнинг натижаси сифатида 2017 йил сентябрь ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг ялпи мажлиси 72-сессиясида Ўзбекистон томонидан илгари сурилган томонидан муҳим бир ҳужжат – “Маърифат ва диний бағрикенглик”

резолюцияси қабул қилинишини келтиришимиз мумкин.

Жамиятнинг янги тараққиёт босқичида илмий ва диний кадриятлар трансформацияси орқали маърифатли авлодни тарбиялаш жамиятда тинчлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини яратади. Зеро, маърифатпарвар олим Алихонтўра Соғуний ҳазратлари таъкидлаганларидек, “Инсон демак шундоқ мураккаб нарсадирки, унинг вужуди шу уч турлик – раҳмоний, хайвоний, шайтоний қувватлар билан яратилишидир” [10, Б. 16]. Демак, дин ва илм маърифат инсоннинг ички зиддиятини бартараф этиш учун энг маъқул йўлдир.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION. Хулоса қилганда, дин, давлат ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг янги конфигурацияси бутун бир ижтимоий-сиёсий маконни қайта шакллантиришни акс эттиради, бу ижтимоий тараққиётнинг имкониятлари ҳақида кенгрок ахборотни рағбатлантириш, аниқлик ва универсаллик муносабатларига боғлиқ. Бугунги

глобаллашув жараёнида замоннинг мураккаблиги ва қийинчиликлари экстремистик таҳдидлардан ижтимоий кадриятларгача, динийлик ва дунёвийлик ўртасидаги мувозанат масаласини, дунёвийлик тамойилининг нозик чегараларини кўриб чиқишдан ижтимоий жихатдан синалган маънавий-ахлоқий меъёрларгача кўплаб диний зиддиятларда ўз аксини топмоқда.

Онтологик, институционал ва цивилизациялашган прогнозлардаги диний ҳамда конфессионал параметрлар янги ижтимоий структураларни яратишнинг усуллари ва маънолари сифатида талқин қилинади. Бугунги кунда баъзи давлатларда давлат, жамият ва дин ўртасидаги муносабатларда динийлик ва дунёвийлик мувозанатини таъминлаш механизмларининг яратилмаганлиги ёки тўғри йўлга қўйилмаганлиги фақат илмий тадқиқотларни амалга оширибгина қолмай, балки давлат, жамият ва дин ўртасидаги муносабатларнинг янги механизмларини яратиш ҳамда такомиллаштириш масалаларини кун тартибига қўймоқда.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон. 2001. –Б. 56-57
2. Каримов К. Илк бадиий дoston. –Тошкент: Ўқитувчи. 1976. –Б. 21-22
3. Мовардий, Абул Ҳасан. Дунё ва дин одоби. –Тошкент: Hilol-Nashr. 2017. –Б. 42
4. Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Моварауннахр – Ўзбекистон. 2009. –Б. 136
5. Ҳасан Пўлатов, Мамажон Маматов. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2011. –Б. 27
6. Тошболтаев М. Олим, илм, кашфиёт ва тараққиёт. –Тошкент: Фан. 2012. –Б. 13.
7. Абдуллаев А. Илмдан бошқа нажот йўқ. –Тошкент: Тошкент ислом университети. 2017. –Б. 156.
8. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2019. 3-том. –Б. 54.
9. Кўнпара, Муҳаммад Зако. Муҳаммад (с.а.в.) ва ислом тарихи (Ислом тарихидан сабоқлар). –Тошкент: Шарқ. 2017. –Б. 338
10. Алихонтўра Соғуний, Аҳадхонтўра Ғаффоров. Биздан эмасдирлар, ватанни севмаганлар. –Тошкент: “Моварауннахр”, 2005. –Б. 16.

КЎХИТАНГДАГИ ҚАДИМГИ КОНЧИЛАР МАНЗИЛИ

Шариф Ёқубов

Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди.

UDK8/81(81,33)

E-mail: sharif.yoqubov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-8677-1325>

Аннотация: Мақолада Кўхитанг тоғининг шарқий қисмида жойлашган бир қатор топонимлар қадимги конлардан дарак бериши ҳақида фикр юритилади. Муаллиф ушбу тоғ бағрида жойлашган қадимги конларни кузатди. Баъзи жой номларининг тоғ-кон ишлари билан боғлиқ эканлигини аниқлади.

Калит сўзлар: Кўхитанг тоғи, қадимги кон харобалари, Тиллакон, Чўянкон, Кампиртепа, Эшимтепа, қадимда маъданларни қазиб олиш, ер ости гумбазлари.

Абстракт: В статье предполагается, что ряд топонимов, расположенных в восточной части горы Кохитанг, указывают на древние рудники. Автор наблюдал древние шахты, расположенные в этой горе. Он обнаружил, что некоторые топонимы связаны с добычей полезных ископаемых.

Ключевые слова: гора Кохитанг, руины древней шахты, Тиллакон, Чоянкон, Кампиртепа, Эшимтепа, горное дело в древности, подземные купола.

Abstract: The article suggests that a number of toponyms located in the eastern part of Kohitang Mountain indicate ancient mines. The author observed the ancient mines located in this mountain. He found that some place names are related to mining.

Key words: Kohitang mountain, ancient mine ruins, tillakon. Choyankon, Kampirtepa, Eshimtepa, mining in ancient times. underground domes.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Қадимги даврлардан бошлаб ота-боболаримиз тоғ-кончилик ишлари билан шуғулланиб келганлар, Уларнинг ҳаёти, турмуш тарзи ва уй-рўзғор буюмлари ва асбоб-анжомлари ва

курол-аслаҳалари узоқ-узоқдаги халқларни лол қолдирган. Бу юртнинг қимматбаҳо металлларга, хусусан, олтинга бой эканлиги эрамиздан аввалги юнонларнинг ҳам диққатига тушди. Юнон олими Страбон «Улар (массагетлар) темир ва кумушни сира ишлатмайдилар, бироқ олтин ва мисга мўлдирлар», деб ёзган эди. Буюк бобомиз Беруний эса дунёда биринчи бўлиб олтиннинг солиштирма оғирлигини ўлчади. «Минерология» китобида Ўрта Осиёнинг баъзи жойлардан олтин ва қимматбаҳо металллар қазиб олинганлиги ҳақида маълумот берди [1]. Эрамизнинг VII асри Хитой сайёҳи Сюань-Цзан юртимизда бўлиб, бу ерликларнинг олтин ва кумуш билан савдо қилишини қайд қилган. Хуллас, юртимизда тоғ-кончилик ишларининг тараққиёти узоқ асрларга бориб тақалади. Бу маълумотни археологик қазилмалар ҳам тасдиқлади. Кўхитанг тоғи ҳам кўҳна тарихда қадимги кончиларга манзил бўлиб келганлиги ҳақида қимматли маълумотлар бор. Бу ҳол биринчи навбатда ушбу тоғ худудидаги ўрин-жой номларида яққол кўринади. Тоғнинг кунчиқар ва кунботар тарафида жойлашган Хомкон (Хамкон), Қўрғошинкон, Чўянкон, Тиллакон, Хўжанкон, Шолкон, Зарабоғ, Кампиртепа, (Конпиртепа). Лайлаган, Заравут, Чўянли, Гаурдак қишлоқлари қадимги конлар ва кончиларнинг изларидан хабар берувчи номлар ҳисобланади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ҳозирги кунда Кўхитанг тоғи бағридан турли даврларда, қўрғошин, олтин, чўян, зак, тошқўмир, олтингургурт, мармар, оникс, аччиктош, туз, темир, гранит сингари ер ости бойликларини қазиб олингани маълум. Ана шундай жой номлардан бири Кампиртепа

(Конпиртепа)дир. Бу хусусда шу қишлоқлик мархум Норқобил бобо қуйидагича изоҳлаган:

«Кампиртепа 3 мустақил қисмдан иборат бўлиб, кон, пур, тепа сўзларидан тузилган. Кўхитанг тоғининг ушбу қишлоқ худудига қарашли қисмида бир қатор конлар бўлган. Топоним таркибидаги кон(кан) ер ости бойликларини қазиб олиш жойи, пур-тожикча кўп, тўла, тепа (тўба) баландлик, қир тарзида изоҳлаб, топонимни хилма-хил конларга бой, бир қатор конлар мавжуд бўлган тепалик, маъносини англатади. Сурхондарё вилоятининг иқтидорли қадимшунос олимлари Тўхташ Аннаев ва Шопўлат Шайдуллаевлар ҳам кейинги асарларида “Ўлкада темирчилик ривожига Бойсунтоғ ва Кўхитанг тоғларидаги конларнинг жадал ўзлаштирилиши ҳам катта таъсир кўрсатган X асрдан бошлаб Бойсунтоғ жанубий ёнбағридаги Тўда, Хўжа Қашқарон, Алами, Хомкондаги Чўянли, Кўхитангдаги Кампиртепа (Коникур) атрофида кончиларнинг йирик-йирик устахоналари ва маҳаллалари пайдо бўлган”[2] лигини алоҳида қайд этадилар ва Кампиртепа топонимини “Коникур” тарзида изоҳлаб, ушбу қишлоқ худудига бир қатор кончилик ишларининг тарихда тараққий этганлигини баён қилади. Профессор Тўра Нафасов фикрича «Кампир» – сўзи қадимги сўғд тилидаги **канди пир** (ак) қадимий вилоят) бирикмасининг ўзгаргани. Қулдорлик тузуми ва илк ўрта асрларда йирик шаҳарлар ва воҳа атрофи мустақам деворлар билан ўралган, бу девор канди пир (ак) деб аталган. Деворнинг бурж дарвозалари бўлган. Кампиртепа бурж ёки дарвоза ўрни, кўрғон харобаси бўлган жой» [3]. Кўринадик юқоридаги фикрларининг барчасида Кампиртепа қишлоғининг қадимийлиги тоғ-кончилик ишларини ривожланганлиги ва бир неча конларнинг мавжуд бўлганлигига ишора қилинади. Ўзбек геологларининг қатор асарларида Кўхитанг тоғининг Шарқий ёнбағрида айнан шу худудига қадимдан олтин, чўян, қўрғошин қазиб олингани

қайд этилган

Маълум бўлишича, Ўрта Осиёда қадим замонлардан ҳозиргача маълум бўлган 44 та олтин кони майдонларининг 39 тасида мозийдаги кон харобалари ва саралаш вақтида ажратилган тош уюмлари бор [4]. Бу кон эрамиздан V аср бурун ва эрамизнинг V-XII асрларида қазиб олинган туб олтин кон харобаларидир. Кон шахта усулида қовланиб, унинг чуқурлиги 30 метр деб кўрсатилган. Ушбу келтирилган кон харобаси Кўхитанг тоғидаги Кампиртепасойнинг юқори қисмида жойлашган Беклар ишлаган ва Заҳарли номлари билан машҳур бўлган жойнинг ёнида. Уни халқ Тиллакон деб аташади. Қишлоқнинг кўплаб одамлари бу жойни билади ва геолог қидирувчиларни бир неча бор конга бошлаб боришган. Бир неча одамлар конга кириб чиқишган. Шу қишлоқлик кекса педагог Абдулла Бойматов қуйидагича ҳикоя қилади: «Тиллаконга бир неча марта борганман. Ер ости бойликларини қидирувчи геологлар билан ҳам кон харобасига кирганман. Кон шахта усулида ишланган. Шахта бўйлаб ичкарига юргач, 5-6 метрдан кейин айлана қилиб қовланган усти гумбаз шаклидаги 1-ер ости уйига кирдик. Гумбазли уй деворларининг баъзи жойлари қорайиб кетган. Бу деворларни кўриб, қадимги кончиларнинг ишлари олдида лол қолдик. Бу ерда гўё уларнинг руҳлари ниманидир бизга ҳикоя қилаётгандай эди. Ғорнинг ичи ўта даражада сокин ва тинч эдики, бизнинг нафас олишимиз ҳам сезилиб турарди. Кейин қиска йўлакдан ўтиб, ичкарига кирганимизда яна шундай гумбазли уйга тўғри келдик. Иккинчи кенглик ҳам гумбаз усулида ишланган эди. Шу ердан бошлаб гумбазнинг айланаси бўйлаб ҳар томонга шахта усулида йўл кетган. Тоғ бағри илма тешик шаклида қовланган. Яна бир оз тўғрига юрдикда, шовуллаб оқаётган сувнинг овозини эшитдик.

Ёнимдаги рус кишининг оёғи тўсатдан бир нарсага тегиб кетди. Олиб қарасак, одамнинг бош суяги экан. Шундан сўнг у одамнинг олдинга юришга

юраги дов бермади. Ғор борган сари қоронғилашиб, кетаверди. Кондан чиқдик. Бу конга кириш учун карбитли чироқ керак эди. Ана шу махсус чироқ билан киришни режалаштирдик. “Кончиларнинг карбитли чироғини олиб келишди. Бирок яна Тиллакон ғорига кира олмадик. Тоғ қидирувчиларининг карбитли чироқлари ва махсус кийимлар ҳозир ҳам менинг уйимда турибди,-” деди устоз биз билан 1998 йилнинг баҳорида бўлиб ўтган суҳбатда. Тиллакон ғорининг чуқурлиги ҳозиргача тўлиқ аниқланмаган. Кон деворларида қадимги кончиларнинг теша излари шундайгина билиниб турибди. Улар тоғ жинсларини ёғочни қирққандай ковлаб олишган».

Одамларга маълум бўлган конлардан яна бири, тоғнинг Мечелисойи юқори қисмида жойлашган Чўянкон ҳисобланади. Чўян кони ҳам жуда қадимда ишланган бўлиб, маъданларни қазиб олишда турли хил усуллардан фойдаланишган. Мақола муаллифи ушбу кон харобаларани 1997 йилнинг июнида кузатишга муяссар бўлди. Кузатишимизча, маъданларни қазиб олишда қадимги кончилар очик ҳолда ковлаш, шахта ва қудуқ усулларида қазиб олишдан фойдаланганлар. Узунлиги тахминан 300 метр, энг 60-70 метрлик тепаликни илма-тешик ҳолида ковлаб, керакли металлларни эритиб олишган. Кон харобаларининг қолдиқлари 20-15 метр чуқурликда сақланган. Атрофдаги майдонларда пўлатнинг чиқиндилари сочилиб ётибди. Ушбу коннинг номи мамлакатимиз илмий оламига кўпдан буён маълум. Х. Раҳматуллаев, Н.Убайдуллаев қаламига мансуб «Қадимги номлар изидан» китобида бу кон ҳақида анча аниқ фикрлар берилади. Китобнинг 9-бетидаги Ўзбекистонда кон турларидан дарак берувчи номларининг жойлашиш харитасида ҳам Кўҳитангнинг шарқий қисмида Чўянкони, Кўрғошинкониининг ўрни аниқ кўрсатилган [5]. Бундан ташқари тоғнинг ушбу ҳудудида Заккон, Аччиқтошкон сингари жой номлари ҳам бўлиб, улардан қадимда ота-боболаримиз турли хил мақсадларда фойдаланишган.

Уларни қазиб олишган. Қишлоқда жойлашган Эшимтепа. Кампиртепа, Қўчқортепа, Дуғоб сингари тепаликлар қадимги кончилардан қолган муҳим тарихий объектлар ҳисобланади. Тоғ бағридан қазиб олинган металлларга коннинг яқинида дастлабки ишлов берилган бўлса, ҳам уни яна маълум даражада тозалаш лозим эди. Бу ишлар бевосита ҳозирги Кампиртепа қишлоғида жойлашган қадимги кончилар шаҳарчасида(масканларида) бажарилган.

Қадимда ҳар бир давлатнинг қудратини оширадиган асосий металл олтин эди. Шу туфайли аксарият ҳолларда олтин конлари махфий сақланарди. Бу ҳақда хабарлар савдогарлар ва элчилар орқали хорижий давлатлар, жумладан Россияга тарқалган эди. “Шу билан биргаликда мавжуд олтин конлари давлат(подшо) ихтиёрида бўлиб, уларнинг кўпинча қаттиқ сир тутилиши ва бегоналар яқин йўлатилмаслиги ҳақида ҳам хабар қилинар эди.” [6]. Кон атрофлари ва олтинга ишлов беришга мўлжалланган аҳоли пунктлари ва уларнинг фаолияти сир тутилган. Давлат бошлиқлари олтин қонида ишловчиларни бошқа мамлакатлардан қул сифатида сотиб олишган. Баъзи ҳукмдорлар даврида конга олиб боргунча уларнинг кўзларини боғлашган. Ҳар хил сабабларга кўра ҳукмдорларнинг алмашиши билан олтин конларида ишловчи барча кончилар тарқалиб кетишган. Айрим ҳолларда эса улар ўлдириб юборилган. Конлар бузиб харобазорларга айлантирилган. Кон ва унинг атрофлари шу даражада бузиб ташланганки, бугунги кунда уларни излаб топиш қийин. Бу ҳол халқ орасида олтин конларини қадимги кончилар «тилсимлаб кетган» лиги ҳақида ривоятларнинг юзага келишига асос бўлган.

Олтин ёқимли, сариқ рангга, иссиқ жилвага эга, осон кесилади, тарашланса, силлиқланса жилваси ортади. У 1063 даража иссиқликда эрийди. Катта зичлик ва солиштирма оғирликка эга. Тўлатиб олтин қўйилган бир литрлик шишанинг оғирлиги 18-19 килограмга тўғри келади...

Уни фақат энг кучли (концентрлашган) «Подшо ароғи» (кучли концентрациялашган хлор ва азот кислоталари аралашмасигина эрита олади [7]. Кондан казиб олинган тоғ жинслари орасидан олтинни ажратиб олишда қайси бир усул қўлланмасин, ўтмишда ҳам, ҳозирги кунда ҳам сув билан ювишни талаб қилган. Олтинни рудадан ажратиб, олиш бевосита сув билан боғлиқ бўлади. Кўхитанг тоғидан казиб олинган рудага дастлаб тоғнинг ўзида биринчи ишлов берилган. Уни сифатли тозалаш ишлари тоққа яқин бўлган махсус корхоналарда бажарилган. Кампиртепа қишлоғининг ўртасида жойлашган Эшимтепа (қўрғон) ана шундай жой бўлиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Тепаликнинг бир томони Кампиртепа дарёсига туташ бўлиб иккинчи жаҳон урушидан олдинги йиллар ер ўзлаштириш мақсадида тепаликнинг жануб томонидан ариқ ўтказишганда, дарё томонга қия ҳолда йўналтирилган сопол қувурларга дуч келган. Улар қатъий қияликда сой томонга кетган эди (ахборотчи Карим Шукуров). Кейинги 150-200 йил давомида тепалик атрофидан вақти-вақти билан ана шундай сопол қувурлар топилиб турибди. Ана шундай қувурлардан бирини Япониялик машҳур қадимшунос Кото Кюдзе кўриб: «Бу қувурлар илк Кушон даври маданиятига хос, у ерларни, албатта бориб кўриш керак экан», деганди. Бу ерга эса сув Кампиртепа тепалигидан келган. Яна бир муҳим томони шунда-ки, Кўхитанг тоғининг кунчиқар томонида жойлашган бир неча конлар ва қишлоқларнинг номлари бевосита олтин казиб олиш ва унга ишлов бериш билан боғлиқ бўлганлигидан далолат беради, Бу ҳудуддаги Заравут (Зар – олтин, овут – обод). Тиллакон на Зарабоғ (зар – олтин, об – сув, дарё – ак қадимда кичрайтириш маъносини билдириб, ўрин-жой номларига кўшилган. Зарабоғ – олтинли кичик дарё) номлари бевосита Кўхитанг олтин конидан дарак берувчи номлар бўлса ажаб эмас. Чунки тоғ ён бағирларини бир-бири билан боғловчи қадимги арава йўллари (Ширжон –

Мачили – Кампиртепа – Шолкон – Қизилолма – Заравутсой)нинг изи қайта-қайта ана шундай хулоса чиқаришга олиб келмоқда. Албатта, арава йўллари бугунгача сақланиб қолмаган, бироқ диққат билан кузатган одам уни илғаб олади. Мустақиллик йилларида айнан шу жойлардан автомобиль йўли курилди. Махсус кесилган қирлар, адирлар ва текисликларнинг қатъий бир чизикда ётишини кузатиш мумкин. Кампиртепа топоними таркибидаги иккинчи сўз пур хинд тилидаги шаҳар, посёлка, аҳоли яшовчи манзил маъноларини ҳам англатади. Агар уни топоним таркибидаги кан сўзи билан қўшсак Канпур (Канпур кан шаҳар, конли жой, кончилар шаҳри, кончилар манзили маъноларини билдиради. Узоқ даврлардан буён қадимги Ўрта Осиё билан Ҳиндистон халқлари яқин алоқада бўлиб келишган. Бир вақтлар улар бир дин (Буддизм)га сиғинишган. Ўрта Осиё шаҳарларида хиндларнинг карвонсаройлари, савдо расталари ҳам мавжуд эди. Жуда кўп тадқиқотлардан кейин В. В. Бартольд «Ҳиндлар Бухоро ва Балхда ҳам Будда дини тарқамасдан олдинроқ яшаган бўлишлари мумкин деб хулоса чиқарди. Ҳозирги ўзбек адабий тилига ўзлашиб кетган сандал, товус, чов, чодир сўзларининг хиндча эканлигини ҳамма ҳам билавермайди. Таниқли олим Баҳром Вафоев Алишер Навоий асарлари тилини тадқиқ қилар экан, шоир асарларида билвосита ўзлаштирилган хиндча сўзлар ҳам учрайдики, уларнинг қачон ва нима воситасида эски ўзбек тилига кириб келганлигини аниқ белгилаш қийин. Халқлар ўртасидаги алоқалар биринчи навбатда уларнинг тилларида. топонимикаси (жой номлари)да ўз аксини топади. Мамлакатимизнинг гўзал шаҳарларидан бири Бухоро номининг келиб чиқишига хинд тилидаги Бихар вахар, вихара (будда ибодатхонаси) сўзининг асос бўлганлиги топонимист олимлар (В.А.Никонов, Т.Нафасов, С.Қораев) қайд этганлар. Тарихдан маълумки, узоқ ўтмишда Хитой, Афғонистон, Эрон, Шимолий Ҳиндистон

ва Ўрта Осиёда яшовчи қавмлар турмуш тақозоси билан бир юртдан иккинчи бир юртга кўчиб юрганлар. Сурхондарё тупроғида яшовчи қавмларнинг баъзилари бошқа юртлардан келиб қолганлиги илмий жиҳатдан исботланган. Бу воҳамиздаги баъзи жой номлари келиб чиқиш жиҳатидан тадқиқ этишни тақозо қилади. Шерободдаги Кофирқалъа топоними таркибидаги кофир сўзини (Копур-кофир-и/у) Исломдан ғайри диндагилар қалъаси деб қатъий айтиш қийин. Унинг Ҳиндча оқ қалъа, оқ рангли кўрғон маъносини англатганлиги эҳтимолдан узоқ эмас. Бойсун туманидаги Копрун қишлоғининг номини изоҳлаган профессор Т.Нафасов унинг оқ тепа маъноси ҳам борлигини баён қилади. «Пур» сўзи қадимги Ҳиндча шаҳар, аҳоли яшовчи - посёлка маъноларини англатган. Сўз таркибида у/и айланиш ҳодисаси рўй берган. Кампиртепа қишлоғи коннинг - ўзида бўлмаса-да ундан бир неча километр узоқликда жойлашган, Бу ерда турувчилар бевосита тоғ-кон саноати билан шуғулланишган. Дарғам воҳасида Контепа истехкоми бор. Ушбу топонимнинг номи бевосита тепанинг ўзига қаратилган. Кампиртепа топонимининг таркибидаги пир-сўзи ўзидан-ўзи келиб қолгани йўқ. (шанба-шамба, манба-мамба, танбал-тамбал) Топоним таркибидаги **пур** Ҳинд тилидаги шаҳар аҳоли яшайдиган манзил маъносига ҳам эга, Юқаридагилардан келиб чиққан ҳолда Кампиртепа қадимги кончилар

манзили маъносини англатади [8]. Кампиртепа қишлоғи ҳудудида айрим мозийга оид Ҳиндча удумларнинг сақланиб қолганлиги кузатилади. Қишлоқнинг Жўлисой йўлининг бошланишида жойлашган Маматқулбой ҳаётининг ҳудудида уй қуриш жараёнида қавланган лойҳандақлардан иккитадан ёнма-ён кўмилган кўзалар чиқиб қолди. Иккинчи жаҳон урушидан олдинги йилларнинг бирида шу ҳаётнинг қибла томонидан ерни хўкиз билан ҳайдаш вақтида ҳам ана шундай кўзалар топилганини уларнинг ичини очиб қарашганда ҳар иккаласининг ичидан одамнинг суяги борлигини кўришади-да яна жойига кўмиб қўйишганини 1998 йили истеъфодаги ички ишлар полковниги мархум Юсуф Маматқулов айтиб берган эди [9].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Барча тадқиқотчиларнинг фикри шуни кўрсатадики, қадимда Кўхитанг тоғининг шарқий қисмида бир қатор металллар, хусусан нодир металллар ҳам ишлаб чиқарилган. Тараққиёт шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кунда қадимги конларни излаб топиб, захирасини аниқлаб, Ўзбекистоннинг халқ хўжалигини ривожлантиришга жалб этилса, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг геологияни ривожлантиришга оид бир қатор қарорларини ҳаётга татбиқ этишга хизмат қилган бўлар эди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙҲАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ҳамрабобов И. Ҳ. ва б. Ўрта Осиё олтин конлари. Т.: Фан 1969-й. 6-бет
2. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. —Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1997 йил —Б. 78.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. —Тошкент: “Ўқитувчи”, 1988 йил. —Б.-88.
4. Ҳамрабобов И. Ҳ., Раҳматуллаев Ҳ. Р., Қосимов А. Қ. Ўрта Осиё олтин конлари — Тошкент: Фан, 1969 йил. —Б. 9.
5. Раҳматуллаев Ҳ., Ибайдуллаев Н. Қадимги номлар изидан.—Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1970. —Б. 9.
6. Ҳамрабобов И. Ўзбекистон олтини.—Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитети Бирлашган нашриёти, 1968. —Б. 7

7. Ҳамробоев И. ва б. Ўрта Осиё олтин колари. —Тошкент: Фан, 1969. —Б. 17
8. Ёқубов Ш., Кенжабоев С., Кампиртепа топоними // Халқ педагогикаси. “Зараутсой-98” Ҳақаро симпозиумининг илмий маърузалар тўплами,- Тошкент,” Университет,” 1998 . —Б. 153-155.
9. Ёқубов Ш. Конпуртепа тарихидан лавҳалар. Тошкент: “Янги аср авлоди” 2004 йил – Б.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI SHAHARLARI INFRATUZILMASIDAGI O'ZGARISHLAR

Tursunov Anvar Saypullayevich,

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

e-mail: avar061484@gmail.com.

UDK: 325.111 (575.1) (091)

<https://orcid.org/0009-0009-3517-1305>

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning janubiy hududlari hisoblangan Qashqadaryo viloyati shaharlari infratuzilmasining yuksalishi tufayli yirik madaniy hamda ilmiy markazlariga aylandi. Ushbu shaharlar infratuzilmasidagi o'zgarishlarni sanoat korxonolari misolida tahlil etishni asosiy maqsad qilib oldik. Maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati shaharlari infratuzilmasidagi o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: infratuzilma, sanoat, Koson, G'uzor, Kitob, mikrofirma, fermer xo'jaliklari, bank, Qashqadaryo viloyati, urbanizatsiya.

Аннотация: В годы независимости города Кашкадарьинской области, считающиеся южными регионами Узбекистана, благодаря развитию инфраструктуры превратились в крупные культурные и научные центры. Наша основная цель – проанализировать изменения в инфраструктуре этих городов на примере промышленных предприятий. В статье говорится об изменениях в инфраструктуре городов Кашкадарьинской области за годы независимости.

Ключевые слова: инфраструктура, промышленность, Косон, Гузор, Китаб, микрофирма, фермерские хозяйства, банк, Кашкадарьинская область, урбанизация.

Abstract: In the years of independence, the cities of Kashkadarya region, considered the southern regions of Uzbekistan, have become large cultural and scientific centers due to the development of infrastructure. Our main goal is to analyze the changes in the infrastructure of these cities on the example of industrial enterprises. The article talks about

the changes in the infrastructure of the cities of Kashkadarya region during the years of independence.

Key words: infrastructure, industry, Koson, Guzor, Kitob, micro-firm, farms, bank, Kashkadarya region, urbanization.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Shaharlar infratuzilmasini keng tarmoqli yuksalishi uchun asos bu — sanoatni kompleks rivojlantirish, zamonaviy jahon andozalariga javob bermaydigan mahsulotlarni sifatli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iboratligi dolzarb masalaga aylandi. Sanoat korxonalaridan kelib tushadigan, foydadan olinayotgan daromadlar hisobidan shaharlarning infratuzilmasini taraqqiy ettirish uchun shaharlarni yangi sanoat ishlab chiqarish markaziga aylantirish orqali erishish mumkinligi asosiy davlat siyosatiga aylanib bordi.

MUHOJAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Qashqadaryo viloyatidagi Muborak, Koson, G'uzor, Kitob, Shahrisabz shaharlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash hamda yoqilg'i resurslarini qazib olish bo'yicha O'zbekistonda muhim o'rin egallaydi. Viloyat shaharlari respublikada qazib olinadigan tabiiy gazning 88%, neftning 92%, kondensatning 99,6%, oltingugurtning 100% ni beradi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari bo'lgan Qarshi, Koson yog'-ekstraksiya, Shahrisabz konserva zavodlari, Shahrisabz pillakashlik, Qarshi tikuvchilik fabrikalari, Qashqadaryo marmar aksiyadorlik jamiyati va boshqa 49 ta qo'shma korxonalar mustaqillik yillarida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiya asosida o'zining iqtisodiy

salohiyatiga ega bo'ldi. Viloyat hududidagi dastlabki sanoat korxonasi – Shahrisabz paxta tozalash zavodi 1916 yilda qurilgan. Undan keyingi davrda viloyatda, asosan, paxta tozalash zavodlari, tikuvchilik fabrikalari qurilib, 1971 yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi[1].

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo shaharlarining asosiy sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish 1782 mln. so'mga oshib, 93 ta asosiy sanoat va 743 ta yordamchi sanoat korxonalari tashkil etildi. Eng muhimi Surxondaryo viloyatining qayd etilgan shaharlaridagi sanoat korxonalarida ishlovchi ishchilar soni 29961 kishini, asosiy sanoat korxonalarida ishlovchilarning soni 20201 kishini tashkil etdi[2].

2000-yil 1-aprel holatiga ko'ra, Qashqadaryo shaharlarida 12475 ta kichik va o'rta biznes korxonalari ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 712 tasi o'rta korxonalar bo'lib, 1803 tasini kichik korxonalar va 9960 tasini mikrofirmalar, ularda ishlovchilar soni esa 87,1 ming kishini tashkil etadi[3]. 2000 yilda qayta ishlangan gaz 27324 mlrd. m³, oltingugurt ishlab chiqarish 217.5 ming tonna, barqarorlashtirilgan kondensat ishlab chiqarish 556 ming tonna, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish 13.5 ming tonnani tashkil etdi[4]. Respublikada aholi jon boshiga 2600 so'mlik iste'mol mollari ishlab chiqarilgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyati shaharlarida mazkur ko'rsatkich 1082 so'mni tashkil etgan[5].

2000-yilning 1 oktyabr holatiga ko'ra, Qashqadaryo shaharlarining sanoat korxonalarida 3 mlrd. 180 mln. so'mlik tayyor mahsulotlar omborxonalarda sotilmay qoldi. Agar 1999 yilgi holat bilan solishtirilsa bu ko'rsatkich 1999 yilga nisbatan 27 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin. Jami sotilmay qolgan mahsulotning 1 mlrd. 915 mln. so'mligi yoki 60,2 foiz paxta sanoati korxonalari, 1 mlrd. 265 mln. so'mligi boshqa soha korxonalari hisobiga to'g'ri keldi. «Qarshi to'qimachi» qo'shma korxonasida 142,4 mln. so'mlik, Shahrisabz shahridagi «Shahrisabztekstil» hissadorlik jamiyatida 103,2 mln. so'mlik, Koson shahri

«Agrosanoat» kombinati hissadorlik jamiyatida 158,4 mln. so'mlik, «G'uzorneft» hissadorlik jamiyatida 70,8 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

2002-yilda Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarda 39 ta qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 35 tasi faoliyat ko'rsatgan. 2003 yil birinchi aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini tomonidan 114,0 mlrd. So'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o'sish darajasi 2002 yilning aprel oyi holatiga muvofiq, 120,1 foizni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarish yoqilg'i- energetika, oziq-ovqat, yengil sanoat sohalarida yuqori bo'ldi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 83,3 mlrd. so'mga yoki jami mahsulot hajmining 73 foiziga to'g'ri keldi[6].

Urbanizatsiya jarayonlari tarixiy tahlilga olingan ushbu davrda Qashqadaryo shaharlarida qo'shma korxonalar qurish va jadal ishlab chiqarishga jalb etish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Shahrisabz shahar un kombinati qurilishi ham 1990 yilda boshlangan, sutkasiga 250 tonna un ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi. Ushbu yirik oziq-ovqat sanoati korxonasini bunyod etish mustaqillikka erishilgandan so'ng davom ettirildi. 1996 yilda 105 million so'mlik kapital mablag' o'zlashtirilib, korxonaning birinchi navbati ishga tushirildi. Bu kombinat ishga tushirilishi bilan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' shaharlarining aholisini un mahsulotlari bilan ta'minlash yaxshilandi. Aholiga bir me'yorda non va non mahsulotlari yetkazib berish yo'lga qo'yildi. Boshqa hududlardan non mahsulotlarini tashib keltirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kamaydi, yoqilg'i-moylash materiallarini tejash imkoniyati yaratildi[7]. Qarshi shahar temir yo'l direksiyasiga qarashli vagon deposi sexlarining soni yana bittaga ko'paydi. Bu yerda temirchilik sexi binosi qurib bitkazildi. Yangi binoning ishga tushirilishi munosabati bilan, depoda temirchilik asbob-uskunalari, vagon va g'ildirak qismlarini yasash imkoniyati yaratildi[8].

Qashqadaryo shaharlarida xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo qilishda katta ishlar qilindi. Birgina 1994 yilning 9 oyi mobaynida 492 ta korxonalar xususiylashtirildi. Shulardan 291 tasi dasturda belgilangan edi. Xususiylashtirish bo'yicha topshiriq Qashqadaryo shaharlarida 101,4 foiz, boshqa obyektlar hisobidan esa 171,4 foizga bajarildi. 1993 yilga nisbatan xususiylashtirish korxonalar soni 2,6 martaga ko'paydi. 1994 yilda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan 1322 ta korxonadan 615 tasi xususiylashtirish tadbirkorlar qo'liga o'tdi[9].

1995-yil aprelda Shahrisabz shahar konserva hissadorlik jamiyatida kichik hajmdagi tunuka bankalar ishlab chiqaradigan liniya montaj qilina boshlandi. Yangi liniyani 869 ming AQSh dollariga «Krumprodmas» ishlab chiqarish birlashmasidan sotib olindi. Yangi liniya sabzavot va mevani qayta ishlash mavsumida ishga tushirildi. 1995 yilning 30 noyabrda konserva hissadorlik jamiyati konservachilari o'z mahsulotlarini chet el talablariga javob beradigan ko'rinishda chiqara boshladilar va buyurtmaga muvofiq Germaniya davlatiga 300 tonna tomat va olma konservalari jo'natdilar[10].

1997-yilda o'tkazilgan «Tashabbus-97» tanlovida Fyzop shahridan Muzayir Galiyev o'zi tayyorlagan rang-barang uy-ro'zg'or buyumlarini namoyish etib, «Eng yaxshi hunarmand» tanlovi g'olibi bo'ldi. 1998 yilda Qashqadaryo shaharlarida Davlat dasturiga asosan 47 ta korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi va mulkchilikning nodavlat shakliga aylantirildi. Xususiylashtirishdan pul mablag'lari tushirish yillik rejasini 173,7 foizga bajarildi. 1998 yil 10 dekabrda Qarshi shahrida Germaniyaning «Tissei» konserni taqdimot marosimi ham bo'lib o'tdi. Taqdimot marosimiga Qashqadaryodagi mavjud shaharlaridagi kichik va o'rta biznes korxonalarining 15 ta investitsiya loyihasi taqdim etildi[11]. Qashqadaryo shaharlarida xam kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil etilishiga keng yo'l ochildi, 1998 yil iyun

oyiga qadar 9870 fuqaro yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullandi[12].

Qarshi shahridagi «Ufq» biznes-inkubatori 2000 yilda tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va uni mustahkamlash yo'lida ham faol ish olib bordi. «Ufq» biznes-inkubatorida Ukrainaning «Торговъу фонд»i bilan «Kraz» rusumli yuk avtomobillarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shma korxonalar tuzish haqida muzokaralar olib borildi. Bunda O'zbekiston tomonidan «Avto-100» jamoa korxonasi hamkorlikka da'vogarlardan biri bo'ldi[13].

2002-yilda Qashqadaryo shaharlarida 7875 ta kichik va o'rta biznes korxonasi bunyod etildi, ularning umumiy soni 23052 taga yetdi. Ushbu sohani rivojlantirish hisobidan 40 mingdan oshiq ish o'rinlari yaratildi. Ularning 88,9 foizi yoki 36 mingtasi qishloq joylariga to'g'ri keldi[14]. 2002 yilda Qashqadaryo shaharlarida 39 ta qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tganiga qaramasdan, 35 tasining faoliyati yo'lga qo'yildi. 2002 yilda 5 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi[15]. 2002 yilda Qarshi shahrining Shayxali qo'rg'onida yakka tartibdagi tadbirkor Samar Temirov sutni qayta ishlash sexini ishga tushirib, o'rtacha bir kunda 500-600 litr sutdan iste'molchilarga kefir, qaymoq, tvorog, brinza, golland pishlog'i kabi mahsulotlarni yetkazib bera boshladi[16].

1997-yilda Qarshi shahrida Qarshi yog'-ekstraksiya hissadorlik jamiyatiga qarashli «O'zbek-Singapur» qo'shma korxonasi qo'shma korxonasi qadoqlash sexi ishga tushirildi. Kuniga 20 tonna yog'ni qadoqlash quvvatiga ega bo'lgan bu sex Tayland, Italiya, Yaponiya davlatlaridan keltirilgan eng zamonaviy asbob — uskunalar bilan jihozlandi[17]. Qarshi shahridagi yog' ekstraksiya hissadorlik jamiyatida plastik idishlarda mineral suv chiqaradigan «O'zbek-Singapur» qo'shma korxonasi, poyafzal va galanteriya mollari ishlab chiqaradigan «Abusiya» qo'shma korxonalarini ham ishga tushirildi[18]. 1996 yilda Qarshi shahridagi «Qashteks» to'qimachilik majmui ishga tushirildi. Italiyaning «Orizio» firmasidan keltirilgan 11 ta to'quv dastgohi bilan bir kecha- kunduzda

bir tonna 300 kilogrammgacha polotno to‘qilishi ta‘minlandi. Qashteksdan ish to‘liq avtomatlar yordamida kompyuterlarda bajariladi. Zavod bir yilda 2500 tonna paxta tolasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. «Qashteks»da 12 turda ichki-trikotaj kiyimlari ishlab chiqariladi. 1996 yil oxirigacha 100 000 dan ziyod futbolka, 300 000 dan ziyod komplekt bolalar kiyimlari tikishga muvaffaq bo‘ldilar[19].

Rossiya Federatsiyasidan keltirilgan asbob-uskunalarini o‘rnatish natijasida, 2010 yilda Shahrizabz shahrida bir kunda 1 tonna issiq non ishlab chiqaradigan sex ishga tushdi. Bu kichik sexda 5 nafar novvoy qishloq mehnatkashlari talabiga mos qolipli non va shirmoy nonlarni pishirib bera boshladi[20].

Shahrizabz shaharidagi «Oqsaroy-to‘qimachi LTD» O‘zbekiston-Yaponiya-Turkiya qo‘shma korxonasida 2010-yil davomida 7 million 256 ming AQSh dollari miqdorida mahsulot ishlab chiqarildi. 2003-yilning 1 yanvariga qadar «Oqsaroy-

to‘qimachi LTD» ning jamoasi 3527,4 tonna mahsulot, jumladan, 3141,4 tonna ip-kalava, 386 tonna trikotaj matosi ishlab chiqardi. Eksport hajmi 6 million 87 ming dollarni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning qolgan qismi ham xorijga Turkiyaning «Burseltekstil» firmasiga jo‘natildi[21].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, tadqiq qilingan yillarda Qashqadaryo viloyati shaharlarida sovet hokimiyati davridagi xalq iste‘moli mollarning aksariyatini tashqaridan keltirishga asoslangan tartibdan to‘la-to‘kis voz kechildi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining yangi-yangi turlarini yaratishga muvaffaq bo‘lindi. Shahar va qishloqlarda xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarishga moslangan zavod va fabrikalar, kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilib, mamlakatida va xorijda ishlab chiqilgan mehnat unumi yuqori, samaradorligi yuksak, tannarxi nisbatan arzon, jahon bozorlarida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar hosil qilishga erishildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. I 8-fond, 1-ro‘yxat, 323-hujjatlar, 14-16-varaqlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. I 8-fond, 1-ro‘yxat, 323-hujjat, 68-varaqlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-fond, 10-ro‘yxat, 94-yig‘ma jild, 45-varaq.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. I 15-fond, 1-ro‘yxat, 847-hujjat, 42-47-varaqlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. I 15-fond, 1-ro‘yxat, 847-ish, 32-35-varaqlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezident devoni Qashqadaryo viloyat filiali joriy arxivi. 829-fond, 10-ro‘yxat, 81-ish, 81-varaq.
7. O‘z. RPDAQVF. 829-jamg‘arma. 5-ro‘yxat, 13-ish. 55-varaq.
8. Hashar yo‘li bilan. Qashqadaryo. 2000. 23 avgust. –B. 2.
9. O‘z.RPDAQVF. 829-fond, 1-ro‘yxat, 88-ish, 13-varaq.
10. QVDAShF. 855-fond, 1-ro‘yxat, 99-ish. 20-22-varaqlar.
11. Iqtisodiy samaradorlik. Qashqadaryo. 1999 yil 9 fevral.
12. Moliyaviy intizom-iqtisodiy barqarorlik asosi // Qashqadaryo. 1999. 15 aprel. – B.1.
13. Temirov B. “Ufq” kelajakka asos solmoqda. Qashqadaryo, 2000. 29 yanvar. – B.2.
14. QVDA F. 855-fond, 1-ro‘yxat, 99-ish, 20-22-varaqlar.
15. Islohotlarni yangi pog‘ona ko‘tarish iqtisodiy taraqqiyot omilidir. Qashqadaryo. 2003. 4-fevral. – B.24.
16. Tadbirkorning faoliyati kengaymoqda. Qashqadaryo. 2003 13 mart. – B.1.

17. Qashqadaryo, 1998-yil. 21 yanvar. – B.1.
18. O‘z. RPDAQVF, 829-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 12-ish, 5-6-varaqlar.
19. Qashqadaryo. 1997-yil 7 dekabr. – B.2.
20. Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. – Qarshi: 2005-2010. – B.18.
21. Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. – Qarshi. №-1 kitob, 1991-2011. – B.22.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXINING TURKIYADA O'RGANILISHI (DISSERTATSIYALAR MISOLIDA)

Bokiyev Anvar Axmedovich,

Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi va

manbashunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-5553-2031>

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur va Temuriylar davri tarixining O'zbekistonda va Turkiyada dissertatsiyalar misolida o'rganilishi haqida fikr yuritilgan. 2017-2023 yillarda 07.00.00 – Tarix fanlari shifrida 11 ta PhD va 4 ta DcS dissertatsiyalari himoya qilinganligi qayd etib o'tilgan. Bu davrning Turkiyada o'rganilishga doir ma'lumotlar bir maqola doirasida to'plangan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, dissertatsiya, Temuriylar, manba, YuNESKO, konferensiya, Turkiya, ilmiy-ommabop, badiiy asarlar, rasmiy yozishmalar, huquqiy hujjatlar.

Аннотация: В статье на примере диссертационных работ рассматривается изучение Амира Темура и истории периода Тимуридов в Узбекистане и Турции. В 2017-2023 годах защищено 11 кандидатских и 4 докторских диссертаций по направлению 07.00.00 – История. Информация об изучении в Турции этого периода собрана в одной статье.

Ключевые слова: Амир Темур, диссертация, Тимуриды, источник, ЮНЕСКО, конференция, Турция, научно-популярные, художественные произведения, официальная переписка, юридические документы.

Annotation: Using the example of dissertation works, the article examines the study of Amir Temur and the history of the Timurid period in Uzbekistan and Turkey. In 2017-2023, 11 PhD and 4 DcS dissertations were defended in the direction of 07.00.00 – History. Information about the study of this period in Turkey is collected in one article.

Key words: Amir Temur, dissertation, Timurids, source, UNESCO, conference, Turkey, popular science, works of art, official

correspondence, legal documents.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sohibqiron Amir Temur ibn Tarag'ay Baxodirxon hazratlari haqida ko'plab yozma manbalar, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ommabop asarlar yaratilgan. Bu yozma manbalarni mazmun va mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Birlamchi manbalar;
2. Ikkilamchi va uchlamchi manbalar;
3. Huquqiy hujjatlar va rasmiy yozishmalar;
4. Temuriylar saltanatiga kirgan davlatlarning tarixini yoritgan mualliflar;
5. Yangi va eng yangi davrda yashagan mualliflarning asarlari;
6. Ilmiy-ommabop va badiiy asarlar;
7. Memuar, biografiyalar, avtobiografiyalar va sayohatnomalar;
8. Boshqa manbalar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ulug' bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyadagi ma'ruzalarida (1996 yil 24 oktyabr Toshkent) bu asarlarning soni haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tgan: "Butun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Temur va Temuriylar davri haqida ko'plab kitoblar nashr etilmoqda... O'tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinni tashkil etadi".

Temurshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida Amir Temurning hayot yo'li, davlat boshqaruvi va davlat ramzlari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni o'rganishga ham alohida e'tibor berilgan. Ul zotning chet

ellarda o'rganilishini tahlil qilish, talab darajasidagi ilmiy tadqiqotlarni tarjima qilish va o'zbek kitobxonlariga etkazib berish masalasi o'zbek tarixchilarining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi uchun birlamchi manbalarning o'rganilishining ham katta ilmiy ahamiyati bor. Bu ma'lumotlar "Zafar yo'li", "Temur tuzuklari", "Mu'izz ul-ansob", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaliklar", Sultoniya arxiepiskopi Ioannning "Xotiralari", Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy", Ibn Arabshohning "Ajoyib ul maqdur fi axbori Taymur", Hofizi Abruning "Majmuayi Hofizi Abru" va "Zubdat ut-tavorix", Mirxondning "Razvat us-safo", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai baxrayn", Fasih Xavofiyning "Mujmal-i Fasihiy" va boshqa shu kabi birlamchi manbalarda uchratish mumkin.

Sohibqiron Amir Temurning keyingi yillarda O'zbekistonda o'rganilishiga 2017-2023 yillarda tarix ixtisosligi bo'yicha himoya qilingan dissertatsiyalar misolida to'xtalib o'tsak. O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlarni yanada yaxshilash maqsadida ikki bosqichli dissertatsiyalarni himoya qilish yo'liga o'tildi. Shu yillar mobaynida 07.00.00 – tarix ixtisosligi bo'yicha 556 ta PhD va 92 ta DcS dissertatsiyalari himoya qilindi. Shu 650 dan dissertatsiyalardan bor yo'g'i 15 tasi davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin egallagan Amir Temur va Temuriylar davriga taalluqlidir. Jumladan, A. Madraimov "Istoriya epoxi Amira Temura i Temuridov v nauchnom nasledii V. V. Bartol'da i A. Z. Validova" (2019)[2], L.Begimqulova "XV asr

boshlarida Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash (kuchlar nisbati va natijalar tahlili)" (2021), J.Kucharov "Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro vohasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV asrning 70-yillari – XV asr)" (2022)[3], T.Maxmudov "Temuriylar davri ta'lim tizimi tarixi" (2022)[4], M. Buzrukov "Temuriylar davri Samarqand ilmiy-ma'naviy muhitida tasavvuf namoyandalarining tutgan o'rni (XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmi) (2022)[5], S. Axmedov Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asaridagi temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar tahlil (2022)[6], H. Abriev "Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalarning bunyod etilish tarixi" (2023)[7], S.Kenjayeov "Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi (XIV asrning 70 yillari – XV asr boshlari)" (2023)[8], Sh. Yusupov "Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar (XIV-XV asrlar)"[9], M. Maxmudova "Amir Temur va temuriylar saltanatida irrigatsiya tizimining rivojlanishi"[10], K. Qayumova "Toj Salmoniyning "Tarixnoma" asari tarixiy manba sifatida" nomli dissertatsiyalari uchun PhD ilmiy darajalarini olgan bo'lsalar, A. Buriyev "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi", B. Usmonov "Amir Temur va Temuriylar davrida Farg'ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti", B. Aminov "Markaziy Movarounnahr qabrtosh bitiklari va ulardagi tarixiy shaxslar genealogiyasi (XV-XIX asrlar)", M.Hamidovalar "O'zbekiston hududidagi Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi" kabi mavzularida DcS ilmiy darajalariga ega bo'ldilar.

O'zbekistonda 2017-2023 yillarda Amir Temur va Temuriylar davri tarixi bo'yicha himoya qilingan dissertatsiyalar ro'yxati (07.00.00 – Tarix fanlari shifri bo'yicha)

№	Ismi va sharifi	shifri	Dissertatsiyaning mavzusi	yil
PhD				
1	Madraimov Askariy	07.00.08	История эпохи Амира Темура и Темуридов в научном наследии В.В. Бартольда и А.З. Валидова	2019
2	Begimqulova	07.00.01	XV asr boshlarida Movarounnahrda hokimiyat	2021

	Laylo		uchun kurash (kuchlar nisbati va natijalar tahlili)	
3	Kucharov Jamshid	07.00.01	Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro vohasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV asrning 70-yillari – XV asr)	2022
4	Maxmudov Toxir	07.00.01	Temuriylar davri ta'lim tizimi tarixi	2022
5	Buzrukov Muhammadixon	07.00.01	Temuriylar davri Samarqand ilmiy-ma'naviy muhitida tasavvuf namoyandalarining tutgan o'rni (XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmi)	2022
6	Axmedov Sanjar	07.00.08	Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn” asaridagi Temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar tahlil	2022
7	Abriyev Hazratqul	07.00.08	Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalarning bunyod etilish tarixi	2023
8	Kenjayev Sardor	07.00.08	Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi (XIV asrning 70 yillari – XV asr boshlari)	2023
9	Yusupov Shakir	07.00.01	Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar (XIV-XV asrlar)	2023
10	Maxmudova Muazzamxon	07.00.01	Amir Temur va temuriylar saltanatida irrigatsiya tizimining rivojlanishi	2023
11	Qayumova Kamola	07.00.08	Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asari tarixiy manba sifatida	2024
DcS				
12	Buriev Amanulla	07.00.08	Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi	2019
13	Usmonov Bahridin	07.00.01	Amir Temur va Temuriylar davrida Farg'ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti	2020
14	Aminov Bobir	07.00.08	Markaziy Movarounnahr qabrtosh bitiklari va ulardagi tarixiy shaxslar genealogiyasi (XV-XIX asrlar)	2021
15	Hamidova Muhabbat	07.00.01	O'zbekiston hududidagi Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi	2022

Endi bu mavzu bo'yicha Turkiya tarixchilarining ilmiy tadqiqotlariga bir nazar tashlasak. Bizga ma'lumki, Sohibqiron bobomiz hayotidagi eng katta harbiy to'qnashuv 1402 yil 20 iyulda Anqara yaqinida bo'lgan. Turk tarixchisi Yilmaz O'ztunaning e'tirof etishicha “1402 yilda Temurga tobelikni tan olgan usmoniylar davlati, 1447 yilgacha ham (Shohruxning vafotiga qadar) bu qaramlikdan qutulishga jur'at eta olmagan.”[1]. Oztuna Turkiya davlatchiligining atoqli arboblaridan biri sanalgan Otaturkning Temurga munosabatini qo'yidagicha fikrlarda ko'rsatib o'tgan: “Otaturk Temurdan hayratda edi. Otaturkning fikricha, Turkiy xalqlar ichida yetishtirib chiqqan eng buyuk shaxs Temur edi. U Temurning harbiy mahoratiga lol qolgan va

shaxsan o'zi ham mukammal o'rganishga harakat qilgan.”[1]. Temuriylar haqidagi fikrlari esa, bu xonadon vakillarining salohiyatini ko'rsatib turibdi: “Bu xonadondan Temur, Shohrux, Ulug'bek, Boysung'ur, Abu Said, Husayn Boyqaro, Boburshoh, Shohi Jahon, Olamgir kabi turk olamining zabardast shaxslari yetishib chiqqan”[1]. Turkiyalik olimlarning shu sulola vakillari haqidagi ma'lumotlarini o'rganish davomida o'zbek tarixchilariga noma'lum bo'lgan ba'zi tarixiy faktlarga ham duch kelamiz. Masalan, Temuriy malikalardan Shod Malak begim (1400?-1467 = 67?) — xattotlik bilan shug'ullanganligi va begimning o'z qo'li bilan ko'chirgan Qur'oni karim qo'lyozmasi Istanbulda Turk va Islom asarlari muzeyida saqlanayotganligi bizning

ilmiy tadqiqotlarimizda uchramaydigan ma'lumotdir[1].

Turkiya tarixchilari uchun Amir Temur shaxsi va Temuriylar davlatining tarixi doimo qiziq bo'lib kelgan. Eng qizig'i shundaki, katta bosim tarixchilar, Yildirim Boyazid va Temur o'rtasidagi siyosiy va harbiy tortishuvning asosiy sababchisi deb turk sultoni deb ko'rsatadilar. Amir Temurning Xitoyga qilgan yurishi haqida Yilmaz Oztuna quyidagi fikrni bildirib o'tgan: "Jahon tarixidagi buyuk lashkarboshilardan biri bo'lgan Temur navbati bilan Sharqiy Yevropa (Oltin O'rda), Hindiston, Turkiya (Usmoniylar davlati), Mamluk (Misr) kabi yirik turk imperiyalarini mag'lubiyatga uchratdi (Jaloyiriylar, Qoraqayunlilar kabi kichik vassal davlatlarni sanab o'tirmaymiz). Agar Temurga Xitoyni ishg'ol etishga bevaqt o'lim halaqit bermasa edi, tarixiy jarayonlar o'zgacha tus olar edi. O'sha davrda Xitoyda Temurga qarshi tura oladigan jiddiy kuch yo'q edi"[1].

Endi, maqolamizda shu mavzuga oid himoya qilingan ayrim dissertatsiyalar haqida ma'lumot berib o'tsak. Bu sulolaga qiziqish katta ekanligini turli yillarda Turkiyada himoya qilingan doktorlik va magistrlik ishlarining miqdori va mazmunidan ham bilib olish mumkin. Ularning ayrimlarini maqolamizda eslatib o'tamiz:

1) Tarkan Suchikar. XV-XVII asr Usmonli manbalarida Yildirim Boyazid va Temur tasviri (Istanbul-2014).

2) Neslihan Yo'jedag'. Amir Temurning harbiy strategiyalari (Tokat -2015).

3) Ahmet Ahmeto'glu. Qoraqayunlilar va Iskandar mirzoning siyosiy hayoti – (Aydin - 2019).

4) Fatih Korkmaz. Sulton Ahmad Jaloyir davri va Jaloyiriylar-Temuriylar munosabatlari (Erzurum – 2017).

5) Samad Kalantari. Hafizi Abruning "Zubdat al-tavorix-i Boysung'uriy" asari (matn tahlili) (Ankara -1993).

6) Jihat Aydog'musog'lu. Tabriz tarixi (Ankara -2007)

7) Fadime Okay. Shiltbergerning kundaligi (tarjimasini va tahlili) (Afyonkarahisar – 2009)

8) Muhammet Veysel Zo'rtul. Temurning

Oltin O'rda safari (Istanbul-2001).

9) Eray Turan. Temurning yuksalishi va Yildirim bilan kurashi (1360-1402 yillar) (Horum-2016).

10) Ug'ur Asakli. Temur va Ahmad Jaloyir munosabatlari (Istanbul-1965-1966).

11) Juneyt Kanat. Mamluklar va Temuriylar o'rtasidagi munosabatlar (1382-1447 yillar) (Izmir-1996).

12) Suleyuso O'zdezir. Temurning Armaniston va Gurjiston fathi (Istanbul-1965-1966).

13) Kadir Karadayi. Temur-To'xtamish o'rtasidagi kurash (Istanbul-1966).

14) Kadri Kardash. Oltin O'rda davlatining siyosiy tarixi (1241-1502 yillar) (Erzurum-2015).

15) Dursun Yildirim. Turk romanchiligida shayx Shomil va Temur obrazi (Sivas-2019).

16) Temurning Hindiston safari (Istanbul-1966).

17) Janan Nilufar Aydin. Temur davri bunyodkorlik faoliyatlari (Istanbul-2020).

18) Galip Dog'an. Amir Temurning islom dini va din ahliga munosabati (Sinop – 2020).

19) Isa Eryilmaz. Muzaffariylar (Malatya-2018).

20) Esra Aksay. XV-XVI asr temuriylar, turkman va usmonli me'roj tasvirlari (Istanbul-2016).

21) Bilal Koch. Boburiylar davlatining asoschisi Bobur shohning tashqi siyosati (Ankara-2011).

22) Em Ko'k. Temuriylar davri san'ati va Usmonli me'morchiligi o'rtasidagi qiyosiy tadqiqot (Anqara-2006).

23) Jihan Oruch. Husayn Boyqaro va uning davri (Kutahya-2013).

24) Mustafa Chag'han Keskin. Osmanli'nin Timurlu-turkmen dunyasina bakişi ekseninde mimari etkilenmeler (1402-1520) (Istanbul-2011).

25) Ensar Majit. Temuriylar davrida Ozarbayjon (Erzurum – 2017).

26) Kishimjan Esrenkulova. Temuriylar davrida madrasa ta'limi va ulum al-evail (matematika, astronomiya va tibbiyot) (Istanbul-2001).

27) Mujde Elitash. Amir Temurning o'g'illari va nabiralari bilan munosabatlari

(Kastamonu -2021)

28) Ko'bra To'tmez. Temuriylar davlatida sulola vakillarining qatl etilishi (Kastamonu 2021)

29) Razgo'l Rejepova. Temuriylarda madaniy hayot va Sulton Husayn Boyqaro davri (Ankara-2019).

30) Muhammed Emin Kochak. Temuriylar xonadoni ayollari siyosiy va ijtimoiy hayotda etakchi kuch (Ankara-2020).

31) Ensar Majit. Temuriylar davlatining harbiy tizimi (Erzurum-2012).

32) O'mer Hakan Aydin. Temuriylar davlatida amirlarning tutgan o'rnini (Ankara-2020).

33) Selim Aydin. Temuriylar davlatida mirzolar va mirzolik instituti (Ankara-2020).

34) Kadir Jan Humar. Temuriylar davlatidagi elchilik muassasasi va axborot tashkiloti (Ankara-2020).

35) Ali Riza Yag'li. Temuriylar davlatida vazirlar va vazirlik instituti. (Ankara-2014).

36) Musa Shamil Yo'ksel. Temuriylarda din-davlat munosabatlari (Izmir-2007).

Bir maqola doirasida Amir Temur va Temuriylar davri tarixi yoritilgan dissertatsiyalar haqida to'liq ma'lumot berib bo'lmaydi. Bu ilmiy tadqiqotlarni yig'ib, o'zbek auditoriyasiga ilmiy muomalaga kiritish masalaning bir tomoni. Ularni o'rganib, tarjima qilib manbalar va O'zbekistonda yoritilgan materiallar bilan solishtirish, qiyosiy tahlil qilish esa undan muhim vazifadir.

Amir Temur va temuriylar tarixi bilan shug'ullanayotgan olimlar dunyoda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan yanada yaqinroq tanishish, O'zbek davlatchiligi tarixida muhim tarixiy iz qoldirgan Amir Temur va temuriylar tarixini yana mukammalroq o'rganishga yordam berishiga hech qanday shak-shubha yo'q.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan o'q tarixiy haqiqatlarni tiklash vazifasini soha mutaxassislariga vazifa qilib qo'ygan edi. Ko'p asrlik tariximiz qanchadan qancha tarixiy shaxslarning nomlari qayta tiklandi.

Shular orasida buyuk davlat arbobi, sarkarda va bunyodkor tarixiy shaxs hisoblangan bobomiz Amir Temurning nomini tiklashga alohida e'tibor berildi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, Amir Temur davlatimizni jahon hamjamiyatiga tanitadigan buyuk tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ldi. Buyuk bobomizning yubileylarini o'tkazish, madaniy merosini tiklash, manbalarni tarjima qilib xalqimizga yetkazish, haykallar qo'yish, muzeylar ochish, hujjatli va badiiy filmlar yaratishga alohida e'tibor berildi. Buyuk bobomizning qiyofasi miniatyura va manbalar asosida yaratildi. Xalqimiz uchun buyuk Amir Temur qaytadan tug'ildi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yilda ta'kidlab o'tgan quyidagi fikrlari Amir Temur bobomizning jamiyatimizda tutgan o'rnini ko'rsatib turibdi: "Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz- ning: «Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!» degan chuqur ma'noli so'zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur."

1993 yilda poytaxtimiz Toshkent shahrida Amir Temur bobomizning serviqor haykali qo'yildi. 1994 yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi nishonlandi va yilga Mirzo Ulug'bek nomi berildi. Eng katta tantanalar Amir Temur bobomiz tavallud topganliklarining 660 yilligi munosabati bilan 1996 yilda o'tkazildi. Shu yilning o'zida Samarqand va Shahrisabz shaharlarida buyuk bobomizning haykallari qo'yildi.

1996 yilning aprel oyida YuNESKO qarorgohi joylashgan Parij shahrida "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" nomli ko'rgazma tashkil etildi. 1996 yilning 18 oktyabr kuni Toshkentda "Temuriylar tarixi" Davlat muzeyi ochildi.

Qanchadan qancha manbalar xalqimiz e'tiboriga yetkazib berildi. Ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar yaratildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). So'zimizni muxtasar qilib, birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning buyuk sarkarda, davlat arbobi va bunyodkor bobomiz Sohibqiron Amir Temur hazratlari

to'g'risida aytgan fikrlari bilan tugatamiz: | suyak-suyagimizga mustahkam jo qilishimiz
“Avvalambor, Vatanini jonidan aziz ko'rgan | kerak va bolalarimizni ham shu ruhda
Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan | tarbiyalashimiz darkor”.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Oztuna, Yilmaz, Devletler ve Hanedanlar, 1-cild, Ankara, 1996, 1224 seyfa (575-619)
2. <https://library.ziyonet.uz/book/109333>
3. <https://library.ziyonet.uz/book/122390>
4. <https://library.ziyonet.uz/book/122567>
5. <https://library.ziyonet.uz/book/124269>
6. <https://library.ziyonet.uz/book/124668>
7. <https://library.ziyonet.uz/book/126559>
8. <https://library.ziyonet.uz/book/126883>
9. <https://library.ziyonet.uz/book/128356>
10. <https://library.ziyonet.uz/book/128423>

SURXONDARYO VILOYATIDA XOTIN-QIZLAR MEHNATINING MUHOFAZA QILINISHI (1995-2000-YILLAR)

Radjapova Sabohat Bobirovna,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b.,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UDK: 94(575, 151)

<https://orcid.org/0009-0007-6910-5520>

Annotatsiya: Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ayollarning jamiyatdagi mavqeyiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan mazkur holat dunyodagi ayollarning rolini sezilarli darajada o'zgartirdi, ayollarning huquqiy maqomida tub siljishlar ro'y berdi va gender tengligi g'oyasi odamlar ongini zabt eta boshladi. Ko'pgina davlatlarda ayollarning roli boshqa ko'plab asrlarga nisbatan sezilarli darajada o'zgargan. Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida zararli va o'ta zararli mehnat sharoitida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar va ularga yaratilgan imkoniyatlar arxiv ma'lumotlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Muqaddas ayol", "Ayol ma'naviyati", "Ayollar yili", "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida".

Аннотация: Социально-политические процессы, происходящие в мире, положительно влияют на положение женщин в обществе. Эта ситуация, начавшаяся во второй половине XX века, существенно изменила роль женщин в мире, произошли радикальные изменения в правовом статусе женщин, идея гендерного равенства стала покорять умы людей. Во многих странах роль женщины существенно изменилась по сравнению со многими другими столетиями. В данной статье на основе архивных данных освещены женщины, работающие во вредных и крайне вредных условиях труда в Сурхандарьинской области в первые годы независимости и созданные для них возможности.

Ключевые слова: «Святая женщина», «Женская духовность», «Женский год», «О дополнительных льготах для женщин и

девушек».

Abstract: The social and political processes taking place in the world have a positive effect on the position of women in society. This situation, which began in the second half of the 20th century, significantly changed the role of women in the world, radical changes took place in the legal status of women, and the idea of gender equality began to conquer people's minds. In many countries, the role of women has changed significantly compared to many other centuries. In this article, women working in harmful and extremely harmful working conditions in the Surkhondarya region in the first years of independence and the opportunities created for them are covered based on archival data.

Key words: "Holy woman", "Women's spirituality", "Women's year", "About additional benefits for women and girls".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Dunyoda tarixan shakllangan iqtisodiy tizimlarda ayollarning ijtimoiy mavqeyi va rollarini retrospektiv tahlil qilish, o'tish davri iqtisodiyotida ayollarning ijtimoiy roli funksiyalarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, yaqin kelajakda ayolning ijtimoiy roli funksiyalarining rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish, zamonaviy jamiyatda gender tadqiqotlari holatini baholash, ayollar muammolari paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, BMT miqyosida jamiyat hayotida xotin-qizlarning siyosiy-ijtimoiy huquqlarini ta'minlash borasida hujjatlarni qabul qilish, xotin-qizlarni himoya qilish borasida har bir

hudud doirasidagi ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, davr talabidan kelib chiqqan holda ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali takomillashtirib borish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faoliyatini tahlil qilish borasida tarix, ijtimoiy falsafa, huquqshunoslik, iqtisod sohalarida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Mustaqillik yillarining dastlabki yillarida bu boradagi tadqiqotlar sanoqli bo'lib, 2005-yildan keyin xotin-qizlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini yorituvchi ilmiy izlanishlar va adabiyotlar soni ko'payib bordi. Shunga ko'ra Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlar faoliyatini yorituvchi adabiyotlarni ikki guruhga ajratishimiz maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan, ushbu yo'nalishda dastlabki ilmiy izlanishlarni boshlagan olim, professor D.A.Alimovning ko'plab ilmiy maqolalari, monografiyalari ushbu sohaning tarixshunosligini boshlab berdi. D.Alimova o'zining ilmiy izlanishlarida xotin-qizlarning ijtimoiy jarayonlardagi faoliyati hamda ularning oila va uning mustahkamligini ta'minlashdagi mavqeyini belgilab berib bu boradagi o'z fikrlarini tadqiqotlarining ilmiy natijalarida bayon qilgan[1].

Tarix fanlari doktori, professor D.B.Bobojonovning ilmiy tadqiqotlarida xotin-qizlarning ijtimoiy muammolari, ular uchun yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda ishsizlik muammolariga alohida to'xtalib o'tilgan[2]. Professor Ya.A.Abdullayeva o'zining ko'plab ilmiy tadqiqotlari, maqolalari va monografiyalarida O'zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida ayollarning ma'rifiy va madaniy saviyasini oshirish masalasiga, xotin-qizlarning uzoq va yaqin o'tmishda bosib o'tgan yo'li, bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni odilona hal qilish masalalariga alohida to'xtalgan bo'lib, ushbu yo'nalish bo'yicha o'zining kerakli xulosalarini bayon qilib bergan[3].

G. J. G'aniyevaning tadqiqotlarida mustaqillik yillarida ayollar masalasini hal qilishda davlat siyosati, boshqaruv tizimida ayollarning tutgan o'rnini, O'zbekistonda yangi iqtisodiy jarayonida xotin-qizlar omili, ayollarning oila va yoshlar tarbiyasidagi o'rnini, xotin-qizlar migratsiyasi hamda ular o'rtasidagi turli muammolarni hal qilish masalasiga alohida to'xtalgan[4].

D.P.Atayeva mustaqillik yillarida xotin-qizlarning mamlakatni modernizatsiyalash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xotin-qizlar faolligini oshirish omillari, jamiyatda ayollar mavqeyini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahliliga ilmiy izlanishlari natijalarining xulosalarida keltirib o'tgan[5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, ularning mehnat bilan bandlik darajasini ko'tarish, salomatligini yaxshilash davlat dasturlarida o'z aksini topdi. Ammo, dastlab bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi qiyinchiliklar ham jamiyat taraqqiyoti rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib, xotin-qizlar o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish kabi mudhish holatlar ko'payib bordi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida o'z joniga qasd qilgan ayollarning soni 1996 yilda 62 nafarni, 1997 yilda 48 nafarni 1998 yilning birinchi choragida esa 9 nafarni tashkil etdi[6]. Shuningdek, viloyatda xotin-qizlar o'rtasida o'ziga o'zi o't qo'yish holatlari mavjud bo'lib, bu holat 1996 yilda 18 nafarni, 1997 yilda 21, 1998 yilning birinchi choragida 2 nafarni tashkil etib, bunday misollarni 1996 yilning 29 aprelida yuz bergan fuqaro Muhabbat Xursandova o'ziga o't qo'yish yo'li bilan vafot etganligi arxiv materiallarida qayd etilgan[7]. Surxondaryo viloyatida 2002 yilda xotin-qizlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish 80 nafarni tashkil etdi, bunday mudhish holatning zudlik bilan oldini maqsadida 2003 yilda xotin-qizlar o'rtasida "Huquqingizni bilasizmi?", "Savol bering javob beramiz", "Muqaddas ayol" hamda "Ayol ma'naviyati" mavzusida seminarlar, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda davra suhbatlari, huquq idoralari bilan hamkorlikda targ'ibot va

tashviqot ishlari olib borildi. Ushbu tadbirlar natijasida 2003 yilda xotin-qizlar o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish holatlari 12 taga kamaydi[8].

1999 yilda "Ayollar yili" munosabati bilan qabul qilingan "Ayollar yili" Davlat dasturi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 18 fevraldagi "Oila, davlat va jamiyatning qurilishida ayollarning o'rnini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan davlat dasturi tadbirlari to'g'risida" gi 73-son davlat dasturi haqida Surxondaryo viloyati Hokimining 1999 yil 1 mart 68-son qarori qabul qilindi[9].

Bundan tashqari, Vazirlar mahkamasining 1999 yil 17 martdagi 117-sonli "O'ta zararli va og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida" gi Qarori, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va boshqalar alohida ahamiyat kasb etadi[10]. Shuningdek, 1999 yil 4 mayda Vazirlar Mahkamasining 212-son "Bolalar va ayollar gigienasi uchun tovar ishlab chiqarish va sotishni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori ham sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi[11]. Ushbu qonun hamda qarorlarning ma'no va mazmunini targ'ibot-tashviqot qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilib, viloyat xotin-qizlar qo'mitasi, shahar va tuman xotin-qizlar qo'mitalari, tashkilot rahbarlari, huquqshunoslar hamda faol ayollardan iborat targ'ibot-tashviqot guruhlari tashkil etilib, joylarda tushuntirish ishlari olib borildi[12]. Masalan, 1999 yil 17 martda Vazirlar Mahkamasining 117-son "O'ta zararli va og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida" gi qabul qilingan qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyatida 1999 yilning 30 martida viloyat hokimligining 94-sonli qarori qabul qilindi[13]. Mazkur qarorlar doirasida aniq chora-tadbirlar belgilandi va ularning ijrosi ta'minlandi[14]. Viloyatda og'ir mehnat sharoitida ishlayotgan ayollarning daromad

darajasini oshirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, xotin-qizlarni o'z vaqtida profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazish, mehnat, dam olish, ovqatlanish, qish mavsumi va tungi smenalarda ishlovchi xotin-qizlarning gigiyenik xonalarini yetarlicha jihozlash, lozim topilgan ayollarni sanatoriya va oromgohlarda davolanishlari uchun sharoitlar yaratildi[15].

Og'ir mehnat turmush sharoitida mehnat qiluvchi xotin-qizlar asosan, Surxondaryo viloyatining paxta tozalash zavodlarida, "Surxon-Ajanta" dori ishlab chiqish korxonasida, Angor va Denov tumanidagi bosmaxonalarda, Surxondaryo viloyat Sanitariya epidemeologiyasi stansiyasi, dizinfeksiyalash idoralarida, biolaboratoriyalarda, Qumqo'rg'on tumanidagi Surxonparmalash zavodida, Jarqo'rg'on tumanidagi Surxontekstil hissadorlik jamiyatida, Temir beton buyumlar zavodida va qator og'ir va o'ta og'ir sharoitda ishlayotgan ayollar faoliyatini viloyat xotin-qizlar qo'mitasi chuqurroq tahlil qildi[16]. O'ta og'ir mehnat sharoitda ishlayotgan ayollarga besh kunlik ish kuni joriy etildi. Bundan tashqari ish haqlariga soliq solish 20 % dan oshmasligi lozimligi qarorda belgilanib, ularning maoshlariga 15 %, 25 % ustamalar joriy qilindi[17]. Xususan, og'ir mehnat sharoitida mehnat qilayotgan ayollarning soni aniqlanib, ularning ish sharoiti bilan tanishib chiqildi.

Shu davrda og'ir va o'ta og'ir sharoitda mehnat qiluvchi ayollar Sariosiyo tumanida 39 nafarni, Boysun tumanida esa 42 nafarni tashkil etgan bo'lib, shulardan, Sharg'un shahar g'isht zavodida ishlovchi 9 nafar ayol, Sariosiyo ijara bosmaxonasida 5 nafar ayol, Sharg'un ko'mir konida ishlovchi 24 nafar ayol, Boysun tumani sanitariya epidemiologiya stansiyasida 25 nafar ayol, Sog'liqni saqlash bo'limida 15 nafar ayol faoliyat olib bordi. Denov tumanida Suv oqova tizimida 4 nafar, tuman sog'liqni saqlash bo'limida 21 nafar, Sanitariya epidemeologik stansiyasida 5 nafar, Xayrobod paxta zavodida 19 nafar, Denov paxta zavodida 13 nafar, paxta titish fabrikasida 8

nafar, Yog' ekstraksiya zavodida 37 nafar ayollar og'ir va o'ta og'ir mehnat sharoitida faoliyat olib borib, ularning mehnat sharoiti og'ir darajada deb belgilangan[18]. Shuningdek, ushbu korxonalarda mehnat qilayotgan-xotin-qizlarning sog'lig'ini nazorat qilish uchun ularga bepul tibbiy ko'riklar tashkil etildi. Viloyatning barcha hududlarida xotin-qizlar huquqlari, onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir qonunlarning amaliyotga tatbiq etilishini chuqur tahlil etish maqsadida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman tomonidan ishlab chiqilgan Monitoring asosidagi ishlar xotin-qizlar qo'mitalari va mutasaddi tashkilotlarning doimiy nazoratida bo'lib, bu sohadagi ishlar davom ettirildi[19].

1999 yilining dastlabki to'qqiz oyida viloyatda 275 nafar ayol ishga joylashtirildi, 258 nafar xotin-qizlarga kasb mahoratlari o'rgatilib kasb o'rganish jarayonida ishsizlikka ko'maklashish jamg'armasidan 759,5 ming so'm mablag' to'lanib ishga joylashtirish kafolatlandi[20]. Bundan tashqari yil davomida bozor iqtisodiyoti sharoitida ish topishda boshqalar bilan raqobatlasha olmaydigan 723 nafar ayol hokimlik qarori bilan "Band" etilgan yoki yaratilgan minimal ish joylariga joylashtirilgan.

Shuningdek, qishloq joylarida maktabni tugatgan qizlarni "Biznes-maktablarda" bilim olishlari tashkil qilinib, ularda tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni tashkil qilish orqali qishloqlarda ham tadbirkor ayollar sonini o'ttirib borish chora-tadbirlari yo'lga qo'yildi[21]. 1999 yilda viloyatda jami 1 701,8 nafar aholi istiqomat qilib, shundan 846.1 ming nafarini xotin-qizlar tashkil

etgan[22]. Shundan, turmush sharoiti qiyin ayollar soni 34 192 nafar bo'lib, ularni ham kasbga yo'naltirish ijtimoiy holatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Viloyat tashkilotlarida, jamoa xo'jaliklarida va muassasalarida (kichik biznes va yakka tartibdagi faoliyatdan tashqari) tarmoqlar bo'yicha ishlovchilar soni 360 255 nafarni tashkil etib, shundan 133 837 nafarini ayollar tashkil etdi.

Jumladan, 1999 yil viloyatdagi mavjud 732 ta o'zini o'zi boshqarish organlarining 40 nafarini ayollar boshqarib, 82 nafari ma'sul kotib. Tarmoqlarda: sanoatda 5053 nafar, qishloq xo'jaligida 71 521 nafar, o'rmon xo'jaligida 100, transportda 1132, aloqada 370, savdo va umumiy ovqatlanishda 1374, maishiy xizmat ko'rsatishda 577, sog'liqni saqlash va sportda 17 877, xalq ta'limida 27 280, madaniyatda 1808, moliya tizimida 956, qurilishda 1615, ilm-fanda 60, san'atda 139, moddiy texnik ta'minotda 260, tayyorlov sohasida 531, boshqaruv organlarida 2983, axborot va hisoblash tizimida 25, geologiyada 58 hamda boshqa sohalarning 176 nafarini ayollar tashkil etdi[23].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Viloyatda mavjud fermer ayollar faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish uchun ular har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga hamda ularning faoliyatining samarali jihatlarini tahlil qilindi. Respublikada xotin-qizlarning bilim salohiyatini orttirish hamda ularda innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirishga oid amaliy dasturlar ishlab chiqildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Алимova Д. Женский вопрос в советской историографии Средней Азии: Дисс. ...докт.истор. наук. – Тошкент. 1991.–С. 285. O'sha muallif. Существуют ли гендерные конструкции в историографии Центральной Азии трёх эпох (колониальной, советской и современной). // Диалог со временем. 2010. Вып. 32. С. 212-223. <https://roii.ru/r/1/32.11>
2. Bobojonova D. Xotin-qizlarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ilm-fan taraqqiyoti va innvatsion rivojlanishga qo'shgan hissasi.//O'tmishga nazar. Maxsus son. T. 2021. –B. 13; O'sha muallif. Aholini ish bilan ta'minlash va milliy ishchi kadrlar tayyorlash. – Toshkent:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi TDTU, 1995. –B. 37; O‘sha muallif. Fan, madaniyat va jamiyat taraqqiyotida ayollarning o‘rni.// Ilm-fan sarchashmalari. URDU. № 3. 2004.-B. 47-49.

3. Abdullayeva Y.A. Qoraqalpog‘iston xotin-qizlari kecha va bugun (XIX asrning oxiri va XX asr). Monografiya.-Toshkent: Ijod dunyosi, 2004; Абдуллаева Я.А. Женский вопрос в Каракалпакистане в конце XIX –XX вв.(социально-политический аспект): Автореферат дисс...д.ра ист. наук. – Ташкент, 2005..

4. G‘aniyeva G. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondashuv, muammolar va yechimlar (mustaqillik davri 1991-2005 yy.): tarix fan. nom. diss. – Toshkent, 2005.

5. Atayeva D. P. Xorazm viloyati xotin-qizlarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘rni. Tarix fan. bo‘y. fal. dok. (PhD) diss avtoref. Nukus-2021.

6. Surxondaryo viloyati hokimi o‘rinbosari Sh.Norboevaning O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasiga yozgan 1999 yil uchun hisobotidan. (JA)

7. Surxondaryo viloyati hokimiyati joriy arxivi, doimiy fond. M-10-49. 15-ish. 45-varaq.

8. Surxondaryo viloyati hokimiyati joriy arxivi, doimiy fond. M-11-12. 6-ish, 13-varaq.

9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro‘yxat, 828-yig‘ma jild, 34-varaq.

10. Gasanova M. Ayol huquqi va erkinliklari. //Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar sohasida xotin-qizlarga nisbatan tahqirlanishning yo‘l qo‘yilmasligi. - T.: Adolat, 2002. - B. 37.

11. G‘anieva G. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondashuv, muammolar va yechimlar. Tarix. fan. nom.diss. - T., 2006. - B. 64

12. Surxondaryo viloyati davlat arxivi.1091-fond, 1-ro‘yxat, 830-yig‘ma jild, 7-varaq.

13. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, ro‘yxat-1, 1474-yig‘ma jild, 104-varaq.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi “O‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to‘g‘risida” gi 117-sonli Qarori.

15. Onalik va bolalikni himoya qilish masalalari bo‘yicha qonun hujjatlari to‘plami. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, 2004. - B. 188.

16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro‘yxat, 1474-yig‘ma jild, 105-varaq

17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro‘yxat, 1474-yig‘ma jild, 107-varaq.

18. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. 2002 yilgi xotin-qizlar va ularning mehnat sharoitiga oid hisobot.

19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro‘yxat, 830-yig‘ma jild, 56-varaq.

20. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. Surxondaryo viloyati “Bandlikka ko‘maklashish” jamg‘armasining 1999 yil yakunlari bo‘yicha hisobotidan.

21. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1- ro‘yxat, 830-yig‘ma jild, 58-varaq

22. Surxondaryo viloyat davlat Statistika qo‘mitasining 1996 yilgi hisoboti.

23. Termiz shahar hokimligi joriy arxivi. 1999 yil qabul qilingan “Ayollar yili” davlat dasturining ijrosiga doir hisobot.

JANUBIY O‘ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIKNING RIVOJLANISHI VA HUNARMANDCHILIK FESTIVALLARINING O‘TKAZILISHI

Mamarajabov G‘ayrat Abdulkakimovich

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

mamarajabovg@tersu.uz

UO‘K: 94:745(575.1)“1991/2020”

<https://orcid.org/0009-0001-6486-898X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy mintaqalarda hunarmandchilikning rivojlanishi va hunarmandchilik festivallarining o‘tkazilishi, ularning tavsifi va hunarmand kadrlar tayyorlash hamda usta-shogird masalalari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, hunarmand kadrlar tayyorlash, usta-shogird, qurilish, maishiy xizmat, santexnika, injeneriya, hunarmandchilik festivallari, «Sifat belgisi».

Аннотация. В данной статье представлены сведения о развитии ремесел в южных регионах и проведении ремесленных фестивалей, их описание и подготовка ремесленников и вопросы мастерства-подмастерья.

Ключевые слова: ремесла, подготовка мастеров, мастер-подмастерье, строительство, бытовое обслуживание, сантехника, машиностроение, фестивали ремесел, «Знак качества».

Abstract. This article provides information about the development of handicrafts in the Southern regions and the holding of handicraft festivals, their description and the training of artisans and master-apprentice issues.

Key words: crafts, craftsman training, master-apprentice, construction, domestic service, plumbing, engineering, craft festivals, “Quality Mark”.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O‘zbekistonda hunarmandchilik taraqqiy ettirib borilar ekan, har bir hudud o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda hunarmandlar o‘zlari yashab

turgan hududlarining tabiiy sharoiti, arzon xom ashyo bazasi, mavjud texnik imkoniyatlari, aholining talab va ehtiyojlari, ichki va tashqi bozorlardagi narx-navodan kelib chiqqan holda o‘z faoliyatlarini olib borishadi. Shundan kelib chiqib, har bir hududda hunarmandchilik muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va bozorga yetkazib beriladi. Natijada, yurtimizda hunarmandchilikning unutilayotgan yoki unutilgan turlari qayta tiklanib, yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

So‘nggi yillarda yurtimizda hunarmand ustalarni shakllantirish masalalari dolzarb vazifaga aylandi. Buning uchun har bir tuman, shahar va qishloqda ishlayotgan tajribali hunarmandlarga shogird biriktirish, hunarmandchilikka ishtiyoqi bor kishilar uchun darslar tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada mustaqillikning ilk yillarida janubiy mintaqalarda tashkil etilgan milliy hunarmandchilik litseylari muhim rol o‘ynadi.

Aytish joizki, 1991-1993 yillarda mamlakatimizda yuzaga kelgan og‘ir iqtisodiy inqiroz mavjud SPTU (hunar-texnika bilim yurti) va texnikumlarning ahvoliga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi. Chunki, bunday o‘quv yurtlari asosan qurilish va maishiy xizmatlar ko‘rsatuvchi sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashar, inqiroz sharoitida davlat miqyosidagi qurilishlar qisqarib, qurilish tashkilotlari yopilayotgan edi. Shunday vaziyatda qurilish va maishiy xizmat sohalariga kadrlar yetkazishga ixtisoslashgan o‘rta maxsus bilim yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlash, 1993-1994 o‘quv yiliga yangi o‘quvchilarni qabul qilishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib

chiqargan edi. Maktab bitiruvchilari o'rtasida ko'proq bank, audit, soliq, moliya, huquq-tartibot sohalarida o'qishga bo'lgan qiziqish keskin ortdi. Qurilish, maishiy xizmat, santexnika, injeneriya singari kasblarning obro'yi tushib ketdi.

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ayni o'sha paytda milliy qadriyatlarni tiklash, an'analarimizni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'z natijalarini bermoqda edi. Qadimiy hunarmandchilikni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan barcha tashabbuslar aholi tomonidan qo'llab quvvatlana boshlandi. O'quv yurtlarida yuzaga kelgan og'ir vaziyatdan chiqish yo'llari o'rganilib, hunar-texnika bilim yurtlarini milliy hunarmandchilik va qurilish litseylariga ixtisoslashtirish boshlandi. Jumladan, Boysun va Sherobodagi SPTUlar milliy hunarmandchilik, Termizdagi 2-sonli va Sariosiyodagi SPTU esa qurilish litseyiga aylantirildi.

1995-yilda Surxondaryo viloyat o'rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlarida 25579 nafar o'quvchi bo'lgan, shundan 9384 nafari bitiruvchi bo'lgan, 9685 nafar o'quvchini qabul qilish mo'ljallangan. Bitiruvchilarning 202 nafari Sariosiyoda kasb-hunar litseyiga, 180 nafari Sherobodga, 121 tasi Boysun milliy hunarmandchilik kasb-hunar litseyiga to'g'ri keldi [1].

Hunarmandchilik litseylarini malakali ustalar bilan ta'minlash maqsadida Buxoro va Qarshi shaharlarida milliy hunarmandchilikni o'qitish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Sherobod va Boysundagi kasb-hunar litseylarining ishlab chiqarish ustalari ushbu kurslarga o'qish uchun yuborildilar.

Sherobodlik Risolat Rahmatova 1994-yili zardo'zlikni o'rganish uchun Qarshiga bordi. U yerda zardo'zlik sexi tashkil qilib, ish yuritayotgan Gulchehra Pirmqulovadan bir oy ish o'rganib qaytdi. Shundan keyin Sherobod milliy kasb-hunar litseyi qoshida tashkil etilgan zardo'zlik sexiga boshchilik qildi. 1995-1996 o'quv yilida litseyda zardo'zlik guruhi ochildi. Risolat Rahmatova ishlab chiqarish ustasi vazifasiga tayinlandi. Risolat Rahmatova o'zi va shogirdlari bilan

birga turli tadbirlarda muvaffaqiyatli qatnashdi. Jumladan, tumanda o'tkazilgan «Tashabbus-97» ko'rgazmasida ularning mahsulotlari 1-o'rin bilan taqdirlandi. Risolat Rahmatovaning o'zi 1996-yilda viloyat pedagogik o'qishida, 1997-yilda esa «Yil o'qituvchisi» viloyat tanlovida muvaffaqiyatli qatnashdi. Har ikki tadbirda uning bilimi va kasb mahorati ikkinchi o'ringa munosib baholandi [2].

Boysundagi hunarmandchilik litseyining ishlab chiqarish ustasi Sanobar Oripova 1994 yili Buxoroga bir oylik kashtachilik kursiga o'qish uchun yuborildi. Yoshligidan onasi bilan birga kashta tikkan emasmi, darrov o'zlashtirib oldi. O'qishni tugatgach, yana Boysunga qaytib keldi. Litseyda 20 nafar qizga kashtachilik bo'yicha mashg'ulotlarni boshlab yubordi. Shogirdlari orasida bo'lg'usi ishbilarmon kashtachilar yetishib chiqdi. Ulardan Feruza Holiqova, Nilufar Jo'rayeva kabilarni keltirib o'tirishimiz mumkin [3].

1998-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar davlat dasturi to'g'risida»gi Qarorida yosh avlodni «Usta-shogird» usuli bilan kasb-hunar o'rgatishni kengaytirish va kam ta'minlangan oilalardan kamida 1000, bolalikdan nogironlardan kamida 500 o'smir bolani hunarga o'rgatib borish belgilandi. Bundan tashqari, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik tarmog'iga yosh bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ayollar, hamda nogironlarni jalb etishga katta e'tibor qaratildi [4].

Shu bilan birga, O'zbekiston kollejlari «usto-shogird» tamoyili asosida hunarmandlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Dehqonobod, Muborak, Kasbi tumanlaridagi o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari mintaqaviy sharoitdan kelib chiqib mutaxassislar tayyorlash ishlariga katta e'tibor qaratildi. Korxonalar va tashkilotlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda 2000-2005 yillarda 3 ming kishi an'anaviy hunarmandchilik kurslarida tahsil oldi [5.21].

2016-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 20 mingga yaqin hunarmand ish olib borgan. «Usta-shogird» maktablarida hunar o'rganayotganlarning soni 4000 tani tashkil etgan [6.61]. 2017 yilda hududiy bo'linmalarda 1326 ta «Usta-shogird» maktablari tashkil etildi, unda 3846 nafar yoshlarga hunar o'rgatildi. 2018 yilning birinchi choragida usta-shogird maktablari soni 2000 taga ko'paydi. Shogirdlar soni esa 7356 nafarni tashkil etdi [7].

O'zbekistonda aholini kasb-hunarga o'rgatishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kengayib bormoqda. Ulardan Koreya Respublikasining xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) muhim rol o'ynadi. KOICA professional ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Shu kunga qadar bu agentlik tomonidan O'zbekistonda uchta professional ta'lim markazi qurilib ishga tushirilgan. Birinchisi, 2012-yili Toshkentda ochilgan bo'lib, uni 2017 yilga qadar 2800 kishi o'qib sifatli bilimli oldi. Ikkinchisi 2016-yil oktyabrda Samarqand shahrida, uchinchisi 2018-yil 7-iyulda Shahrisabz shahrida ochilgan va ular o'z faoliyatini barqaror olib bormoqdalar [8].

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik taraqqiy ettirilar ekan, taniqli hunarmandlarning ishini ommalashtirish, chet davlatlarga ularning mahsulotini eksport qilish, yosh avlodga kasb sirlarini o'rgatishdek dolzarb vazifa yuzaga keldi. Bu masalani hal etish asosida elimizning boy moddiy merosi va qadimgi an'analarini saqlab qolish, ishsiz aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kambag'al oilalarni hunarmandchilikka jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash turar edi. Shuni hisobga olib, Respublika hukumati kerakli bo'lgan choralarini ko'rib bordi.

Bu borada O'zbekiston hunarmandlarining YUNESKO bilan hamkorligi tobora chuqurlashib bordi. Ayniqsa, YUNESKOning «Sifat belgisi»ni olish o'zbek hunarmandlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu dastur doimiy ravishda faoliyat ko'rsatib, hunarmandlarning jahon bozoriga kirib borishiga, G'arbiy va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining boyishiga ko'maklashadi.

Jumladan, 2006 yilda «janda» matosi va keng oq gilam YUNESKOning «Sifat belgisi» bilan taqdirlanib, Pekin, Dehli va Almatidagi bank ofislari saytida joylashtirib qo'yildi. Bu tadbir YUNESKO va Yaponiyaning «O'zbekistonning sirli sopoli» loyihasi asosida amalga oshirildi [9.71].

Yurtimizga sayyohlik oqimining ko'payishi sharoitida o'zbek hunarmandlarining mahsulotlarini sotish, hunarmandlarning «brend» tovarlarini reklama qilish, turistlarni hunarmandchilik markazlariga jalb qilish muhim ishga aylandi. Buning uchun turizm sohasida faoliyat yuritayotgan ustalarning reyestrini hamda taniqli ustalarning Milliy katalogini tuzish lozim edi. Shu jihatdan, 2019 yil 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PQ-4539-son qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga muvofiq, «Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi»ni joriy etish, «Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri»ni yuritish hamda Milliy katalogga kiritiladigan nomzodlarni tanlash bo'yicha kengashni tuzish belgilandi [10].

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston hunarmandlarining Milliy katalogida 326 ta usta-hunarmand joy oldi. Shulardan 14 nafari Qashqadaryo viloyati, 26 nafari Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keldi. Surxondaryoning o'zidan 102 nafar hunarmand turizm reyestriga kiritildi.

Hunarmandchilikni rivojlantirishda turli ko'rik-tanlovlar va festivallarning o'рни beqiyosdir. O'zbekistonda chinakam hunarmandchilik festivallarni o'tkazishdan oldin turli davlat va milliy bayramlarda hunarmandchilik ko'rgazmalarini tashkil etish an'ana tusiga kirdi. Ayniqsa, Navro'z bayramlarida bu jarayon yanada ommaviylashdi. Birinchi marta xalq amaliy san'ati namunalarini butun O'zbekistonda 1990 yilgi Navro'z bayramida keng ko'lamda namoyish etildi. Shundan so'ng har yilgi bayram tadbirlarida hunarmandchilik ko'rgazmalari o'tkaziladigan bo'ldi. Ayniqsa, 2017-2022 yillardagi (Pandemiya bo'lib o'tgan 2020-yil bundan mustasno) Navro'z bayrami Surxondaryo va Qashqadaryo

viloyatlarida butunlay o'zgacha ruhda o'tdi. Sababi, unda hunarmandlar nafaqat o'z mahsulotlari bilan ko'rgazmada qatnashdilar, balki, ishlab chiqargan buyumlarini to'g'ridan-to'g'ri bayram doirasida sotish imkoniga ham ega bo'ldilar.

Milliy hunarmandchilik namunalari keng ko'lamda targ'ib qilishda yurtimizda o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlar ham muhim rol o'ynadi. Jumladan, «Tashabbus», «Kelajak ovozi», «Innovatsiya» kabi tadbirlarning o'rnini alohida e'tirof etish kerak.

Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilish va uni dunyo miqyosida tanitishda 2002 yildan boshlab o'tkazilayotgan «Boysun bahori» alohida o'rin egallaydi. Aytish kerakki, Boysunda xalq og'zaki ijodi, qadimiy urf-odatlar, bayramlar, marosimlar, tabiat va samoga oid bilimlar, hunarmandchilik an'analari yaxshi saqlanib qolgan [11.107]. Shuni inobatga olib, «Boysun madaniy muhiti» YUNESKO tomonidan 2001 yilda e'lon qilingan «Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati» ga birinchi bo'lib kiritildi. Bunday maqomga yana 19 ta nomzod bo'lgan. 2008 yilda esa YUNESKOning «Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxati»ga o'tkazildi [12.8].

2002-2022 yillar oralig'ida Boysun tumanida 6 marotaba «Boysun bahori» ochiq folklor festivali o'tkazildi. 2022 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Boysun bahori» xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi 59-son Qarori bilan unga Xalqaro festival maqomi berildi [13]. 2022-yil 7-may kuni «Boysun bahori» xalqaro folklor festivalini YUNESKO o'z shafeligiga oldi. Bundan keyin «Boysun bahori» xalqaro folklor festivali ushbu nufuzli tashkilot shafeligida har ikki yilda bir marta o'tkazilishi belgilandi [14].

O'zbekistonda hunarmandchilikni targ'ib qilishda O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining rolini ham ko'rsatib o'tish kerak. Ushbu partiyaning «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan 2016-yildan buyon o'tkazilib

kelinayotgan «Ishbilarmon ayol» respublika ko'rik-tanlovi ko'plab ish-bilarmon ayollarni kashf etdi. Ko'rik-tanlov jarayonida tadbirkorlik, fermerlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish hamda ayollarning jamiyatdagi faolligini yanada oshirishga bag'ishlangan ko'rgazmalar va loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Garchi O'zbekistonda mana shunday ko'rik-tanlovlar, bayramlar va ko'rgazmalar ko'plab o'tkazilishi hunarmandchilik sohasida yirik festivallarni o'tkazish lozimligini ko'rsatdi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 2018 yil 27 noyabrda «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi 960-son Qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga binoan 2019 yildan boshlab, har ikki yilda bir marotaba sentyabr oyida Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida xalqaro hunarmandchilik festivali o'tkaziladigan bo'ldi [15].

Xalqaro miqyosdagi festivalni o'tkazilishiga jiddiy tayyorgarlik ko'rildi. 2019 yil 10-15 sentyabr kunlari Qo'qonda bo'lib o'tgan «Xalqaro hunarmandchilik festivalida dunyoning 78 ta davlatidan 370 dan ortiq vakillar qatnashdilar. Festival chog'ida Qo'qon shahriga «Jahon hunarmandlar shahri» maqomi berildi. Mazkur unvon 2014-yilda joriy etilgan bo'lib, unga shu kunga qadar jahonning 36 shahri erisha olgan. MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib Qo'qon shahriga berilgan [16].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Hunarmandchilik faoliyati ommaviylashib borishi o'tkazilayotgan festivallarni ixtisoslashuvini talab qildi. Shuni inobatga olib, mamlakatimizning turli shaharlarida ixtisoslashgan hunarmandchilik festivallari o'tkazilmoqda. Ular quyidagilardir:

«Ipak va ziravorlar» an'anaviy xalqaro festivali;

«Atlas bayrami» festivali;

«Hikmatlar olami» xalqaro xattotlik festivali;

«Zardo'zlik va zargarlik» festivali;

«Yosh hunarmandlar» festivali;

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlar, ko‘rgazmalar, bayram va festivallar hunarmandchilikni keng targ‘ib qilishga yordam beradi. Negaki, o‘tkazilayotgan tadbirlar hunarmandlar o‘rtasida madaniy ayirboshlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, hunarmandchilikning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 564-fond, 1-ro‘yxat, 15-ish, 70-varaq.
2. «Сурхон тонги» газетаси, 1998 йил 1-апрел.
3. Dala yozuvlari, Boysun shahri, 2022 yil dekabr.
4. <https://lex.uz/docs/692590>
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2-bayonnoma, 3-hujjat, 2006 yil, 3 fevral. –B. 21.
6. Abdullayeva R.G. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish – mintaqalar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo‘lidir // Mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari (ilmiy maqolalar to‘plami). –Toshkent, 2018. –B. 61.
7. <https://kun.uz/24370252>
8. <https://kun.uz/94341794>
9. Остонов О.А. Тенденции развития национального ремесленничества в Узбекистане // Экономика Центральной Азии. – 2021. – Том 5. – № 1. – С. 71.
10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 07/19/4539/4094-son.
11. Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. –B. 107.
12. Ўзбекистон номоддий маданий мероси. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси. –Тошкент, 2017. –Б. 8.
13. <https://lex.uz/uz/docs/5849841>
14. <https://yuz.uz/news/boysun-bahori-xalqaro-folklor-festivali-misr-matbuoti-diqqat-mar-kazida>
15. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.11.2018-y., 09/18/960/2236-son.
16. <https://daryo.uz/2019/08/12/qoqonga-jahon-hunarmandlar-shahri-maqomi-berildi/>

O'ZBEKISTONDA AHOLI GENOFONDINI MUSTAHKAMLASH BORASIDAGI TIBBIY ISLOHOTLAR

Xo'janazarov Absalom Ziyadullayevich,

*Termiz davlat universiteti Fuqarolik jamiyati kafedrasi katta o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

UO'K: 614.2(575.151)

<https://orcid.org/0009-0008-6614-4520>

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'nggi yillarda mamlakatimizda sohaga oid qabul qilingan bir qator nomativ-huquqiy hujjatlarning amalga tatbiq etilishi, aholining reproduktiv salomatligi hamda genofondi ahvolini yaxshilash borasidagi ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmat, sog'liqni saqlash tarmog'idagi islohotlar, aholi salomatligi, aholi genofondi, tibbiy buyumlar.

Аннотация. В этой статье проанализированы внедрение принятых ряд нормативно-правовых документов по отрасли, работы по улучшению состояния генофонда, а также репродуктивного здоровья населения в нашей стране за последние годы.

Ключевые слова: медицинская служба, реформы в системе здравоохранения, здоровье населения, генофонд населения, медицинская изделия.

Abstract. This article analyzes the implementation of a number of regulatory documents adopted by the industry, work to improve the state of the gene pool, as well as the reproductive health of the population in our country in recent years.

Keywords: medical service, reforms in the healthcare system, public health, gene pool of the population, medical products.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). So'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati tubdan oshirilib, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlashning milliy tizimini jadal rivojlantirish ishlarini tizimli va sifatli tashkil etish uchun umumiy amaliyot vrachlarining,

patronaj tibbiyot hamshiralarining, qishloq vrachlik punktlari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati, shu bilan birga, mamlakat sog'liqni saqlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarur bo'lgan sharoitda tibbiyot sohasini boshqarishning innovatsion modelini joriy etish masalalari davlatning diqqat markazida turibdi.

O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda. Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishining oldini olish maqsadida respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi [1, C.19-23].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekistonda aqlli tibbiyotni rivojlantirish boshlanadi. Bu Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Innovatsion rivojlanish vazirligi jahon standartlarini hisobga olgan holda, shu jumladan, kasalliklarni ilk bosqichda aniqlashni va masofadan profilaktikasini ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalarni, «Aqlli tibbiyot» va «Yagona tibbiyot axborot markazi» konsepsiyalarini joriy qilish orqali sog'liqni saqlash tizimining tezlashtirilgan

rivojlanishiga ko'maklashishi ma'lum qilinmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 apreldagi «Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2863-sonli Qarori [3] ga muvofiq, sog'liqni saqlashning xususiy sektorini yanada rivojlantirish bo'yicha xususiy tibbiyot tashkilotlarining faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va turlarini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'tgan davr mobaynida sog'liqni saqlashning xususiy sektori tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar turlari 50 tadan 126 taga ko'paydi. Stomatologiya va kosmetologiya tashkilotlaridan tashqari xususiy tibbiyot tashkilotlari 2022 yilning 1 yanvarigacha barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar, shuningdek, olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, ularning ehtiyot qismlari va zarur materiallar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etildi [4].

Qishloq joylarda tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi tashkil etiladigan mikrofirmalar va kichik korxonalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 10 yil muddatga yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etilishi qishloq va olis tumanlarda xususiy tibbiyotni jadal rivojlantirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, davlat tibbiyot muassasalarining ayrim funksiyalarini sog'liqni saqlashning xususiy sektoriga o'tkazish, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, shuningdek, respublikada va chet elda tibbiy kadrlarning malakasini oshirish, tibbiyot tashkilotlarini akkreditatsiyalash tizimini joriy etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Sog'liqni saqlashning xususiy sektorini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, ko'rsatilayotgan

tibbiy xizmatlar hajmlarini yanada kengaytirish, xususiy tibbiyot sohasiga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi [5].

2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsyepsiyasi ishlab chiqildi. Konsyepsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Kasalliklarning va ko'pchilik hollarda byevaqt o'lim va nogironlikka olib kyeladigan vaziyatlarning oldini olish va ularni davolash natijalarini yaxshilash orqali kutilayotgan umr ko'rish davrini oshirish;

2. Tibbiy yordamdan tyeng foydalanishni, aholini moliyaviy jihatdan himoya qilishni va ryesurslarni adolatli taqsimlashni ta'minlash uchun sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tashkil etish tizimini isloh qilish;

3. Konsepsiya vazifalarini bajarish va respublika aholisiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilash uchun sog'liqni saqlashning boshqaruv organlari salohiyatini kuchaytirish, ularning rahbarlari roli va javobgarligini oshirish [6, B. 70-71].

So'nggi yillarda sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan 30 dan ziyod farmon va qarorlar qabul qilindi. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, aholiga dori vositalari va tibbiyot buyumlarini oshirilgan narxlarda sotish holatlarini profilaktika qilish va ularning oldini olish maqsadida tovar cheklarini berish talabi kiritildi.

Farmasevtika tarmog'ida tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirildi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq va bojxona imtiyozlari berildi, farmasevtika sanoatini jadal rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi.

Shu bilan birga, aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan uzluksiz ta'minlash,

sun'iy taqchilik va narxlarning oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2017-yil 1-avgustdan boshlab ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ro'yxatiga kiritilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chetdan xarid qilish istisno tariqasida «O'zmedeksport» respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi tomonidan tibbiyot muassasalari va aholini dori vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni nazorat qilish bo'yicha respublika komissiyasi tasdiqlaydigan narxlarda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha tender savdolarini o'tkazilmasdan amalga oshirilishi boshlandi [7, B.169-172].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yilning 31-oktyabridagi «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori bilan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan 343 nomdagi dori vositalari, shu jumladan 98 nomdagi mahalliy va 201 nomdagi chet el dori vositalari, 44 nomdagi tibbiy buyumlar, jumladan, 18 mahalliy va 26 nomdagi chet el tibbiy buyumlari ro'yxati tasdiqlangan [8].

O'zbekistonda mahalliy farmasevtika sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, istiqloqlning dastlabki yillarida atigi ikki korxonadan 30 ga yaqin dori vositalari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bugungi kunda 146 ta farmasevtika korxonalaridan 2200 dan ortiq dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan [7, B.170-172].

Har bir xalqning ertasi farzandlarining salomatligi, naslning tozaligi bilan chambarchas bog'liq. Yurtimizda bolalarning sog'lig'ini asrash, ularning bekam-u ko'st, risoladagidek unib-o'sishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Davlatimiz bu borada e'tiborni ham, mablag'ni ham ayamayapti. 2017-yil 25-dekabrda Prezidentimiz «2018-2022-yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarorga imzo chekkani ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir [9].

Ushbu hujjat, aytish mumkinki,

davlatimizning kelajagimiz, xalqimiz nasli, «palagimiz tozaligi»ni o'ylab tashlagan muhim qadamlaridan yana biri bo'ldi. Aslida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Reproduktiv yoshdagi ayollar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini, shu jumladan quyidagilarni tashkil etish belgilandi:

- markaziy tuman (shahar) ko'p tarmoqli poliklinikalarida reproduktiv salomatlik va xavfsiz onalik, perenatal diagnostika kabinetlari (onalar skriningi), shuningdek, bolalar bo'limlari; bolalar statsionar muassasalarida tez tibbiy yordam pediatriya brigadalari va shoshilinch postlarni kengaytirish hisobidan bolalarga kecha-yu kunduz shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

- irsiy, genetik, birlamchi immunitet tanqisligi, tug'ma va orttirilgan kasalliklarga chalingan bolalarga tashxis qo'yish, ularni davolash va rehabilitatsiya qilish tizimini, shu jumladan tug'ma, surunkali kasalliklarga chalingan va nogironligi bo'lgan bolalarni rehabilitatsiya qilish markazlarini tashkil etish orqali takomillashtirish;

- irsiy kasalliklarga moyil bo'lgan, xavf ostidagi guruhga kiradigan bolalarga erta yordam berish dasturlarini amalga oshirish;

- bolalar o'limi va nogironligini kamaytirishga qaratilgan milliy loyihalarni, shu jumladan o'smirlarning jismoniy va ruhiy-ijtimoiy osoyishtaligiga ko'maklashuvchi «Bolalikda uchraydigan kasalliklarni integratsiyalashgan holda yuritish», «Bolalarning jarohat olishi va bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish», «Chaqaloqlar salomatligi», «O'smirlar salomatligi», «Jismoniy tarbiya va sport», «Sog'lom maktab muhitini shakllantirish» dasturlarini amalga oshirish;

- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan maktab yoshidagi bolalarni o'rganishning zamonaviy usul va dasturlaridan keng foydalanish, «Maktab yoshidagi bolalar sog'lig'iga nisbatan xulqini

tekshirish» (HBSC) Yevropa hamkorlik tarmog'iga hamda Bolalar semirishini epidemiologik nazorat qilish yevropa tarmog'iga (COSI) O'zbekistonning qo'shilishi onalar va bolalarga ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik, shu jumladan, mikrojarrohlik yanada takomillashtirish;

– «Ona va bola» yirik ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida bosqichma-bosqich, shu jumladan samarasi past va tor ixtisosdagi davlat tibbiyot tashkilotlarini birlashtirish orqali tashkil etish [1, C.15-20] va h.k.

Eng muhimi aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish joriy etilib, bemorlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, dori-darmon va tibbiyot uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnik asbob uskunalar bilan ta'minlanmoqda.

Respublikadagi shifoxonalar to'la qayta ta'mirlanib, jahon andozalariga mos tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil etilmoqda. Mana shu tufayli yurtimizda «Sog'lom ona sog'lom bola» konsepsiyasi hamda Ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish milliy modeli yaratildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, so'nggi yillar mobaynida uzoq muddatli samaraga millatimizning genofondini yaxshilashga, oilada tibbiy madaniyatni, aholi hayoti sifatini oshirishga hamda uzoq umr ko'rishiga erishish maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan izchil chora-tadbirlar ro'yobga chiqarildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Реформы в системе здоровья Узбекистана в последние годы //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 1 (76). – С. 19-23.
2. Ochilova O.R. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishda xalq tabobatining o'rni.: Tarix fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2022.
3. “Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 01.04.2017 yildagi PQ-2863-son // <https://lex.uz/docs/3150309>
4. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2.
5. “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2017 yildagi PQ-3450-son // <https://lex.uz/uz/docs/3480494>
6. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Тиббиётга назар: муаммо ва ечимлар //Взгляд в прошлое. – 2019. – №. 24.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma / nashr uchun mas'ul ijodiy guruh: I.U.Majidov, B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, Sh.I.Mustafqulov — T.: «Ma'naviyat», 2019.
8. «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 31.10.2016 yildagi PQ-2647-son // <https://lex.uz/docs/3060639>
9. «2018-2022 yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2017 yildagi PQ-3440-son // <https://lex.uz/docs/3471720>.

СОЧИНЕНИЯ ТЕМУРИДОВ – ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ АК ОРДЫ

М.Н.Ибрагимова

*Преподаватель Казахского национального
университета имени Аль-Фараби
Алматы, Республика Казахстан.*

Электронная почта: ibragimova.meruert@mail.ru

Аннотация: Изучение истории Казахстана XIV- XV вв. тесно связано с наследием ученых прошлого века. Из них особое место занимают персидские исторические источники, которые до настоящего времени не потеряли свое научное значение.

В данной статье на основе темуридских источников исследуется история правителей государства Ак Орда, ставшего причиной возникновения Казахского ханства. Труды темуридских летописцев являются источником бесценных сведений об истории государства Ак Орды и его правителей. Несмотря на тенденциозность, эти источники успешно находят свои применения в исследованиях. Однако эти сочинения относятся к тем трудам, которые требуют фактического анализа. Главной целью работы является проведение сравнительного анализа собранных данных о правителях Ак Орды по темуридским источникам. Автор в статье старается определить точные даты правления правителей Ак Орды ведя сравнения данных из трудов темуридских летописцев с другими источниками. А также указывает порядок их правления. В статье исследуется события, связанные с положениями государства Ак Орда начиная с времен первого правителя Ак Орды Ердена до Урус-хана.

Ключевые слова: источник, точка зрения, Орда-Эджен, династия, хан.

Annotatsiya: 14-15-asrlarda Qozog'iston tarixini o'rganish o'tgan asrning boy merosi bilan chambarchas bog'liq. Ular orasida bugungi kungacha ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan fors yozuvi ma'lumotlari alohida o'rin tutadi.

Maqolada Qozog' xonligining barpo etilishining boshlanishi bo'lgan Oq O'rda

davlati hukmdorlari tarixi temir yozuvlar asosida o'rganiladi. Temir sulolasi tarixchilarining asarlari Oq O'rda davlati va uning hukmdorlari tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Noto'g'riligiga qaramay, bu ma'lumotlar qo'llash sohasida o'z o'rnini topadi. Biroq, bu ishlar hali ham ma'lumotlarni tahlil qilishni talab qiladigan ma'lumotlar orasida. Tadqiqotning asosiy maqsadi Oq O'rdani boshqargan xonlar haqidagi ma'lumotlarni ana shu temir yozuvlar bo'yicha guruhlash va solishtirishdir. Maqolada muallif Amir Temir tarixchilari tomonidan berilgan Oq O'rda hukmdorlari hukmronlik qilgan yillar to'g'riligini boshqa ma'lumotlar bilan solishtirib aniqlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, maqola muallifi Oq O'rda davlati hukmdorlarining boshqaruv tartibini ko'rsatadi. Maqolada Oq O'rda davlatining birinchi hukmdori Erzendan Ursxongacha bo'lgan voqealar Oltin O'rda davlatidagi vaziyat bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Tayanch so'zlar: ma'lumotlar, fikr, O'rda-Ejen, sulola, xon.

Annotation: Researches on history of Kazakhstan in XIV-XV centuries are closely connected with a rich heritage of last century. Among them occupies a special role the written facts on the Farsi which didn't lose importance and to this day. In this article on basis the Timur's sources is investigated history of governors of the state of Ak Orda which became the reason of emergence of the Kazakh khanate. Works the Timur's chroniclers are a source of invaluable information on history of the state of Ak Orda and his governors. Despite narrow-mindedness, these sources successfully find the applications in researches. However these compositions belong to those works which

demand the actual analysis. Main goal of work is carrying out the comparative analysis of collected data on governors of Ak Orda on Timur's sources. The author in article tries to define exact dates of board of governors of Ak Orda conducting comparisons of data from works the Timur's chroniclers with other sources. And also specifies an order of their board. In article is investigated the events connected with provisions of the state of Ak Orda since times of the first governor of Ak Orda Erden to Urus khan.

Keywords: source, points of view, Orda-Edjen, dynasties, khan.

Введение. В настоящее время многие ученые начали изучать отечественную историю в новом направлении. Сейчас открыт доступ к большому количеству важных сведений. В то же время существуют еще неизвестные источники. Произведения историографов династии Темура являются источником ценной информации об истории государства Белая Орда и его правителей. Несмотря на их односторонность эти сведения находят свое применение. Однако в нашей стране до сих пор данные сведения относятся к числу тех, которые требуют источниковедческого анализа.

Материалы исследования. В исследовании используются сведения из сочинений, посвященных Темуру и его потомкам: «Тузук-и Темури» правителя Темура, «Зафар-наме» Низама ад-Дин Шами, «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини» Му'ина ад-Дин Натанзи, «Зафар-наме» Шарафа ад-Дин 'Али ибн Шайх Ходжи Язди, «Тарих-и арба 'улус», «Маджма ' ат-таварих-и султанийа» Мирзо Улугбека, а также «Тарих-и Хафиз-и Абру» Шихаба ад-Дин 'Абдаллах ибн Абд ар-Рашид ал-Харави (Хафиз-и Абруда), «Муджмал-и Фасихи» Абу-л-Хасан Са 'ид 'Али ал-Джурджани, Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад ал-Харави, «Матла 'ас-са' дайн ва маджма 'ал-бахрайн» Камал ад-Дин 'Абд ар-Раззак ибн Джалал ад-Дин Исхак Самарканди, «Раузат ас-сафа фи сират ал-анбийа ва ал мулук ва ал-Хулафа»

и «Ма 'асир ал-Мулук» Мухаммада ибн Саййид Мухаммад ибн Амир Бурхан ад-Дин Хаванд-шах ибн Шах Камал ад-Дин Махмуд Балхи (Мирхонда), «Хабиб ас-сийар фи ахбар афрад ал-башар», «Му'изз ал-ансаб» Гийаса ад-Дин Мухаммад ибн Ходжа Хумам ад-Дин Мухаммад ибн Ходжа Джалал ад-Дин ибн Ходжа Бурхан ад-Дин Мухаммад Хусайни Ширази Херави (Хондемира) и сочинения «Бабурнаме» Захира ад-Дин Мухаммед Бабура, «Силсилат ас-салатин». Основой предлагаемого исследования выступают труды Зардыхана Киянатулы, М.Х. Абусейтовой, Б.А. Ахмедова, С.Г. Кляшторного, Т.И. Султанова, Н.Н. Мингулова, В.П. Юдина.

Цель исследования – всесторонне изучить вопросы, относящиеся к истории правителей Белой Орды, на основе указанных выше источников и сочинений. Для достижения поставленной цели выдвинуты следующие задачи:

- Найти сведения по истории правителей Белой Орды в темуридских источниках;
- Дать оценку сведениям по истории правителей Белой Орды в темуридских источниках;
- Провести источниковедческий анализ сведений по истории правителей Белой Орды в темуридских источниках.

В ходе анализа и интерпретации материалов были использованы метод сравнительного описания, метод хронологического соответствия, метод анализа исторических источников.

Результаты исследования. Историк темуридов Му'ин ад-дин Натанзи Сасы-Бука одним из первых предоставил множество сведений о правлении многочисленных потомков Орда Ежена, начинающих свое происхождение от Сасы-Буки. Он указывает, что правитель Белой Орды - Сасы-Бука является сыном Ногая. Однако ученые доказали тот факт, что Сасы-Бука – сын Баяна, а не Ногая. Му'ин ад-дин Натанзи считал, что в то время Сасы-Бука (1309-1315 гг.) был современником Тогрула, сына севшего на

престол Золотой Орды Тохта хана. По данным из сочинений Низама ад-дин Шами, Шарафа ад-дин Йазди и Улугбека, на престол Золотой Орды после Тохта хана воссел не Тогрул, а его сын Узбек хан. Ни в одном из указанных источников не встречается упоминаний о том, что Тогрул взшел на престол. Лишь в произведении Му'ина ад-дин Натанзи дана информация о времени его правления. В труде Утемиса хаджи «Шынгыс-наме» встречаются сведения о восхождении на престол после Тохта хана «некоего Бажыр Ток-Буга из племени уйгуров», вовсе не относящегося к потомкам ханов. В «Шынгыс-наме» рассказывается о Тогруле, что он младший брат Тохта хана, убившего его из-за притязаний на престол [1, С.172-176]. Только Натанзи, опираясь на неизвестные источники, повествует о правлении Тогрула после Тохта хана. Но все другие источники указывают на восхождение на престол после Тохта хана Узбек хана и на основании этого до последнего времени написано большое количество научных работ.

Му'ин ад-дин Натанзи поведал, что Сасы-Бука по-прежнему сохранял подчиненное положение. На протяжении 30 лет правления он ни разу не пропустил приглашений Тогрул хана и Узбек хана и скончался в 720 г.х. (1320-1321). Но годы, указанные по свидетельству Натанзи, противоречат другим источникам. Если Сасы-Бука умер в 720 г.х., то Ерзен должен был взойти на престол в этом же году. По сведениям некоторых исследований, в 1320 году к власти пришел не Ерзен, а Мубарак-ходжа. Босворт в своем исследовании отмечает, что после Сасы-Бука правил Ильбасан (1315-1320), после него Мубарак-ходжа (1320-1344) [2, С.204], о приходе к власти Ильбасана пишет и ученый К. Салгараулы, считая Ерзена Мубарак-ходжой [3, С. 37].

После кончины Сасы-Бука по приказу Узбек хана его место занимает сын Сасы-Бука – Ерзен. Об этом написано в «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини» следующим образом: «Он был царем

крайне умным, праведным, превосходным, богобоязненным [4, 129-130 с.]. Наряду с этим Му'ин ад-дин Натанзи повествует, что Ерзен благоустроил Сыганак, построил много зданий в Отыраре, Саурани, Женте, Баршыкенте.

Натанзи противоречит своим же данным, приводя сведения о том, что Узбек хан сел на престол Золотой Орды в 737 г.х. (1336-1337 гг.), а после 30 лет правления отшел в мир иной в 767 г.х. (1365-1366 гг.) [4, С.128]. Поскольку, по указанному нами выше свидетельству Натанзи, сын Сасы-Бука - Ерзен стал править по велению Узбек хана, даже приведенные им самим факты о том, что «Сасы-Бука на протяжении 30 лет правления ни разу не пропустил приглашений Тогрул хана и Узбек хана», и о правлении Узбек хана никак не соответствует 737 году хижры (1336-1337 гг.). В сочинении внука Амира Темура Мирзо Улугбека под названием «Тарих-и арба' улус» приведены сведения о том, что Узбек хан пришел к власти в Золотой Орде в 712 г.х. (1312 г.) и скончался в 750 г.х. (1350 г.). Если опираться на его данные, то «правление Султан Мухаммед Узбек хана составляло восемь лет в доисламский период, тридцать лет после прихода ислама» [4, С.226]. Следовательно, сложив все вместе, получим 38 лет правления. По нашему мнению, данные сведения более близки к истине. Безусловно, годы прихода к власти и дата смерти Узбек хана требуют отдельного исследования. Наша цель в данном случае – выяснить время правления ханов Белой Орды на основе сравнительного анализа приведенных фактов.

На место Ерзена пришел его сын Мубарак-ходжа. Если верить данным Му'ина ад-дин Натанзи, он правил всего лишь 6 месяцев и с его приходом к власти установились беспорядки, смуты. Привыкший к мирной жизни народ не стерпел его власти больше 6 месяцев. Так, Мубарак-ходже пришлось уйти от власти. Как рассказывал Му'ин ад-дин Натанзи, после этого еще «2 года и 6 месяцев он

скитался на Алтае и в киргизских землях без дома, в итоге там и нашел свою гибель». А по свидетельству Гафари, он умер после 6 месяцев правления [4, С. 211].

Доктор исторических наук З. Кинаятулы, основываясь на сведениях Му'ина ад-дин Натанзи о 6 месяцах правления Мубарак-ходжи, писал: «Конечно, несмотря на то, что власть Мубарака-ходжи не продлилась долго, все же он стремился в столь короткое время довести до конца благие дела (самостоятельность К.З.), начатые в период правления своего. По сравнению с известным Урус ханом, который поставил своей целью - «завершить дело Мубарак-ходжи», деятельность Мубарак-ходжи в Белой Орде кажется более весомой» [5, С. 190].

Кроме того, З. Кинаятулы в труде "Аноним Искендера" пишет, что при Мубарак-ходже в Белой Орде началась разруха, возможно, это объясняется влиянием точки зрения историков династии Шибана, которые были против политики независимости Мубарака. Мы приходим к такому мнению на основании убедительного мнения о том, что, если при Мубарак-ходже в Белой Орде распространились беспорядки, то его младший брат Шымтай не смог бы самостоятельно править в течение 17 лет и не получил специального приглашения занять престол Золотой Орды» [5, С.191].

Некоторые исследователи отрицают сведения Му'ина ад-дин Натанзи о 6 месяцах правления Мубарака-ходжи. Н.Н. Мингулов считает: «...Начиная с Мубарак-ходжи хана (1320-1344), правители Белой Орды полностью избавились от зависимости перед правителями Золотой Орды». Автор указывает 1320-1344 годы по данным Стэнли Лен-Пуля и денежно-монетных материалов [6, С.158].

З.Кинаятулы вполне обоснованно отмечает: «На основе исторических источников Ерзен умер в 1345 году. Поэтому, вероятнее всего, Мубарак-ходжа стал ханом в 1345 году. Вследствие

древности вторая цифра в дате, выбитой на серебрянной монете в его честь, может быть прочтена искаженно. П.С. Савельев указывает годы ханства Мубарак-ходжи как «1344-1345», имея на это основания: «Если это так, именно в эти годы Белая Орда после Ежена обрела подлинную независимость [5, С.190]». Полностью разделяя данную точку зрения, считаем целесообразным годы правления Ерзена начать с указанного Натанзи выше года смерти Сасы-бука – с 1320 года и закончить 1345 годом. Следовательно, Мубарак-ходжа правил не в 1320-1345, а в 1344-1345 годы. Так, опираясь на сведения Натанзи, можно определить, что после Сасы-Бука в Белой Орде Ерзен правил 24 года, а Мубарак-ходжа – 6 месяцев.

К. Салгараулы отмечает: «...Говоря, что Золотая Орда поделилась на две части, мы имеем ввиду период, когда в последующем Белая Орда обрела независимость и перестала подчиняться Золотой Орде. Такое разделение, по письменному свидетельству персидского историка Му'ина ад-дин Натанзи, кажется имело место еще при хане Золотой Орды Тохта. Годы его ханства – время между 1290 и 1312 годами. То есть, период освобождения Белой Орды от подчинения Золотой Орде и создания самостоятельного ханства нужно начинать с этого времени. Это доказывает и то, что Узбек хан насильно ставит своего сына Тыныбека правителем, чтобы вновь подчинить детей Орда-Ежена. Однако Тыныбек вскоре был убит, а дети Орда-Ежена возвращают себе власть», таким образом, ученый продлевает время обретения Белой Ордой независимости дольше годов правления Ерзена [3, С. 36].

По свидетельству Му'ина ад-дин Натанзи, после Мубарака-ходжи на престол Белой Орды по приказу хана Жанибека сел сын Ерзена – Шымтай (1344-1361), который единолично был у власти на протяжении 17 лет [4, С. 30]. Здесь можно заметить, что в описании Му'ина ад-дин Натанзи до хана Уруса ханы Белой Орды садились на престол по

повелению ханов Золотой Орды. Следовательно, Белая Орда существовала как отдельное самостоятельное государство, начиная с Урус хана.

В источниках нет сведений об обстоятельствах смерти Шымтая. После смерти Шымтая к власти пришел его сын Урус хан. В темуридских источниках приведены более полные данные о жизни и политике Урус хана. В особенности, можно отметить более конкретные факты в сочинении Му'ина ад-дин Натанзи «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини».

Урус хан в истории известен как основоположник династии казахских ханов. Он был сильным полководцем, государственным деятелем и могущественным правителем своего времени. Наряду с этим хан Урус внес большой вклад в развитие своего государства, в частности, в развитие культуры города Сыганак за счет строительства различных религиозных учреждений (мечетей, медресе). Согласно Му'ину ад-дин Натанзи, хан Урус характеризовался как «очень воинственный, сильный и могущественный царь» [4, С. 131].

Му'ин ад-Дин Натанзи писал, что хан Урус – сын Шымтая, Шымтай – сын Ерзена, Ерзен – сын Сасы-Бука, Сасы-Бука – сын Ногая [4, С. 129-130]. В этих сведениях Сасы-Бука признан сыном Ногая. А согласно данным Рашида ад-Дина и других источников, Сасы-Бука – сын Баяна. Если продолжить генеалогию хана Уруса, приведенную в сочинении Му'ина ад-Дин Натанзи, по данным Рашида ад-Дина, то в Белой Орде правили до Сасы-Бука Орда (Орда-Ежен) – Сартакан (Сартак) – Куынжы (Коншы) – Байан [4, 41-48 сс.]. В данном месте можно сформировать точку зрения о том, что хан Урус является потомком Орда-Ежена. Рассмотрим приведенные сведения о генеалогии Урус хана, разделив их в две группы. Первая группа – источники, указывающие на то, что династия казахских ханов берет свое начало от Тока-Темур:

1. Сочинения хана Хивы Абилгазы (1603-1664). «Шаджара-йи турк»,

2. «Таварих-и гузида-йи нусрат-наме» («Нусрат-наме»); приблизительно написано в Средней Азии в 1504 году.

3. Сочинение, составленное неизвестным автором по приказу потомка династии темуридов Шахруха в 829/1426 годы. «Муизз ал-ансаб»;

4. «Шынгыснаме» автора XVI века – Утемиса Ходжа.

5. Сочинение «Бахр-ал-асрар» историка XVII века Махмуд ибн Вали.

Вторая группа – источники, указывающие на то, что хан Урус является прямым потомком Орда-Ежена:

1. Сочинение «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини» или «Аноним Искендера» историка потомков Амира Темура Му'ина ад-Дин Натанзи 816/1413-1414 гг.

2. «Нусах-и джаханара» - написанное в 972/1564-1565 годы сочинение аль Гафари.

3. «Тарих-и Хайдари» - общая история, написанная в период с 1611 по 1619 годы Хайдаром ибн Али Хусайн Рази.

4. Сочинение «Джами ад-дувал» османского историка XVIII века Мунаджжим-баши.

Рассмотрим позицию исследователей, ведущих начало династии хана Уруса от Тока-Темур на основе первой группы источников. Одним из них является востоковед В.П. Юдин, который доказывает тот факт, что хан Урус – потомок Тока-Темур, опираясь на «Шынгыснаме». Представленная им «Генеалогия потомков Джучи хана» выглядит так: Джучи, от него - Тока-Темур, от него - Уз-Темур, от него - Кожа, от него - Бадык, от него – хан Урус. Стронник потомков Шайбани - «Шынгыс-наме» и другие источники особое внимание обращали на происхождение хана Уруса, хана Токтамыша, хана Темур-Кутлука, их предков и потомков. Поскольку все они были потомками Тока-Темур. Потомки Тока-Темур в основном в XV веке и в последующие века были противниками

потомков Шайбани в борьбе за власть в Золотой Орде и Восточном Дешт-и-Кипчаке. Поэтому «Шынгыс-намэ» считается дополнительным и точным источником, доказывающим единое происхождение хана Уруса и Туглук-Темура (не следует ограничивать тот факт, что Туглук-Темур – потомок Тока-Темура), а также происхождение хана Уруса и казахских ханов от Тока-Темура» [7, 121].

Востоковед М.Абусейитова полностью подтверждает точку зрения В.П. Юдина, основываясь на «Тюркской генеалогии» хана Хивы Абилгазы и на произведении Махмуда ибн Вали «Бахр ал асарр». Абилгазы в своей генеалогии писал: «Шынгыс хан – Жошы хан – Токай Темур - Сам Темур – Ходжа Бадакул углан – Орыс хан – Куйыршык хан – Барак хан - Абусагит (псевдоним - Джанибек хан). У него было девять сыновей: Ираншы, Махмут Касымке, Мухаммед хан. Мы писали о том, что Мухаммед воевал с Шибани и погиб за веру. После него Етик, Джаныш, Канбар, Тыныш, Осик, Джауик» (5). Согласно точке зрения М.Абусейитовой, так как Абилгазы был потомком Шынгыс хана, то, вероятно, он точно знал свою генеалогию. Поэтому его данные, по сравнению с другими источниками, более достоверны [8, 77].

«Эта проблема давно уже перестала быть поводом для споров», - данное мнение В.П. Юдина не нашло подтверждения. Несмотря на то, что «по традиции считалось, что хан Урус происходил из династии Орда-Ежена» [9, 329], до сих пор среди исследователей нет еще единой позиции по этому вопросу.

Д.и.н. З.Кинаятулы является сторонником «второго направления, относящего предка казахских ханов хана Уруса к потомкам династии Орда-Ежена» [10, 173]. Он рассматривает в качестве источника системной информации о генеалогическом древе династии Орда-Ежена труд «Муизз ал-ансаб», которым пользовался Рашид ад-Дин и который впервые ввел в казахскую средневековую

историографию Т.Султанов. З.Кинаятулы взял за основу таблицу П. Савельева, приведенную в работе Б.Д.Грекова и А.Ю. Якубовского «Золотая Орда и ее падение» и пришел к выводу о том, что хан Урус происходит от Сасы-Бука [10, 227].

В то же время К.А. Пищулина писала: «Не имеет принципиального значения то, происходят ли хан Урус и его потомки от Тока-Темура из ветви Джучи или они связаны с Орда-Еженом. Традиционно они оба считались равными по рангу правителями Белой Орды, так как братьям Тока-Темура выделены надель в улусе Орды и они были в составе четырех братьев (вместе с Удуром, Шингкумом и Шинкурмом), которые были наследниками Джучи и образовали правое крыло войска» [9, 328-329]. Но все-таки не будет лишним выяснить правду и все подробности дела. Поэтому целесообразно остановиться на единой точке зрения, что хан Урус являлся потомком Орда-Ежена. Мы в нашем исследовании придерживаемся данного второго направления.

Известно, что хан Урус активно участвовал в государственных делах уже в период правления своего отца Шымтая. Он агитировал отца завоевать Золотую Орду и присоединить её к Белой Орде. Однако, по словам Му‘ина ад-Дин Натанзи, «Шымтай его не послушал» [4, 131]. Придя к власти, он приступил к воплощению этого замысла.

Не имеется конкретных данных по дате прихода хана Уруса к власти. На протяжении длительного времени исследователями было принято считать 1361 год датой прихода хана Уруса к власти. Это не является случайностью. Потому что именно этот год в источниках указывался как год смерти Шымтая. В 1361 году Шымтай скончался, вместо него начал править хан Урус. В «Истории Казахской ССР» общим решением была принята эта дата как год прихода к власти хана Уруса.

На основе нумизматических данных Т.И. Султанова и ряда восточных источников, появилась точка зрения о необходимости

указывать 1368 год как время восхождения хана Уруса на престол, что повлияло на принятие этой даты авторами вышедшего позднее второго тома «Истории Казахстана» [11, 110].

По мнению некоторых ученых, Урус хана «в 1361 году объявили ханом (посадив его на белую кошму) только кочевые племена одной части Дешта», а временем его полного признания в столице Белой Орды Сыганаке и выпуска денег со своим именем является 1368 год» [12, 104]. Однако в «Истории Казахстана», используемой большинством читателей, указано лишь, что «Урус стал ханом Белой Орды в 1368 году». Отсюда вытекает вопрос: неужели после смерти Шымтая в 1361 году в течение семи лет в Белой Орде не было правителя? Авторы второго тома «Истории Казахстана» не дают объяснения тому, почему после смерти Шымтая в 1361 году только после семи лет, а именно в 1368 году хан Урус сел на престол. Помимо этого «в 1368 году при поддержке оплота державы и дворцовой знати» хан Урус совершил нашествие на земли вдоль Волги» [12, 110]. Тогда выходит, что Урус хан, придя к власти, сразу собрался в поход. Но перед этим ему было необходимо подавить тока-темуридский сепаратизм в стране, для чего требовалось много времени. Хан Урус в 1374-1375 годы взял Сарай, окружил Хажи-Тархан (Астрахань), подчинил себе земли болгаров Камы, названных в источниках «народом хана Уруса».

Однако успехи хана Уруса длились недолго, поэтому он был вынужден в следующем году покинуть земли вдоль Волги. Хан Урус сбил с пути временного правителя Золотой Орды Мамай, достигшего при поддержке феодалов значительного влияния в западной части Золотой Орды в период внутренних междоусобиц.

Историки темуридской династии хорошо осветили столкновения хана Уруса с Амиром Темуром во внешней политике. В одно из таких столкновений пришло известие о внезапной болезни и смерти

хана Уруса. Это случилось весной 1377 года. Но точных сведений о том, как скончался хан Урус, в источниках не имеется. Му'ин ад-Дин Натанзи, один из более сведущих в политике Восточного Дешт-и Кипчака авторов, написал: «умер собственной смертью» [4, 131]. Казахстанский историк-источниковед В.П. Юдин посвятил статью «Неизвестные сведения о гибели хана Уруса» обстоятельствам смерти хана Уруса. Согласно его данным, 12-летний сын Тохтамышша Джалал ад-Дин и его товарищи решили резко атаковать один из флангов войска хана. Стрела, выпущенная Джалал ад-Дином, попала в хана Уруса, отчего тот и погиб... С этой поры широко распространилась весть о том, что «хана Уруса убил Джалал ад-Дин» [7, 138-139].

Темуридский историк Натанзи, который уделял особое внимание тому, как умирал тот или иной хан, в этот раз так же подробно рассказал, как умер хан Урус: «Когда истекло 9 лет правления Урус-хана, он скончался от естественной болезни» [7, 138-139].

Д.и.н. З. Кинаятулы писал: «...известие Кадыргали Джалайыра о том, что хан Урус "скончался на севере в местности Кыштам" кажется более достоверным. Войска хана Уруса осенью 1377 года добрались до Саурана, были готовы воевать с Темуром-Токтамышем. Но длившиеся три месяца дожди, снежные бураны и пробиравшие до костей морозы не дали возможности покорить. Судя по словам Му'ина ад-Дин Натанзи "Из-за сильных морозов хан Урус повернул вспять", хан Урус, вероятно, уже здесь подвергся сильной болезни», - делает вывод [5, 138-139]. Таким образом, можно отметить, что есть полная вероятность того, что хан Урус скончался собственной смертью в 1377 году.

Итак, при хане Урусе Белая Орда была признана самостоятельным государством. Как мы знаем, Белая Орда являлась первым государством казахов, населявших территорию Казахстана. Возникновение Казахского ханства необходимо исчислять

с периода правления хана Уруса. Этот факт неоднократно повторяли наши исследователи.

В соответствии с сочинением «Муизз ал-ансаб» неизвестного автора, написанного во дворце династии Темуридов, от династии хана Уруса произошли ветви ханов 1) Токтакия, 2) Темур-Малик, 3) Куйыршык [13, 346]. От ветви Токтакия ведет свой род первый хан Казахского ханства Керей хан. От ветви Куйыршыка ведет свой род хан Барак. Начиная от Джанибека – сына Барака до Кенесары - сына Касыма вплоть до всех ханов, - все они потомки хана Куйыршыка.

Заключение. Таким образом, мы убедились в том, что историки темуридской династии оставили интересные и конкретные письменные сведения о значительном вкладе

правителей Белой Орды в развитие государства, экономики и культуры. Нами было замечено, что сведения из произведений, посвященных Темуру и его потомкам, способствуют решению сложных вопросов, касающихся правителей Белой Орды. Тем не менее, требуется критическая оценка всех этих сведений. Как было указано выше, данные, приведенные Му‘ино ад-Дин Натанзи, которые до сих пор являлись единственным источником о государстве Белая Орда, противоречат друг другу. Поэтому всем известно, что прежде чем использовать какие-либо сведения, необходимо подвергать их источниковедческому анализу. Данная проблема ждет своего более глубокого изучения.

Таблица 1. Таблица ханов Золотой Орды и Белой Орды по данным темуридских историков.

Низам-ад-Дин Шами Шараф-ад-Дин Язди	Му‘ин ад-Дин Натанзи	Мирзо Улугбек
Джучи	Джучи	Джучи
Батый	Батый	Батый
Берке	Берке	Берке
Сайын хан	Мунке Темир	Сайын хан Мунке Темир
Ясун-Мунке	Туда-Мунке	Ясу Мунке
Токта	Токта	Токта
-	Тогрыл	-
Узбек	Узбек	Узбек
Джанибек	Джанибек	Джанибек
Бердибек	Бердибек	Бердибек
Келдибек	Келдибек	Келдибек
Наурыз	Орда-Шейх	Наурыз
Шеркес		Шеркес
Хызыр	Хызыр	Хызыр
Муруд	Хальфай	Марду
Базаршы	Темир Кожа Мурид	Базаршы
Сасы-Ногай(Сасы-Бука) Туглук-Темир	Ильяс	Токтай-хан Туглук-Темир
Мурат-кожа	Азиз	Мурат-кожа

Кутлук-кожа	Кажы-хан	Кутлук-кожа
Урус	Урус	Урус
Токтакия	Токтакия	Токтабай
Тумукан-Темир-Малик	Темир-бек(Темир Малик)	Темир Тилек
Токтамыс	Токтамыс	Токтамыс
Темир-Кутлук	Темир-Кутлук	Темир-Кутлук
Шадибек	Шадибек	Шадибек
Полат	Темир Султан	Полат
Джелал-ад-Дин	Джелал-ад-Дин	Темир-хан Джелал-ад-Дин
Кепек Керим-Берди	Гийас ад-Дин Мухаммед хан	Керим-Берди
Чекре Дервиш		Куюк Шигир Джаппарберди Сайыд Ахмад Дервиш
Мухаммед		Мұхаммед-хан Давлетберди Барак

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Қазақстан тарихы туралы түркі дерктемелері. I том. Өтеміс қажы. Шыңғыс-наме. Алматы «Дайк-Пресс» 2005.-400 б.
2. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер.с англ. П.А. Грязневича. М., «Наука», 1971.- 324 с.
3. Салғараұлы Қ. Хандар кестесі. (Шығыс хандарының жылнамалық кестесі). Алматы, «Жалын», 1992.-48 б.
4. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов относящихся к истории Золотой Орды. - М.-Л., 1941, т. II. - 308 с.
5. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. Астана «Елорда», -2004.- 344 б.
6. Мингулов Н.Н. К некоторым вопросам изучения истории Ак Орды / Казахстан в эпоху феодализма (проблема этнополитической истории). – А., 1981. – С.79-95.
7. Юдин В.П. XIV ғасырдағы қазақ даласындағы биліктің тайпа билеріне және Тоқа-Темир ұрпақтарының белгісіз әулетіне өтуі // Қазақстан тарихы туралы түркі дерктемелері. I том. Өтеміс қажы. Шыңғыс-наме. - Алматы, «Дайк-Пресс», 2005. С. 121
8. Абусейтова М.Х. Казахстан и Центральная Азия в XV-XVII вв.: история, политика, дипломатия. - Алматы, 1998. С. 77)
9. Пищулина К.А. Жанібек пен Керей/Қазақстан тарихы. Бес томдық. – А., 1997. С. 328-329
10. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. Астана «Елорда», -2004. 173-б
11. Қазақстан тарихы. А., 1998, II том. - 640 б.
12. Ускенбай К. М. Тынышпаев о некоторых спорных вопросах казахского средневековья и современная историография // Отан тарихы, 2000, № 1-2. – С. 121.
13. Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государства и народы Евразийских степей. Древность и средневековье. Второе издание. СПб., 2004.-368 с.

REFERENCES:

1. Kazakhstan tarihy turaly turky derektemelery. I tom. Utemis kazhy. Shyngys-name. Almaty "Dayk-Press" 2005. 400 b.
2. Bosvort K.E. Musulmanskiye dinastii. Spravochniki po hronologii i geneologii. Per.s angl. P.A. Gryaznevicha. M., "Nauka", 1971.-324 s.
3. Salgarauly K. Khandar kestesy. (shugus khandarynyn zhulnamalyk kestesy). Almaty, "Zhalyn", 1992.-48b.
4. Tizengauzen V.G. Sbornik materialov otnosyashihsya k istorii Zolotoi Ordy.-M.-L., 1941, t.II.
5. Kinayatuly Zardyhan. Kazakh memlekety zhane Zhoshy khan. -Astana "Elorda", -2004.
6. Mingulov N.N. K nekotorym voprosam izucheniya istorii Ak Ordy / Kazakhstan v epohu feodalizma (problema etnopoliticheskoy istorii). – A., 1981. – S.79-95.
7. YUdin V.P. Central'naya Aziya v HIY-HYIII vekah glazami vostokoveda. A., 2001. s. 22.
8. Abuseitova M.H. Kazahskoe hanstvo vo vtoroj polovine HYI veka. A., 1985. s.15.
9. Pishulina K.A. Zhanibek pen Kerei/ Kazakhstan tarihy. Bes tomdyk. - A., - 1997.
10. Kinayatuly Zardyhan. Kazakh memlekety zhane Zhoshy khan. – Astana "Elorda", -2004.
11. Kazakhstan tarihy. A., 1998, II tom-640 b.
12. Uskenbai K.M. Tynyshpaev o nekotoryh spornyh voprosah srednevekov'ya i sovremennaya istoriografiya // Otan tarihy, 2000. №1-2.
13. Klyashtornyi S.G., Sultanov T.I. Gosudarstvo i narody Evraziskhikh stepi. Drevnost' i srednevekov'e. Vtoroe izdaniye. CPb., 2004.-368 s.

IKKINCHI JAHON URUSHIDA SURXONDARYO VILOYATI HARBIYLARINING JASORATI

Choriyev Raxmonberdi Yusufovich,

Termiz davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash,

ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mutaxassisi

UDK: 94(575.151):355

<https://orcid.org/0009-0005-5664-0021>

Annotatsiya: Bugungi kunda tariximizni, ayniqsa, o'ta soxtalashtirib talqin etilgan sovet davrini, xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarini mafkuraviy qarashlardan xoli tarzda o'rganish zarurati tug'ildi. Fashistlar Germaniyasini yengish va g'alabani qo'lga kiritishda O'zbekiston harbiylarining, jumladan Surxondaryolik jangchilarning salmoqli hissasini, frontda ko'rsatgan jasoratlarini, g'alaba yo'lida to'kilgan qon va yo'qotishlarni xolisona, milliy g'oya asosida maxsus tadqiq etish zarurati paydo bo'ldi. Maqolada Ikkinchi jahon urushida Surxondaryo harbiylari ishtiroki haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo harbiylari, 92-alohida o'qchi milliy brigadasi, 213-o'qchi diviziya, Kursk jangi, Moskva himoyasi, Boymatov Jovli, G'ofir Aminqulov.

Аннотация: Сегодня существует необходимость изучения нашей истории, особенно фальсифицированного советского периода, в частности, лет Второй мировой войны, без идеологических взглядов. Значительный вклад узбекских военных, в том числе бойцов Сурхандарьи, в разгроме гитлеровской Германии и завоевании Победы, храбрость, проявленная на фронте, кровь и потери, пролитые на пути к победе, объективно, на основе национальной идеи, особо осознается необходимость проведения исследований. В статье говорится об участии Сурхандарьинских военных во Второй мировой войне.

Ключевые слова: Сурхандарьинские военные, 92-я отдельная стрелковая национальная бригада, 213-я стрелковая дивизия, Курская битва, оборона Москвы, Бойматов Джовли, Гафир Аминкулов.

Abstract: Today, there is a need to study our history, especially the falsified Soviet period, in particular, the years of the Second World War, without ideological views. The significant contribution of the Uzbek military, including the fighters from Surkhandarya, in defeating Nazi Germany and winning the victory, the bravery shown at the front, the blood and losses shed on the way to victory, objectively, on the basis of the national idea, are specially recognized. The need for research has arisen. The article talks about the participation of the Surkhandarya military in the Second World War.

Key words: Surkhandarya military, 92nd special rifle national brigade, 213rd rifle division, Kursk battle, defense of Moscow, Boymatov Jovli, Gafir Aminkulov.

Jangovar harakatlarda o'zbekistonlik harbiylarning, respublikada tuzilgan milliy birlashmalar va umumqo'shin qismlarining faoliyati alohida o'rin tutadi. Fashistlar Germaniyasi tobora katta xavf bilan urushning dastlabki bosqichida Sovet Ittifoqi hududiga yuzlab kilometr kirib keldi. Dushmanning hujum qilish sur'ati bir kechakunduzda qariyb 30 km ni tashkil etdi. Latviya, Litva, Estoniya, Moldaviya, Belorussiya va o'ng sohil Ukrainaning janubiy qismlari bosib olindi. Urushning dastlabki oylarida SSSR armiyasining 170 diviziyasidan 28 tasi to'liq safdan chiqqan, 70 tasi yarim odami va jangovar texnikasidan mahrum bo'lgan edi. SSSR bu vaqtga kelib 2 mln. dan ortiq askaridan (bu 70 foizdan ko'prog'ini tashkil qilar edi) ajralgan, 8,3 mingta tankidan, 43,3 mingta to'pidan, 8,2 mingta samolyotidan 59 mahrum bo'lgan edi. Agar taqqoslaydigan bo'lsak, dushmanning yo'qotishlari unchalik darajada emasdi.

Xususan, ular askarlar tarkibi bo'yicha 0,5 mln. kishiga (qariyb 20 foiz), tanklar bo'yicha 1,8 mingtaga (qariyb 60 foiz), samolyotlar bo'yicha 1,6 ming dona (30 foizdan ortiq)ga teng edi[1;88]. Urushda halok bo'layotganlarning soni esa daqiqalar sari ortib borardi.

SSSR umuman urushga tayyorgarlik ko'rmagan deyish noto'g'ri, albatta. Chunki 1939-yil 1-sentyabrda SSSR Oliy Soveti umumiy harbiy majburiyat haqida yangi qonun qabul qilib, armiyaga chaqirishni 21 yoshdan emas, balki 18 yoshdan belgiladi. Shuningdek, armiyada xizmat qilish muddati ham 3-5 yilga uzaytirildi. Agar 1936 yilda SSSR armiyasi va flotida xizmat qilayotganlarning umumiy soni 1,1 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1938- yilda 1,5 mln. ni, 1941-yil 1 yanvarga kelib esa 4,2 mln. ni tashkil etdi. 1941-yil 22-iyunda esa SSSR qurolli kuchlari safida 5 mln. kishi bor edi. Ya'ni besh yil davomida qurolli kuchlar safi 5 barobarga ortdi. Shuningdek, mudofaa uchun sarflanadigan mablag' ham oshib bordi. U 1937-yildan 1940-yilga qadar 17 mlrd. rubldan 57 mlrd. rublgacha ko'paygan edi[2;412].

Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm balosiga qarshi kurashda butun insoniyat qatorida O'zbekiston, shu jumladan, Surxondaryo aholisi ham mislsiz jasorat ko'rsatdi. Urushning sovuq shamoli voha ahlining turmush tarzini izdan chiqardi. Mingminglab xonadonlarga g'am-qayg'u olib keldi. Minglab insonlarni yaqinlari, otonalari, o'g'il-qizlari, aka-uka va opasingillaridan ayirdi. Odamlar front ortida mashaqqatli mehnat, ochlik va yupunlik azobini tortdi. O'n minglab yosh yigitlar jang maydonlarida shahid ketdi. Biroq bu yo'qotishlar voha ahlining irodasini buka olmadi. Front ortidagi har bir inson fashizm ustidan qozoniladigan g'alaba uchun ishonch va e'tiqod bilan mardonavor mehnat qildi. Imkoni boricha jangchilarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan ko'mak berib turdi.

SSSRga hujum qilgan fashistlarning qo'qqisidan havo hujumi uyushtirishi mumkin bo'lgan hududlar qatoriga Termiz shahri ham kiritildi. Chunki bu davrda Eronda beqaror

vaziyat hukmron bo'lib, dushman samolyotlarini Eron yoki Afg'oniston orqali hujum uyushtirish xavfi ham yo'q emas edi. Buni inobatga olgan Termiz shahar ijroiya komiteti «havo hujumi bo'yicha Termiz shahar territoriyasini xavfli zona deb e'lon qilish haqida» farmoyish chiqardi. Havo hujumi bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va chora-tadbirlar belgilab olindi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan vohadoshlarimizning bir qismi 1941-yilning 28-avgustida 58-o'qchi korpusi 68-tog'-o'qchi diviziyasining 139-artilleriya polki tarkibida Eronga yuborildi. Negaki, AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari Sovet Ittifoqiga jo'natayotgan harbiy yordamning bir qismi aynan Eron orqali o'tkazilayotgan edi. Buning ustiga Eronda fashist agenturasi faollashib, harbiy isyonga tayyorgarlik ko'rilyotgan edi. Shuni hisobga olib, 1941-yilning yozida SSSR va Buyuk Britaniya hukumatlari o'zaro kelishib Eronga o'z qo'shinlarini kiritishdi. Natijada, Erondagi nemis qo'poruvchilik guruhlarining ishi barbod bo'ldi. Termiz havo hududi daxlsizligi ta'minlandi[3;95].

Surxondaryolik jangchilar Tehron konferensiyasi ishining tinch o'tishida ham o'z hissalarini qo'shishdi. Ularning Eronda bo'lishi to 1945-yilning yoziga qadar davom etdi.

Urushning ilk oylaridan mehnatkashlarning iltimosiga binoan O'zbekistonda milliy qo'shilmalar tuzishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1942-yil yanvarida Termiz shahrida 92-alohida o'qchi milliy brigadasi tashkil qilinadi. Unga joy ajratish maqsadida oblispolkom tomonidan «Voroshilovneft» trestining Uchqizildagi neft koniga qarashli uchta yotoqxonasi, oshxona, idora va garaji, Termiz rayoni 8-mart ko'chasida joylashgan machitning barcha binolari, o'sha ko'chadagi «Sotsializm» kolxozining otxona binosi, M.To'raxo'jayev nomli kolxozdagi bolalar yaslisi harbiy qismga beriladi[5].

Termiz shahrida surxondaryoliklardan 213-o'qchi diviziya shakllantirildi. Bu diviziya 1941-yilning mart oyida Kiyev Alohida harbiy okrugida 213-motodiviziya sifatida tuzila boshlangan edi, keyinroq, o'qchi

diviziyasi deb o'zgartirildi. Urush boshlangach, diviziyani to'liq shakllantirish uchun oldiniga Kattaqo'rg'onga, so'ngra Termizga jo'natishadi. Diviziyaga avval general-mayor Pyotr Semyonovich Shevchenko (1942-yil 5- iyunidan 1943-yil 22-iyuni), keyinroq general-mayor Ivan Yefimovich Buslaev (1943-yil 23- iyunidan 1945-yil 11-mayi) qo'mondonlik qilishdi. 1941-yil 1-noyabridan diviziya O'rta Osiyo harbiy okrugiga bo'ysundirildi. Uning dislokatsiya joyi Termiz harbiy qo'rg'oni bo'ldi. Shu yerdan frontga jo'natildi va 1943-yil 1-martidan Oliy Bosh Qo'mondonlik Stavkasining rezerviga kiritildi[7].

Ushbu qism dastlab Kursk ostonalarida o'zini ko'rsatdi. Jangchilarimiz Shebakino va Belgorod shaharlarining janubida qattiq turib jang qildilar, birinchilardan bo'lib Dneprdan kechib o'tishdi, Moldaviyani ozod etishdi, Yassi-Kishinyov operatsiyasi va Visla-Oder operatsiyalarida qatnashib, Ruminiya, Polsha va Chexoslovakiyani ozod qilishda ishtirok etishdi. Dneprni kechib o'tishda ko'rsatgan jasoratlari uchun 213-diviziyaning quyidagi zobitlari – termizlik mayor Lyubimov Aleksey Ilich, diviziya shtabi boshlig'i podpolkovnik Baranov Nikolay Andreevich, 739-o'qchi polkining komandiri, podpolkovnik Vashkevich Aleksandr Aleksandrovich va 585-o'qchi polkining komandiri Zaykovskiy Nikolay Vasilevich Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun faxriy 213-Novoukrain diviziyasi nomini oldi[7].

Termizlik A.F.Marchenko (1924-2003) urush boshlangan kezlarda endigina 9-sinfni bitirgan edi. Yosh bo'lishiga qaramay, hamshiralar tayyorlash kurslarida o'qidi va Termizdan frontga jo'natilgan 213-o'qchi diviziyaning 373-tibbiy-sanitariya qismiga qabul qilindi. Shu tariqa bu ayolning jangovar hayoti boshlandi. Kursk yoyi janglaridagi jasorati tufayli «Jangovar xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi. Keyinchalik, Dnepr daryosini kechib o'tish paytida ko'rsatgan jasorati uchun ikkinchi marta ana shunday medal bilan mukofotlandi. Ruminiya, Polsha, Chexoslovakiyani ozod qilishda, Visla va

Oderdagi jang maydonlaridan o'nlab yaradorlarni olib chiqqanligi uchun «Qizil Yulduz» ordeni va yana 3 ta medal bilan ham taqdirlangan. 1945-yilda u qadrdon Termizga sog'-salomat qaytib keldi. Keyinchalik, 1977-yilda Termizdagi 3-sonli maktabda jangovar shon-shuhrat muzeyini tashkil etdi. Uch marta janggohlar o'tgan joyga borib, ko'plab eksponatlar olib keldi. Ana shunday eksponatlardan 28 tasini Ittifoq Qurolli Kuchlar muzeyiga, SSSR xalq yutuqlari ko'rgazmalariga taqdim etgan. U o'zi tashkil etgan jangovar shon-shuhrat muzeyi haqida va ikkinchi jahon urushi qatnashchilari to'g'risida hikoya qiluvchi kitob muallifi hamdir[6].

213-o'qchi diviziyasida xizmat qilgan sherobodlik Boymatov Jovli Boymatovich jangovar yo'lini 1943 yilning mart oyidan Shimoliy Donesk yoqasida to'p mo'ljallovchisi (navodchik) sifatida boshladi. Xarkov va Merefah shaharlari bo'sag'asidagi janglarda o'zini ko'rsatdi. J. Boymatov 1944-yil 20-avgustda boshlangan Yassi-Kishinev va Berlin operatsiyalarining qatnashchisi. 1945- yil 18-aprel kuni Jovli Boymatov komandirlik qilayotgan to'p raschyoti 16 ta tank madadiga tayangan holda qarshi hujumga o'tgan dushman bilan olti marta to'qnashdi. To'p raschyotining butun tarkibi ishdan chiqdi, ammo komandir Jovli Boymatovning bir o'zi jangni davom ettirdi va dushman hujumini qaytarish davomida fashistlarning uchta tanki va 50 askarini safdan chiqardi. Bu jangda Jovli Boymatovning o'zi ham halok bo'ldi, ammo birorta fashistni o'tkazmadi. Qahramonning jasadini Germaniyadagi Nodersdref qishlog'idan 400 metr shimoli-sharq tomondagi Bezimyannaya tepaligida dafn qilingan. O'limidan so'ng 1943-yil 4-dekabrda 37-armiya qo'mondoni va 1945 yil 19 may kuni 52-armiya qo'mondoni buyrug'i bilan 1- va 2-darajali «Vatan urushi» ordenlari bilan mukofotlangan[3;281-282].

Ushbu diviziya tarkibida xizmat qilgan sherobodlik vohadoshimiz G'ofir Aminqulov (1925-2017) ham katta jasorat ko'rsatdi. Dneprning narigi qirg'og'ida sovet qo'shinlari plasdarm egallab olganlarida sanitar bo'lib

xizmat qilayotgan G'ofir Aminqulov o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yuzlab yarador jangchilarning hayotini saqlab qoldi. 1943-yil noyabr boshida bo'lib o'tgan janglarda yarador askarni chiqish payti nemislar tomonidan otilgan mina portlashi oqibatida og'ir yarador bo'ldi va 1944-yili urush nogironi sifatida uyiga qaytarib yuborildi. G'ofir Aminqulov urushda ko'rsatgan jasorati uchun 1944-yilda 1-darajali «Vatan urushi» («Otechestvennaya voyna») ordeni bilan mukofotlandi[3;97-110].

Fashizm ustidan qozonilgan ushbu g'alaba nafaqat Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo'yini balki butun Yevropa xalqlarini fashizm asoratidan ozod qildi. Qolaversa fashizmning yo'q qilinishi jahon xalqlarini mustamlakachilik va quvg'inlik, qullik va tahqirlanish, ochlik va muhtojlik, behisob qirg'in va turli xil azob-

uqubatlardan qutqazdi. Fashizmni yakson qilishda surxondaryolik botirlar ham qo'llariga qurol olib mardlik namunalarini ko'rsatib, dushmanga ayovsiz qirg'in keltirdilar. Bu qonli janglarda vatan ozodligi yo'lida minglab surxondaryoliklar shahid bo'lgan bo'lsa, minglab botir azamatlar g'alaba bahorini qarshilab, o'z yurtlariga oq yuz bilan qaytish baxtiga muyassar bo'ldilar.

Umuman olganda Ikkinchi jahon urushi butun insoniyatni og'ir sinovdan o'tkazdi. Ushbu urushdan chiqarilgan eng katta saboq sifatida urushning oldini olish, dunyoda tinchlikni saqlab qolish umumbashariy muammolardan biri ekanligi e'tirof etildi. Fashizm kabi vayronkor g'oyalarning shakllanmasligi va odamlarni shunday tajovuzkor kuchlar ta'siriga tushib qolmasligi ogohlik va hushyorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История Второй мировой войны (1939-1945 гг.). -М., 1975. Т.4. — С. 88.
2. История России XX в. -М., 2001. — С. 412.
3. Soatov O., Tursunov S., Umarov I., Toshev K. Frontdan kelgan xatlar... –B. 95, 97-100, 281-282.
4. K.T.Toshov. “Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati (Surxon vohasi misolida)” tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz – 2022. – 144 b.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 204-varaq.
6. Termiz shahridagi 213-novoukrain o'qchi diviziyasining Jangovar shon-sharaf muzeyi arxivi materiallaridan foydalanildi.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/213-я_стрелковая_дивизия

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING ILK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYAT MATBUOTI

Yo'ldosheva Zubayda Hamidovna,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
 UDK: 94(575.1).
 zyuldasheva74@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-8258-376X>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning dastlabki yillarida uzoq yillar mobaynida hukumat nazoratida bo'lgan OAVlari endi davlat mafkurasini emas, balki xalq manfaatini yoritishga qaratilgan mavzularni ko'tara boshlagan edi. Mustaqillikka erishish va shunga oid barcha ma'lumotlarni ommaga yetkazishda barcha viloyatlar singari Surxondaryo viloyat matbuotining ham o'rnini alohidadir. Quyida ayni shu masala haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, saylov, konstitutsiya, «Surxon tongi», «Zarya Surxana», «Sadoyi Surxon», «Xalq tili», «Adolat tarozisi», «Xalq posboni», «Janub vaqti», «Surxon savdogari», «Ma'naviyat gulshani», «Termiz universiteti», «Termiz oqshomi».

Аннотация: В первые годы нашей независимости в Республике Узбекистан средства массовой информации, многие годы находившиеся под контролем правительства, стали поднимать темы, направленные на освещение интересов народа, а не идеологии государства. Прессе Сурхандарьинской области, как и всех регионов, принадлежит особая роль в достижении независимости и донесении до населения всей актуальной информации. Ниже мы поговорим об этом же вопросе.

Ключевые слова: Независимость, выборы, конституция, «Surxon tongi», «Zarya Surxana», «Sadoyi Surxon», «Xalq tili», «Adolat tarozisi», «Xalq posboni», «Janub vaqti», «Surxon savdogari», «Ma'naviyat gulshani», «Termiz universiteti», «Termiz oqshomi».

Abstract: In the first years of our independence in the Republic of Uzbekistan, the mass media, which were under the control of the government for many years, began to

raise topics aimed at covering the interests of the people, not the ideology of the state. The press of Surkhondaryo region, like all regions, has a special role in achieving independence and conveying all relevant information to the public. Below we will talk about the same issue.

Key words: Independence, election, constitution, «Surxon tongi», «Zarya Surxana», «Sadoyi Surxon», «Xalq tili», «Adolat tarozisi», «Xalq posboni», «Janub vaqti», «Surxon savdogari», «Ma'naviyat gulshani», «Termiz universiteti», «Termiz oqshomi».

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Respublikamiz mustaqilligining ilk yillaridayoq O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti haqli ravishda ta'kidlaganidek, "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, O'zbekistonning o'tmishi, hozirgi kuni va kelgusi taraqqiyotiga to'la-to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza, o'ziga xos yo'l zarur"ligi ayon bo'ldi.

Bu bosqichlarda amalga oshirilgan islohotlar, ularning sabab va oqibatlari O'zbekiston SSRning matbuotida turli kasb egalari, davlat xizmatchilari yoki mamlakat taqdiriga befarq bo'lmagan fuqarolar omonidan muhokama qilingan. Davriy jihatdan turli matbuot sahifalarida bo'lgan muhokamalarni ham bir necha bosqichlarga o'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichlar "qayta qurish" davri bosqichlariga mos tarzda bo'lib, har bir bosqichga nisbatan bo'lgan munosabatni aniqlash, sabab va oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Surxon vohasining turli gazetalaridagi

“Ehtiyoj va isrofgarchilik”, “Xaqgo‘ylik”, “Ko‘zbo‘yamachilar”, “Yuzakichilik”, “Talabchanlik susaygan joyda” kabi turkum maqolalarda “qayta qurish” siyosatining naqadar to‘g‘ri ekanligini asoslash, yillar davomida bu boradagi ko‘plab ishlar o‘z xoliga tashlab qo‘yilgani, xo‘jasizlik, loqaydlik kuchayib ketgani va buning oqibatida iqtisod, qishloq xo‘jaligi, sanoat og‘ir ahvolga tushib qolganini “ochiqchasiga” ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Shunday qilib, Sovet O‘zbekistoni gazetasining birgina ruknini davr kesimida tahlil qilish orqali mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holat qanday o‘zgarib borgani, asosiy e‘tibor qanday masalalarga qaratilganini kuzatish imkoni tug‘iladi. Mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar nafaqat hukumatning matbuot nashrlarida, balki adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy jurnal sahifalarida ham keng muhokama qilib borilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishish va shunga oid barcha ma‘lumotlar gazeta va jurnallarda e‘lon qilinib borildi. Masalan: 1991-yilda davlatimiz mustaqilligining e‘lon qilinishi bilan respublikamizda 1918-yildan beri faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasining bosh nashri hisoblangan “O‘zbekiston ovozi” gazetasining 1991-yil 1-sentyabrdagi 170-sonining birinchi betidayoq bu haqida ma‘lumotlar berilgan. Unda davlat mustaqilligi va prezident nutqi, “O‘zbekiston respublikasi mustaqilligi e‘lon qilinishi munosabati bilan amnitsiya to‘g‘risi”gi prezident farmoni ham keltirilgan. Shu davrda gazetalar ijtimoiy sohada keng yangiliklar berib borildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e‘tibor qaratildi. Chunki islohotlarning boshlang‘ich paytidayoq, uning asl maqsadi sobiq ittifoq davrida moslashib qolgan boqimandalik tizimidan chiqib ketishda aholiga yordamlashish ularga qulay sharoitlar va tadbirkorlik uchun rag‘batlar ajratish edi. Dastlabki yillardanoq aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur

chora-tadbirlar ko‘rib borildi. Shu maqsadda, miqdori muntazam o‘zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to‘lovlari tarzidagi pul to‘lovlari keng qo‘llanildi. 1991-yilda Surxondaryo viloyatida aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash atigi 13.6 foiz edi. 2000 yilga kelib, 55,5 foizga yetdi, ichimlik suvi bilan ta‘minlash 50 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda 75,4 foizni tashkil etdi.

1991-yilda respublikamizning Surxondaryo viloyatida tez sur‘at bilan o‘sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlash asosan yangi ish joylarini ochish hisobiga amalga oshirildi. Aholini ish bilan ta‘minlash, kam daromadli va serfarzand oilalarga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor masalalardan biri bo‘ldi. Surxondaryo viloyatida ham aholining turmush tarzini yaxshilashga alohida e‘tibor berildi. Istiqloq yillarida viloyatda bu borada ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning birgina bosqichida mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e‘tirof etildi. Teng huquqli normalar va amal qilish mexanizmlari yaratildi, eng muhimi, ilgari davlatga qarashli bo‘lgan xususiy sektorni tadbirkorlikning rivojlanishini cheklab kelgan yuridik va tashkiliy to‘siqlarning barchasi olib tashlandi. Bu hol ishlab chiqarish vositalariga egalik hissini shakllantirdi, iqtisodiy manfaatdorlikning o‘shishiga ko‘maklashdi. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan fuqaro, haqiqiy mulkdor o‘z mol-mulkini samarali tasarruf etishga, o‘z boyligini ko‘paytirishga, shu bilan birga, mamlakatni boyitishga qodir bo‘ldi. Birinchi bosqichda asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini xususiy va jamoa (shirkat) mulki qilib berildi. Uy-joylarni xususiylashtirish ham dastlabki qadam bo‘ldi. Natijada davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib qoldi.

Kam daromadli, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksa shaxslar, birinchi marta qurilgan yosh oilalar hamda fuqarolarning ijtimoiy himoyalangan, kam ta‘minlangan boshqa

toifalari, uy-joyga muhtojlar uchun aniq maqsadli kommunal uy-joy zaxiralari tashkil etildi. Uy-joy fondi xususiylashishi munosabati bilan kommunal xizmat ko'rsatish tizimida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu tizim endi mahalliy boshqaruv qo'liga o'tdi. Yangi ishchi o'rinlari paydo bo'ldi. Mintaqalarning aholiga kommunal xizmat ko'rsatishdagi mustaqilligi va mas'uliyati ortdi. "1994-yil o'rtalariga kelib, ommaviy xususiylashtirish bosqichi boshlanib ketdi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlar jamiyatlarini yaratish, korxonalarining aksiyalarini muomalaga chiqarish hamda keng ko'lamda ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorlarini yaratish ishlari olib borildi.

1991-yil 31-avgust O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi bosma nashrlar uchun erkinlik va ozodlik, milliy tiklanish va taraqqiyot davrini boshlab berdi. Bu yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, noshirlik va matbaa faoliyatini rivojlantirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash borasida 10 dan ziyod qonun va 150 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bosma nashrlar faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi ishtirokini oshirish bo'yicha alohida vazifalar ishlab chiqildi.

Bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", – deya e'tirof etiladi. Qonunda belgilangan mazkur me'yorlar ommaviy axborot vositalarining erkinligini, qonunga muvofiq ishlashini, o'z navbatida, axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo'lishini nazarda tutadi. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish, fuqarolarni mamlakatning ichkarisi va tashqarisida bo'layotgan voqealardan o'z vaqtida xolisona xabardor qilish, jamoat fikrini shakllantirish gazetalarning muhim vazifalaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlarida belgilandi. Mazkur jarayonlarda

davlatning milliyligi, ko'p asrlik madaniyati, an'analari, ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishlarini saqlab qolish, targ'ib qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimizdagi barcha nashrlar singari Zarafshon vohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan gazetalar sovet mafkurasidan voz kechib, mustaqillik g'oyalari targ'ib eta boshladi.

Viloyat ahliga madaniy jihatdan xizmat ko'rsatish, ularning dam olish vaqtlarini maroqli va mazmunli o'tkazishda viloyat televideniyesi, gazetolari, radiosining uziga xos o'rni beqiyos darajadadir. Mustaqillik sharoitida viloyat matbuoti ham ulkan yuksalish va taraqqiyot pallasida edi. Ana shu davrda viloyatda qilinayotgan ommaviy nashrlarning yanada o'qimishli bo'lishi, dolzarb mavzularni yoritishga tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash borasida ancha ishlar amalga oshirildi. Nashr qilinayotgan gazetalarning badiiy saviyasi yaxshilandi, nashr tirajlari ancha kengayib, gazetalarda ruknlar ko'plab tashkil etila boshladi. Matbuot sho'ro davridagi singari rahbariyat ko'rsatmalari va topshirisharini so'zsiz bajaradigan mute organ emas, aksincha, erkin fikr va erkin so'zni bemalol aytish mumkin bo'lgan demokratik minbar yoki to'rtinchi hokimiyat darajasiga aylandi. Mustaqillik yillari viloyat matbuotining tashkiliy jihatdan mustahkamlanib, nazariy hayotdan chiniqish davri sifatida matbuot tarixi solnomalaridan o'rin olgan. Shu davrda viloyatda nashr qilinayotgan ommaviy nashrlarning soni ham yildan-yilga oshib boran. Agar mustabid tuzum sharoitida viloyatda 1 ta markaziy gazeta (O'zbek va rus tillarida) bir nechta tuman gazetolari mavjud bo'lgan bo'lsa, istiqlol yillarida ularning soni ancha ortdi. Jumladan, ana shu davrda «Surxon tongi», «Zarya Surxana», «Sadoyi Surxon (1991), «Xalq tili» (1994), «Adolat tarozisi» (1997), «Xalq posboni» (1998), «Janub vaqti» (1999), «Surxon savdogari», «Ma'naviyat gulshani», «Termiz universiteti», «Termiz oqshomi» (2001) kabi nashrlar tashkil etildi. Viloyat matbuoti odil so'z, xolis fikrni bayon qiladigan demokratik minbarga aylana boshladi. M.Azimov,

G.Saidmalikov, A.Jumaqulov, Ch.Jumakulov, B.Yoriyev, J.Tursunov, A.Kodirovlar bu sohada munosib xizmat qildilar.

1991-yilning 29-dekabr kuni mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor prezident saylovi bo‘lib o‘tdi[1]. Bu jarayonlar markaziy nashrlar bilan birgalikda viloyat va tuman gazetalarida ham qizg‘in yoritib borildi. Prezidentlikka Xalq demokratik partiyasidan Islom Karimov, “Erk” partiyasidan Muhammad Solihning nomzodlari ro‘yxatga olindi[2].

Gazetalar nomzodlarning dasturlari hamda kelgusida mamlakat boshqaruvi sohasida qanday ishlarni amalga oshirishi bo‘yicha targ‘ibot ishlarida faollik ko‘rsatishdi[3,4,5,6]. Maqolalarning ko‘pchiligida Islom Karimovning nomzodi ma‘qullangan. Faxriy o‘qituvchi Qahhor Isoqov “Men Karimov tarafdoriman”[7] sarlavhali maqolasida Islom Karimovning iqtisod va siyosatda chuqur bilimga egaligi, o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyasi uchun ko‘plab ishlarni amalga oshirgani uchun, M. Do‘smamatov mamlakatni mustaqillik sari yetaklagan haqiqiy yo‘lboshchi ekanligi uchun unga ovoz berishlarini yozadi[8].

Matbuotda saylov jarayonlaridagi targ‘ibotlar bilan birgalikda saylovchilar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar, xorijlik ekspertlarning ushbu hodisa munosabatlari ham uchraydi.

Surxondaryo viloyatidagi mavjud vaqtli nashrlarda viloyatning eng muhim siyosiy-iqtisodiy, ma‘rifiy axborotlar va ma‘lumotlar beriladi. Misol uchun: “Jarqo‘rg‘on haqiqati” gazetasining 1991-yil 4-sentyabrdagi 69-sonining birinchi betidayoq XII chaqiriq O‘zbekiston Oliy Kengashi navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi Axboroti” berilgan. O‘sha axborotda sessiya Oliy Kengashini Sh.M Yo‘ldoshev ochganligini va kun tartibida:

- O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i to‘g‘risida
- Respublika prezidenti farmonlarining va Oliy Kengash rayosatining ba’zi

hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalar ko‘rilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Vohadagi gazetada nafaqat mahalliy siyosiy voqealar balki dunyodagi siyosiy voqealar ham keltirilgan, masalan, 1991-yil 17-sentyabrdagi 73-sondagi “BMT Bosh kotibi o‘rnini kim egallaydi” maqolasida sobiq bosh kotib Xavier Perez de Kuelyarning lavozimidan ketganligi va uning o‘rnini kim egallashi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan, shuni qo‘shimcha qilish kerakki Xavier Perez de Kuelyardan keyin Bosh kotib lavozimiga Butros G‘oliy kelgandir.

“Jarqo‘rg‘on haqiqati” gazetasining deyarli har bir sonining bosh sahifalarida doimiy ravishda respublikamizda bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlar va yangiliklar bilan boshlangan. Bunga misol qilib: “Nohiya(tuman) Kengash sessiyasi”, O‘zXDP nohiya konferensiyasi”, “KPSS yangi dasturi loyihasi umumpartiya munozarasiga qo‘yildi”, “Kechagi komsomol bugunda Yoshlar ittifoqi”, “Ta‘sis konferensiyasi ikkinchi bosqichi”, “Mahallako‘m ishlamoqda” “O‘zbekiston respublikasi Prezidenti qanday saylanadi” “Muhammad Solih kim?” va hokazo sarlavhali maqolalarni ko‘rishimiz mumkin.

Yana misol tariqasida “Bobotog‘ tongi” gazetasining 1991-yil 13-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi tayinlash to‘g‘risida” va yoki “I.A.Karimov nomzodi ma‘qullanmoqda”[9] sarlavhalari bilan nomlanuvchi maqolalarda respublikadagi prezidentlik saylovlari haqidagi ma‘lumotlar yoki undan keyingi son 1991-yil 3-dekabr 25-soniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak bunda mamlakatimizdagi siyosiy holat saylovlar haqidagi “O‘zbekiston respublikasi Prezidenti saylovi va O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari to‘g‘risida”gi qonunning Uzun tumanidagi qishloqlar bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan[10].

Yana shu sondagi “O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganishni rejalashtirish” deb nomlangan maqolasida sovet davrida unutilgan tarixni qayta tiklash masalasi ko‘tarilgan edi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ) /

CONCLUSION). O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi janubiy viloyatlarda ham moliyaviy resurslar tanqisligiga qaramasdan, davlat byudjeti xarajatlarining 50 foizi ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga sarflanmoqda. Yilma-yil eng kam oylik ish haqi, stipendiya va nafaqalar miqdori belgilab qo‘yilmoqda. Kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalarga muntazam ijtimoiy yordam sifatida berib boriladigan nafaqa pullari, vaqtincha ishsiz

qolganlarga ishsizlik nafaqasi ko‘rinishida moddiy yordam berish singari kam daromadli va kam ta‘minlangan aholi qatlamini moddiy qo‘llab-quvvatlashning turli vositalari hamda imkoniyatlari izlab topilmoqda va ulardan keng foydalanilmoqda.

1991-yil O‘zbekiston respublikasi mustaqil bo‘lgach, uzoq yillar mobaynida hukumat nazoratida bo‘lgan OAVlari endi davlat mafkurasini emas, balki xalq manfaatini yoritishga qaratilgan mavzularni ko‘tara boshlagan edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Олдинда олтинчи сайлов. Ўзбекистонда президентлик сайловлари тарихига назар. <https://kun.uz/news/2021/08/29/oldinda-oltinchi-saylov-ozbekistonda-prezidentlik-saylovlari-tarixiga-nazar>.
2. Шукуров Х., Мухаммадиев Х. Мезон – ошкоралик. Зарафшон, 1991 йил, 21 декабрь.
3. Холиқов И. Фуқаролик ҳуқуқи ва бурчлари. Зарафшон, 1991 йил, 14 декабрь.
4. Йўляхшиев А. Масъулиятли дамлар. Зарафшон, 1991 йил, 27 декабрь.
5. Аҳмедов А. Овоз бериш тартиби қандай? Зарафшон, 1991 йил, 27 декабрь.
6. Йўлдошев А. Халқ билиб сайлайди. Зарафшон, 1991 йил, 27 декабрь.
7. Исоқов Қ. Мен Каримов тарафдориман // Зарафшон, 1991 йил, 18 декабрь.
8. Дўсмаматов П. Ишонч қозонган номзод // Зарафшон, 1991 йил, 20 декабрь.
9. Bobotog‘ tongi, 24-son, 1991-yil, noyabr.
10. Bobotog‘ tongi, 25-son, 1991-yil, dekabr.

TOMDI TUMANI YOSHLARINI IJTIMOYIY-IQTISODIY QO‘LLAB QUVVATLASH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN CHORA-TADBIRLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024)

Toshpo‘latov Mamadali Zayniddin o‘g‘li

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Tarix” kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: mamadali.toshpulatov97@gmail.com

https://orcid.org/0009-0002-8667-7743

УДК 323(575.1)-053.81

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tomdi tumanida yoshlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga o‘z salohiyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ijtimoiy himoya qilish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2017-2024-yillar mobaynida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda ularning tahlili, samaradorlik ko‘rsatkichlari, erishilayotgan natijalar, hududda yoshlar siyosati yuzasidan vujudga kelayotgan muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya, ishsizlik, “Bandlik dasturi”, “Yoshlar daftari”, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены программы, реализуемые правительством Республики Узбекистан в 2017-2024 годах в контексте поддержки молодежи города Зарафшан, создания необходимых условий для реализации ею своего потенциала, содержательной организации их свободного времени и социальной защиты. обсуждались их анализ, показатели эффективности, достигнутые результаты, проблемы, возникающие в регионе в связи с молодежной политикой и пути решения этих проблем.

Ключевые слова: молодежная политика, социальная защита, безработица, “Программа трудоустройства”, “Молодежная тетрадь”, Союз молодежи, Агентство по делам молодежи.

Abstract. In this article, the programs implemented by the government of the Republic of Uzbekistan during 2017-2024 in

the context of supporting the youth of the city of Zarafshan, creating the necessary conditions for them to realize their potential, meaningful organization of their free time and social protection and their analysis, their efficiency indicators, achieved results, problems arising in the region in connection with youth policy and solutions to these problems were discussed.

Key words: Youth Policy, Social Protection, unemployment, “Employment program”, “Youth notebook”, Youth Union, Youth Affairs Agency.

KIRISH: Har qanday jamiyat yoki mamlakatning jadal rivojlanishi, salmoqli natijalarga erishishi hamda aholisining farovon va to‘la-to‘kis hayot kechirishi ushbu mamlakatda aholiga, xususan, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning samarasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yoshlar bilan ishlash barcha rahbarlarning, keng jamoatchilikning, butun jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi” [1] hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, butun mamlakat bo‘ylab yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzularini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekistonning “olis hudud” laridan biri Tomdi tumanida ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tomdi tumanida yoshlarni ijtimoiy-

iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi katta ahamiyatga ega. Tadqiqot Tomdi tumanidagi yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning tarixi va hozirgi holatini tahlil qilishga, ularning yoshlar manfaatlariga to'liq yo'naltirilganligini, sohalar kesimida erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda sohada mavjud dolzarb muammolar va ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD: Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan Sh. S. Norov, X. X. Raxmonov [2] lar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot yoshlar masalalariga bevosita va bilvosita qaratilgan, aynan Tomdi tumani aholisini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi yuzasidan mas'ul idoralarining ochiq manbalariga joylashtirilgan ma'lumotlari, mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari materiallari asosida olib borilgan. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik, izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA: Tomdi tumanida ham butun mamlakatimizdagi kabi yoshlarni ham ma'naviy-ma'rifiy, ham iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan himoya qilish maqsadida chora-tadbirlar birdek amalga oshirilmoqda. Zero, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni moddiy tomondan ta'minlashdanda muhim vazifa hisoblanadi [3].

1927-yilda tashkil etilgan Tomdi tumanining hududi 42,49 ming kv.km. ni tashkil etadi. Aholisi 15 512 nafar bo'lib, Navoiy viloyatidagi aholi eng tarqoq joylashgan hudud hisoblanadi (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv. km. ga 0,4 nafar aholi to'g'ri keladi) [4; 1-2-b.].

Bugungi kunda Tomdi tumani iqtisodiyotini yuksaltirish imkonini beruvchi ko'plab qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sanoat korxonalari mavjud. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i yaylov chorvachiligi bo'lsa,

sanoatning eng katta tarmog'i esa foydali qazilmalarni qazib olish hisoblanadi. Tomdi tumani oltin, kumush, platina, uran, reniy, rux va boshqa foydali qazilmalarning dunyodagi eng yirik konlariga ega. Ushbu konlar, asosan ochiq usulda qazib olish yo'li orqali o'zlashtirilmoqda. Shuningdek, tumanda uran, qimmatbaho va rangli metallarni qayta ishlash korxonalari ham mavjud. Dunyodagi eng yirik oltin koni Tomdi tumanida joylashgan Muruntov karyeri bo'lib, oltin qazib olish bo'yicha Indoneziyaning Grasberg mis-oltin konidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Tumanda yirik sanoat korxonalarining mavjud bo'lsa-da, tuman aholisi hayotining iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga erishishning imkoni bo'lmayapti. Buning asosiy sabablari sifatida:

- hududda shahar infratuzilmasi to'liq rivojlanmaganligi;

- aholining 66,8 % (10 365 nafar) qismi qishloq aholisi bo'lsa-da qishloq xo'jaligining faqat yaylov chorvachiligi keng rivojlanganligi; [4; 2-b.].

- sug'oriladigan yerlarning mavjud emasligi;

- ichimlik va oqava suv tanqisligi;

- tumanda o'rtacha oylik ish haqining viloyat bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichlaridan pastligini ko'rsatishimiz mumkin [4; 10-b.].

2024-yilning 1-aprel holatiga Navoiy viloyatida o'rtacha oylik ish haqi 6 500 300 so'mni tashkil etgan bo'lsa, Tomdi tumanida ushbu ko'rsatkich 3 739 200 so'mni tashkil qilgan. Bu viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichining 57,5 % ni tashkil qilib, viloyat miqyosida 6 o'rinni qayd qilgan [4; 10-b.].

Natijada tuman aholisi, ayniqsa yoshlar tumanni tark etib, viloyat markazi, poytaxt yoki xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketishmoqda.

Tumanda ko'chib ketish koeffitsiyenti 2024-yilning yanvar-mart oylarida 25,4 % ga yetib, viloyat bo'yicha 1-o'rinni qayd qilgan [5].

Hududdagi yirik muammolardan biri sifatida tumanda malakali mutaxassislarning yetishmasligi, buning oqibatida tumanda eng

katta kon mavjud bo'lsa-da, unda ishlashga mahalliy aholiga nisbatan boshqa hududlardan malakali mutaxassislar ko'proq jalb qilinayotganligida edi.

Shu sababli 2017-yildan boshlab hududlardagi tashkilotlarni vaqtincha malakali mutaxassislar bilan ta'minlab olish maqsadida boshqa hududlardan jalb qilingan malakali mutaxassislarni xizmat uylari bilan ta'minlash yoki uy-joylarni ijaraga olganlik, shu jumladan yotoqxonalarda yashash bilan bog'liq sarf-xarajatlari uchun kompensatsiya va boshqa ustamalar to'lab berildi [6].

Shuningdek, 2017-2018-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovlari natijalari bo'yicha 68 va undan yuqori ballga ega bo'lgan, olis cho'l tumanlarida kamida uch yildan buyon istiqomat qilayotgan abituriyentlarni, keyinchalik mutaxassislik bo'yicha ushbu hududlardagi byudjet tashkilotlarida tegishli viloyat hokimligi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida kamida 4 yil ishlab berish sharti bilan qo'shimcha grant asosida imtiyozli qabul qilish huquqi berildi [6].

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad tumandagi tashkilot va korxonalaridagi kadrlar yetishmasligi va qo'nimsizligi kabi holatlarning oldini olish edi.

Imtiyozlar asosida yaratilayotgan infratuzilma va resurslardan samarali foydalangan holda aholini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash esa hudud iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy himoya ko'rsatkichlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Aholi bandligini ta'minlash, shu jumladan yoshlar bandligini ta'minlash ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Ushbu yo'nalishda hududni kompleks rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Tomdi tumani hududidagi sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida (savdo va avtomobillarga gaz quyish

shaxobchalari bundan mustasno) faoliyat yurituvchi yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlari — yagona soliq to'lovi va qat'iy belgilangan soliq to'lashdan, chorvachilik va tuyachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlari — yagona ijtimoiy to'lovdan, ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar — qat'iy belgilangan soliq to'lashdan, ro'yxatga olingan va faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar muassislari tomonidan olingan dividendlar — daromad (foйда) solig'i to'lashdan 2017-yilning 1-oktyabridan 2028-yilning 1-yanvariga qadar ozod qilindi [7].

Shuningdek, tumanda joylashgan foydalanilmay bo'sh yotgan davlat obyektlarini ushbu obyektlar negizida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan tadbirkorlik subyektlariga yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan "nol" stavkasi bo'yicha o'n yil muddatgacha ijaraga berilishi, korxonalariga tikuv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish uchun 500 ta asbob-uskunalarni taqdim etish orqali ularda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va ushbu maqsadlar uchun binolar (ishlab chiqarish maydonlari)ni ajratish hamda sanoat, xizmatlar va servis infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi sohalarida belgilangan loyihalarni amalga oshirish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan [7]. Yaratilgan shart-sharoitlar hamda berilgan imtiyozlar ko'zlangan natijalarga erishishda muhim rol o'ynadi.

Qolaversa, tumanda joylashgan joylashgan "Barkamol avlod" markazlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, musiqa va san'at maktablarida 2017-yilning 1-oktyabridan boshlab bolalarni o'qitish uchun har oylik ota-onalar to'lovi respublika bo'yicha o'rnatilgan hajmning 50 foizi miqdorida belgilandi [7]. Natijada bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi ham oshib bormoqda.

Islahotlar izchil davom ettirilib, 2022-2026-yillarda viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari


to'g'risida yana bir dastur qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida yoshlar bandligi masalasi ham inobatga olinib, Tomdi tumanida 170 ta yangi tadbirkorlik subyektlari hamda 200 boshga mo'ljallangan tuyachilik kompleksi tashkil etish muhim vazifalar sifatida belgilandi [8].

NATIJALAR: Tomdi tumani aholisining, shu jumladan, yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash yo'lidagi eng asosiy qadam aholini ish bilan ta'minlash

hisoblanadi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi natijasida Tomdi tumanida aholi, xususan yoshlarning ish bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi va tumanda ishsizlik ko'rsatkichlari yaxshilanishiga erishilmoqda. Lekin, 2020-yildagi koronavirus pandemiyasi natijasidagi ishsizlik darajasining keskin o'sishini hamda uni barqarorlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlar tuman iqtisodiy rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. (1-jadval)

Yillar kesimi	Iqtisodiy faol aholi soni jami (ming kishi)	shundan:		Ishsizlik darajasi (foizda)
		iqtisodiyotda bandlar (ming kishi)	ishsizlar (ming kishi)	
2019	6,2	5,6	0,6	9,8
2020	6,9	6,2	0,7	10,6
2021	6,9	6,3	0,7	10
2022	7,3	6,6	0,7	9,1

1-jadval. Tomdi tumani bo'yicha ishsizlik darajasining yillar kesimidagi ko'rsatkichlari [9].



Tuman yoshlarni qo'llab-quvvatlashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan birgalikda ijtimoiy sohadagi islohotlarning ham o'rni beqiyos. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Tomdi tuman Kengashi tashabbusi bilan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida turli xil loyihalar amalga oshirildi. 2020-yil 22-iyunda "Yoshlar oyligi"

doirasida tashkilot tashabbusi bilan tumanda Yoshlar mehnat guzari faoliyati tashkil etildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida Koronavirus pandemiyasi davridagi "Temir daftar" tizimi asosida orttirilgan tajriba natijasida har bir mahalla, shahar, viloyat kesimida "Yoshlar daftari" tizimi joriy etilishi belgilandi. Unga ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar kiritilishi hamda ular bilan tizimli va manzilli ish yo'lga qo'yilishi belgilandi [10].

"Yoshlar daftari" tizimining joriy etilishi natijasida Tomdi tumanida 2021-yilning 3-choragi davomida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 288 nafar yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun kreditlar ajratish, asbob uskunalar xarid qilish orqali o'z-o'zini bandligini ta'minlashlari uchun subsidiyalar ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga moddiy yordamlar ko'rsatish ishlari olib borildi.

Jumladan, 132 nafar yosh ish bilan ta'minlash orqali (shundan 45 nafari 1+1 loyihasi orqali), 44 nafar yosh tadbirkorlik qilishlari uchun asbob-uskunalar xarid qilish orqali, 72 nafar yosh kredit ajratish orqali (1,463 mln. so'm), 10 nafar yosh haydovchilik guvohnomasini olishlari uchun o'qitish orqali, 1 nafar yosh SChRga to'lov shartnoma pullarini to'lab berish orqali, 28 nafar yosh bir martalik moddiy yordamlar ko'rsatish orqali "Yoshlar daftari"dan chiqarilgan [11].

Tomdi tumanida 2021-yil davomida 293 nafar yosh "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'lib shundan 1-sektorda 90 nafar yosh, 2-sektordan 38 nafar yosh, 3-sektordan 90 nafar yosh va 4-sektordan 75 nafar yosh to'g'ri kelib, shulardan 289 nafarining muammolari hal etilib "Yoshlar daftari"dan chiqarilgan (1-rasm). Shuningdek, 27 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga moddiy yordam ko'rsatilib 3 boshdan qo'y hamda oziq-ovqat mahsulotlari homiylik sifatida tarqatildi. Jumladan, 44 nafar yoshga "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirish maqsadida asbob-uskunalarini xarid qilishlari uchun subsidiyalar ajratilgan, 72 nafar yoshga 1 463,8 mln so'm imtiyozli kredit ajratilgan. 10 nafar yoshlarga haydovchilik va qayta tayyorlov kurslariga o'qishlari uchun belgilangan summaning 75% ni "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan to'lab berilgan, 2 nafar yoshga safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati uchun to'lov shartnomasi "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berildi, hududdagi bandligini ta'minlashga muhtoj yoshlarning 45 nafari yosh fermer xo'jaliklarga "1+1" loyihasi asosida ishga joylashtirilib "Yoshlar daftari"dan chiqarilgan [12].

Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, 2021-yilda Tomdi tumanida yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan resurslarning eng ko'p qismi 3-chorakda sarflangan bo'lib, 288 nafar yoshlarning muammolari "Yoshlar daftari" jamg'armasi va boshqa manbalar orqali hal qilingan.

"Yoshlar daftari" tizimli yo'lga qo'yilganligi sababli kutilgan natijani berdi. Lekin mahalla yoshlarini nafaqat moddiy,

balki ma'naviy jihatdan ham himoya qilish vazifasi ochiq qolayotgan edi. Shu munosabat bilan har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Ularning asosiy vazifalari etib:

- "Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portal" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

- mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

- yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;

- huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish etib belgilandi [13].

Yangi tizim asosida eng birinchi navbatda 2022-yilning 1-choragi davomida mahalla-sektor-shahar kesimida 0-30 yoshgacha bo'lgan 4 663 nafar yosh: shundan, 0-6 yoshdagi 1 280 nafar bolalar, 7-17 yoshdagilar 1 885 nafar yoshlar, 18-30 yoshdagilar 1 498 nafar yoshlar ro'yxati shakllantirilib elektron platformaga kiritilgan. Ushbu yoshlarning 481 nafari davlat sektorida rasmiy bandlar, 17 nafari xususiy sektorda rasmiy bandlar, 20 nafari migratsiyaga ketgan yoshlar, 484 nafari davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim bilan band yoshlar, 1875 nafari umumta'lim maktablarga qamrab olingan yoshlar, 77 nafari professional ta'lim bilan qamrab olingan yoshlar, 130 nafari oliy ta'lim bilan qamrab olingan yoshlar, 16 nafari boshqa

rasmiy tarmoqlarda rasmiy bandlar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoshlar, 26 nafarini o'zini-o'zi band qilgan yoshlar, 151 nafarini norasmiy bandlar, 76 nafarini uy bekalari, 18 nafarini ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlanayotganlar, 107 nafarini bola tarbiyasidagilar, 71 nafarini o'ziga to'q oila farzandlari, 21 nafarini mehnatga layoqatsiz yoshlar, 288 nafarini ishsiz yoshlar tashkil etadi. Shulardan "Yoshlar daftari"ga 39 nafar yosh kiritilib, 8 nafar yoshning muammosi o'rganilib daftardan chiqarilgan. Ushbu davrda "Yoshlar daftari" jamg'armasiga 350 mln. so'm mablag' kelib tushgan. "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish hamda yoshlarning iste'dodini rivojlantirish maqsadida 5 tashabbus doirasida tadbirlarni tashkillashtirish hamda g'oliblarni munosib taqdirlash maqsadida 50 mln.so'm miqdorda xarajat sarflangan. Jumladan, 6 nafar yoshning safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati uchun jami 35 mln.so'm miqdorda to'lovlari, 5 nafar yoshning o'zini-o'zi band qilib tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun tikuv mashinkalarini xarid qilishlari uchun subsidiyalari, 2 nafar yoshning professional ta'lim muassasalaridagi to'lov kontraktining 50% miqdori "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab berildi [14].

Tomdi tumanida 2022-yilning 3-choragi davomida "Yoshlar daftari" jamg'armasiga 1 mlrd 26,4 mln so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan, 217,6 mln so'm 2021-yil davomida "Yoshlar daftari" jamg'armasining ortib qolgan qismi, 440,2 mln so'm 2022-yilda erkin qoldiq mablag'laridan o'tkazilgan mablag'lar, 343,7 mln so'm mahalliy byudjetning 1-2-choraklarining orttirilib bajarilgan qismining 15 % miqdori, 24,9 mln so'm MIB mablag'laridan ajratilgan qismiga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida ushbu davrda "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'laridan 625,9 mln so'm sarflangan bo'lib, shundan, 5 nafar yoshlarga 5,6 mln so'm bir martalik moddiy yordam uchun, 45 nafar yoshlarga 207,4 mln so'm asbob-uskunalar va mehnat qurollari subsidiyasi uchun, 8 nafar yoshlarga 17 mln so'm ta'lim to'lov kontrakti uchun, 3

nafar yoshlarga 14,5 mln so'm davolanish bilan bog'liq xarajatlari uchun, 22 nafar yoshlarga 144,5 mln so'm safarbarlik rezervi xarajatlari uchun, 216,6 mln so'm "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun, 20,3 mln so'm boshqa yo'nalishdagi xarajatlari uchun sarflangan [15].

Tumanda 2022-yil davomida "Yoshlar daftari" jamg'armasiga jami 1 mlrd 42 mln so'm mablag' tushgan bo'lib, jumladan, 60,4 mln – 2022 yilda erkin qoldiq mablag'laridan o'tkazilgan mablag'lar, 405,2 mln – mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'larining orttirilib bajarilgan qismining 15 % miqdoridagi mablag'lar, 321,8 mln – viloyat byudjetining orttirilib bajarilgan qismidan ajratilgan mablag'lar, 37,2 mln – MIBdan o'tkazilgan mablag'lar tashkil etgan. Yil davomida ushbu mablag'lardan 865,2 mln so'm sarflangan bo'lib, "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'larining sarflanishini yo'nalishlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 5 nafar yoshlarga 5,6 mln so'm – bir martalik moddiy yordam ajratish, 5 nafar yoshlarga 17,6 mln so'm – tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish, 3 nafar yoshlarga 3,6 mln so'm – haydovchilik o'quv kursi badalini qoplash, 49 nafar yoshlarga 203,4 mln so'm – asbob-uskuna va mehnat qurollari uchun subsidiya ajratish, 26 nafar yoshlarga 89,2 mln so'm – ta'lim to'lov kontraktini qoplab berish, 3 nafar yoshlarga 28,8 mln so'm – davolanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish, 30 nafar yoshlarga 173,4 mln so'm – safarbarlik chaqiruv rezervi xarajatlarini to'liq qoplab berish, 322,8 mln so'm besh tashabbusni rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish, 20,7 mln so'm boshqa turdagi xarajatlari hisoblanadi [16].

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ladiki, 2022-yilda ham yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan resurslarning eng ko'p qismi aynan 3-chorakda sarflangan bo'lib, bu "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'larining 62,6 % qismini tashkil qilgan.

Yuqoridagi 2 yillik faoliyatni tahlil qilganimizda "Yoshlar daftari" tizimiga kiritilgan yoshlarning muammolari o'z

vaqtida hal etilgani, tuman mas'ullari faqatgina yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish bilan cheklanib qolmay, ularni ma'naviy-ma'rifiy, sport, ilm-fan, san'at va madaniyat yo'nalishidagi loyihalarga jalb etilishini qo'llab-quvvatlagani va rag'batlantirganini ko'rishimiz mumkin.

“Yoshlar daftari” tizimi samarali faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, lekin bu borada dolzarb masalalar hali ham ko'p. Avvalo, ishsiz, norasmiy sektorda band bo'lgan va chet elga ishlashga ketgan yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratish belgilandi [1].

Yoshlar masalalari bo'yicha orttirilgan tajribalar umumlashtirilib, respublika miqyosida yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilindi. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular 3 toifaga (“yaxshi”, “o'rta” va “ahvoli og'ir”) ajratildi. Endilikda ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishlanishi belgilandi [17].

Tomdi tumanida ham 2023-yilda jami 2 653 nafar yoshlar 3 toifaga ya'ni, 1 993 nafari “yaxshi”, 660 nafari “o'rta”, shulardan 79 nafari “og'ir” toifalarga ajratildi va “og'ir” toifadagi yoshlar 7 nafar rahbarlarga birlashtirilib, ular bilan individual ishlash tizimi joriy etildi [18].

Tomdi tumanida 2023-yilning 3-choragi davomida Yoshlar daftari”ga 240 nafar yoshlar kiritildi. Yoshlar daftariga kiritilgan 240 nafar yoshlarning 198 nafar (82.5%)iga turli yo'nalishlarda yordamlar ko'rsatilib “Yoshlar daftari”dan chiqarildi. Ko'rsatilgan yordamlarni yo'nalishlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, tadbirkorlik va kredit yo'nalishida 17 nafar, ta'lim to'lov kontraktlari yo'nalishida 11 nafar, bandligini ta'minlash (doimiy ish) yo'nalishida 74 nafar, haydovchilik kurslari xarajatlarini qoplash bo'yicha 3 nafar, asbob-uskuna subsidiyasi yo'nalishida 31 nafar, davolanish bo'yicha 4 nafar; SCHR to'lovi bo'yicha 17 nafar, boshqa yo'nalishlarda 41 nafar yoshlarning xarajatlari qoplab berildi [19].

Yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratilgan, xilma-xil ta'sir choralari ko'rilgan bo'lsa-da, aynan shu davrga kelib tumanda

yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik darajasi 2022-yilning mos davriga nisbatan 33,3 % ga oshgan [20].

Tomdi tumanida 2023-yil davomida “Yoshlar daftari”ga 259 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar kiritilib, yil davomida 259 nafarining muammolari hal etildi. Xususan, 92 nafar yoshlar doimiy ish o'rinlariga joylashtirilgan, 43 nafar yoshlarga 225 mln. so'mlik mehnat qurollari va asbob uskunalari olib berilgan, 12 nafar yoshlarga 37 mln. so'mlik Oliy va professional ta'lim to'lov-kontrakt mablag'lari to'lab berilgan, 4 nafar yoshlarga 37 mln. so'mlik davolanish va tibbiy xizmat mablag'lari to'lab berilgan, 19 nafar yoshlarga 122,8 mln. so'mlik safarbarlik chaqiruvi rezervi mablag'lari to'lab berilgan, 2 nafar yoshlarga 2,5 mln. so'mlik haydovchilik kursida o'qish xarajatlarining bir qismi to'lab berilgan, 2 nafar yoshlarga 6 mln. so'mlik kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish kursi mablag'lari to'lab berilgan, 18 nafar yoshlarga 552,3 mln. so'mlik imtiyozli chorva kredit ajratilgan, 1 nafar yoshlarga 2 mln. so'mlik ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlarida o'qish xarajatlarini qoplash uchun mablag'lari to'lab berilgan, 66 nafar yoshlarga boshqa yo'nalishlarda yordam ko'rsatilgan. 2023-yil mobaynida “Yoshlar daftari” jamg'armalariga 723,6 mln. so'm mablag' shakllantirilgan hamda ushbu jamg'armalar orqali tumandagi 259 nafar yoshlarga amaliy ko'mak ko'rsatilgan. Shuningdek, tumandagi ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida joriy yilda viloyat bo'yicha mahallabay asosida “Yoshlar bandligi dasturi” ishlab chiqilgan. Dasturga kiritilgan jami 124 nafar ishsiz yoshlarning 119 nafari (95,6 %)ning bandligi ta'minlangan. “Andijon tajribasi” amaliyotga tatbiq etilib, tumandagi qizil toifaga mansub 79 nafar yoshlar jami 7 ta tegishli mas'ul rahbarlariga birlashtirilib, birlashtirilgan mas'ullar tomonidan jami 79 nafar yoshlar bilan (100 %) uchrashilib, ularning 56 ta muammolari aniqlanib, to'liq hal etilgan [21].

Tumanda 2023-yilda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar to'liq samara berib, “Yoshlar daftari” jamg'armasi orqali murojaatlar to'liq hal

etilgan.

2024-yilda Tomdi tumanidagi jami 2 225 nafar yoshlar 3 toifaga ya'ni, 1 718 nafari "yaxshi", 507 nafari "o'rta", shulardan 27 nafari "og'ir" toifalarga ajratilgan. Shu bilan bir qatorda "Yoshlar balansi"ni shakllantirish natijasida aniqlangan ma'lumotlar asosida 2024-yil davomida "Yoshlar bandligi dasturi", "Og'ir" toifadagi yoshlar bilan ishlash bo'yicha "Yo'l xaritasi", "Yoshlarni zamonaviy kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish" bo'yicha dasturlar shakllantirilib ijroga qaratilgan [22].

Tumanda 2024-yil uchun yoshlar masalalari bo'yicha barcha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, jumladan, "Ibrat farzandlari" Youtube platformasi orqali 484 nafar, "Ibrat Academy" mobil ilovasi orqali 691 nafar, "UzChess" loyihasiga 338 nafar, volontyorlik va liderlik loyihalarga 1228 nafar hamda intellektual o'yinlarga 729 nafar yoshlarni keng jalb qilish choralari belgilangan. "Yoshlar ombor daftari" tizimini hayotga tatbiq etish natijasida 2024-yilda tuman bo'yicha jami 11982 nafar yoshlar qamrab olinishi rejalashtirilgan [21].

Bundan tashqari Tomdi tumanida 2024-yilda ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan bandlik dasturi tuzilgan bo'lib, unda 196 nafar ishsiz va mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yoshlarning bandligini ta'minlashni tashkil etish nazarda tutilgan [23].

Butun respublikada yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida Tomdi tumanida mavjud resurslar va imkoniyatlardan kelib chiqib yoshlar siyosati bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

XULOSA: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridan muhtoj, ko'p bolali, qarovchisiz qolgan oilalarga, qariyalar va yoshlarga yordam qo'li cho'zildi [24].

Aholi, xususan yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O'zbekiston "ijtimoiy davlat" ekanligi to'g'risidagi mezon mustahkamlab qo'yildi.

Sohibqiron Amir Temur ham o'z davrida aholi ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki, bosib olingan mamlakatlar xalqini ham ijtimoiy himoya qilish siyosati yuritgan. Amir Temur "Yana amir etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u, miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy, kambag'al, yetim-yesirlarga ovqat beriladigan joy-g'aribxona) solsinlar, kasallar uchun shifoxona qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar. Har bir tumanda dor ul-amorat (hukmdor saroyi) va dor ul-adolat (adolat uyi, qozixona) qursinlar. Va raiyat-u ziroatni qo'riqlovchi qo'rchilar (qo'riqchi, posbon) ham tayinlansinlar" [25; 167-b.] deya buyruq bergan.

Tumanda yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish yo'lida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bir qator kamchilik va muammolar ham uchrab turibdi.

Birinchiidan, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan tegishli choralar ko'rilayotganiga qaramasdan hududda yoshlar jinoyatchiligi darajasi ortib bormoqda [20]. Buning asosiy sababi hududning kattaligi hamda aholining tarqoq yashashi hisoblanadi. Natijada yoshlarni barcha qismini turli profilaktik tadbirlar yoki "Besh tashabbus olimpiadasi"ga jalb qilishning imkoni bo'lmayapti.

Ikkinchiidan, tuman aholisi, asosan, yoshlar yashash uchun boshqa hududlarga ko'chib ketmoqda [20]. Buning asosiy sababi tumanda shahar infratuzilmasi to'liq rivojlanmaganligi hamda ichimlik va oqava suv tanqisligi hisoblanadi. Natijada yoshlar yaxshi hayot ilinjida boshqa hududlarda yashashni afzal ko'rmoqda.

Bugungi kundagi vaziyatdan kelib chiqib ushbu muammolarning yechimi sifatida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Birinchiidan, hudud kattaligi va aholining tarqoqligini inobatga olib, huquqbuzarliklar profilaktikasining aholi gavjum bo'lgan bozor va maktablarda kuchaytirish, yoshlarning

ishsiz qatlamini doimiy ish bilan ta'minlash hamda ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" atrofida birlashtirish zarur. Natijada yoshlarda huquqiy immunitetni kuchaytirib, salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan "bekorchilik"dan xalos etishga erishish mumkin.

Ikkinchidan, yoshlarning asosiy qismi yangicha hissiyotlarni tuyishni xush

ko'rishlari sababli hududda ekstremal turizmning mos turlari (bayking, safari-tur, avtosayohat, poyga va boshqalar)ni rivojlantirish zarur. Buning natijasida, yoshlarning ko'chib ketishini kamaytirishga erishibgina qolmay, yangi tadbirkorlik subyektlari va bo'sh ish o'rinlari yaratilishiga, mahalliy byudjet uchun qo'shimcha daromad manbalari shakllanishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Ёшлар учун янги имкониятлар белгиланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2023 йил 12 апрель. № 72 (8415) – Б. 1.

2. Норов Ш.С. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг тарихий шаклланиши ва тажрибаси (Навоий вилояти мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. 2021 – 56 б; Рахмонов Х. Х. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий институтлар фаолияти тарихи (Навоий вилояти мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. 2021 – 54 б.

3. Toshpo'latov M. (2024). Nurota shahari yoshlarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024). Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(6). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N08>

4. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining aholi demografik holati va bandligi axborotnomasi. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti-https://navstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=495&id=4101&Itemid=1000000000000

5. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining aholining demografik holati press-relizi. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti-https://navstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2024/Demografiya_va_mehnat_statistikasi/Demografik_holat/yanvar-mart-uz.pdf

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-apreldagi "Navoiy viloyatining olis cho'l tumanlari aholisi turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2925-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari to'plami. 2017-yil.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentyabrdagi "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota shaharlari va Tomdi tumanini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3301-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/-3362726#-3365094>

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi "2022 — 2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 217-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/ru/docs/-5988219>

9. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining Navoiy viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni bo'yicha axboroti. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti – https://navstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=294&id=3496&Itemid=1000000000000

10. Мирзиёев Ш. М. Хотин-қизлар ва ёшлар масалалари бўйича янги иш тизими белгиланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг жамиятда аёллар ва ёшларнинг ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2020 йил 9 октябрь. № 212 (7714) – Б. 1.

11. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2021-yil 27-noyabrdagi VI-30-64-5-75-K/21 -sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/316612>

12. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2022-yil 25-maydagi VI-38-71-5-75-K/22-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/666659>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/-5831865>

14. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2022-yil 26-apreldagi VI-37-57-5-75-K/22-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/605480>

15. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2022-yil 4-oktyabrdagi VI-42-153-5-75-K/22-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/910226>

16. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2022-yil 29-noyabrdagi VI-44-181-5-75-K/22-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1008492>

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan yig'ilishdagi nutqi. Elektron resurs – <https://kun.uz/news/2023/04/11/ozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F04%2F11%2Fozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi>

18. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2023-yil 31-iyuldagi VI-58-104-5-75-K/23-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1381840>

19. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2023-yil 25-oktyabrdagi VI-60-139-5-75-K/23-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1509018>

20. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2023-yil 25-avgustdagi VI-58-114-5-75-K/23-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e->

qaror.gov.uz/doc/1422993

21. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2024-yil 12-fevraldagi VI-66-23-5-75-K/24-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1698432>

22. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2024-yil 19-apreldagi VI-70-57-5-75-K/24-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1793822>

23. Xalq deputatlari Tomdi tuman kengashining 2024-yil 1-martdagi VI-67-36-5-75-K/24-sonli qarori. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1717700>

24. Каримов И. А. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Олий Кенгашининг навбатдан ташқари 9 сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи, 1992 йил 5 январь. № 4 (255) – Б. 1-2.

25. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 bet.

BUXORO AMIRLIGIDA IRRIGATSIYA TIZIMINING AHVOLI VA HUKMDORLARNING SUG'ORISH TIZIMIGA MUNOSABATI

Eshqobilov Behzod Botir o'g'li,

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-9943-6400>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi irrigatsiya tizimi, hukmdorlar va oliy tabaqa vakillarining sohada amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Chorjo'y, Ustiy, Karki, Kalif, Qo'bodiyon, Qo'rg'ontepa, Hisor, Qorategin, Darvoz, Ko'lob, Baljuvon, F.Xo'jayev, I.Geyer, ariq, kanal, suvayirg'ich, tanob.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об ирригационной системе Бухарского эмирата, работах, проделанных правителями и представителями высшего сословия на местах.

Ключевые слова: Чорджой, Усти, Карки, Калиф, Кободиян, Коргонтепа, Хисар, Каратегин, Дарваз, Колоб, Бальджувон, Ф.Ходжаев, И.Гейер, ров, канал, водоотделитель, таноб.

Abstract: This article provides information about the irrigation system of the Bukhara Emirate, the work done by the rulers and representatives of the upper class in the field.

Keywords: Chorjoi, Usti, Karki, Kalif, Kobodiyan, Korgontepa, Hisar, Karategin, Darvaz, Kolob, Baljuvon, F.Khojayev, I.Geyer, ditch, channel, water separator, tanob.

Tabiiy-geografik jihatdan Buxoro amirligi viloyatlari Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Amudaryo sohillari va vohalarida joylashgan edi. Xususan, Xatirchi, Karmana, Ziyoviddin, Nurota viloyatlari – Zarafshon daryosi, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Qarshi viloyatlari – Qashqadaryo vodiysi, Sherobod, Boysun, Dexinav, Sarijo'y viloyatlari – Surxondaryo, Chorjo'y, Ustiy, Karki, Kalif, Qo'bodiyon, Qo'rg'ontepa, Hisor, Qorategin,

Darvoz, Ko'lob, Baljuvon, Sho'g'non viloyatlari – Amudaryo bo'ylarida joylashgan edi.

Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixidan ma'lumki, Zarafshon daryosi suvidan Samarqand va Buxoro vohalarining dehqonchiligida foydalanilish bilan bir qatorda turli davrlarda Qarshi va Jizzax vohasi hududlarida sug'orma dehqonchilik faoliyatini kengaytirishda ham ma'lum miqdorda foydalanilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Zarafshon daryosidan Mirzacho'lga Tuyatortar kanali chiqarilib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad Jizzax vohasining suv ta'minotini yaxshilash va Mirzacho'lning janubi-g'arbiy qismini o'zlashtirishdan iborat edi. Bundan ko'rinadiki, avvalgi davrlarda Zarafshon daryosining suv hajmi ham, sug'orish imkoniyati ham ancha yuqori bo'lib, A.R.Muhammadjonov izlanishlar natijasida vodiyning sug'orma dehqonchilik maydoni hozirgi vaqtdagiga nisbatan ancha-muncha keng bo'lgan degan xulosaga keladi[1;130].

Buxoro amirligida Zarafshon daryosining suv miqdori 97,87 sajenni tashkil etgan. Amirlik hududiga eng ko'p suv Zarafshon daryosidan, Oqdaryo va Qoradaryo irmoqlaridan olingan. Oqdaryo va Qoradaryo Xatirchi shahrining quyi qismida birlashgan[1].

Buxoro amirligi irrigatsiya tizimi o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, amirlikning g'arbiy qismi dasht tekisliklaridan iborat. Zarafshon daryosi ushbu hududlarni asosiy suv manbai hisoblangan. Buxoro amirligi hududida Zarafshon daryosidan 43 ta ariq qazib chiqarilib, ulardan 24 tasi daryoning o'ng qirg'og'idan va 18 tasi chap qirg'og'idan chiqarilgan. I.I. Geyer "Turkiston" nomli risolasida ushbu ariqlar umumiy maydoni 214 verstni, daryodan Buxoro tarafga qarab

uzunligi 1000 verstni tashkil qiladigan hududni suv bilan ta'minlaganligi, bundan tashqari bu ariqlardan shaharlar, dalalar, bog'rog'larni ta'minlagan umumiy soni 900 tadan iborat ikkilamchi ariqlar qazib chiqarilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan[3;180].

Yana bir asosiy suv manbalaridan biri bu Narpay hisoblanadi. Kattaqo'rg'on shahri yaqinidan olingan ushbu ariq Buxoro amirligining irrigatsiya, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan. Tarixchi R.Tursunov tadqiqotlarida keltirilishicha, Zarafshon suvi iste'molining uchdan bir qismi Buxoro amirligi hisobiga to'g'ri kelgan. Zarafshon suvlari bilan sug'oriladigan yerlar Buxoro amirligining eng madaniy, hosildor va aholisi zich qismi hisoblangan[4;105].

Qashqadaryo daryosi Buxoro amirligining g'arbiy qismini suv bilan ta'minlagan. Hisor tog' tizmalaridan boshlanuvchi ushbu daryo, amirlik hududining Shahrisabz va Qarshi bekliklari sug'orish tizimida muhim ahamiyat kasb etgan. G'uzor daryosi Qashqadaryoga quyilishi natijasida daryoning sug'orish imkoniyati yanada oshgan. Shu bilan bir qatorda, Hisor tog'laridan boshlanuvchi kichik daryolar ham bo'lib, ular Karmana va Qarshi oralig'ida joylashgan tog'li hududlar va cho'llar orasidagi kichik maydonlarni sug'organ[3;181].

Buxoro tumanlari nomlari ularning asosiy sug'orish kanali nomi bilan atalgan. Masalan, Qoroko'l tumani nahrlarga bo'linar edi. Tumanning 9 qismida 7 ta nahr bo'lgan. Komot (birlikda — shoxa, shoxobcha) tumani 5 komga (1916 yili) bo'lingan. Komi Abu Muslim 4 ta komga, Pirmast tumani esa Rud (daryo)ga taqsim bo'lgan[5;5-7].

O'troq aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishga qulay bo'lgan hududlar va ularda joylashgan shahar va qishloqlarda istiqomat qilishgan. Mang'it amirlari ham o'zlaridan avvalgi davlatni idora etgan sulolalar kabi yangi sun'iy sug'orish inshootlarini qurish va eskilarini ta'mirlash masalasiga katta e'tibor qaratishgan. Sun'iy sug'orish tizimlarini tozalash, ta'mirlash va yangilarini bunyod etish o'z navbatida mamlakatda muhim ahamiyatga molik jarayonlarning kechishiga olib kelgan.

Xususan, bu jarayonlar natijasida sun'iy sug'orish tizimi yoqalab ko'chmanchi aholining o'troqlashish jarayoni kechdi. Buning natijasida esa dehqonchilikda band yerlarning kengayishiga zamin yaratildi.

Ushbu sulola hukmdorlari turli urug'lar o'rtasida yuzaga kelgan o'zaro nizolarni bartaraf etish maqsadida janjalkash urug'larni ishlov berilmagan yerlarga ko'chirib yuborishgan. Bu yerga ko'chirilgan urug' va qabilalar o'troqlashgach, aholining xo'jalik yuritishi uchun sun'iy sug'orish tizimlari barpo etilgan. Bu kabi jarayonlar, asosan, Zarafshon vohasida amalga oshirilgan. Jumladan, Sadridin Ayniy "Samariya" asari tarjimasining debochasida quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Samarqandning hozirgi obodligi 1780-yil, ya'ni amir Shohmurod hukmronlik davridan boshlangan bo'lib, 1809-yilda bir shahar yo'siniga kirgizildi"[6;13-14]. Bundan ko'rinadiki, amir Shohmurod O'ratepa, Toshkent, Andijon, Termiz, Kattaqo'rg'on aholisini Zarafshon bo'yi hududlariga majburiy ko'chirib keltirishi, ushbu hududda yangi yerlarni o'zlashtirilishi irrigatsiya tizimining yanada rivojlanishiga sabab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, hududda Jo'yixurma va Jo'yisarazm kabi yirik ariqlar bunyod etilganligi va ushbu ariqlar aholining xo'jalik ehtiyojlari uchun xizmat qilganligi buning yaqqol dalilidir.

Amirlikda aholi asosan obikor, to'qay hamda lalmikor yerlarda zirotchilik bilan shug'ullanib kelgan. Sun'iy sug'orish yo'li bilan dehqonchilik faoliyati olib borilgan obikor yerlar deb atalib, ularning hajmi lalmi yerlar maydonidan katta edi. Bu yerlardan bir yilda ikki marta – bahor va kuzda ekin ekilib, hosil olingan.

Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida sun'iy sug'orish inshootlari barpo etish va eskilarini ta'mirlash ishlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Xususan, XVIII asrning 50-yillarida foydalanishga yaroqsiz va ta'mirtalab holga kelgan sun'iy sug'orish tizimlarini qayta tiklash ishlari ham olib borilgan. Jumladan, Darg'om kanalidagi suv ayirgich – to'g'on qayta ta'mirlangan. Urgut, Samarqand, Panjikent shaharlari va Sheroz

qishlog'i yaqinida Oqdaryo hamda Qoradaryodan qazilgan ariqlar tozalangan, yangilari bunyod etilgan.

Buxoro amirligida ko'pgina yangi ariqlar qazish ishlari amir Shohmurod hukmronlik yillarida keng ko'lamda amalga oshirilgan. Bunga misol tariqasida Urgut tumanidagi Qozonariq, Sheroz tumanidagi Tumanariq, Sug'ud tumanidagi Tog'uzariqni kiritish mumkin[10;267].

Mang'itlar sulolasi davrida Samarqand shahrida iqtisodiy o'sish ko'zga tashlanadi. Xususan, amir Shohmurod hukmronlik yillaridan boshlab shahardagi iqtisodiy hayot sezilarli darajada jonlangan. Iqtisodiy o'sish bevosita qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik rivoji natijasida yuzaga kelib, bunda suv inshootlarini ta'mirlash va tozalash borasida olib borilgan ishlarning ahamiyati katta. Jumladan, amir Shohmurod davrida sug'orish tizimiga keng e'tibor qaratilib, Samarqand shahridagi ariqlar va tomorqalar tozalanganligi G.Agzamova tomonidan o'zining tadqiqot ishlarida bayon etib o'tilgan[11;363].

Suv taqsimotida o'lchov birliklari sifatida tegirmon, tosh va quloq kabi birliklardan foydalanilgan. Tosh va quloq o'lchov birliklari tegirmon miqdorining yarmiga teng bo'lib, uning miqdori 10-15 tanob yerni sug'orishga yetarli bo'lgan.

Bundan tashqari, suv taqsimlash ishlarida ravoqdan ham foydalanilgan. Ushbu qurilma, asosan, tosh ko'priklarning ostida barpo etilgan bo'lib, uning yordamida 100 tanob yerni sug'orishga yetadigan miqdorda suv taqsimlab berilgan. Jumladan, Samarqand yaqinidan to Karmanagacha bo'lgan yerlarni sug'orishga qodir Zarafshon daryosining suvini taqsimlash uchun 21 ravoq mavjud bo'lgan.

Amirlik hududida jamoat ariqlari hisoblangan kanal va ariqlar bo'lgan, lekin bu ularning davlat tomonidan qurilganligini bildirmaydi. Sababi xazinadan mablag' ajratish yo'li bilan Tojikiston hududida xonlik tarixining so'nggi davrida, XIX asrning 70-yillaridan boshlab birorta ham kanal yoki sug'orish ariqlari qurilmagan. Davlatning roli shundan iborat ediki, u jamoat kanallari va

sug'orish ariqlarini o'ziga tegishli deb e'lon qildi va suvni tartibga solish, ularni toza va ozoda saqlash uchun mirob tayinladi. Suvdan foydalanganlik uchun aholi davlatga soliq to'lashi va ularni tozalash ishlarini olib borishi shart edi.

Turkiston o'lkasi, shuningdek, Buxoro amirligi iqtisodiyotining muhim bo'g'ini agrar sohaga asoslanganligi hech kimga sir emas. Unda inson hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqariladi. XX asr boshlarida mamlakatimizda irrigatsiya, sun'iy sug'orish ishlarining holati qoniqarsizligi, texnikaviy moslamalar yo'qligi, suv ta'minotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ko'plab katta yer maydonlaridan foydalanilmay kelinishi qishloq xo'jaligi samaradorligining pasayishiga olib keldi. Buxoroning iqlimi va geografik sharoiti yerlarni sun'iy sug'ormay turib, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga imkoniyat bermaydi. G'arbiy Buxoroda, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida ekin yerlarning ko'pchiligi sun'iy sug'orish yo'li bilan dehqonchilik qilinadi. Sharqiy Buxoroda, Surxondaryo va Amudaryoning yuqori qismida sug'orish talab qiladigan yerlar foizi katta. Biroq sug'orish shoxobchalari juda qoniqarsiz holatdaligi sababli ham katta hududlar foydalanilmay qolingan. Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida mahalliy dehqonlarning talabini qondirish uchun sug'oriladigan yerlar miqdori yetarli darajada, ammo bu yerda sug'orish shoxobchalarini texnikaviy jihatdan takomillashtirishga yaxshi e'tibor qaratish bois ko'p yerlar o'zlashtirilmagan. Aholining Amudaryo suvidan foydalanishi uchun esa bir qancha texnikaviy inshootlar va moslamalar qurish zaruriyati yuzaga kelgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Xo'jayevning irrigatsiya tizimini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirish lozim bo'lgan ishlar masalasida bergan fikrlari ahamiyatga molik. Bundan tashqari ushbu fikrlarda berilgan muammolarga yechimlar bevosita amirlik davrida suv masalasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tarzida qarash ham mumkin:

- magistral ariqlarda suv taqsimlaydigan to'g'onlar qurish va bu to'g'onlarni takomillashtirish;

- tegishli hududlarda eski quduqlarni qayta ta'mirlash va yangilarini qurish;

- suv va yer tanqisligidan qiynalayotgan turkman hududlarida sug'orish kanallarini qurish;

- suvni uzluksiz ravishda to'g'ri taqsimlash va suv iste'mol qiluvchilarning suvdan tejab foydalanishlarini ta'minlash maqsadida butun suv shoxobchalarini texnikaviy jihatdan yaxshilash;

- sug'orish tizimining barcha tarmog'ini va ularning shoxobchalarini hisobga olish hamda vaqti-vaqti bilan tozalab, kengaytirib turish yo'li bilan suv shoxobchalarini to'la tartibga solish lozim[12;373-374].

Shuningdek, u Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasidagi ishlab chiqqan davlat dasturida irrigatsiya tizimi bilan bog'liq quyidagi takliflarni keltirib o'tgan edi:

- irrigatsiyaga doir butun programmani to'la ravishda bajarish;

- qishloq xo'jalik maktablarini tashkil etish hamda aholi orasida nazariy bilimlarni tarqatish[12;378];

Zarafshonning janubi va shimolidagi adir va vodiylar, tog' cho'qqilaridagi qoyalardan tashqari asosiy hudud qattiq jazirama va uzoq yozning quruqligida bir xil, qalin gil tuproq bilan qoplangan. Asosiy ekiladigan o'simliklar katta miqdorda suv talab qiladi. Shuning uchun, agar o'simliklar sun'iy sug'orilmasa, tuproq qisman o't-o'lan bilan qoplangan. Ammo bu o'simliklar ham yozning boshida yo'qoladi va faqat tog'larda, aniqrog'i quyosh nurlari kamroq ta'sir qiladigan va tuproq namligini ancha uzoqroq saqlaydigan chuqur chuqurliklarda, o'simlik yozning ikkinchi yarmigacha qoladi. Tuproqning bu xususiyati butun landshaftga cho'l ko'rinish beradi, ammo inson tuproqni sun'iy ravishda kerakli miqdorda suv bilan ta'minlashi bilanoq darhol yo'qoladi. Keyin bu tuproq eng unumdor bo'ladi, keyin u qalin o't bilan qoplangan, keyin bu yerda cho'ldagi jannat vohalariga o'xshash dalalar va bog'lar paydo bo'ladi.

Sharqiy Buxoro hududida bir qancha

ariqlar bo'lib, ular XIX asrdan ancha oldin qurilgan. Bu tuzilmalarning xarakterli jihati shundaki, tog' etagidagi daryolar qirg'oqlari bo'ylab ular juda qisqa va tor, tekisliklarda esa uzun va keng edi. Masalan, Qoratog'daryoning eng sohilida joylashgan Qoratog' qishlog'i yaqinida har birining uzunligi 3-3,5 km dan oshmaydigan 4 ta sug'orish ariqlari bo'lgan. Hozirgi Dushanbe shahri o'rnida 2 ta sug'orish ariqlari – Sariosiyo va Shohmansur bo'lib, ular Shohmansur, Sariosiyo qishloqlaridagi oz miqdordagi yerlarni sug'organ. Yangibozor hududi daryoning chap qirg'og'idan oqib o'tgan o'n kilometrlik Kofirnihon arig'idan sug'orilgan.

Ko'lob hududida eng muhimlari Surxobdan boshlanib, o'nlab qishloqlarning yerlarini sug'organ Daxana va Ziraki ariqlari bo'lgan. Biroq ularning uzunligi 10-15 km dan oshmagan.

Qorategin, Darvoz va Pomirda Panj va Surxoba daryolarining turli irmoqlari qirg'oqlari bo'ylab juda kichik ariqlar qurilgan. Shuning uchun bu vodiylarda suv manbalari boy bo'lishiga qaramay, tog' sharoiti tufayli suvdan foydalanish imkoni bo'lmagan, buning natijasida Hisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz vodiysining butun hududida yomg'irli dehqonchilik keng tarqalgan edi.

Vaxsh vodiysi bundan mustasno bo'lib, u yerda Qo'rg'ontepa va Komot bekliklari joylashgan edi. Bu yerda iqlim sharoiti yomg'irli dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulay emas edi. Bu hududlarda asosan sun'iy sug'orish hisobiga dehqonchilik amalga oshirilgan. Vaxsh daryosidan o'nlab kilometrdan ortiq masofada Qo'rg'ontepa va Jilliko'l ariqlari qurilib, bu beklik yerlarini sug'orish imkonini berdi.

Bu boradagi ahvol amirlikning g'arbiy viloyatlarida yanada og'ir edi. Uzunligi 400 km bo'lgan yagona Zarafshon daryosi Samarqand, Kattaqo'rg'on, Buxoro va Qorako'l tekisliklaridan oqib o'tib, vohalarni hosil qiladi, lekin na chap, na o'ng tomondan irmoqlar kelib quyilmaydi. Shuning uchun uning suvlari sug'orish uchun to'liq ishlatilgan va har ikki qirg'oqda joylashgan

aholi zich joylashgan hududlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmadi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, butun hududda davlat tomonidan nazoratning yo'qligi va miroblarning loqaydligi natijasida Zarafshon suvlari turli befoyda ko'lmak, suv omborlari va botqoqliklarda isrof bo'lib ketgan. Natijada kanallarning quyi qismida yashovchi odamlar butunlay suvsiz qolib ketishdi, bu esa ko'pchilikning noroziligiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Qorako'l vohasi aholisi qattiq aziyat chekdi. Bu hudud xonlikning janubi-g'arbiy hududining chekka burchagida joylashgan bo'lib, uning aholisi Zarafshonning quyi oqimidan foydalanib, jamoalar tomonidan qurilgan ikkita katta kanal (Naxri Kunquli va Dug'ul) va xususiy shaxslar tomonidan 31 ta sug'orish ariqlari qurilgan. Viloyat ehtiyoji uchun 140 tosh suv kerak bo'lsa, mirob atigi 10 tegirmon suv chiqargan, 20 ta toshdan suv uchun soliq undirgan. Natijada 155160 ta tanob yerning 77720 tasi yetishtirishga yaroqsiz bo'lib qoldi[13].

Buxoro amirlari tomonidan turli davrlarda hududda suv yetishmasligi sababli Zarafshon daryosi oqimini o'zgartirishga harakat qilingan. Buxoro amiri Muzaffarxon (1834-1885 yy.) Karmanaga hokimlik qilgan davrda Zarafshon daryosi suvini Qal'ayi Bus tomonga yo'naltirib, Karmana va uning atroflarini obodonlashtiradi. Biroq Muzaffarxonning Karmanani obod qilish jarayonida daryo suvidan oqilona foydalanmaganligi, amirlikning boshqa hududlari uchun zarur bo'lgan suv taqsimotini inobatga olmasligi oqibatida Zarafshon daryosi suvlari bilan oziqlanuvchi Qorako'l vohasida suv tanqisligi kuzatiladi va ko'p ziroatgoh va qishloq xo'jaligi maydonlari suvsizlikdan katta zarar ko'radi[7;189].

Amirlik amaldorlari tomonidan suvdan oqilona foydalanishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarga o'sha davrning adolatli qozilari ham o'z munosabatlarini bildirib o'tganlar. Ana shunday qozilardan biri 1860-1870 yillarda Buxoro amirligining Qorako'l vohasida qozilik qilgan Mulla Abdulvohid bo'lib, amir Muzaffarning Zarafshon daryosi suvini taqsimotni inobatga olmasdan boshqa

hududga oqizganligi natijasida Qorako'l vohasida yuzaga kelgan suv tanqisligidan norozilik tariqasida amirga suv taqsimotidagi muammolar to'g'risida shikoyat xatini yozgan. Maktubda Mulla Abdulvohid amaldorlarning suv taqsimoti borasida amirlik hududlarida, jumladan, Qorako'l zaminining suv taqsimotidagi ulushiga rioya qilinmayotganligi, suvsizlik natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari zarar ko'rayotganligi, bunday holatda aholi qanday soliq to'lay olishi mumkinligini qayd etadi[8;108].

Qorako'l tumanlarida kanallar qurish choralari ko'rilmagan. G'arbiy Buxoroda ishlagan Qozi Abdulvohid Sadr dehqonlarning shikoyatlarini, ularning amaldorlar bilan bo'lgan nizolarini doimiy ravishda hal qilishga majbur bo'ldi. U to'plangan hujjatlar asosida amirga hisobot berib, Qorako'l uchun yangi kanallar qurish, suvdan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashni kuchaytirish zarurligiga ishonirdi. Bularning barchasini u amirga yo'llagan "Suv rejimini tartibga solish va sug'orish tizimini kengaytirish to'g'risida"[9]gi ma'ruzasida bayon qiladi. Biroq, amir bu yo'lda hech narsa qilmadi. Bu hudud aholisi ochlikni boshdan kechirib, o'limga yo'l qo'ymaslik uchun Samarqand vodiysidan Xorazm chegaralariga ko'chib kelgan.

Albatta, kambag'al dehqon shaxsiy mehnatni qo'llash va ko'p yerlarni o'zlashtirish yoki kanal qurishga qodir emas edi, garchi rasmiy ravishda unga yo'l ochiq edi. Bunday yerlarni o'zlashtirish yoki o'zlashtirilmagan yerlarga kanal va ariq qurish uchun katta mablag' sarflanishi, dehqon va chorvadorlarda yo'q bo'lgan mehnat resurslari va chorva mollarini safarbar etish talab qilinardi. Buni amalga oshirish faqat boylar va qabila boshliqlarining ixtiyorida edi, ular hashar yoki boshqa usul bilan qishloqdoshlarini safarbar qilish, shariatning belgilangan qoidalaridan foydalanish, katta miqdorda yer-suv o'zlashtirish va ularni xususiy mulkka aylantirish mumkin edi.

Zarafshon daryosida suv yetarli bo'lmagan yillarda vohalar to'la miqdorda bo'lmasa ham, o'z ulushlariga binoan suvga ega

bo'lishgan. Suv tanqisligi yuqori bo'lgan yillarda vohalarga, ayniqsa, quyi Zarafshon vohasi hududlariga suv yetkazib berish masalasi amirlik sug'orish tizimidagi eng muhim va murakkab masalalardan biri hisoblanib, uning oqilona hal etilishida bevosita Buxoro amirlarining aralashuviga ko'ra amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Agrar turdagi mamlakatlar uchun eng asosiy daromad manbai yer va suv ekanligini inobatga olsak, bu masalaga nega yuqori darajada e'tibor qaratilganligini anglash qiyin emas.

Sharqiy Buxoro vohasini suv bilan ta'minlash masalasida ham jiddiy muammolar ko'zga tashlangan. Ushbu hududni suv bilan ta'minlovchi asosiy manbalar Surxondaryo va Sherobod daryolari hisoblangan. Amudaryodan esa Termiz va Sherobod aholisi qisman foydalanishgan. Voha dehqonchiligida bu daryoning deyarli ahamiyati bo'lmagan. Surxondaryo va Sherobod daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida sug'orish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq ushbu hududlarda ham suv zaxiralari kamligi sababli aholi suvsizlikdan aziyat chekkan. Irrigatsiya tizimining nihoyatda pastligi va soddaligi sababli yerlarning bir qismi qurib, ikkinchi qismi botqoqlashib borgan. Misol uchun, Denov hududida 15 ming desyatina yer botqoqlashgan[14;97].

Ahmad Donish asarlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida suv tanqisligi yuqori bo'lgan hududlarda aholi, ayniqsa, dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi aholi suv taqsimoti va ta'minotining betartib hamda beqarorligi sababli o'z turar joylarini tashlab Rossiya hududiga ketib qolganligi qayd etilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum hududda dehqonchilik xo'jaligining u yoki bu yo'nalishining tashkil topishi, dastlab, hududning iqlimi, tuproq unumdorligi, suv ta'minoti va ushbu mahsulotga bo'lgan ehtiyoj va ushbu ehtiyojning qay darajada daromat keltirishi kabi omillar bilan uzviy bog'liq. Biroq, suv tanqisligiga duchor bo'lgan hududlarda asosiy omil suv ta'minotiga borib taqaladi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar va tahlil etilgan fikrlarga asoslangan holda, XIX asrdan boshlab Buxoro amirligi sug'orish tizimi va suv ta'minoti masalasida pasayish davri yuzaga kelganligi, asrlar davomida shakllangan suv taqsimoti tartiblari yo'qolib, buning natijasida Quyi Zarafshon vohasi hududlari og'ir suv tanqisligiga uchraganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu muammo bevosita bir nechta jarayonlarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan:

Birinchidan, sug'orish tizimida foydalanilgan inshootlarning zamon talabiga mos emasligi, turli xil tabiiy yoki turli omillar ta'sirida tezda yaroqsiz holatga kelishi;

Ikkinchidan, suv taqsimotiga mas'ul ayrim shaxslar tomonidan mansab lavozimlarini suiste'mol qilinishi;

Uchinchidan, mamlakat siyosiy va iqtisodiy boshqaruv jarayonida beqarorlikning yuzaga kelishi va boshqa bir qator omillar ta'sirida Buxoro amirligining ayrim vohalarida sug'orish tizimi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligining vayron bo'lishi natijasida aholi asrlar davomida shug'ullangan faoliyati va turar joyini tark etish, amirlik xazinasi daromadlari miqdorining kamayishi va turli iqtisodiy muammolar yuzaga kelishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). T.: "Fan". 1972. – B.130.
2. O'zMA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 17-yig'ma jild, 6-varaqning orqasi.
3. Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент. 1909. – С.180.
4. Tursunov R.N. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ekologik vaziyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2023. – B.105
5. Мухамеджанов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата. – Т.: Университет, –

C.5-7.7.

6. S. Ayniy. “Samariya”ning o‘zbek tilidagi tarjimasiga yozilgan so‘z boshi.T.: “Meros”, 1922. –B.13-14.
7. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон... – Б. 189.
8. Мирзакулов Б. Қоракўл тарих силсиласида. – Тошкент, 2015. – Б. 108.
9. Qozi mulla Abdulvahobning Buxoro amiriga qilgan xabari. Buxoro viloyat muzeyi 9831/12 sonli hujjat.
10. O‘zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrdan bugungi kungacha) I jild. –T.: “Ma’naviyat”, 2023. –B. 267.
11. Agzamova G.A. XVI-XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o‘rni. – B. 363.
12. Xo‘jayev F. Tanlangan asarlar. T 1. — T.: "Fan", 1976, B.373-374, 378.
13. Qorako‘l amaldorining viloyatdagi yer-suv munosabatlari haqida amirga bergan hisoboti. Buxoro viloyat muzeyi. 9728/12-sonli hujjat.
14. Ochildiyev F. Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – T.: “Abu matbuot-konsalt”, 2008. – B.97.

SFEROKONUS (SIMOBKO‘ZACHA)LAR VAZIFASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Temirova Munira Amirkulovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0009-4123-6677>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asrlar arxeologiyasida keng tarqalgan kulolchilik mahsuloti sferokonus (simobko‘zacha) lar va ularning funksiyasi masalasida fikr yuritiladi. Shuningdek, Eski Termiz hududidan topilgan simobdonlar sig‘imini aniqlash orqali, ularning vazifasi xususida o‘zimizning fikrlarimiz taqdim qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sferokonuslar, kulolchilik, konussimon, V.Denon, D.Nicolle, kimyoviy tahlil, sferokonus sig‘imi, Eski Termiz, qimmatbaho suyuqliklar, simob.

Kirish. O‘ziga xos shakli jihatidan ilmiy adabiyotlarda “sferokonus” nomi berilgan sopol idishlarning maxsus turi dunyoning ko‘plab davlatlarida, jumladan Markaziy Osiyoning juda ko‘p hududlarida uchraydi. O‘ziga xos sharsimon va konussimon shakli bilan ajralib turadigan bu noyob idishlar turli davrlarda topilgan bo‘lib, o‘rta asrlar hunarmandchiligi, kulolchilik evolyutsiyasi, va madaniy aloqalariga oydinlik kiritadi. Ikki asrdan oshibdiki, sferokonus idishlar vazifasi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular insonlarning qaysi ehtiyoji tufayli paydo bo‘lganligi masalasi tadqiqotchilar uchun muhim hisoblanadi.

O‘rganilish tarixi. Bu borada tadqiqotlar tarixi arxeologlar, tarixchilar va ixlosmandlarni o‘ziga jalb qilishda davom etayotgan doimiy izlanishdir. Zamonaviy texnologiya va metodologiya rivojlanib borgan sari, sferokonik idishlar haqida tushunchamiz chuqurlashib bormoqda.

Sferokonik idishlar yodgorliklarning turli yerlaridan topilganligi sababli, uning funksiyasi ham turlicha bo‘lgan degan faraz uyg‘otadi[1].

Sferokonuslar bo‘yicha ilk tadqiqotlar XIX asrning boshida fransuzlar tomonidan boshlangan. 1802-yili V. Denon Misrga

sayohati davomida sferokonuslar suratini o‘z kundaligiga chizib qoldirgan. “Juda og‘ir, juda zich va juda qattiq” bo‘lgan bu turdagi shisha idishlar gardish teshigining kichikligi sababli qanday maqsadda ishlatilganligiga hayron qolgan[2;14].

Keyingi tadqiqotlar oradan ma‘lum yillar o‘tgandan so‘nggina amalga oshirilgan. 1871-yilda A.F Lixachev Sankt-Peterburgda Arxeologlarning ikkinchi syezdida so‘zga chiqib, “Konushaklidagi buyum” lar haqida ma‘ruza qilgan. A.F Lixachev bu idishlarning shakliga e‘tiborini qaratib, ular lampa (chiroq) vazifasifasida ishlatilganligini ta‘kidlaydi[3].

Shundan so‘ng sferokonuslarni o‘rganish kengayib bordi va tadqiqotchilar birin-ketin o‘z g‘oyalarini ommaga e‘lon qila boshladi. Sferokonuslarning bunday vazifalari sirasiga quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

Granata, simobdon, mushk, efir moyi, zam-zam suvi, urug‘ saqlash uchun idish, chiroq, parfyumeriya uchun idish va boshqalar. Ammo haligacha bu masala o‘zining yechimini topganicha yo‘q.

Dunyo miqyosida: Djanpoladyan R.[4]., Ettinghausen R[5], Dostiyev T., Nicolle D.[6], Lunin B.V. [7], Nuretdinova A., Xramchenkova X, O‘rta Osiyoda: Galiyeva S., Baypakov K., Moskalenko N.A., Marofiyev S. Sh.[8], Mirboboyev A., Rahimov N., shuningdek O‘zbekistonda Vyatkin V.L.[9], Albaum L., Masson M.Ye., Buryakov Yu.F.[10], Saytov S.T., Rtveladze E.V., Rahmonov U., Pidayev Sh.[11] va ko‘plab olimlar turli yillarda sferokonus idishlarni o‘rganib, uning ma‘lum bir xususiyatiga asoslangan holda, turli vazifalari haqida ma‘lumot berganlar.

S.T. Saytov Mizdahqon sopollarini ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganish natijasida ular, kimyoviy modda yoki biror suyuqlik saqlash uchun ishlatilgan degan xulosa bersa[12],

X.Xramchenkova, V.Baxmatova, M.V.Sivitskiylar Bolgar sferokonuslarini o'rganib, ularni kimyoviy tahlilini amalga oshirdi. Mazkur tahlillarga asoslangan holda X. Xramchenkova va boshqalar sferokonus idishlar alkimyoviy tajribalarda foydalanilgan degan fikrga kelishadi[13].

2006-2019 yillarda Ozarbayjonning Shamkir shahar o'rnida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sferokonuslarni o'rgangan Tarix Dostiyev sferokonuslarni shakli jihatdan tiplarga bo'lib, shundan uning vazifasi nimadan iborat ekanligini yoritib beradi. Uning fikricha bu turdagi idishlarda qimmatbaho suyuqliklar va simob saqlangan bo'lishi mumkin[14].

Biz sferokonus idishlar vazifasini aniqlashda, ularning sig'imini o'lchab va shunga asoslangan holda o'zimizning versiyamizni taklif qilmoqchimiz. Eski Termiz yodgorliklaridan topilgan 28 dona sferokonus idishlar o'rganish uchun olindi. Ularning sig'imi suv solish natijasida o'lchanib quyidagi jadval shakllantirildi. Unga ko'ra eng kichik hajmli idish 100 ml ni, eng yirigi esa, 470-500 ml ni tashkil qildi. Shunga asoslangan holda, mazkur sferokonuslarni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin

1. –guruh 100-200 ml oraliqdagi sig'imga ega bo'lgan idishlar 12 donani,
2. –guruh 200-300 ml oraliqdagi sig'imga ega bo'lgan idishlar esa, 15 donani,
3. –guruh 400-500 ml dagilar esa 1 donani tashkil qilmoqda.

Ajablanarlisi, 300-400 ml ga ega bo'lgan simobko'zachalar mavjud emas.

Agar umumiy sonda ularni foiz ko'rinishida hisoblasak, 1-guruh 42,86%ni, 2-guruh 53,57%ni va 3-guruh esa 3,57%ni tashkil qilganligini guvohi bo'lamiz. Demak, 100-300 ml oraliqdagi sferokonus idishlar umumiy sonda 96,43% ko'rsatgichga egadir. Eski Termiz sferokonuslari orasida, o'ziga xoslik 1 dona 470-500 ml li idishning mavjudligida. Bunday sig'imga ega bo'lgan ko'zacha Eski Termiz hududidan topilgan Bu holat, albatta, e'tiborni tortmay qolmaydi.

Sferokonuslarni tadqiq qilgan olimlardan farqli o'laroq, mazkur kulolchilik mahsulotini

sig'imini aniqlash natijasida uning vazifasi haqida fikrimizni bayon qilmoqchimiz. Agar ko'zachalarning 99 %i 300 ml gacha sig'imli bo'lsa, ulardan kundalik qanday ehtiyojlarda foydalanishgan? Avvalo, yuqoridagi sferokonuslarning vazifasi haqida bildirilgan versiyalardan bir-ikkitasiga to'xtalib o'tib, inkor etishimiz sabablarini ko'rsatamiz.

1. Bizningcha ular, ichimlik (suv, pivo uchun qovoq) yoki zam-zam suvi tashish uchun idish sifatida foydalanilmagan. Negaki, og'iz teshigining juda kichikligi (3-5 mm) suyuqlikni solish va tushirish yoki ichishga xalal beradigan holat. Suyuqlik bilan to'ldirilgan sferokonusni kuch bilan bir marta siltasak, bir tomchi suyuqlik tushadi. Chanqoq bosilguncha ichish uchun esa, ko'p marta siltash kerak.

Bizga ma'lumki, Zam-zam suvi Makka-yu Madina shahridan, olis yurtlarga olib ketiladi. Shunday ekan, kichik sig'imli bunday idishlarga qaraganda, yirikroq ko'zalarda tabarruk suvni tashish unumliroq bo'ladi. Yana bir holat ko'zachaning vazni og'irligi ham uni inkor etadi.

2. Granata vazifasini ham ko'pchilik tadqiqotchilar qo'llab-quvvatlashgan. Ammo, biz bu fikrdan yiroqmiz. Sabablar quyidagicha:

1-Sferokonuslarning devori haddan tashqari mustahkam va qalin,

2-Sirtida bir-biridan nafis va nozik bezaklar mavjud,

3-Topilgan sferokonuslarning katta qismi arxeologik butun holatda.

3.Lampa (chiroq) versiyasi ham o'zini oqlay olmadi, sababi, topilgan sferokonuslarning birortasida ham (arxeologik butun va bo'lak holatdagi) kuyish yoki qorayish holatiga duch kelmadi.










Xulosa Bu masalada bizning variantimiz simob va simob tarkibli birikmalar hisoblanadi. Asoslovchi omillar, o'rta asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ali Husayn al –Ansoriy, Abu-l-Fazl-Xubaysh Tiflisiy kabi olimlarning asrlarida o'rta asrlarda simobdan turli sohalarda foydalanilganligi va simobni saqlashda maxsus ko'zachalardan foydalanilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.













Bir necha tadqiqotchilar, sferokonuslarni analiz qilishi natijasida, ularning tarkibida simob aniqlanganligini aytib o'tishgan.

Shularga asoslangan holda, o'rta asrlarda kichik sig'imli bu o'ziga xos ko'zchalardan ehtimol, simob elementini saqlash va tashish,

tarkibida simob bo'lgan dori-darmonlarni saqlash uchun foydalanishgan degan fikrga kelamiz. Bejizga xalq orasida mazkur kulolchilik buyumiga "simobko'zacha" nomi berilmagan.

1. Jadval.

T/r	Kirim raqami	H (balandligi)	D (diametri)	Ml (Sig'imi)	Rasmi
1	SVAM 4560	9,2	8	100	
2	TAM36978/7	11,7	8,5	100	
3	TAM 36978/5	11	8	120	
4	TAM 35946	7	9	130	
5	SVAM 2359	10,2	8,5	130	
6	SVAM 4518	10,3	7,5	140	
7	SVAM 6850	9,8	8	140	
8	TAM 36978/1	12	7,5	150	
9	SVAM 1942	12,5	7,8	160	

10	P.16	17,5	7	170	
11	SVAM 2357	13,7	7,5	180	
12	TAM 36978/10	14	11,5	190	
13	SVAM 2360	11,5	8,5	200	
14	10469/16	9,5	9	200	
15	TAM 3657/1	15	16,5	200	
16	10469/6	14	7,5	210	
17	Kp.72	14	8,5	210	
18	TAM 36978/9	10,7	9,7	220	
19	TAM 35947	13	12,5	220	
20	10469/4	14,5	7,5	230	
21	10469/45	16	8,5	240	

22	SVAM 3657/2	15	8,5	240	
23	10469/28	15,2	9.3	250	
24	10469/23	14,8	7,5	250	
25	SV 32021	14	11,5	260	
26	10469/17	14,7	7,8	260	
27	10469/34	11,5	9,7	280	
28	SVAM 2365	16	14	Tax/470-500	

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Галиева С. Сфероковические сосуды Средней Азии: к вопросу о типологии и хронологии. Москва. 2000.
2. Нуретдинова А.Р. Сфероконические сосуды среднего Поволжья X – начала XV вв. Диссертация. Казань – 2022 14-б.
3. Джанполадян Р. М. Сфероконические сосуды из Двина и Ани. Ереван. 1982.
4. Джанполадян Р.М. Лабораторная посуда армянского алхимика / Р.М. Джанполадян // СА. – 1965. – № 2. – С. 210–216.
5. Ettinghausen R. "The use of sphero-conical vessels", Journal of Near Eastern Studies 24. 1965.
6. Nicolle D. Medieval Islamic Fire Grenades: Further Evidence from a Military Context. Journal of Islamic Archaeology ISSN (print) 2051-9710. 2017. 163-177 pp.
7. Лунин. Б.В. К вопросу о функциональном назначении сфероконических сосудов в связи с одним рукописным источником XVI века // ИМКУ. – Выпуск 2. Ташкент, 1961. – С. 256-266.
8. Марифиев С.Ш., Москаленко Н.А. // Материальная культура Таджикистана / отв.ред. Б.А. Литвинский. – Душанбе: Дониш, 1987. – Вып. 4. – С. 299–312.

9. Вяткин, В.Л. Афрасиаб – городище бывшего Самарканда. Археологический очерк / В.Л. Вяткин. – Ташкент (Самарканд): Главнаука наркомпроса УзССР, 1926. – 65 с.
10. Буряков, Ю.Ф. Археологические материалы городища Кавардан / Ю.Ф. Буряков // ИМКУ. – 1977. – Вып. 13 – С. 70–87.
11. Рахманов, У.В. Раскопки караван-сарая в рабаде средневекового Термеза / У.В. Рахманов, Ш.Р. Пидаев // ИМКУ. – 1990. – Вып. 23. – С. 60–69.
12. Сайтов. С.Т. Сфероконические сосуды из средневекового Миздахкана. Сфероконические сосуды из средневекового Миздахкана. Жанубий Оролбуйи археологияси, этнографияси ва тарихи масалалари мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. Некис “Каракалпакстан” 2011. 41-42 бб.
13. Храпченко Р. Х, Бахматова В. Н, Сивицкий М. В. Археометрические исследование сфероконических сосудов из раскопа СС Болгарского городища. Археология Евразийских степей. №5 УДК 902.01, 903, 23. 2018. 238-241 бб.
14. Dostiyev T. O’rta asr Shamkir shahrining keramikasi. Monografiya. Baki – 2020. 98-99 бб.

O'ZBEKISTON SOVXOZLARI TARIXI ILMIY TADQIQOTLARDA

Xolboyeva Dilnoza Mamayusupovna

*Surxondaryo viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar**boshqarmasi mutaxassisi*

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0065-1163-2152>

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi sohasida huquqiy-me'yoriy boshqaruvi tizimi, dastlabki sovxozlarning tuzilish davridagi yer-suv islohotlari, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda viloyatda sovxozlarning iqtisodiy va moddiy ahvolini yaxshilash borasidagi harakatlar, Sovet hokimiyati yillarida Surxondaryo viloyatida sovxozlarni ommaviy ko'paytirish borasidagi harakatlar, sovxozlarning mutaxassislar bilan ta'minlanish siyosati, turg'unlik yillarida Surxondaryo viloyatidagi sovxozlar aholisini madaniy va ma'naviy turmush tarzi kabi masalalarni tarixiy adabiyotlar asosida ilmiy jihatdan ushbu maqolada ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sovxoz, sovet hokimiyati, yer-suv islohotlari, paxta yakkahokimligi, sanoat korxonalar, turg'unlik yillari.

Аннотация: Система нормативно-правового управления в сфере сельского хозяйства, земельная и водная реформы в период образования первых совхозов, работа по улучшению экономического и материального состояния совхозов региона в годы после Второй мировой войны, усилия по увеличению массы совхозов Сурхандарьинской области, совхозов. Важно также научно раскрыть такие вопросы, как политика обеспечения специалистами, культурный и духовный образ жизни жителей совхозов Сурхандарьинской области в годы застой, на основе исторической литературы. В статье на основе научных исследований анализируется история создания совхозов в годы Советской власти, а также на основе исторических данных раскрываются такие вопросы, как культурный и духовный образ жизни жителей совхозов Сурхандарьинской области. литература.

Ключевые слова: совхоз, Советская

власть, земельная и водная реформы, хлопковая монополия, промышленные предприятия, годы застоя.

Abstract: The system of legal and regulatory management in the field of agriculture, land and water reforms during the formation of the first state farms, efforts to improve the economic and material condition of state farms in the region in the years after the Second World War, efforts to increase the mass of state farms in Surkhandarya region, state farms. It is also important to scientifically reveal issues such as the policy of providing specialists, the cultural and spiritual lifestyle of the residents of state farms in the Surkhandarya region in the years of stagnation, based on historical literature. In the article, the history of the creation of state farms during the years of Soviet power is analyzed on the basis of scientific research, and issues such as the cultural and spiritual lifestyle of the residents of state farms in Surkhandarya region are revealed based on historical literature.

Key words: state farm, Soviet power, land and water reforms, cotton monopoly, industrial enterprises, years of stagnation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Dunyodagi yetakchi davlatlar AQSh, Xitoy, Hindistondagi yirik ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan qishloq xo'jaligi sohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, aholini ish bilan band qilish, qishloq xo'jalik infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, paxta yetishtirishda o'zbek dehqonchiligining madaniyati, mehnatsevarligini tarixiy

manbalar asosida yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan olganda O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri jarayonida sovet hokimiyatining amalga oshirgan agrar siyosati va uning mahalliy aholi hayotidagi o'rnini Surxon vohasi misolida tahlil qilinganda shuni aytish kerakki, shu paytgacha yaratilgan tadqiqotlarda asosan, yuzaki o'rganilgan bo'lib, ularda O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri, mashaqqatli mehnati va uning natijalari ilmiy o'rganilmagan va yoritilmagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida tajriba almashuv va ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida huquqiy-me'yoriy boshqaruvi tizimi, dastlabki sovxozlarning tuzilish davridagi yer-suv islohotlari, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda viloyatda sovxozlarning iqtisodiy va moddiy ahvolini yaxshilash borasidagi harakatlar, Surxondaryo viloyatida sovxozlarni ommaviy ko'paytirish borasidagi harakatlar, sovxozlarning mutaxassislar bilan ta'minlanish siyosati, turg'unlik yillarida Surxondaryo viloyatidagi sovxozlar aholisini madaniy va ma'naviy turmush tarzi kabi masalalarni tarixiy adabiyotlar asosida ilmiy jihatdan ochib berish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan olganda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri jarayonida sovet hokimiyatining amalga oshirgan agrar siyosati va uning mahalliy aholi hayotidagi o'rnini Surxon vohasi misolida tahlil qilinganda shuni aytish kerakki, shu paytgacha yaratilgan tadqiqotlarda asosan, yuzaki o'rganilgan bo'lib, ularda O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri, mashaqqatli mehnati va uning natijalari ilmiy o'rganilmagan va yoritilmagan. Ammo, shunga qaramasdan, sovet jamiyatida totalitar rejim kuchaygan bir sharoitda yaratilgan

tarixiy adabiyotlarda sovet hokimiyatining milliy respublikalarida, jumladan, O'zbekistonda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini aks ettiruvchi fikrlar va ma'lumotlar uchraydi.

M.Muhammadjonov, T.O'ljaboyev, M.Mamedov, S.Rodichev, B.Firsonlarning tadqiqotlarida dunyo paxtachiligining tarixi, uning navlari, jahon iqtisodiyotidagi o'rni, sanoat korxonalarini paydo bo'lishi va o'sib borishidagi ahamiyati, AQSh paxtachiligiga bog'liqligi, respublikada sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning taraqqiy etishi tahlil etib berilgan[9]. H.Saidovning tadqiqoti paxtachilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri, yangi yerlarni o'zlashtirilishi, kolxoz va sovxozlarning tashkil topishi to'g'risidagi manbalarni tahlil etishi bilan muhim ahamiyatga ega[16].

H.Ziyoyevning O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siriga bag'ishlangan ilmiy monografiyasida o'zbek paxtasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, paxta yetishtirishda o'zbek dehqonchiligining madaniyati, mehnatsevarligi tarixiy manbalar asosida bayon etilgan[3].

A.Razzoqovning asarida esa sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'sirini o'rganish davrida O'zbekiston mehnatkashlarining kurashi ikki davrni – birinchisi, sovxozlarning tashkil topishi (1928-1940-yillar boshida), ikkinchisi, sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada rivojlanish (1940-1980-yillar) davrlarini o'z ichiga oladi, deya ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu asarda birinchi besh yillik (1929-1932 yillar) yakunida SSSR ning mustaqilligiga erishuvi manbalar asosida ochib berilgan[12].

XX asr 50-70 yillaridagi tadqiqotlarda O'zbekiston sovxozlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'sirini kompleks bilan bog'liq holda rivojlantirish masalalari umumiy tarzda bayon etilgan[13,14]. Shu bilan birga, mazkur adabiyotlarda sovet mafkurasi ta'siri ostida O'zbekistondagi sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

taraqqiyotining faqat ijobiy tomonlarigina yoritilgan. Shuningdek, V.Vengrskiyning tarixiy tadqiqotida Surxondaryo viloyatidagi MTS larning moddiy-texnik ta'minoti mustahkamlanishi, sovxozlarda bo'linmas fondlarining o'sishi, Uchqizil suv omborini qurilishi, paxtaga haq to'lash kabi ma'lumotlar bayon etilgan[2]. I.Kimning asarida paxta ekin maydonlarining o'sib borishi, sovxozlarda ishlab chiqarish samaradorlik darajasining pastligi, yoshlarni paxta yetishtirishga jalb etilishi, surxondaryolik yosh mexanizatorlarning faolligi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan[7].

Sovet hokimiyatining 1930-1960 yillarda O'zbekistonda sovxozlarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy ettirish maqsadida irrigatsiya tizimini rivojlantirish, cho'llar, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish sohasida amalga oshirilgan ishlarini aks ettiruvchi kitob va maqolalar tahlil qilinayotgan adabiyotlar guruhini tashkil etadi[4]. Sovet davrida janubiy hududlarda sug'orma dehqonchilik tarixi bo'yicha yaratilgan adabiyotlarning aksariyati biryoqlamaligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat shuki, bu asarlarda ko'proq mustabid tuzumning agrar siyosatini ulug'lash, mavjud kamchilik va nuqsonlarni xaspo'shlash kabi holatlar ustun turadi. Ulardan V.Smironov, M.N.Rojdestvenskiy, M.M.Krilov kabi mualliflarning asarlarini qayd etish mumkin[15]. Bu asarlar sovet hokimiyati mafkurasi ta'sirida yozilgan bo'lib, tabiiyki, qator noxolisliklar mavjud. Lekin 4 jildlik «O'zbekiston irrigatsiyasi»[6] asari keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Sababi, unda O'zbekistondagi 1980-yillargacha bo'lgan davrda sovxozlarni tashkil topishi va yanada rivojlanishda boshchilik qilgan mashhur irrigatorlar hayoti tadqiq etildi.

O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni yanada yaxshilash borasida iqtisodiy omillar, hosildorlikni ko'tarish va yangi navlarni yaratish, sovxozlarni moddiy texnik bazasini yaxshilash va uning natijalari xususida muhim tarixiy adabiyotlar yaratildi[19].

1970-1980 yillarda Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi yuzasidan bir qancha asarlar yaratildi. Professor I.Xoliqovning monografiyasida Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi, suv omborlari va kanallar qurilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar taqdim etilgan[17]. Bu o'rinda Z.U.Choriyevning tadqiqoti e'tiborga loyiq[18]. Unda muallif Surxon-Sherobod vohasida sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri va sovxozlarni rivojlantirishning o'ziga xos tomonlarini ishonchli manbalar asosida yoritishga harakat qilgan.

Demak, XX asrning 20-80-yillarda sovet hukumati O'zbekistonda amalga oshirgan sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga oid yakkahokimligi siyosatining sabablari, uning mohiyati va mazmunini ilmiy tahlil etish dolzarb masala hisoblanadi. Surxon vohasi aholisi yer-suv islohotlari, yalpi jamoalashtirish, ommaviy repressiyalar, yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta yakka hukmronligi, qishloq xo'jaligida g'allachilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik ulushining pasayishi, «o'zbeklar ishi» kabi turli xil ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'z boshidan kechirgan edi. «O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lgani barchaga yaxshi ma'lum»[1].

Mustaqillik yillarida Surxon vohasi tarixiga oid muhim ilmiy monografiyalar nashr etildi. Jumladan, A.N.Ro'ziyev va S.Tursunov tomonidan chop ettirilgan bir qator monografiyalarda Surxon vohasida sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar ilmiy tahlil qilingan.

O'zbekistonda sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ilmiy tahlil qilish, paxtachilikdagi dolzarb masalalarni ijobiy hal etish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ma'muriy-buyruqbozlik siyosatiga to'liq chek qo'yish, mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish, qishloq xo'jalik mehnatkashlarining ishini huquqiy jihatdan himoyalashda 2009-yil O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot

institutining 80 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

N.Urunovning tadqiqotlarida Hazarbog' sovxozining tashkil topishi, Buxorodan ko'chirib keltirilgan aholining turmush tarzi tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan.

H.Ziyoyevning ilmiy tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi va sovet tuzumining O'rta Osiyoda hukmronlik qilishdan manfaatli, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ko'rsatgan salbiy oqibatlarini ko'rsatib o'tilgan. O.Komilovning dissertatsiyasida XX asr ikkinchi yarimida sovet hokimiyatining O'zbekiston irrigatsiya tizimida amalga oshirgan ikkiyoqlama siyosati, sovxozlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri, uning sug'orish sohasidagi deformatsiya jarayonlariga ta'siri xolislik tamoyili asosida yoritib berilgan. Shuningdek, sug'orma dehqonchilik madaniyatining o'ziga xos

an'analari, yangi yerlarni o'zlashtirish irrigatsiya va ijtimoiy hayot sohalaridagi ziddiyatli holatlar ilmiy tahlil etilgan.

A.Abdullayevning dissertatsiyasida yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, mexanizatsiya ishlarining paxta monokulturasiga bo'ysundirilishi, turg'unlik holatining kelib chiqishi xolisona yoritib berilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytish kerakki, Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab sovxozlarning tashkil etilishi, sovxozlar tashkil etish jarayonida olib borilgan «quloqlashtirish», surgun qilish va ko'chirish siyosatining mohiyati va maqsadlari kabi masalalarni ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 5.
2. Венгерский В. Ўзбекистонда пахтачиликнинг ривожланиши. –Тошкент: Ўзбекистон ССР сиёсий ва илмий билимлар таркатувчи жамияти. 1968.
3. Зиёев Х. Ўзбекистон пахтачилиги тарихидан. –Тошкент: Фан, 1960.
4. Зиядуллаев С.К. Важные вопросы строительства в освоение голодной степи. – Ташкент, 1957.
5. Иванов С.А. Орошение целинных земель Голодной степи. – Ташкент, 1957; Шерстобитов В.П. Народное движение на освоении Голодной степи (1939-1941). – Фрунзе: Илим, 1967.
6. Ирригация Узбекистана. В 4-х томах. – Ташкент, 1975-1979-1981 гг.
7. Ким И. Ўзбекистонда пахтачилик ривожининг социал-иқтисодий асослари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1975.
8. Крылов М.М. К схеме естественно-исторического районирования Голодной степи // Известия УзФАН, 1941. –№3.
9. Мухаммаджонов М, Ўлжабоев Т., Мамедов М., Родичев С., Б., Фирсон Б. АҚШ пахта плантациялари. –Тошкент, 1960.
10. Непомнин В.Я. Очерки по истории социалистического строительства в Узбекистане (1917-1937 гг.). – Ташкент: 1967.
11. Рождественский М.Н. Освоение прелогов в хлопковых районах. –Ташкент, 1939.\
12. Раззаков А. Борьба трудящихся Узбекистана за достижение хлопковой независимости СССР. – Ташкент: Фан, 1968.
13. Ризаев Г. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: 1957.
14. Ризаев Г. Аграрная политика советской власти в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1967.

15. Смирнов В. Орошение Голодной степи // Народное хозяйство Казахстана. 1932. – №2-3.
16. Саидов Х. Оқ олтиннинг оқ йўли. 1-қисм. –Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти. ГБ УзССР, 1963.
17. Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Ташкент: Фан, 1977.
18. Чориев З.У. Ривожланган социализм даврида Сурхон-Шеробод воҳаси кўрик ерларини ўзлаштириш тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1983.
19. Ўзбекистон пахтачилиги тарихидан. –Ташкент: Фан, 1980.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI QURILISH SOHASI TARIXIDAN

Mirzayev Xusniddin Xolmo‘minovich,

Surxondaryo viloyati Termiz shahar kasb-hunar maktabi

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktori o‘rinbosari,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0009-9116-5829>

Annotatsiya: Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng qurilish majmuasi, qurilish va pudrat ishlarini tashkil etish sohasida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror va mutanosib rivojlanishi uchun qurilish majmuasini bozor talablariga muvofiq rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini keng ko‘lamda rivojlantirish, zamonaviy fan-texnika yutuqlari talablariga javob beradigan qurilish materiallarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hamda qurilish infratuzilmasini takomillashtirish soha oldidagi strategik vazifa qilib belgilandi

Kalit so‘zlar: qurilish majmuasi, “O‘zqurilish materiallari” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Uzun ixtisoslashtirilgan uy-joy qurilish” korxonasi, temir-beton.

Аннотация: После обретения независимости нашей страны в сфере строительного комплекса, строительных и подрядных работ осуществляются глубокие структурные изменения. Особое внимание уделяется развитию строительного комплекса в соответствии с требованиями рынка для стабильного и пропорционального развития отраслей экономики. В частности, в качестве стратегической задачи отрасли определены масштабное развитие сети производства строительных материалов, подготовка строительных материалов, отвечающих требованиям современных научно-технических достижений, совершенствование строительной инфраструктуры.

Ключевые слова: строительный

комплекс, акционерное общество «Узкурилиш хурилиш», «Узсаноаткурилишбанк», предприятие «Узунское специализированное жилищное строительство», железобетон.

Abstract: After the independence of our country, deep structural changes are being implemented in the field of construction complex, construction and contracting works. Special attention is paid to the development of the construction complex in accordance with the market requirements for the stable and proportionate development of economic sectors. In particular, the development of the construction materials production network on a large scale, the preparation of construction materials that meet the requirements of modern scientific and technical achievements, and the improvement of the construction infrastructure were defined as a strategic task for the sector.

Key words: construction complex, "Uzkurilish khurilish" joint stock company, "Uzsanoatkurilishbank", "Uzun specialized housing construction" enterprise, reinforced concrete.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Shiddat bilan qad ko‘tarayotgan ijtimoiy obyektlar, ko‘p qavatli turar joylar va umuman olganda, barcha turdagi bunyodkorlik ishlari o‘z navbatida sifatli qurilish mahsulotlariga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yangi turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish, sohaga investorlarni keng jalb qilish orqali yirik loyihalarni amalga oshirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar

amalga oshirib kelinyapti. Buning natijasida sohada jiddiy o'zgarishlar yuz beryapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

S.N.Tursunov, A.H.Aramov, A.Q.To'xtayevlar tomonidan tayyorlangan "Surxon vohasi quruvchi bunyodkorlari tarixidan" deb nomlangan monografiyada vohaning qadimgi davrdan to hozirgi davrgacha qurilish tarixi va uning bosqichma-bosqich rivojlanishi, me'moriy obidalarining turlari, uning o'ziga xos shakl va bezaklari, mustaqillik yillarida qurilish sohasida erishilgan yutuqlar, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan quruvchilarga oid manbalar xolisona bayon etilgan. Bundan tashqari qurilish sohasi tarixini yoritishda davriy matbuot va arxiv hujjatlarining ham o'zni katta va bu manbalardan biz maqolani yozish jarayonida unumli foydalandik.

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2004-yilga kelib, qurilish sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,8-7,0 foiz miqdorida bo'lib, kapital qurilish hajmi va o'sish sur'atlari bo'yicha Hamdo'stlik (MDH) davlatlari ichida oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning 2003-yil 6-maydagi "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishari to'g'risida"gi Farmoni talablarini bajarish yuzasidan hamda bozor munosabatlarini rivojlantirish, qurilishda narxlarni shakllantirish, investitsiya jarayonining barcha qatnashchilarida pirovard natijalar, investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli hamda 2003-yil 3-iyuldagi 302-sonli qarorlari qabul qilindi.

Ushbu jarayonlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- xususiy qurilish firmalari tashkil etilishini rag'batlantirish, qurilish sohasida kichik korxonalarni va tashkilotlarni tuzish. Bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

- kapital qurilishda loyiha va pudrat ishlari bozorini tashkil etish, shartnomaviy

munosabatlar rolini oshirish, qurilish va loyiha ishlarini bajarishga buyurtmalarni faqat tender orqali joylashtirish, qurilishni tashkil qilishning asosiy shakli sifatida inshootni to'liq qurib bitkazishga o'tish;

- investitsiya loyihalarini tayyorlash darajasini oshirish, ularni tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartiblarini mukammallashtirish;

- qurilish me'yoriy-texnik asoslarini yangilash;

- sohaning barcha boshqaruv bo'g'inlarida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish, qurilish majmuasini bir-ikki bo'g'inli boshqaruv tizimiga o'tkazish orqali mukammallashtirish;

- ishlab chiqarishga samarali, tejamkor asbob-uskunalar va mexanizmlarni keng jalb qilish;

- qurilish, pudrat tashkilotlarida ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish;

- qurilish ishlarini bajarish muddatini qisqartirish va tannarxini pasaytirish hamda boshqa bir qator tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor qaratilmoqda.

Natijada mamlakatimizda qisqa vaqt ichida qishloqlarni kompleks rivojlantirish, namunaviy loyihadagi zamonaviy uy-joylar bunyod etishning mustahkam tizimi shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov insonning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi o'zgaras ekan, uning hayotga bo'lgan munosabati o'zgaraydi[4], deganida milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishni, sog'lom va barkamol avlodni, mustaqil fikrli yoshlarni tarbiyalashni bosh vazifa qilib belgilaganida, qishloqlarimizdagi paxsa devorli, ko'rimsiz uylar o'rnida namunaviy loyiha asosidagi zamonaviy uy-joylar qurish harakatini boshlaganida xalqimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, o'z-o'zimizni qadrlash, hech kimdan kam bo'lmay yashash maqsadini ilgari surgani bugun barchamizga yaxshi ayon bo'lmoqda.

O'tgan yillar davomida bizning dunyoqarashimiz, ong-u shuurimiz o'zgardi. Bu mamlakatimizning, xalqimizning istiqlol

yillarida erishgan eng buyuk natijalaridandir. Bu o'zgarishlarni qishloqlarimiz timsolida yanada yorqinroq ko'rishimiz mumkin.

Istiqlolning ilk yillaridan Yurtboshimiz qishloq infratuzilmasini yaxshilashga, aholining turmush farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Natijada minglab qishloqlarimiz toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlandi. Tekis va ravon yo'llar, ko'priklar barpo etildi. Zamonaviy kasb-hunar kollejlari, maktablar, maishiy xizmat va savdo shoxobchalari qishloqlarimiz chiroyiga chiroy qo'shmoqda.

Aholi salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ommaviy va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar samarasida o'tgan yillar davomida qishloqlarimizda 3 ming 200 ta qishloq vrachlik punktlari, mingdan ortiq sport inshootlari bunyod etildi[4].

Bunday ezgu ishlarning barchasi inson manfaatlarini ta'minlashdek olijanob maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bois qishloq joylarda infratuzilma tarmoqlari - uy-joy qurilishi, tabiiy gaz, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti, yo'llarning holatini yaxshilash, transport va kommunikatsiya xizmatlarini yanada rivojlantirishga, qisqacha aytganda, qishloq hayotining sifati va madaniyatini yangi pog'onaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qishloqqa sanoatni, xizmat va servis shoxobchalarini olib kirish, ixcham va zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan qayta ishlash korxonalarini barpo etish va shu hisobdan qishloq aholisi, avvalambor, yoshlarni ish bilan ta'minlash, odamlarning daromadi-yu farovonligini oshirish borasidagi ishlar o'z samarasini berayotir.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, barchamizning ildizimiz, tomirimiz, avvalambor, qishloq zaminiga borib taqaladi. Vatan degan ulug' va muqaddas tushuncha odamzod uchun go'yoki qishloq timsolidan boshlanadi. Yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishi, Eng avvalo qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bog'liqdir.

Namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurish harakati qishloq hayotining saviyasi va madaniyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng oliy bosqichi bo'ldi. Bu olamshumul islohot bizning qishloq haqidagi tasavvurimizni, qarashlarimizni, qishloq va qishloq ahliga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartirib yubordi.

2009-yil 3-avgustdagi Birinchi Prezident I.Karimovning "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi, ko'lamlıni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori asosida belgilangan, qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylar qurish borasidagi harakat endilikda ommaviy tus oldi[5]. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tavsiyasi bilan yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihalarining qulaylik nuqtai nazaridan qaytadan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari maydonini olti sotix qilib belgilash to'g'risida qaror qabul qilingach, bunday uylarga qiziquvchilar soni yanada ortib bormoqda.

2010-yili mamlakatimizda 159 ta tumandagi 223 ta qishloq massivida 6800 ta ana shunday uy-joy barpo etilib egalariga topshirildi[5]. Ushbu maqsadlarga qariyb 430 milliard so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar, jumladan 250 milliard so'mdan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. Bu mablag' 2009 yildagiga nisbatan 9 barobar ko'p bo'ldi[4].

Qishloqlarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi Dasturi doirasida so'nggi besh yilda (2009-2014 yy) mamlakatimizning 159 qishloq tumanida 900 dan ziyod yangi qishloq uy-joy massivlari barpo etilib, namunaviy loyihalar asosida maydoni 4.5 million kvadrat metr bo'lgan 33,5 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Shu bilan birga, qishloq joylarda barpo etilgan yangi massivlarda 760 kilometr avtomobil yo'llari, uzunligi 1,6 ming km dan ziyod ichimlik suvi quvurlari, 1,2 ming km elektr va gaz ta'minoti tarmoqlari, 800 dan ortiq ijtimoiy, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi obyektlari qurildi[6].

Yangi qishloq massivlarining barpo etilishi ijtimoiy obyektlar, jumladan zamonaviy maktablar, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, bolalar sport maydonlari va boshqa inshootlar qurish, umuman, infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz qishloqlarida namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirish dinamikasi (milliard so'm miqdorida)

2010 yil-428,9 milliard so'm

2011 yil-576,5 milliard so'm

2012 yil-906 milliard so'm

2013 yil-1,400 milliard so'm miqdorida uy-joy qurilishi moliyalashtirildi[7].

Xalqaro ekspertlarning fikricha, qo'lga kiritilgan bunday yuqori ko'rsatkich O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganidan, ayniqsa, qurilish industriyasida kechayotgan jadal o'zgarish va yangilanishlardan dalolat beradi. Chunki ulkan inshootlarning tez va sifatli tiklanishi qurilish materiallari bilan qay darajada ta'minlanishiga bog'liq. Shu ma'noda, mamlakatimiz bunyodkorlarining omadi chopgan.

Ularning asosiy qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojining 70 foizi o'z tarkibiga 100 dan ortiq korxonani birlashtirgan "O'zqurilish materiallari" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan kafolatli ravishda yetkazib berilyapti. Respublikamiz bo'yicha 2011-yilning yanvar-sentyabr oylarida 828 ta ishlab chiqarish obyektlari foydalanishga topshirilgan bo'lsa, shuning 234 tasi qurilish materiallari sohasiga to'g'ri keldi[8]. Bunda mahalliy lashtirish Dasturi doirasida hayotga tatbiq etilayotgan loyihalarning ahamiyati ayniqsa katta bo'layotir. Dastur doirasida 2011- yilning to'qqiz oyi ichida 30 turdagi mahsulotlar mahalliy lashtirildi.

Qumqo'rg'on tumanidagi "Surxon" kombinati mehnatkashlari temir-beton buyumlari ishlab chiqarish bilangina chegaralanib qolmay, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini ko'paytirish, xorij investitsiyasini joriy etish hisobiga yangi ish o'rinlari barpo qilishga katta e'tibor berilyapti. Korxonada 2008 yili xitoylik

hamkorlar bilan birgalikda shifer tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'tgan vaqt davomida talab va taklifdan kelib chiqib aholi va qurilish tashkilotlari uchun o'ta zarur buyum sifatini yaxshilash choralarini izlashmoqda.

Shu paytgacha alibaster va sement qorishmasini tayyorlashda oddiy usul qo'llanilgan bo'lsa, endilikda shifer tayyorlashning shu jarayoniga yangi texnologik uskunalar o'rnatildi. Korxonada har oyda avvalgidek 700 ta emas, 2000 dona sifatli shifer ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi[9]. 2011-yili korxonada uchun "O'z sanoatqurilishbank" dan milliard so'm kredit olib, yangi texnologik liniyalar sotib olindi.

Natijada korxonada 2010-yili 3 milliard so'mlik qurilish mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lsa, shulardan 2 milliard so'mligini temir-beton mahsulotlari tashkil qildi[10]. Namunaviy loyiha asosida qurilayotgan uy-joylarni pishiq g'isht bilan yetarli darajada ta'minlashga hissa qo'shayotgan xususiy korxonalaridan biri Denov tumanidagi "Boboqul O'roqov" xususiy korxonasi 2009-2010 yillarda 1,5 million dona devorbop material, pishiq g'isht yetkazib berdi. Kichik korxonada kuniga AG-21 qurilish agregati yordamida 30-35 ming dona g'isht ishlab chiqarmoqda. Korxonada ishchilar uchun bepul issiq ovqat, ishchilarni tashish uchun esa avtobus tashkil qilindi, ishchilar rag'batlantirib kelinmoqda.

Sariosiyo tumanida "5-Sariosiyo qurilish" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ida blok g'isht ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun 100 million so'm sarflandi. Yigirma kishi mehnat qilayotgan kichik korxonada jamoasi hududdagi qurilish tashkilotlariga dastlabki 60 ming dona sifatli devorbop material yetkazib berdi[11].

2011-yili Uzun tumanidagi "Jayxun Amur servis" xususiy korxonasida turli o'lchamdagi mixlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 145 million so'mlik mablag' evaziga amalga oshirilgan ushbu loyiha tufayli oyiga 15 million so'mlikdan ortiq qurilish materiallari tayyorlash imkoniyati yuzaga keldi[12].

2011-yili Uzun tumanlik tadbirkor

Zokirjon Isoqov shag'al hamda qum saralashga mo'ljallangan, qiymati 500 million so'mlik texnologik liniyani ishga tushirdi. 20 kishi bandligi ta'minlangan ushbu kichik korxonada "Uzun ixtisoslashtirilgan uy-joy qurilish" korxonasida qisqa muddatda buyurtmachilarga 160 million so'mlik qurilish ashyolari yetkazib berildi[13].

Angor tumanidagi "Angorplast" kichik xususiy korxonasi qurilish obyektlariga sifatli mahsulotlar yetkazib bermoqda. Tadbirkor Rajab Sheraliyev rahbarligidagi kichik korxonada 12 turdagi penoblok va plitka ishlab chiqarilmoqda. O'nga yaqin kishi ish bilan ta'minlangan kichik korxonada qurilish materiallari turi yanada ko'paytirib borilmoqda[5;52].

2011-yili Qumqo'rg'on tumanida yana bir

kichik korxonada "Barakat" nomli qurilish korxonasida yangi pardozlash sexi 30 million so'mlik mablag' hisobiga ishga tushirildi. Yangi sexda kuniga 8 tonnagacha pardozlash materiallari ishlab chiqarilmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijada bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. Toshkent, Adolat, 2004.
2. Бозорбоев Н. Хушназаров Б. Қурилиш машиналари. — Т., 2001.
3. Сурхон воҳаси қурувчи бунёдкорлари тарихидан. Тузувчи муаллифлар С. Турсунов ва бошқ. Маъсул муҳаррир Т. Пардаев. – Тошкент: «Yosh avlod matbaa», 2022. – 162 б.
4. Халқ сўзи. 2011 йил, 14 июль, 116-сон, 2 б. 48.
5. Ўзбекистон овози. 2011 йил, 23 июнь, 75-сон, 3, 52 б.
6. Халқ сўзи. 2014 йил. 24 июнь. 121-сон. 1 б. 49.
7. Халқ сўзи. 2013 йил. 16 апрель. 72-сон.
8. Халқ сўзи. 2012 йил. 5 январь. 3-сон. 2 б. 50.
9. Сурхон тонги. 2009 йил, 10 апрель, 14-15 сон.
10. Правда Востока. 24 мая. 2011 г. № 100. 51.
11. Халқ сўзи. 2011 йил, 7 июнь, 11-сон.
12. Халқ сўзи. 2011 йил, 27 июль, 146-сон.
13. Халқ сўзи. 2011 йил, 19 июль, 140-сон.

SURXONDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR TIZIMI FAOLIYATIDAN LAVHALAR

Suvonov Jamshid Mashrab o'g'li
Termiz shahar IIB katta tezkor vakili,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
suvonovjamshid1993@gmail.com
UDK: 94(575.151):351.74"1991/2023"
<https://orcid.org/0009-0008-2997-1312>

Annotatsiya: Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda insoniyat tinchlik naqadar ulug' ne'mat ekanini tobora teran anglamoqda. Bu o'z navbatida davlat mexanizmining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan politsiyaning davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshiradi.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar tizimi, Surxondaryo akademik litseyi, Narkulov Rustam Yangibayevich, Allamurotov Sherxon Yo'liyevich.

Аннотация: В сегодняшние быстро меняющиеся времена человечество все больше осознает, насколько велико благо мир. Это, в свою очередь, повышает необходимость усиления позиции и роли полиции, которая является одним из основных звеньев государственного механизма, как органа, обеспечивающего государственное управление и безопасность граждан.

Ключевые слова: Система внутренних дел, Сурхандарьинский академический лицей, Наркулов Рустам Янгибаевич, Алламуротов Шерхан Ёллиевич.

Abstract: In today's rapidly changing times, humanity is increasingly realizing how great a blessing peace is. This, in turn, increases the need to strengthen the position and role of the police, which is one of the main links of the state mechanism, as a body that ensures public administration and security of citizens.

Key words: Internal affairs system, Surkhandarya Academic Lyceum, Narkulov Rustam Yangibayevich, Allamurotov Sherkhan Yollievich.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jamiyat tartibi va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi mavzularda dunyoning bir qator rivojlangan oliy o'quv yurt va ilmiy markazlarida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, umumnazariy jihatdan politsiya organlarining zamonaviy demokratik jamiyatdagi o'rni va roli funksiyalari, tizim va uslublari, politsiya faoliyatida xalqaro tajribani o'rganish va umumlashtirish, yuqori malakali menejment texnologiyalar, umumiy prinsiplar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa uning uyishgan shakllari davlatlar rivoji va xavfsizligiga jiddiy tahdid solishiga qarshi harakatlarda politsiyaning roli kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mustaqillik yillarida ichki ishlar tizimi faoliyatining tarixiy jihatlarini U.Tadjixanov, G.Raximov, B.G.Siddikov, M.Boboyev, O.Soatov, I.Yusupov, K.Davlatov, M.Abdullaev, M.Tillaev, A.Ermetov, Q.Qodirov, B.Allayorovlarning tadqiqot ishlari, monografiya va asarlarida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda O'z hissalarini qo'shgan ichki ishlar organlari xodimlari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2016-yilda mustaqil O'zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun 39 qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalish va tamoyillari belgilab berildi.

O'tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 6 qonun, Prezidentimizning 7 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi[5]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmoni[1] da keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to'planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor ichki ishlar organlari rahbarlarining parlament, deputatlar va keng jamoatchilik oldida o'z vazifalarining bajarilishi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilab berildi. Farmon bilan "Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi" ham tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi qarori bilan "Ichki ishlar vazirligi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi[6].

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-aprel kunidagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari bilan O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga malakali mutaxassislarni

yoshligidan tayyorlab, ular qalbida ichki ishlar sohasi uchun ko'nikmalarni hosil qilish, bilim saviyasini yuksaltirish maqsadida tashkil etilgan[3]

Ichki ishlar tizimi haqida gap ketganda, albatta sohada fidoyi mehnat qilgan hamda o'z xizmat vazifasini amalga oshirayotgan xodimlar faoliyatiga to'xtalmaslikning iloji yo'q.

Man shunday insonlardan biri iste'fodagi mayor **Alijon Dexqonov** 1956 yil 26 avgust kuni Farg'ona viloyatida tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti oliy, Toshkent Davlat universitetini tamomlagan. 1981 yil Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar ichki ishlar bo'limida oddiy militsioner lavozimidan ishlab boshlagan. 1982-1983 yillarda Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasiga qarashli uy A/1 muassasasida xizmat qilgan, keyinchalik 1983 yil may oyidan boshlab esa Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Ichki ishlar bo'limida voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektori, vzvod komandiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. Mustaqillikning ilk kunlarida, ya'ni 1990-1995 yillarda Termiz shahar ichki ishlar bo'limida uchastka inspektori, jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili va katta tezkor vakili vazifasida mehnat qilgan. 1996-1998 yillarda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi jinoyatlarni oldini olish bo'limida va Termiz tumani ichki ishlar bo'limi jinoyatlarning oldini olish bo'limi boshlig'i lavozimlarida faoliyat olib borgan. 1998 yildan boshlab 8-son tergov hibsonasi boshlig'ining targ'ibot va qo'riqlash ishlari bo'yicha o'rinbosari vazifasida xizmat qilib, 2000-yil oktyabr oyida iste'foga chiqqan, hozirda nafaqada bo'lsa-da Termiz tumani IIB Faxriylar kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritib, tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zini munosib hissasini qo'shib kelmoqda, iste'fodagi mayor Dehqonov Alijon.

Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi iste'fodagi mayor **Narkulov Rustam Yangibayevich** 1967-yilda Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida tug'ilgan, millati

o'zbek, ma'lumoti O'rta maxsus, 1993-yilda Sobiq SSSR IIV Toshkent o'rta-maxsus militsiya maktabini tamomlagan, 1988-yilda Angor tumani Ichki ishlar bo'limi huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasi markaziy pulti militsioner-haydovchisi lavozimida ishlab boshlagan. 1993-1997 yillar Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, 1997-2001 yillar Surxondaryo viloyati Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi profilaktika bo'linmasi katta inspektori, 2001-2020 yillar Termiz tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhining katta eksperti lavozimlarida ishlagan. Tuman Ichki ishlar bo'limida uzoq yillar mobaynida xizmat qilib, nafaqaga chiqqanidan so'ng ham ayni paytda o'zlarining qadrli vaqtlarini ayamasdan, bo'limga tez-tez tashrif qilib, yosh avlod, mustaqillik yillarining yosh xodimlariga o'zlarining hayotiy tajribalari va xizmat sirlaridan ulashayotgan faxriylarimizdan biri, Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi iste'fodagi mayor Rustam Narkulovdir. Mayor R.Narkulov 1991-2020 yillar Termiz tumani Ichki ishlar bo'limida qator lavozimlarda ishlaganligini, xizmat davrlari tumanning kriminogen vaziyatlarni izga solishda o'z hissasini qo'shganligini, xodimlarning tashabbusi va jonbozligi bilan qo'yilgan vazifalar Respublikada birinchilardan bo'lib bajarilgani to'g'risida iste'fodagi mayor R.Narkulov faxrlanib eslaydi[45].

Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi iste'fodagi mayor **Novruzov Mamarasul Ziyayevich** 1963-yilda Surxondaryo viloyati, Denov tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti o'rta maxsus, 1988-yilda SSSR IIV Krasnodar o'rta-maxsus militsiya maktabini tamomlagan, 1983-1986 yillarda Muzrabot tumani Ichki ishlar bo'limida militsioner-haydovchisi lavozimidan ishlab boshlagan. 1988-1989 yillarda Viloyat IIB DAN bo'limi YPX alohida rotasining YPX katta inspektori, 1989-1996 yillar Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani Ichki ishlar bo'limi DAN bo'linmasining ma'muriy amaliyot inspektori, 1996-1999 yillar Viloyat JTSX DAN bo'limi YPX guruhi katta inspektori, 1999-2001 yillarda Qiziriq tumani IIB JTSX DAN bo'linmasining DAN

inspektori, 2001-2006-yillarda Termiz tumani IIB avtotransport texnik holati ulardan foydalanish nazorat etish guruhining ma'muriy huquqbuzarliklar materiallarini ko'rib chiqish bo'yicha inspektori, 2006-2009 yillarda Termiz tumani IIB shaxsiy tarkib bilan ishlash kasbiy va jangovar tayyorgarlik bo'yicha katta inspektori lavozimlarida xizmat qilgan. Tuman Ichki ishlar bo'limida uzoq yillar mobaynida xizmat qilib, nafaqaga chiqqanidan so'ng ham ayni paytda o'zlarining qadrli vaqtlarini ayamasdan, bo'limga tez-tez tashrif qilib, yosh avlod, mustaqillik yillarining yosh xodimlariga o'zlarining hayotiy tajribalari va xizmat sirlaridan ulashayotgan faxriylarimizdan biri, Termiz tumani Ichki ishlar bo'limi iste'fodagi mayor Novruzov Mamarasuldir. Mayor M.Novruzov 1983-2009-yillar Termiz tumani Ichki ishlar bo'limida qator lavozimlarda ishlaganligini, xizmat davrlari tumanning kriminogen vaziyatlarni izga solishda o'z hissasini qo'shganligini, xodimlarning tashabbusi va jonbozligi bilan qo'yilgan vazifalar Respublikada birinchilardan bo'lib bajarilgani to'g'risida iste'fodagi mayor M.Novruzov faxrlanib eslaydi.

Podpolkovnik **Buriyev Baxtiyor Vaxabovich** 1983-yil 30-dekabr kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tug'ilgan. Millati tojik, ma'lumoti oliy, mutaxassisligi huquqshunos. 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasini tamomlagan. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-aprel kunidagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentyabr

kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari bilan O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga malakali mutaxassislarni yoshligidan tayyorlab, ular qalbida ichki ishlar sohasi El tinchligi yurt boyligi 52 uchun ko‘nikmalarni hosil qilish, bilim saviyasini yuksaltirish maqsadida tashkil etilgan[4].

Mayor **Allamurotov Sherxon Yo‘lijevich** 1986-yil 20-may kuni Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy, mutaxassisligi huquqshunos. 2011-yilda. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasini tamomlagan. Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini El tinchligi yurt boyligi 53 Qumqo‘rg‘on tumani. IIB Jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘linmasi tezkor vakili lavozimida boshlagan. 2013-2021 yillarda. Surxondaryo viloyat IIB jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasida samarali xizmat olib borgan va hozirgi kunda Jarqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limida ishlab kelmoqda.

Podpolkovnik **To‘rayev Djo‘rabek Muxammadijevich** 1985-yilning 30-iyun kuni Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy, mutaxassisligi huquqshunos. 2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasini tamomlagan, 2007-2021 yillarda Surxondaryo viloyati Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on va Bandixon tuman IIBlarida turli lavozimlarda samarali xizmat olib borgan. 2021-2022 yillarda. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistraturasi tinglovchisi bo‘lgan va hozirgi kunda Jarqo‘rg‘on tumani

ichki ishlar bo‘limida ishlab kelmoqda.

Mayor **Xudayberdiyev Ismoil Bo‘rijevich** 1983-yil 10-oktyabr kuni Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy. 2006-2007 yillarda IIV Akademiyasi serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kursi tinglovchisi bo‘lgan. 2007-2021 yillar davomida Surxondaryo viloyati IIB Yo‘XB, Jarqo‘rg‘on tumani IIB, Termiz tumani IIBlarida turli lavozimlarda samarali xizmat qilib kelgan. 2021 yil fevral oyidan hozirgi kunda Jarqo‘rg‘on tumani IIB boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.

Podpolkovnik **Nazirov Saydulla Fayzullayevich** 1981-yilning 25-oktyabr kuni Sho‘rchi tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy, mutaxassisligi huquqshunos. 2002-yil IIV Akademiyasini tamomlagan, 2002-2021 yillarda Surxondaryo viloyatining Bandixon, Denov, Jarqo‘rg‘on, Termiz tumani IIBlari va viloyat IIBda turli lavozimlarda samarali xizmat qilgan. 2021-2022 yilda. IIV Akademiyasi magistraturasi tinglovchisi bo‘lgan va hozirgi kunda Jarqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limida ishlab kelmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytish mumkin, qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi yetarli malakaga ega bo‘lgan kadrlar bilan jamlandi, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Natijada mamlakatda jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatlarda ochilishiga erishildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг маъсулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>

2. Q.Qodirov. “Mustaqillik davrida O‘zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991-2011 yillar) mavzusidagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2019. 158-bet.

3. X.K.Boymirzayev O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati, o'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan, 2022. – 64 b.
4. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi materiallari.
5. <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>
6. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/iiv_tugrisidagi_yangi_nizom_tasdiqlandi.

SURXON VOHASI AHOLISINING DEMOGRAFIK JARAYONLARI O'RGANILISHI TARIXSHUNOSLIGI

Ermuratov Ergash Chorshanbi o'g'li

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

ergashermuratov94@gmail.com

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0003-0676-0027>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 20-40-yillarda Surxon vohasi aholisining demografik jarayonlar va uning o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil etilgan. Arxiv ma'lumotlari, statistik hamda arxiv ma'lumotlar asosida aholi soni, milliy tarkibi va boshqa demografik holatlaridagi muammolarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sovetlar, Surxondaryo, Termiz, kollektivlashtirish, aholi demografik jarayonlari, yer-suv islohoti.

Abstract: In this article, the demographic processes of the inhabitants of the Surkhan oasis in the 20s-40s of the 20th century and its specific aspects are scientifically analyzed. On the basis of archival data, statistical and archival data, specific aspects of population, national composition and other demographic issues are highlighted.

Key words: Soviets, Surkhandarya, Termiz, collectivization, population demographic processes, land and water reform.

Аннотация: В данной статье научно анализируются демографические процессы жителей Сурханского оазиса в 20-40-е годы XX века и их специфические аспекты. На основе архивных, статистических и архивных данных освещаются особенности народонаселения, национальный состав и другие демографические вопросы.

Ключевые слова: Советские, Сурхандарьинская область, Термез, коллективизация, демографические процессы населения, земельно-водная реформа.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf

olim Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakatning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga, M. Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarini ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirilgan. O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga Is'hoq Rashidovich Mullajonov, Xojiakbar Salimovich Salimov, Ra'no Axatovna Ubaydullayeva, Ozod Bobomirzayevich Ota-Mirzaev, Erkin Agzamovich Axmedov, Lyudmila Petrovna Maksakova, Mamlakat Rahmonovna Bo'riyeva, Abduhakim Abduhamidovich Qayumov, Abdusami Soliyevich Soliyev, Ravza Bayanovna Murtazina, Zulxumor Nazarovna Tojiyevalar ham katta hissa qo'shgan[1;16].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Mavzuga oid ilmiy tadqiqot va adabiyotlar taxlili ularni turli davrlarga doir quyidagi guruhlariga ajratib kurib chiqishimizga imkom beradi:

1. Sovetlar hukmronligi davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlar.

2. O'zbekiston mustaqilligi yillaridagi ilmiy izlanishlar va nashr etilgan adabiyotlar.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Voha aholisining XIX-XX asr boshlaridagi etnik tarkibi, aholining voha hududlari bo'ylab joylashuvi, an'anaviy mashg'ulotlari, hunarmandchilik turlari, qishloq xo'jaligi va savdo aloqalarida A.Najimov, I.M.Oranskiy, K.Shoniyoov, G.Borozna, B.X. Karmisheva, I.Xidoyatov singari olimlar bir qator tadqiqotlar olib

borishgan.

T.G.Tuxtametrovning tadqiqotlari ham Buxoro-Rossiya munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning asarlarida voha tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi. Muallif o'z tadqiqotlarida Buxoroda Rossiya imperatori siyosiy agentligining ta'xis etilishi, voha hududi (Termiz)ga rus savdogarlari va fuqarolarining ko'chirib keltirilishi, vohaga sanoatning kirib kelishi, Kogon-Termiz temir yo'lining qurilishi, Amudaryo flotiliyasining ochilishi, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, paxta maydonlarining kengayishi, Buxoro yerlari ruslarga ijaraga berilishining salbiy va ijobiy jihatlarni tahlil etgan[3].

R. Xoliqovanning «Rossiya-Buxoro: tarix chorrahasida» nomli monografiyasida Rossiya imperiyasining Buxoroga nisbatan harbiy harakatlarining boshlanish sabablari va uning salbiy oqibatlari, Buxoro amirligining XIX

asr oxiri-XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi, iqtisodi ahvoli, jumladan, Boysun, Denov, Sherobod kabi shaharlarni (bekliklarning) ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Rustam Shamsutdinov «Qatag'on qurbonlari» (1937-yil 10-avgust 5-noyabr) Ikkinchi kitobida[5] va «Qishloq fojiasi, jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun» nomli kitoblarida butun respublikamizda, shuningdek, Surxondaryo hududida ham olib borilgan Sobiq Ittifoqning qatag'on siyosati qurbonlari haqida ko'plab ma'lumotlarni topishimiz mumkin[5;11].

1924-yilda milliy hududiy chegaralanish o'tkazilgan vaqtda Surxondaryoda 62,3 foiz o'zbeklar, 32,3 foiz tojiklar, 0,5 foiz ruslar, qolgan xalqlar esa 4,9 foizini tashkil etgan.

1-JADVAL. SURXONDARYO OKRUGI AHOLISI HAQIDA MA'LUMOT

t/r	Tuman	Markazi	Qishloq kengashlari	Aholi yashaydigan punktlar	Mavjud uy xo'jaliklari soni
1	Sariosiyo	Sariosiyo	22	133	6471
2	Boysun	Boysun	22	132	8367
3	Denov	Denov	33	163	10569
4	Sherobod	Sherobod	29	103	10109
5	Jarqo'rg'on	Jarqo'rg'on (Qora-qursoq)	14	64	7126
6	Pattakesar	Termiz	11	31	3158
7	Temiryo'ldan uzoqda joylashgan aholi yashash joylari		—	11	139

(Список населенных пунктов. Узбекской ССР 1928 года. Часть IX. Округ Сурхан-дарья.)

1926-yilda Toshkentda nashr etilgan «Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год» nomli kitobda O'rta Osiyoda joylashgan O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, aholisining joylashuvi, millatlar, boshqaruv tashkilotlari haqida ma'lumotlardan foydalanildi[7].

1927-yilda Samarqandda nashr etilgan «Материалы Всесоюзной переписи население 1926 г. в Узбекской ССР. Вып.

И. Поселенные итогов» kitobida 1926-yilda Butun Ittifoqda o'tkazilgan aholini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha qilingan ishlar haqida to'liq ma'lumot beruvchi kitob hisoblanadi. Unda O'zbekiston SSRda mavjud viloyatlar, tumanlar aholisi soni, millati haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan[8].

SSSR MIK va XKS ning 1930-yil 1-fevralidagi qaroriga asosan yerlarni ijaraga berish va yollanma mehnatdan foydalanish butunlay bekor qilindi. VKP(b) MK Siyosiy byurosining «Yalpi jamoalashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori (1930-yil 30-yanvar) asosida 1930yil 17

fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi MK tomonidan «Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida» qaror qabul qilindi. Kollektivlashtirish butun O‘zbekistonda bo‘lgani singari vohada hech qanday tayyorgarliksiz, shoshma-shosharlik bilan o‘tkazildi. Mahalliy partiya va sovet arboblarning o‘ylamay qilgan ishi katta xatoliklarga sabab bo‘ldi. Kolxozlar tashkil etilgan joylarda uy-joylar, mayda chorva mollari, parranda va hokazolarni tezlik bilan umumlashtirish nazarda tutilgandi. Sovet va partiya arboblarning zo‘ravonligi odamlarning sabr-kosasini to‘ldirib yubordi. Respublika bo‘yicha ommaviy g‘alayonlar boshlandi. Butun mamlakatda juda og‘ir vaziyat yuzaga keldi[2].

Tadqiqotning asosiy manbalaridan biri arxiv hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlaridagi hujjatlardan tashkil topgan. Buxorodagi siyosiy agentlik fondlarida Surxon vohasi tarixiga tegishli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalariga doir ko‘plab ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ulardan ham mavzuga oid zarur ma‘lumotlar olindi.

Ammo bu shaharlarda ham aholining ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash uchun yetarli darajada shart-sharoitlar mavjud bo‘lmagan. Janubiy vohalar bekliliklari hududlarida ijtimoiy turmush darajasidagi og‘ir sharoitlar, ko‘proq qishloq hududlarida ancha og‘ir darajada edi.

Ayniqsa, sovet hukumatining aniq bir maqsadga qaratilgan migratsiya siyosati, Stalin qatag‘onlari natijasida qariyb yigirmadan ortiq millat vakillarining Markaziy Osiyo mintaqasiga, shu jumladan,

O‘zbekistonga surgun qilinishi respublikada aholining milliy tarkibi hamda demografik holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. O‘rganilgan davrdagi demografik jarayonlarga oid manbalar shuni ko‘rsatadiki, sovet hukumati paxtaga bo‘lgan ehtiyojining kundan-kunga oshib borayotganini hisobga olib, qo‘shni viloyatlardan Surxon vohasiga aholini ko‘plab ko‘chirib keltira boshladi. 1918-yilga kelib, Termiz shahrida, og‘ir iqtisodiy ahvol tufayli 1000-1500 nafar aholi qolgan edi[4]. 1929-1930 yillardagi ichki migratsiya natijasida Andijon okrugidan Surxondaryo okrugiga 1 460 xo‘jalik ko‘chirib kelindi. 1929-1935 yillarda Surxondaryo okrugiga 2 137 nafar xo‘jalik ko‘chirib keltirilib, shundan 1 377 nafari Denov rayon markaziga, 760 nafari Sariosiyo rayon markaziga joylashtirildi. Surxondaryo okrugida migratsiya jarayonlarining tezlashishida O‘rta Osiyo temir yo‘li muhim rol o‘ynab, 1929-yil 25-martdagi teleqrammada 100 nafar ko‘chiriluvchi xo‘jalikni Termiz shahridan Denovga yetkazish masalasi qayd etilgan edi[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida ta‘kidlash kerakki, o‘lkada o‘tkazilgan yer-suv islohoti, kollektivlashtirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun ko‘chirilgan aholi xo‘jaliklari dastlab ijtimoiy turmush darajasida ko‘plab muammolarning mavjudligi ularning demografik holatlariga ta‘sir etgan. Bunday holatlar oqibatida janubiy hududlardagi bekliliklarda aholi ijtimoiy sharoitidagi o‘ziga xos kamchiliklar natijasida demografik jarayonlardagi muammolarning ortib borishi holatlari kuzatilgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdurahmonov X. va boshq. Demografiya: O‘quv qo‘llanma T.: Noshir, 2011. 16-bet.
2. D. T. Yakubova “O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari (1930-1990 yillarda Surxon vohasi misolida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz-2021.
3. F. Ochildiyev “Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar” T: Abu matbuot konsalt. 2008.
- 4, Mirzayev J. Termiz tarixi. – T.: Sharq, 2001.
5. R. Shamsutdinov “Qatag‘on qurbonlari”, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik

kompaniyasi bosh tahririyati T. – 2007.

6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 76-fond, 1-ro‘xat, 754-ish, 157-varaq.

7. “Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год” Тошкент. 1926. 900 бет

8. “Материалы Всесоюзной переписи население 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги” Самарканд. 1927. 441 бет.

9. Список населенных пунктов. Узбекской ССР 1928 года. Часть IX. Округ Сурхандарья. г. Самарканд. Издание ЦСУ УзССР 1929г. 26 б.

СУРХОНДАРЁ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРИ ТАРИХИ

Суёнов Акмал Қўлдошев

Термиз давлат университети

Жаҳон тарихи кафедраси мустақил тадқиқотчиси

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0002-2598-9911>

Аннотация: Мазкур мақолада Сурхон воҳаси аҳолисининг демографик жараёнлар ва унинг ўзига хос жиҳатлари илмий таҳлил этилган. Архив маълумотлари, статистик ҳамда архив маълумотлар асосида аҳоли сони, миллий таркиби ва бошқа демографик ҳолатларидаги муаммоларнинг ўзига хос жиҳатлар ёритилган.

Калит сўзлар: Аҳоли демографик жараёнлари, этнодемографик, урбанизация, Жанубий воҳалар, Сурхондарё, Термиз.

Abstract: In this article, the demographic processes of the inhabitants of the Surkhan oasis and its specific aspects are scientifically analyzed. On the basis of archival data, statistical and archival data, specific aspects of the population, national structure and other demographic issues are highlighted.

Key words: Population demographic processes, ethnodemographic, urbanization, Southern oases, Surkhandarya, Termiz.

Аннотация: В данной статье научно анализируются демографические процессы жителей Сурханского оазиса и его специфические аспекты. На основе архивных, статистических и архивных данных освещаются особенности населения, национальный состав и другие демографические вопросы.

Ключевые слова: Популяционно-демографические процессы, этнодемографические, урбанизация, Южные оазисы, Сурхандарьинская область, Термиз.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Мустақиллик йилларида тарихшунослик фанида Ўзбекистон тарихида юз берган

ижтимоий-иқтисодий, маданий ва сиёсий воқеаларни ҳолисона илмий таҳлил этиш алоҳида аҳамиятга эга бўлмоқда. Шунингдек, ўзбек халқининг урф-одатлари, кадриятлари билан боғлиқ демографик жараёнларни ўрганиш, ўзбек халқига хос бўлган хусусият ва анъаналарни ҳисобга олган ҳолда аҳоли сонининг ўсиши ва миграцион жараёнларни илмий тадқиқотлар нуқтаи назарида ўрганиш ва тадқиқ этиш долзарб масала бўлиб келмоқда. Жаҳон цивилизацияси тарихида алоҳида аҳамиятга эга бўлган Сурхондарё воҳаси ўзига хос демографик жараёнлар тарихига эга бўлиб, воҳада аҳолининг этник жараёнлари, аҳоли миграцияси, миллий таркибнинг ортиб бориши ва ўзига хос урбанизация жараёнларини ўрганилиши муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Республикамиз демографик тарихини ва аҳоли муаммоларини ўрганишда Муллажонов Р.И., Убайдуллаева Р.А., Аҳмедов Э., Ота-Мирзаев О.Б., Максакова Л.П., Солиев А.С., Али-Қориев Н.С., Салимов Х., Бўриева М.Р., Қаюмов А.А., Эргашев О.Э., Сатторов Э., Саидахмедов О., Муртазина Г., Раимжонов З.Х., Али-Ақбарова Н.М. каби олимлар олиб борган тадқиқотлар ҳам устоз М.Қ.Қорахонов бошлаган илмий изланишларни давоми сифатида Ўзбекистонда олиб борилган демографик тадқиқотлар тарихида алоҳида аҳамиятлидир.

Сурхондарё воҳасининг демографик тарихини ўрганишда Турсунов С., Пардаев Т., Холмўминов Ҳ., Қобулов Э., Якубова Д., Туропова М., Исаев О., Мирзаев Ж.,

Тўхтаев А., Рўзиев А.Н., Азимов М. шу каби олимларнинг изланишлари натижасида кўплаб янги манбаларга эга бўлди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Жанубий воҳалар демографик тарихига оид дастлабки тадқиқотлар асосан ушбу давридаги маҳаллий тарихшунослар, ижод аҳли, рус ҳарбий мутахассислари томонидан олиб борилган манбалар асос бўлиб, уларда Бухоро амирлигининг жанубий-шарқий бекликларидаги иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, ҳарбий аҳволига оид статистик маълумотлар, шунингдек маҳаллий манбалари, рус шарқшунослари, жумладан тарихчилар, саёҳатчилар ҳарбийлар томонидан ёзиб қолдирилган маълумотлар орқали таҳлил этилади. Ўрта Осиё аҳолисининг сони, миллий таркиби, ҳудудий жойлашувини аниқлаш мақсадида Россия ҳукумати бир қатор тадбирларни амалга оширди.

1897 йил кузда Россия империясининг Туркистон ўлкасида ўтказган биринчи умумий аҳоли рўйхатида аҳоли сони 5,3 миллион бўлиб, аҳолининг 35,75 фоизи ўзбеклар, 44,36 фоизи қозоқлар ва қирғизлар, 6,73 фоизи тожиклар, 4,98 фоизи туркманлар, 3,75 фоизи руслар, 2,26 фоизи қорақалпоқлар, 2,15 фоизи бошқа миллатлардан иборат бўлиб, Ўрта Осиё аҳолисининг миллий таркиби хилма-хил бўлганлиги аниқланди[4;58-59]. Демографик жараёнларининг асосини аҳолининг пайдо бўлиши, ўсиши ҳамда яшаш шароитини яхшиловчи иқтисодий омиллар ташкил этади. XVIII асрнинг ўрталарида Бухоро амирлиги аҳолиси асосан ўтроқ ва кўчманчи ҳаёт кечириб, улар сони ҳақида аниқ рўйхат олинмаган ҳамда аҳоли ижтимоий ҳимоя қилинмаган, шунингдек иқтисодий-маданий тадбирлар деярли амалга оширилмаган. XIX аср бошларига келиб, азалий чорвадор аҳолининг кўпроқ ўтроқликка ўтиши, маҳаллий турғун аҳоли билан ҳар жиҳатдан қўшилиб кетиш жараёни янада жадаллашди. Эндиликда нафақат сиёсий, балки иқтисодий жиҳатдан ҳам яхлит бир

ҳудудга айланган жанубий бекликлар аҳолиси ҳаётида деҳқончилик хўжалиги ўртасидаги мустақамланиш, бир-бирига боғлиқликнинг ортиб бориши муҳим аҳамиятга эга бўлди[1;100]. XX аср бошида Бухоро амирлиги ҳудуди 225.000 квадрат километрни ташкил қилиб, унинг аҳолисини сони 3.5 миллион кишига етиб, аҳолининг миллий таркибини ўзбек, туркман, қирғиз, қозоқ, тожик, яҳудий, араб ва бошқа элатлар ташкил этган[2;25]. Маълумки, XIX аср охири XX аср бошларидаги ижтимоий сиёсий жараёнларга оид тарихий, географик маълумотлар ва адабиётларда ушбу ҳудудлардаги жанубий-шарқий бекликларининг кўшиб олиниши, ҳамда маъмурий бошқарувига оид маълумотлар келтириб ўтилган. Шунингдек чор Россияси истилосидан сўнг бу ерларга келган кўплаб рус тадқиқотчилари, ҳарбий муҳандислари, шарқшунослари томонидан ёзилган ҳисоботлар ва эсдаликларидаги маълумотлар муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

XIX асрнинг 90-йилларидан бошлаб эски Термиз яқинидаги Паттакесар қишлоғига руслар келиб жойлаша бошлаган. 1914 йилга келиб Паттакесар (Термиз)да руслар 2,5 мингдан ошиб кетган. Улар билан бирга арманлар, татарлар ва бошқа миллат вакиллари ҳам яшашган. Маълумки, Бухоро амирлигининг жанубий-шарқий бекликларига дастлабки экспедитсия иштирокчилари сифатида 1875 йил Н.А.Маев ташриф буюриб, ўз саёҳатлари давомида қимматли маълумотлар ёзиб қолдирган. Унинг раҳбарлигидаги Ҳисор экспедицияси шарқий Бухоро ҳудудидаги барча бекликлардаги илмий-тарихий, этнографик тадқиқотлар натижасида аҳолининг сони, этник таркиби ва тарихи хусусида қимматли маълумотлар ёзиб қолдирган. Жумладан, Н.А.Маев ҳисоботларида Ҳисор ва Кулоб бекликларидаги аҳоли асосан ўзбек ва тожиклар ҳамда бошқа миллат вакиллари ташкил этишини кўрсатиб ўтган. 1878 йилда эса, кейинги экспедиция Шеробод ва Бойсун

бекликлари худудларида бўлиб, бу ердаги аҳолининг этник таркиби, жойлашуви хусусида қимматли маълумотлар ёзиб қолдирган.

Шуни аълоҳида таъкидлаш керакки, Термиз шаҳрининг 2500 йиллик юбилейи ҳамда Қарши шаҳрининг 2700 йиллиги юбилейи муносабати билан Ўзбекистон тарихига оид кўпгина илмий тадқиқот ишлари амалга оширилди. Жумладан, Термиз Давлат университети бир қатор профессор-ўқитувчилари томонидан нашрга тайёрланган “Сурхондарё тарих кўзгусида”, “Термиз тарихи”, “Термиз шаҳри тарихи”, “Сурхондарё этнографик-макон” асарлари, шунингдек Қарши шаҳрининг 2700 йиллигига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-назарий конференция материаллари ҳамда мустақиллик йилларида бир қатор олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда Қашқадарё ҳамда Сурхондарё воҳаларининг энг қадимги даврларидан то ҳозирги кунгача бўлган ижтимоий-иқтисодий ва маданий турмуш тарзи акс эттирилган тарихи ҳаққоний манбалар асосида ёритишга қаратилган тадқиқотлар бўлиб ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги тарихий демографик жараёнларнинг тарихига оид муҳим илмий монографиялар нашр этилди, жумладан Холмўминов Х. “Бухоро амирлигида жанубий худудларидаги тарихий демографик жараёнлар”, Рўзиев А.Н. “Сурхондарё вилояти”, Мирзаев З., Қобилов Э. “Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи”, Аннаев Т., Ш.Шайдуллаев “Сурхондарё тарихидан лавҳалар”, С.Турсунов ва бошқалар “Сурхондарё тарих кўзгусида”, “Сурхондарё тарихи” (хаммуалифликда) С.Турсуновнинг “Сурхондарё вилояти тарихини ўрганиш”, “Ўзбекистон тарихи ва маданияти - Сурхондарё этнографияси”, “Шерободликлар”, «Жарқўрғон», “Сурхондарё вилояти топонимлари” Ж. Мирзаевнинг «Термиз шаҳри тарихи». Азимов М. «Термиз тарихи» ва

П.Равшановнинг “Қашқадарё истиклол арафасида” каби ва бошқа кўплаб монографиялар нашр қилинган[5,6,7], бу асарлар ушбу мавзунинг тадқиқот ёритишда муҳим илмий манбалар бўлиб хизмат қилади. Бу тадқиқотларда мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳолатларини ўрганишга бағишланганлиги билан муҳим аҳамиятга эга бўлиб ҳисобланади. Юқоридаги қайд этилган илмий тадқиқотларда ушбу худудлар тарихига оид манбалар тарихи таҳлил этилган бўлса-да, ушбу манбаларда биз таҳлил этаётган худудларнинг тарихий демографик ҳолатлари алоҳида илмий манба сифатида таҳлил этилмаганлиги боис, биз танлаган мавзу ўзига хос долзарб бўлиб ҳисобланади. Сўнгги йилларда мамлакатимиз тарихига оид нашр қилинган монографиялар, қатор дарсликлар ва ўқув қўлланмаларида ҳам Ўзбекистондаги чор Россияси истилоси давридаги тарихий, ижтимоий жараёнларни акс эттирилишининг ўзи бу мавзуга ҳозирги кунга катта эътибор қаратилаётганлигидан далолат беради.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида айтиш мумкинки XX асрда Сурхондарё демографик жараёнларини илмий манбалар асосида ҳаққоний ёритиш бугунги кун тарихшунослигидаги муҳим масалалардан бири бўлиб ҳисобланади. Шунингдек тарихий демографик жараёнларни акс эттирувчи тарихий манбаларни ҳолисона илмий таҳлил этиш орқали Бухоро амирлигининг тарихий демографик жараёнини қиёсий ҳолатини ўрганиб, тарихий-географик жойлашувини илмий таҳлил этиш чор Россиясининг Қашқадарё ва Сурхондарё воҳаси бекликларига муносабати, мустамлакага айлантириш масаладаги уринишлари, чор Россияси Сурхон воҳаси жанубий-шарқий худудларига ўз қўлига киритиши ва Янги Термиз шаҳрини пайдо бўлиши даврида аҳоли ва унинг миллий таркибидаги ўзгаришлар масаласини илмий таҳлил этиш тадқиқот ишининг муҳим жихатларини белгилаб беради.

**АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Абдуллаев У Миллий-этник тотувлик.Жамият ва бошқарув; БОШҚАРУВ; 2009, №-3, 100 бет.
2. Амир Сайид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи.-Тошкент: Фан, 1991.
3. Бобобеков Х., Каримов Ш. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома.-Тошкент.: Шарқ, 2000.:
4. Муртазаева Р. Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т., Университет, 2007. –Б.184.
5. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Сурхондарё тарих кўзгусида.-Т.,2001.
6. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи ва маданияти.-Т., Мухаррир,2013.
7. Турсунов С.Н. Қобилов Э.О. ва бошқалар “Сурхондарё тарихи”. – Т.: Шарқ, 2004.
8. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб).- Андижон, 2004.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида.-Тошкент: Шарқ, 2000.

SURXONDARYO VILOYATINING AYRIM MADANIY MEROS OBYEKTлари HAQIDA

Mamatkulova Shoxista Anvarovna,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
shoxistaanvarovna84@gmail.com
UDK: 94(575.1)
<https://orcid.org/0009-0001-0233-4106>

Annotatsiya: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ming yillar mobaynida, minoralar va qadimiy gumbazlar ko'plab shaharlarning tashrif qog'ozi, shahar manzaralari, ularning diniy va ma'rifiy muassasalari — masjid va madrasalarining go'zal aksiga aylandi. Maqolada Surxon vohasi ko'rki hisoblanmish ayrim tarixiy-madaniy yodgorliklar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarixiy-madaniy meros, Qirq-qiz, Sulxon Saodat, Kokildor ota ziyoratgohlari, masjid va madrasa, muhofaza qilish.

Аннотация: С момента обретения Узбекистаном независимости большое внимание уделялось не только сохранению культурного наследия посредством реставрации памятников, но и укреплению национальной самобытности и признания в мировой культуре. Бумага стала прекрасным отражением городских пейзажей. свои религиозные и образовательные учреждения – мечети и медресе. В статье говорится о некоторых памятниках истории и культуры Сурханского оазиса.

Ключевые слова: историко-культурное наследие, Кырг-Киз, Султон Саodat, отцовские святые Кокилдар, мечеть и медресе, охрана.

Abstract: Since the independence of Uzbekistan, great attention has been paid not only to the preservation of cultural heritage through the restoration of monuments, but also to the strengthening of national identity and recognition in world culture. paper

became a beautiful reflection of city landscapes, their religious and educational institutions — mosques and madrasahs. The article talks about some of the historical and cultural monuments of the Surkhan oasis.

Key words: historical and cultural heritage, Kirq-Kiz, Sultan Saodat, Kokildor father shrines, mosque and madrasa, protection.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). O'zbekiston davlati tarixiy-madaniy yodgorliklarni, moddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, tadqiq etish va targ'ib etishga yuksak e'tibor qaratmoqda. Davlat organlari yodgorliklarni muhofaza qilish, madaniy meros obyektlarini aniqlash va ro'yxatga olish, ularni o'rganish, ahamiyatlilik darajasini aniqlash, buzg'unchi tabiat va antropogen ta'sirlarga duchor bo'lishining oldini olish bo'yicha huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni tiklash masalalari yoritilishi ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining doimiy diqqat markazida turgan va mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish borasida bir qator muhim ishlar bajarilgan. Jumladan, M.Jo'rayev, S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, M.Imomnazarov, M.Kaxharova, O'Mavlonov, A.Mavrulov, A.Muminov, F.Sulaymonovalar tarixiy madaniy merosni asrab-avaylashga doir izlanishlar olib borilgan.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustaqillik yillarida

O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga meros qoldirish vazifasi davlat siyosatining yuqori darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi va takomillashib bormoqda. Bugungi kunga qadar sohaga oid 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat amaliyotga tatbiq qilingan. Jumladan, "Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom"[6] va "Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risida Nizom" hamda 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori"[7], "2019-yil avgust oyidagi "Moddiy madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun"[7] va boshqa ko'plab qaror va qonunlar qabul qilinishi mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni saqlash, asrab-avaylash va o'rganishda katta rol o'ynamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi qaroriga asosan ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxati tasdiqlangan. "Ro'yxatdan 8208 ta ko'chmas moddiy madaniy meros obyekti joy olgan bo'lib, ulardan 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 2250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari va 532 tasi diqqatga sazovor joylardir. Xususan, Surxondaryodagi 38 ta, shundan 12 tasi respublika, 26 tasi mahalliy ahamiyatga ega me'moriy yodgorliklar O'zbekistondagi ko'chmas madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatdan joy olgan[1]."

Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan 2001-2002 yilda Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Eski Termizdagi Al-Hakim at-Termiziy,

Termiz tumanidagi Qirq-qiz, Sulton Saodat, Kokildor ota ziyoratgohlari qaytadan ta'mirlandi.

Qirq-qiz majmui (IX-XIV asrlar) joylashgan joy Shahri Somoniy deb aytilgan bo'lib, tarixiy manbalarda bu qal'a bir boy urug'iga tegishli qo'rg'on deb berilgan. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, Qirq-qiz majmuida al-Hakim at-Termiziyning qizi, Termiz tumani Qirq-qiz qal'asi malikasi Hurayda bint Muhammad al-Hakim va Varroq at-Termiziyning qizi, qal'a boshlig'i Ruhayda bint Varroqlarning xoki yotibdi[2]. Ilmiy tadqiqotlar davomida bu qizlarning hayot faoliyatlari haqida ma'lumotlar uchramadi. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, Qirq-qiz qal'asi qizlar akademiyasi bo'lgan. 966 yilda Qirq-qiz qal'asi boshlig'i Ruhaydai davron Hakim Termiziyning qizi Huraydani Samon Ashurga turmushga beradi[3;5].

Qirq-qiz qal'asi 2000-yilda ta'mirlandi. Reja bo'yicha 46.700.0 so'm, amalda esa 69.407.076 so'mlik ish bajarilgan. Bunda quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

G'isht terish;

Tiklash va suvoq ishlari.

Yodgorlikda restavratsiya, tiklash-konservatsiyalash ishlari amalga oshirildi.

Sulton Saodat maqbaralar majmui XI asrdan to XIX asrgacha Termiz sayyidlari xonaqosi bo'lib, sayyidlar dunyoviy va diniy ilm rivojida munosib hissa qo'shib, sayyid so'zi arab tilida «janob» degan ma'noni anglatadi. Muhammad (a.s.)ning nevaralari Hasan va Husayn avlodi sayyid unvonlari bilan ajratiladi.

Termiz sayyidlari haqida Ota Malik Juvayniy, Hamidullo Qazviniiy, Ibn Battuta, G'iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Hofiz Tanish Buxoriy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning asarlarida muhim ma'lumotlar berilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus tadqiqotchilari V.V.Bartold, A.Kun, M.S.Andreev va boshqalar Termiz sayyidlari to'g'risida to'xtalib o'tganlar.

Naql qilishlaricha, Ali ibn Abi Tolibning Fotimadan tug'ilgan o'g'li Husayn so'nggi Sosoniy shohi Yazdigardning qiziga uylanadi. Ularning o'g'li Alidan Husayn al-Asqar,

undan esa Ubaydullo dunyoga keladi. Xalifa al-Mansur davrida (754-755) Amir Ubaydullo deb e'lon qilinadi. Uning o'g'li Ja'far al-Hujjat Madina hokimi bo'lgan. Termiz sayyidlarining asoschisi Hasan al-Amir Ja'far al-Hujjatning o'g'li Amir Husaynning farzandidir. Hasan al-Amir o'zining yaqinlari bilan 850 yilda Samarqandga keladi va u yerda 11 yil yashab, 861 yil Balxga ko'chadi. Taxminan 865 yilda Hasan al-Amir Termizga ko'chadi va shu yerda butunlay o'rnashib qoladi[7;25].

Termizda hozirgi Sulton Saodat maqbarasi joylashgan joylar Shahri Somoniy deb yuritilgan. Sayyid Amir Abdullo Ismoil Somoniyning qizi Maxzumaga (yoki Mohi siymo) uylanadi. Ularning farzandlaridan boshlab, Termiz sayyidlarining nomlariga XVIII asr boshlarigacha Xudovanzoda laqabi qo'shilgan.

Somoniylar davrida qurila boshlangan Termiz sayyidlarining maqbarasi Sulton Saodatning G'aznaviylar davrida eng muhim qismi qad ko'tardi. Payg'ambar avlodlari yashagan har bir hududda ularni boshqarib turadigan alohida naqib bo'lgan. Termizda ham sayyidlarning naqibi bo'lib, ularning eng mashhuri Ali ibn Ja'far al-Musaviydir.

Sulton Saodat ziyoratgohida 2002 yilda qayta ta'mirlash, tiklash, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Maqbarada reja bo'yicha 120 mln., amalda esa 129.561.735 so'mlik ish bajarildi. Bunda:

G'isht terish, deraza romlari-panjaralar o'rnatish;

Gumbazlarni tiklash, suvoqlash ishlari;

Eshik-romlarni o'rnatish;

Naqqoshlik va moyika ishlari, hovli sathini tuzatish;

Vestnyak-plitkalar o'rnatilishi;

Gidroizolyatsiya ishlari-tomlarni yopish, ichki to'siqlarni tuzatish amalga oshirilgan.

Kokildor ota ziyoratgohi XVII asrga oid bo'lib, Hakim at-Termiziyning qizi Hurayda bint Muhammad al-Hakimning umr yo'ldoshi bo'lmish Samon Ashur Hamzai Hofiz Kokildor nomi bilan bog'liq. U kishi nomdor xattot olim va ko'plab bebaho asarlar muallifi bo'lgan. Asl ismi Samon Ashur bo'lib, u kishini Kokildor ota deb atashgan. Samon

Ashur 942 yilda Termizda tavallud topgan. U kishining padari buzrukvori «Hamzai Hofiz doston aytuvchi, kuylovchi» taxallusi bilan mashhur bo'lib, Bug' (hozirgi Sherobod tumanidagi Iso at-Termiziy tug'ilgan) qishlog'ida tug'ilgan.

Ahmad Usturlobiy as-Sag'oniy at-Termiziy shogirdi Samon Ashurni 36 shogirdi orasidan tanlab, Qirq-qiz qal'asiga yuboriladi. Samon Ashur 21 yoshida sochini o'stirib, Hamzai Hofiz Kokildor taxallusi bilan 341/952-53 yilda Qirq-qiz qal'asiga ilm o'rganishga va o'rgatishga yuborildi. U bu yerga kelganidan keyin «Shajarai Hofuziya», «Rivoyat ul-ustoz» va «Shajarai kalon» tarixiy asarlarni yozdi. Samon Ashur Qirq-qiz qal'asi qizlariga ilmi nujum, riyoziyot, handasadan dars berib, uni qal'ada Hamzai Hofiz Kokildor deb atashgan. 966 yilda Samon Ashur al-Hakim at-Termiziyning qizi Huraydaga uylanadi. Shu yili ular uchun «Ko'shki Kokildor» maqbarasi qurilishiga ruxsat beriladi. Hamzayi Hofiz «Ko'shki Kokildor» qurib bitkazilmasidan oldin 370/980-81 yilda olamdan o'tadi. Uning xoki o'ziga atab qurilayotgan «Ko'shki Kokildor»ga qo'yiladi. Keyinchalik Kokildor ota ziyoratgohi qabristonga aylanadi. Maqbara o'sha yerlik elparvarlar tomonidan bir necha marta ta'mirlanadi. 2001 yil avgust oyida u kishining xoki Sulton Saodat qabristoniga olib borib dafn etiladi.

Bizga hali ma'lum bo'lmagan Samon Ashur nomi bilan manbalarda zikr etilgan Kokildor ota o'z davrining ilm egasi bo'lgan. Ilmi nujum, ilmi tabobat, mufasssiri Qur'on bo'lgan. Katta jamoa ilm sohiblari o'rtasida yuksak obro'-e'tiborga loyiq bo'lgan[3;5].

Kokildor ota ziyoratgohi 2000-2001 yilda qaytadan ta'mirlangan va obodonlashtirilgan. Ziyoratgohni ta'mirlashga reja bo'yicha 54 mln. so'm, amalda esa 59.392.631 so'mlik ish bajarilib, bunda:

Tiklash, g'isht terish ishlari, gumbazlarning tiklanishi va suvoq ishlari;

Eshik, deraza romlari, panjara to'siqlarini o'rnatildi;

Gidroizolyatsiya ishlari-tomlarni yopish amalga oshirilgan[5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /

CONCLUSION). Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha. Har bir davr madaniy meros rivojiga o'ziga xos hissa qo'shadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo'yilgan urf-odat, marosim va an'analar, islomiy qadriyatlar, milliy bayramlar qayta

tiklandi, o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi, jahon va milliy madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, asarlari har tomonlama o'rganilmoqda, qadamjolari obod etilmoqda. Bunday ezgu sa'y-harakatlar boy madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, boyitish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib berishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги хузуридаги «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб — чиқариш Бош бошқармаси» маълумотноммаси 2016 йил; <http://dkm.gov.uz/en-US/madaniy-meros-xalqimizning-umummilliy-boyligi>
2. Ушбу маълумотлар Самон Ашурнинг «Шажараи Ҳофузия», «Шажараи калон» асарларидан олинган.
3. Хўжамшукурова Г., Жовлиева М., Худойбердиев Х. Кокилдор ота ким бўлган? Халқ йўли газетаси. Термиз. 2004 йил 24 май. № 15-16 (278-279). Б. 5.
4. Турсунов С. Термизий буюк сиймолар. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 25.
5. Сурхондарё вилояти Давлат Инспекцияси архив материаллари. Термиз. 2004 йил. 2 июль.
6. www.nmm.uz
7. www.uza.uz

SOVET HUKUMATINING ISLOM DINIGA NISBATAN MUNOSABATI

Jumayev Bekzod,

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0065-4278-616X>

Annotatsiya: Shariat va odat xalqimizning turmush tarzi va hayotini belgilagan. Buni yaxshi bilgan sovetlar o‘zlarining hokimiyatining dastlabki yillaridanoq Turkiston mintaqasida asrlar davomida mavjud bo‘lgan bu diniga qarshi kurasha boshladilar. Ushbu maqolada sovet hukumati davrida islom diniga nisbatan tutgan siyosati, uning mohiyati bilan bog‘liq holatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: din, ma’naviyat, qadriyat, tanazzul, to‘ntarish, ruhoniyy, siyosat, musulmon, taqiq.

Аннотация: Шариат и обычаи определили образ жизни и жизнь нашего народа. Советы, прекрасно это знавшие, с первых лет своей власти начали борьбу с этой религией, существовавшей в Туркестанском крае на протяжении веков. В данной статье анализируется политика советского правительства в отношении ислама и ее сущность.

Ключевые слова: религия, духовность, ценности, упадок, переворот, священник, политика, мусульманин, сухой закон.

Abstract: Sharia and customs have determined the lifestyle and life of our people. The Soviets, who knew this very well, began to fight against this religion, which existed in the Turkestan region for centuries, from the first years of their power. This article analyzes the policy of the Soviet government towards Islam and its essence.

Key words: religion, spirituality, value, decadence, coup, priest, politics, Muslim, prohibition.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sovetlar hukumati yurgizgan mustamlakachilik siyosatining mafkuraviy asosini ishlab chiqqan V.I.Lenin

boshliq Kompartiya shu narsani yaxshi bilar ediki, mustamlaka Turkistonni dunyoning eng qadimiy madaniyat va ma’rifat o‘choqlaridan biridir. Bu o‘lkada qo‘nim topgan xalqlarda esa eng ulug‘ va olijanob g‘oyalar qadimdan qaror topgan. Bu yuksak darajada rivoj topgan vatanparvarlik, elparvarlik, mardlik, jasurlik, imon-e’tiqodlilik, milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlik, erk, hurlik va ozodlikka tashnalik, bosqinchilar, mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafrat kabilardir. Sovet bosqinchilari bunga 1917-1934 yillarda Turkiston xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun olib borgan kurashlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib ishonch hosil qildilar. Shuning uchun ham mamlakatimiz xalqlariga xos bo‘lgan ana shu olijanob va ulug‘ fazilatlarini ularning ongidan siqib chiqarib turib Turkistonni o‘z asoratlarida uzoq saqlab qololmasliklarini bosqinchi jallodlar yaxshi tushunar edilar. Ular hukronligining dastlabki yillaridanoq Turkiston mintaqasida asrlar davomida mavjud bo‘lgan bu diniga qarshi kurasha boshladilar. Ularning kurashlari dastlabki yillarda ochiqchasiga bo‘lmasa-da, keyinchalik oshkora va terror usulida amalga oshirila boshlandi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sovet hukumati bilan islom o‘rtasidagi munosabatlar to‘rt bosqichdan o‘tdi. Birinchi bosqichda (1917-1928) markaziy sovet hokimiyati din peshvolaridan foydalanib, inqilobni Sharq mamlakatlariga olib chiqishga harakat qildi. Ikkinchi bosqichda (1929 yildan) Sovet hukumati Islom bilan (shuningdek, boshqa konfessiyalar bilan) qattiq kurash olib bordi, bu davrda masjidning aksariyati vayron qilindi va din peshvolarining katta qismi qatag‘on qilindi. Uchinchi bosqich (1944-

1989) din peshvolarini yo‘q qilishning to‘xtatilishi va sovet hokimiyati tomonidan to‘liq nazorat qilinadigan to‘rtta musulmonlar diniy boshqarmasining tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Urushdan keyingi qisqa davrdan so‘ng yangi masjidlar qurish va musulmonlar o‘quv yurtlarini ochish taqiqlandi. Xrushchevning dinga qarshi kampaniyasi hukumatda ilgari ochilgan masjidlarning bir qismini yopdi, SSSRda joylashgan musulmonlarning muqaddas joylariga ziyorat qilishni taqiqladi. To‘rtinchi bosqich (1989-1991) hokimiyat tomonidan zulmning zaiflashishi, masjidlarning ommaviy qurilishining boshlanishi, shuningdek, xorijdagi dindoshlar bilan doimiy aloqalar o‘rnatilishi.

Sovet hokimiyati O‘zbekistondagi diniy muassasalar va tashkilotlar faoliyatini qoralab, ularga qarshi hujum boshladi. 1922-yilning oxirlaridayoq joylarda ko‘plab “Xudosizlar jamiyati” tuzildi. Bu jamiyatlar mavjud diniy e‘tiqodga, uning peshvolariga qarshi ateistik kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo‘r berib faoliyat ko‘rsatdi. Xudosizlikka doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi. Mazkur yillar davomida sovet hukumati tomonidan o‘zbek xalqining olis asrlarga borib taqaluvchi moddiy va ma‘naviy madaniyati durdonalari, maktab, madrasalarga qarshi zo‘rluk yo‘li bilan kurash olib borildi. Islom dini va musulmon ruhoniylari kamsitilib, eski usuldagi maktablar “eskilik va xurofot uyasi” sifatida ta‘riflandi.

Dinga va ruhoniylarga qarshi 30-yillarda ochiqdan-ochiq kurash olib borildi. Buning uchun maxsus “Kurashchan xudosizlar” tashkiloti tuzilib, uning bo‘limlari barcha korxonalar va muassasalarda tashkil etildi.

“Kurashchan xudosizlar” ittifoqi umumiy shubhalanish vaziyatini kuchaytirishda katta rol o‘ynadi. Uning faoliyatida yosh qizlarni turmushga berish, qalin olish, ayollarni xo‘rlash hollariga qarshilik ko‘rsatish kabi ishlarda ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, biroq ruhoniylar va dinga e‘tiqod qiluvchilarga nisbatan shafqatsiz kurash olib borishda salbiy rol o‘ynadi. Bu tashkilot bergan ma‘lumotlar asosida respublika

hukumati tomonidan 1931 yilning o‘zida Farg‘ona, Bekobod va Toshkentda bir qator cherkovlar, masjidlar va diniy maktablar yopib qo‘yildi.

Toshkentning Oktyabr tumani aholisi komsomol klublariga aylantirilgan masjidlarni xalqqa qaytarishni talab qilib chiqdi. Lekin bu chiqishlar tuzumga qarshi uyushtirilgan targ‘ibot deb baholangan.

“Kurashchan xudosizlar” ittifoqi hisobotiga ko‘ra, 1931 yilda besh yillik reja bajarilgan bo‘lib, uning safiga O‘zbekistonda 90000 kishi a‘zo bo‘lgan, ulardan 60000 nafari yoshlar edi [4]. Lekin shunga qaramasdan, O‘zbekiston xalqlari diniy e‘tiqoddan, diniy qadriyatlardan mutlaqo voz kechmadi. Bolsheviklarning dinga qarshi zo‘ravonligi va ta‘qiblari ostida bo‘lsa-da, bu e‘tiqodni imkon darajasida saqlab qolishga harakat qildi.

Biroq bolshevistik siyosiy doiralar o‘zgacha dinni, o‘zgacha e‘tiqodni xalq ongiga singdirishga harakat qildi. Bu din partiyaning dini, ya‘ni marksizm g‘oyasi edi. Bu g‘oyani ommalashtirish uchun barcha imkoniyatlar va vositalar ishga solindi. Jamiyatga asosiy mafkura sifatida marksizmning kiritilishi natijasida boshqa dunyoqarashlar batamom inkor etildi.

“Kurashchan xudosizlar” uyushmasining birgina O‘zbekistonda 3300 ta mahalliy tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularda 112 ming faollar ish olib borgan. Ittifoq bo‘yicha 1940 yilda “Kurashchan xudosizlar” uyushmasining 3 mln. a‘zosi bo‘lib, ularning 60 foizini ishchi va dehqonlar, 25 foizini ayollar tashkil qildi [5].

Lenin islom qo‘rg‘onini olisdan va zimdan yiqitishni maslahat beradi. Bolsheviklar tomonidan olib borilgan ayyorona tadbirlar, bolsheviklarga qarshi bosh ko‘targan isyonchilarning ichidan ancha musulmon ruhoniylar va ko‘pchilik xalqni sovetlar tomoniga og‘dirdi. Ruhoniylarning isyonini bas qilgan qismini bolsheviklar 1923 yilning 23 dekabrda o‘zlariga xizmat qildirdilar. Ular barcha mullalar ishtirokida “Sovet hokimiyati islomga qarshi emas” degan shior ostida “umumlaqaylar majlisi” ni o‘tkazdilar, keyin bunday yig‘inlar O‘rta Osiyoning boshqa

joylarida ham o'tkazildi. Islomning "Kommunizm bilan og'alashuvi" XX asrning 20-yillarning oxirida tugadi. Islom dinini ashaddiy va izchil yo'qotish, musulmon ruhoniylari va ziyolilarini jismonan o'ldirish hatto milliy kommunistlarni ham "Partiyaga aldab kirib olganlar" hamda "musulmon ruhoniylari bilan oshkora til biriktirganlar" sifatida qatag'on qilish boshlandi. Shundan boshlab "Musulmon xalqlari" iboralarining o'zini tilga olish xam jinoyat bo'lib qoldi.

Cherkovlarga va ruxoniylarga qarshi teror o'tkazishda Lenindan ham Stalindan ham ko'proq aybdor Trotskiyning o'zi edi. Joylarda esa bu sohada trotskiychilar peshqadamlik qilganlar. Ular O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham ana shunday bema'ni, noqonuniy ishlarni qilganlar. 1929 yil boshida L.M.Kaganovich imzosi bilan joylarga diniy tashkilotlar birdan-bir legal harakat qilayotgan va ommaga ta'sir ko'rsatuvchi aksilinqilobiy kuchdir, degan direktiva yuborildi. Joylardagi bolshevistik tashkilotlar uchun ushbu hujjat din va dindorlarga munosabati uchun birdan bir asos bo'ldi. Sovet hukumati va Kompartiya «din-xalq uchun afyundir» degan g'oyaga amal qildi. Dindorlar ta'qib va taz'iy ostiga olindi.

Diniy kitoblar «reaktsion» deb e'lon qilindi. Diniy kitoblarni yo'qotish bahonasida arab imlosiga asoslangan eski o'zbek imlosidagi barcha kitoblar yo'q qilindi. Machitlar va madrasalar buzib tashlandi. Hatto peshtoqi, devori, eshik yoki ustunlarida arab imlosida yozuvi bo'lgan binolarga ham qiron keltirildi. Saqlanib qolgan ba'zi machit va madrasalar ham boshqa maqsadlarda foydalanildi: mineral o'g'itlar saqlanadigan omborxonalar, kerosin sotadigan do'konlar, temirchixonalar kabilarga aylantirildi. «Hatto, Alloh taoloning uyi hisoblanmish masjid xudosizlar uyiga aylantirilgan. Ya'ni unda ateizm muzeyi ochilgan edi»

Stalin ham musulmonlarga nisbatan qirg'inlarni izchil va doimiy amalga oshirdi. Xo'sh, Stalin uyushtirgan qirg'in va ochlikdan qancha musulmon halok bo'ldi? Aniq javobni faqat VKP(b) Markaziy qo'mitasi va NKVD biladi. Partiya XII syezdi qaroridan olgan 1923-yil ma'lumotlari

bo'yicha SSRda o'sha paytda 30 million musulmon yashagan, 1959 yilgi ro'yxatga olish natijalariga ko'ra Stalin zo'ravonligi davrida musulmon aholisining soni 24 milonga tushib qoldi. Yana shu narsaga etibor berishimiz kerakki, musulmonlar ko'p bolali edilar. Nega ko'paymasdan kamaydilar? Shuningdek "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida qayd etilishicha, 1929-1939 yillarda faqat birinchi Turkiston hududining o'zida 14000 masjid va madrasalar yoptirilib yuborilgan yoki buzdirilgan. Shayxlar, imomlar va boshqa din arboblari shu madrasalar, masjididagi eng oddiy ishchisidan tortib yuqori malakali shayxlargacha barchasini qatag'on qilingan.

Demak, sovet hukumati dindorlarga nisbatan har tomonlama taqib va taz'iy qni kuchaytirdi, ularni saylov huquqlaridan mahrum etdi. Masalan, 1926 yil yozida o'tkazilgan sovet saylovlarida 27.453 kishi, 1926-27 yillar qishidagi saylovga esa, 33204 kishi saylash huquqidan mahrum etildi. Ularning ko'pchiligi dindorlarning vakillari edi".

XX asrning 30-yillarida Markazning dinga qarshi olib borayotgan ateistik siyosati hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlash maqsadida, davlat va hukumat rahbarlari, ziyolilar va ilmiy jamoatchilik dahriylik targ'ibotiga keng jalb qilindi. Ushbu harakatda ishtirok etmagan kishilarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik va yo'li bilan obro'- e'tibori hamda egallab turgan lavozimlaridan mahrum qilish choralari qo'llanildi. Aynan shu yillar mobaynida ateistik ruhdagi adabiyotlar keng ko'lamda nashr etila boshlandi. Misol uchun 1939-1940-yillar davomida o'zbek tilida 470 ming nusxada 30 xil nomdagi dinga qarshi qaratilgan adabiyotlarning nashr etilishi, 1940-yilning birinchi yarim yilligida respublika gazetalari sahifasida 170 ta maqolaning mazkur mavzuga bag'ishlanganligi bu siyosatning naqadar keng miqyosda olib borilganligini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyati partiya tashkilotlarining 1945-yilda bo'lib 1-konferensiyasida, 1949-yilda bo'lib o'tgan II-konferensiyasida, 1951-yilda bo'lib o'tgan

III-konferensiyasida 1952-yilda bo‘lib o‘tgan IV-konferensiyalarida partiya tashkilotlarining g‘oyaviy-siyosiy ishi to‘g‘risidagi masalalar kun tartibiga qat‘iy qo‘yildi. Ushbu yig‘ilishlar soha mutaxassislari zimmasiga viloyat jamoa xo‘jaliklari, korxonalar va muassasalarida ommaviy-siyosiy ishlarni keng targ‘ib qilish, marksizm-leninizm klassiklari asarlarini o‘rganishni ommaviy tarzda yo‘lga qo‘yish, bolshevizm tarixi, kommunistik tashkilotlar tarixi yuzasidan davomli ma‘ruzalar olib borish, ateistik propagandani avj oldirish, siyosiy maktablar, to‘garaklar, partiya maktablari faoliyatini jonlantirish kabi vazifalarni yukladi. Bunday holat nafaqat Surxondaryo viloyatida balki butun Sobiq Ittifoq miqyosida keng avj oldirilgan edi. Ushbu maqsadni amalga oshirish yuzasidan 1947-yilda SSSRda yangi bir siyosiy tashkilot ya‘ni Siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatuvchi Butun ittifoq jamiyati (keyinchalik u “Bilim” jamiyati deb ataldi) tashkil etildi. Ushbu tashkilotning respublika viloyat, tuman va shahar bo‘limlari ham tashkil etildi. Birorta ham aholi punkti, kolxoz, sovxoz yoki korxonalar ushbu jamiyat nazaridan chetda qolmadi. Shu yo‘l bilan kommunistik partiya butun ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni shu jumladan madaniy ma‘rifiy sohani ham o‘z nazoratiga oldi. Natijada butun madaniy-ma‘rifiy muassasalar kommunistik

partiyaning ijtimoiy buyurtmasini bajaruvchi kuchga aylana bordi. Mazkur davrning eng xususiyati jihatlaridan yana biri madaniyat va san‘at orqali “yangi insonni tarbiyalash” vazifasini bajarish edi. Xo‘sh partiyaning nuqtai-nazaridan “yangi inson” kim edi? U “yangi inson” o‘ziga rahbarlik qilayotgan partiyaning maqsad va vazifalarini bekamiko‘st bajarishga doimo shay bo‘lgan asta-sekinlik bilan o‘zligini yo‘qotib boradigan olomonning vakili edi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa tariqasida shuni qayd etish kerakki, Sovet davlatining islom dini va O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar idorasi tarkibiga kiruvchi muassasalar ish faoliyatiga munosabati siyosiy vaziyat taqozosi bilan doimiy tarzda o‘zgarib turgan. 1944-yildan sovet davlatining din sohasidagi siyosati musulmonlarga berilgan “vijdon erkinligi” ning ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ldi. [12] Aslida esa ularga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lingan. Jumladan, Sovet tuzumining tazyiq va keskinliklari Diniy boshqarmaning ichki va tashqi faoliyatiga ta‘siri, diniy boshqarma tarkibidagi muassasalarning mustaqil ish olib borishlariga to‘sqinlik qilgan. Sovet hukumati urush yillarida rasman diniy idora tarkibiga kiruvchi muassasalar ochishga ruxsat bergan, lekin amalda ularning faoliyatini imkon qadar cheklagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Avtorxonov Abduraxmon. “Kreml saltanati” – T. Cho‘lpon 1993. – B. 39.
2. Наука и религия. -М., 1975. -№6. -С. 35
3. Саидбаев Т. Ислам и общества. –М., Наука, 1978. -С. 166
4. Jo‘rayev N, Karimov Sh, “O‘zbekiston tarixi” 2-kitob, “Sharq” – T. 2011. 49-bet.
5. Yulduz Bobokulovna Tursunova, O‘tmishga nazar 3 jild, 10 son. T., 2020.
6. Salmonov A. “O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati” – Toshkent: Tafakkur, 2015.
7. Po‘latov F.E’tiqodlar kurashi. – T., 1964.
8. A‘zamxodjayev S. Turkiston muxtoriyati. – T: “O‘zbekiston” 1996.
9. Avliyaqulova D. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi qatag‘on siyosati va uning oqibatlarini. – Toshkent: “Tafakkur”. 2016. – B.96
10. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 1993yil 4-iyun.
11. Berdiyev H. Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: “Nur”. 1991. – B. 80-81.

12. Rahmonov N. Umaraliyev A. Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari. – Toshkent: “O‘qituvchi”. 1984. – B.147.

13. Rajapov V.T. XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda madaniyat sohasidagi o‘zgarishlar va muammolar. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Namangan, 2006. – B.26.

SURXON VOHASIDA SOVET HOKIMIYATI O'RNATILISHIGA QARSHI QUROLLI HARAKATLAR

Qarajayeva Dilorom Namozovna

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0065-1163-2152>

Annotatsiya: Bugungi kunda Sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin Turkiston, Buxoro va Xiva mintaqalarida bolsheviklar hukmronligiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakatlari, qarshilik harakatini tugatishda yuzaga kelgan murakkab holatlar har tomonlama o'rganilmoqda. Maqolada Sovetlarning Surxon vohasiga kirib kelishi va hokimiyatini o'rnatishi, mahalliy aholining qarshilik harakatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qizil armiya qo'shinlari, «bosmachi», Ibrohimbek, Denov, Yurchi, Alimardonbek va Sodiq qo'rboshi.

Абстрактный: Сегодня, после установления Советской власти, тщательно изучаются национально-освободительные движения против большевистской власти в Туркестанской, Бухарской и Хивинской областях, сложные ситуации, возникшие в конце движения сопротивления. В статье говорится о вторжении Советов в Сурханский оазис и установлении их власти, а также о движениях сопротивления местного населения.

Ключевые слова: войска Красной Армии, «принтер», Иброхимбек, Денов, Юрчи, Алимардонбек и Садик Корбоши.

Abstract: Today, after the establishment of the Soviet power, the national liberation movements against the Bolshevik rule in the regions of Turkestan, Bukhara and Khiva, and the complex situations that arose in the end of the resistance movement are being thoroughly studied. The article talks about the entry of the Soviets into the Surkhan oasis and the establishment of their power, as well as the resistance movements of the local population.

Keywords: Red Army troops, "printer", Ibrohimbek, Denov, Yurchi, Alimardonbek and Sadiq Korboshi.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sovetlar siyosatining Surxon vohasiga kirib kelishi keskin kurash sharoitida amalga oshdi, mahalliy xalqning asosiy qismi bu yangi hokimiyatni norozilik bilan kutib oldi. Buxoro amirligi davrida katta harbiy, iqtisodiy, siyosiy mavqega ega bo'lgan Surxon vohasini sovetlar hukumati o'z qo'lida mahkam saqlab qolishga jiddiy kirishdi.

АДАБИЙОТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Surxon vohasining 1920-1930 yillar tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, S.N.Tursunov, N.Hayit, I.Umarov, A.Xolmirzayev, M.Azimovning asarlarida Sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi milliy ozodlik harakatining olib borilishi va uning natijalari, mazkur davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli tahlil etilgan.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

1920-yil oktyabrda qizil armiya qo'shinlari katta kuch bilan Sherobod bekligida hujum qilib uni egalladi va Sherobod Surxondaryo viloyati bo'yicha sovet hokimiyatining boshqaruv markaziga aylantirildi. Shu vaqtdan boshlab Qizil armiyasi bilan birgalikda yevropalik aholi ham Sherobodga ko'chib kelib joylasha boshladi. O'z navbatida boshqa joylarda bo'lgani kabi Sherobodliklar ichidan yetishib chiqqan o'qimishli, o'z fikrlarini dadil ayta oladigan kishilarni hokimiyat rahbarligiga qo'ymadilar. 1921-yil 25-fevralda bo'lib o'tgan Buxoro kompartiyasining birinchi syezdiga Sherobod firqasi a'zolaridan ham ishtirok etdilar. 1920-yilga kelib Qizil armiyaning bosqini tufayli

Buxoro amirligi agʻdariladi. Uning oʻrniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etiladi. Maʼmuriy oʻzgarishlar beklklarda ham sodir boʻladi. Xatak amlokdorligi oʻrnida kentlik tashkil etiladi va Sherobod uyezdi tarkibiga kiritiladi.

1921-yilda Sherobod okrug markazi boʻlib qoldi. Yangi tuzum, eski beklk tartib-intizomi oʻrniga yangi boshqaruvni joriy etib, ommaviy targʻibot-tashviqot ishlarini bajardilar, eng ogʻir masala shunda boʻldiki, sovet hokimiyat tomoniga oʻtmagan faol kishilarning koʻpchiligi ham turli tuhmat-boʻxtonlarga uchrab qamoqlarga tashlandi, sudsiz otib tashlandi. Natijada koʻpchilik yangi hukumatning siyosatidan norozi boʻlib qoʻlga qurol olib unga qarish kurashga otlandilar. 1920-yil oxirida Mirza Mushrof rahbarligida, 1921-yil turk polkovnigi Xasanov rahbarligidagi 85 kishi ozodlik harakatiga boshchilik qilib bordi. Amir hokimiyati yiqitilgan dastlabki yillarda Sherobodda ham hayot ogʻir koʻchdi, tinimsiz janglar oddiy xalqning tinkasini quritdi, ochlik, qashshoqlik, darbadarlik tufayli minglab kishilar vatangado boʻldi. Shu tufayli 1921-yil 8-noyabrda Sherobod, Yurchi, Denov, Hisor hududida harakat qilayotgan Ali Rizo milliy ozodlik harakatiga minglab kishilar qoʻshildi.

1922-yil Sherobodda ham Anvar poshshoni qoʻllab-quvvatlovchi milliy ozodlik harakati kuchaydi, lekin kuchlarning teng emasligi natijasida koʻplab kishilar bu harakat qurboniga aylandilar. 1922-yil 8-mayda boʻlib oʻtgan Buxoro Kompartiyasining Sherobodning viloyat qoʻmitasi dehqonlarning ahvolini yaxshilash ularni iqtisodiy qiyinchilikdan olib chiqish uchun oilaviy tadbirlarni bajarib 8 qishloqqa 270 botmon bugʻdoy arpa hamda mehnat qurollaridan yordam uyushtirdi.

1921-1923 yillarda Sherobodda ichki ahvol nihoyatda ogʻirlashib xoʻjalik yuritish qiyinchilik bilan olib borildi. Yangi hukumat shubhali koʻringan kishilarni «bosmachi» tamgʻasi ostida qirib tashlab, ozgina qoʻlida mol-mulki boʻlgan oʻziga toʻq kishilarni mol-mulki musodara qilindi. Tomorqalar tortib olinib, uy-joylari yangi hukumat ixtiyoriga

oʻtkazildi. Ayniqsa togʻ oraligʻi, adir-qirlarda joylashgan qishloq aholisi bunday ogʻirlikning koʻpini oʻz boshidan oʻtkazdilar. Oʻz navbatida maxsus koʻrsatma asosida 1923-yil kasaba ittifoqni tozalash bahonasida Sherobod viloyatidagi 5-kasaba uyushmaning 996 aʼzosi 285 tasi qamoqqa olindi va otib tashlandi. Bu esa xalq oʻrtasidagi norozilikni kuchaytirib, mahalliy xalqning koʻzini qoʻrqitib qoʻydi, yangi davlatning tartib intizomini tan oldirish majburiy olib borildi. 1923-yil 22-aprelda firqa qoʻmitasining faoliyatini qayta koʻrib chiqish uning aʼzolari tarkibini mustahkamlash nuqtai nazari asosida Buxoro Kompartiyasi koʻrsatmasi bilan Sherobod viloyati umumiy firqa yigʻilishi boʻldi. Bunda «BKP ning yaqin kunlaridagi vazifalari toʻgʻrisida» koʻrsatmasiga binoan firqa aʼzolari ichida niqoblangan savdogarlar, amir xizmatchilari va nayrangbozlarni yoʻqotish masalasi muhokama qilindi. Ommaviy firqa qoʻmitasini tozalash siyosatining natijasi shu boʻldiki, koʻplab vijdonli, oʻqimishli, oʻz xalqining manfaatlarini toʻla himoya qila olishga qodir boʻlgan mahalliy millatga oid kishilar yoʻq qilindi. Ayniqsa mansabga qasos olishga intilgan baʼzi «inqilob» tarafdorlari xoinlik yoʻliga oʻtib olib, undan ustalik bilan foydalandilar. 1922-yil 30-oktyabrda Sherobod viloyat firqa qoʻmitasining konferensiyasi boʻlib oʻtdi, asosiy maqsad feodal boy va musulmon diniy reaksionerlar qarshiligini tugatish kasaba-uyushma va komsomolga yoshlarni koʻproq jalb etish, firqa aʼzoliciga irodasi mustahkam, oʻtkir kishilarni jalb qilish masalasi muhokama qilindi. Oʻz navbatida bu koʻrsatma «bosmachilikka», mahalliy boy feodallarga ochiq kurash boshlab boʻlib, shu kurash yoʻli bilan, madrasa, machit, eski oʻzbek arab imlosi bilan oʻqitish maktablarini yoʻqotish, uning ilhomchilarini qirib tashlash rejalashtirilgan edi. Sherobod hududida hokimiyat uchun kurash tinimsiz kuchayib borib, 1923-yil mart-iyun oylarida Salimposhsho va Ibrohimbek milliy ozodlik musulmon qoʻshinlari harakat qildilar. Lekin oʻzaro birlik siyosiy mustahkamlik boʻlmaganligi tufayli bu harakatlar

mag'lubiyatga uchradi, xalq ichidagi ikkilanish, qashshoqlik, ochlik ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sherobodning o'zi va uning atrofi 1922-yil bahoridan boshlab jang maydoniga aylanib qoldi, nihoyat 1923-yilga kelib Salimposhsho va Ibrohimbek mag'lubiyatga uchradi.

Sherobod okrugida sovet hokimiyatining o'rnatilish davrida milliy kamsitish siyosatiga qarash ommaviy xalq norozligi kuchayib, milliy ozodlik kurashi jiddiy tus olgan 1920-1925 yillarda Qizil Armiya bosqiniga qarshi kurash davrida ko'plab aholi nobud bo'lishi tufayli Ko'hitang tog'ida yashovchi Xatak qishloq aholisi soni 600 xo'jalikdan oshmagan. Boshqa joylarda yashagan xatakilarni ham qo'shganda ularning soni 1925-yilda 800-900 xo'jalikni tashkil etgan.

1920-yilning 28-avgustiga qadar Termiz tashqi olamdan deyarli ajralib qamal holatida qoladi. 1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda amir hokimiyati ag'darilgach Termizda ham shahar soveti tashkil etiladi. Unga Chori Berkaliyev rais etib saylanadi. Biroq, 1920-yil sentyabr oyi o'rtalarigacha Termiz atroflari amir odamlari qo'l ostida edi. Sovet hokimiyati muhim siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan Termizni qo'ldan berishni istamas edi. Amir hokimiyati qulagach sovet tartibotiga qarshi boshlanib ketgan qurolli kurashni bostirish maqsadida maxsus qurolli otryad tuzildi. Ushbu otryadga Yodgor Abduraximov va Hasan Amirxonovlar yetakchi etib tayinlandi. Bu davrda qarshilik harakatida Ibrohimbekning 500-600, O'tanbekning 60, Mustafouqulbekning 250, Tangribekning 40 nafar yigitlardan iborat kichik-kichik guruhlari kurash olib bordi. 1924-yilda Ibrohimbek ushbu kuchlarini birlashtirib Termizga yurish qiladi. Biroq kuchlar nisbatining teng emasligi hamda qurollanish darajasining sustligi tufayli mag'lubiyatga uchraydi. Shaharda tuzilgan bolshevik harbiy bo'linmalari muxolif kuchlarga qarshi kurashda sovet hokimiyatining tayanichiga aylanadi. Sherobod begi To'xtamishni ag'darib tashlash maqsadida tashkil etilgan Sherobod inqilobiy qo'mitasi ham Termizda tuzilgan. 1920 yilning 6 oktyabrida Birinchi Butun Buxoro

qurultoyi Buxoro xalq Sovet respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Natijada surxon vohasida ham Sovet hokimiyatini o'rnatish choralari ko'ri-la boshladi. Shu maqsadda Goncharenko boshchiligida maxsus otryad tuzildi 1921-yilda V.L.Lopatinning 4-kavaleriya polki ham Ko'lobdan Termizga keldi. 1924 yilning 25 yanvarida Drozdovskiy boshchiligida Termizda tuzilgan harbiy qism Yuqori Kakaydi qishlog'i yaqinida qo'rboshi Ibrohimbek qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Shu davrda Sovet hukumatiga qarshi olib borilgan ozodlik harakatlarini bostirishda shaharda joylashgan harbiy qismlar belgilovchi rol o'ynadi. Jumladan shaharda tuzilgan 34-chegara kavaleriya eskadroni shunday kuchlardan biri edi. Sovet mafkurasining yolg'on va'dalariga uchgan ayrim mahalliy millat vakillari ham Qizil armiya saflariga kirdi. Bu esa og'a-inilarni bir-biriga qayragan birodarkushlik urushlarini yanada avj olishiga sabab bo'ldi. Shuni qayd etish kerakki sovet tuzumini o'rnatish Buxoro amirligida ham Surxon vohasida ham Jumladan Termiz shahrida ham oson kechgan emas. Qizil armiya va unga qarshi bo'lgan ozodlik harakati kuchlari o'rtasidagi keskin kurashlar jarayoni minglab yig'ilarni hayotdan erta olib ketdi, ko'plab tinch aholining umriga zomin bo'ldi va yana qanchadan-qancha odamlar o'z ona vatanlarini tashlab, tinchroq yashash uchun joy topish maqsadida boshqa yurtlarga ketishni ixtiyor etishdi. Ushbu to'qnashuvlar jarayonida ko'plab obod manzillar vayron bo'ldi, ariqlar ko'mildi, ekin maydonlari payhon etildi, bog'-rog'lar bo'ldi, aholining hayotiy ehtiyojlari toptalib yurtni ochlik, qahatchilik kabi balolar qoplab oldi. Ana shunday balolardan Termiz shahri ham omon qolmadi. Oqibatda shahar aholisi keskin kamaydi, shahar shifri tuzilmasi xarob ahvolga kelib qoldi. Chor Rossiyasi imperiyasining tadrijiy davomi bo'lgan Sovet davlati amalda chor imperiyaning mustamlakachilik siyosatini yangicha shakl va yangicha mazmunda davom ettirdi. Bunday sharoitda shahar aholisining hayotida ham jiddiy ziddiyatli holatlar yuzaga kela boshladi. Sovet hukumati ham O'zbekistonda

uning janubiy darvozasi sanalgan Termiz shahrida o'zining o'rmini yo'qotishni istamasdi. Shu boisdan ham mustamlakachilikning tamoyili yangicha usullari Termiz shahrida ham ildiz ota boshladi.

Buxoro inqilobidan keyin 1920-yil 2-sentyabrda Amir Dushanbega qochib, Denovda to'xtab, 12-sentyabrda Denov begi Suvonqulbek Hisor tog'iga yashirindi. Natijada Denovda hokimiyatsizlik paydo bo'lib, 1921-yil 12-fevral kuni Denovga Vinogradov boshliq 81-otliq qizil askarlar kirib kelib, Sovet hokimiyati o'rnatdi. Ushbu qizil armiya qismlariga Sovet hokimiyatining tarafdorlaridan Hamroqul Haqqulov rahbarligida yordam berib, Sovet hokimiyati tuzish va saqlab qolish maqsadida 14 kishidan iborat xalq militsiyasi faoliyat ko'rsatdi.

Sovet hukumatining siyosatdan norozi bo'lgan mahalliy aholi milliy ozodlik harakatlarini olib borib, xalq harakatiga rahbarlik qilayotgan Ibrohimbek boshliq istiqolchilarga amaliy yordam berdi. 1921 yilning avgust oyida istiqolchilar Sovet hukumatini va uning tarafdorlariga qattiq zarba berib, Sovet hukumatini Denovdagi talonchilik, zo'ravonlik harakatiga qarshilik ko'rsatib, xo'rlangan, jabrlangan, talon-taroj qilingan xalqni himoya qilishga birlashdilar. Biroq xalq harakati kuchli mustahkam armiyaga ega bo'lmaganligi tufayli qizil armiya qo'shinlari tufayli qonga botirilib, xalq harakatining rahbarlarining ko'pchiligi Hisor va Bobotog' yerlariga chiqib kurashni davom ettirdilar. Biroq xalq harakatini bostirish maqsadida Yurchida Saidmurod boshliq 35 kishidan iborat inqilobiy qo'mita tuzilib, milliy ozodlik harakatini ayovsiz tarzda bostirish maqsadida qirg'in siyosatini uyushtirdi. Denovda va Yurchida xalq harakatiga Saydullabek rahbarlik qilib, u Turk podshosining kuyovi Anvar podsho rahbarligidagi Surxon vohasidagi xalq harakatlariga ishtirok etib, Denov va Yurchida Sovet hokimiyatini ag'darib tashladi.

Hokimiyatni o'z qo'liga olgan Saydullabek Sovet hokimiyatining muntazam harbiy qismi bo'lgan V.Lixarev komandirlik qilgan 61-

otliq polkiga qarshi Yurchi hududida janglar olib borib, Denov, Yurchi va Mirshodi qishloqlarini ozod qildi. Shuningdek, Ibrohimbek rahbarligidagi milliy ozodlik harakatiga qo'shilib, Bobotog' hududlarini ham qizil askarlardan ozod qildi. Biroq, kuchlarning teng emasligi tufayli janglarda mag'lubiyatga uchrab Afg'onistonga chekindi. Denovda Sovet hukumatiga qarshi milliy ozodlik harakatlari davom etib, Farg'onadan 500 kishilik Ko'rshermat rahbarligida xalq harakati qo'shinlari Denovda kelib, milliy ozodlik harakatini davom ettirdi. Fuqarolar urushi tufayli Denovda xalq xo'rlikka, zorlikka bardosh bera olmay, ochlik, qashshoqlik tufayli ko'plab kishilar halok bo'ldi. Denov istiqomat qilgan qo'zg'olonchilar Sovet hukumati tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.

1922-yilning iyun oyida qizil armiyaning muntazam qismlari bo'lgan Pavlov rahbarligidagi 11-otliq polki Termizdan Denovga kelib, Denovda yana Sovet hokimiyati o'rnatib, milliy ozodlik harakatini shafqatsizlarcha bostirdi. Natijada ko'plab xalq harakatini rahbarlari qirib tashlandi, qamoqqa olinib, sudsiz otib tashlandi. Biroq, sovet hukumatining bosqinchilik, talonchilik siyosatiga qarshi xalq harakati muntazam davom etib, Alimardonbek boshliq ozodlik harakati kurashini davom ettirdi. Ular qizil armiya qo'shinlarini Denovdan chiqib ketishini talab qildi. Biroq, o'zaro kelishmovchilik tufayli Alimardonbek harbiy jihatdan ustun bo'lgan qizil armiya brigada komandiri Koshubiga xat yozib, 260 ot, 134 miltiq, 34 revolver, 7 ming o'q topshirib, asir tushmoqchi ekanliklarini bildirib, uni hiyla yo'li bilan qo'lga tushirishni rejalashtirdi. Biroq, qizil armiya komandiri ushbu xiylani sezib, Alimardonbekka qarshi kuchli zarba berib, uni chekinishga majbur qildi. Alimardonbek va Sodiq qo'rboshi rahbarligida harakat davom etib bordi.

Sovet hukumatining bosqinchilik va talonchilik siyosatiga qarshi Hayit qo'rboshi boshliq xalq harakati Denov va uning atrofidagi faoliyat ko'rsatib, 1926-yil Sariosiyo rayonidagi Beshkapa qishlog'ida tengsiz janglarda mag'lubiyatga uchrab asirga

tushdi. Bolsheviklar xalq harakati rahbarlaridan qattiq o'ch olib Hayit qo'rboshi va uning askarlarini Yurchida sud qilinish, ularni harbiy tribunal oliy jazoga hukm qilinish, hukm Denov qo'rg'onida ijro etildi.

Milliy ozodlik harakati rahbarlik qilayotgan Ibrohimbek 1931-yil mart oyida Denovga kelib, uni qo'llab quvvatlagan xalq harakatini ishtirokchilari bilan birgalikda Sovet hokimiyati ag'darib tashlash maqsadida kurash olib bordi. Biroq, Denovda Sovet hokimiyati mustahkamlangan piyoda va otliq qo'shinlari va militsiya qismlari jiddiy qarshilik ko'rsatib, Ibrohimbekni Denov shahriga kirishiga jiddiy qarshilik ko'rsatdi. 1931-yilda may oyiga kelib, qattiq talofotlar natijasida Ibrohimbek Ko'kanbek bilan birgalikda Kafirnihon daryosining chap tomonidagi Ishkobod qishlog'iga chekindi. Ibrohimbek bilan Ko'kanbek, Qorahon va Muqum rahbarligidagi muntazam qizil armiya qo'shinlariga jiddiy qarshilik ko'rsatdi.

Kuchlar teng bo'lmaganligi tufayli Ibrohimbek chekindi. Ko'kanbek esa asirga olinib, Denovga olib kelindi va otib tashlandi. Shu tariqa Denovda olib borilgan qattiq terror va qirg'in tufayli Sovet hokimiyati mustahkamlandi hamda har qanday xalq harakatini ayovsiz tarzda qirib tashladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilsak, amir hukumati garchi mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun butun choralarni ko'rgan bo'lsa-da, uning qo'shini son va sifat jihatdan Qizil Armiyaga nisbatan ancha orqada edi. Shunga qaramay, amir qo'shinlari yaqqol ustunlikka ega bo'lgan qizil askarlarga qarshi mardonavor kurash olib bordi va bir qator g'alabalarga erisha oldi. Faqat, sovet qo'mondonligi yirik kuchlarni tashlashi oqibatida amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, mamlakatda sovet hokimiyati o'rnatildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С. Сурхон воҳасида совет режимининг ўрнатилиши. –Б. 15.
2. Tursunov S.N. Qobilov E.O. Pardayev T.R.Murtazoyev Z.M., Surxondaryo tarix ko'zgasida. –Toshkent: Sharq, 2001. – 382 b.
3. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. –608 b.
4. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. – 501 b.
5. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. –Toshkent: Akademnashr, 2011. –551 b.
6. Ҳайит Н, Усмон Т. Кураш йиллари. – Тошкент: Меҳнат, 1992. –Б. 18.
7. Ражабов Қ. Бухорога Қизил Армия босқини ва унга қарши кураш. Тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). –Тошкент: Маънавият, 2002. –Б. 60.
8. Иркаев М.И. История гражданской войны в Таджикистане. –Душанбе, 1963. –С. 200.
9. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 122-фонд, 1-рўйхат, 381-иш, 185-варак.

VOYAGA YETMAGANLAR GIYOVANDLIGINING OLDINI OLISHNING TASHKILY-HUQUQIY CHORALARI

*Saitmurodov Najmiddin Nabijonovich,
Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi
УДК 341.4 (043.5) (575.1)
<https://orcid.org/0009-0006-3001-2261>*

Annotatsiya: Giyohvandlikka qarshi kurash borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida yildan-yilga bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Birinchi navbatda, ushbu masalaga davlat miqyosida katta e'tibor qaratilganini, narkomaniyaga qarshi kurashning mustahkam huquqiy bazasi yaratilganini, xavf-xatarni bartaraf etish maqsadida keng jamoatchilikning faolligiga tayanilayotganini alohida e'tirof etish zarur. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ushbu illatga qarshi kurash chora-tadbirlari bir necha bor kuchaytirildi.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, jinoyatchilik, yoshlar, deviant, xulq-atvor, toksik modda, morfin, gashish, og'riq qoldiruvchi dorilar.

Аннотация: В результате обширной работы в нашей стране по борьбе с наркоманией из года в год в этом отношении достигаются большие успехи. Прежде всего, необходимо признать, что данному вопросу уделяется большое внимание на государственном уровне, создана прочная правовая база по борьбе с наркозависимостью, на деятельность общественности полагается ликвидация наркозависимости. особенно за годы независимости меры по борьбе с этим заболеванием были усилены в несколько раз.

Ключевые слова: Наркомания, преступность, молодежь, девиантное поведение, токсичное вещество, морфин, гашиш, обезболивающие.

Annotation: As a result of extensive work in our country in the fight against drug addiction, great success is being achieved in this regard year after year. First of all, it is necessary to acknowledge that a lot of attention has been paid to this issue at the state level, that a solid legal basis for the fight

against drug addiction has been created, and that the public's activity is relied on to eliminate the danger. Especially in the years of independence, measures to combat this disease were strengthened several times.

Key words: Addiction, crime, youth, deviant, behavior, toxic substance, morphine, hashish, painkillers.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Giyohvandlik – bu giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq sabablar va oqibatlar majmuasining umumiy nomi. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish bo'lib, aslida giyohvandlik deviant xulq-atvorning bir ko'rinishidir. Giyohvandlik (narkomaniya). Shaxsga va jamiyatga bugun buzg'unchi ta'sir ko'rsatuvchi, og'ir sotsial oqibatlariga ko'ra giyohvandlik asosiy o'rin tutadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, odamlar rohat olish, o'tkir hissiyotlarga kirishish uchun giyohvand moddalarga berilib qoladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Giyohvandlik bilan bog'liq masalalarning turli jihatlarini huquqshunoslar G.A.Axmedov, E.X.Abazov, M.G.Ikromova, M.M.Qodirov, YU.M.Karaketov, Z.S.Zaripov, R.A.Zufarov, E.Q.Mirzajonov, M.H.Rustambayev, I.Sobirov, I.A.Safarov, M.Sobirov, F.Tohirov, M.Usmonaliev, A.S.Yakubov va boshqa mualliflar tomonidan tadqiq etilganligiga qaramay, giyohvandlik muammosining hozirgi davr nuqtai nazaridan bahsli tomonlari, ushbu illatni oldini olish choralari yanada samaraliroq qo'llash nuqtai nazaridan yetarli darajada o'rganilmagan. Giyohvandlik bilan bog'liq muammolar

respublikamizda ilmiy-amaliy nuqtai nazardan hozirga qadar yetarlicha o'rganilmaganligini yana bir bora ta'kidlash lozim. Shuningdek, giyohvandlikning oldini olish, jinoyatchilik va giyohvandlik orasidagi o'zaro aloqadorlik muammosi ham haligacha tadqiq etilgan emas.

MUHOAMA (OBSUJDIENIE / DISCUSSION). Dunyoda giyohvandlikka qarshi kurashning ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan: liberal va ortodoksial strategiyasi mavjuddir. Bulardan birinchisi, giyohvandlar va giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish ustidan nazorat qilish tashkilotining Gollandiya tajribasi bo'lsa[1;101-102], ikkinchisi esa bir necha islom davlatlarida qabul qilingan faoliyat bilan bog'liqdir[2;26-27].

Liberal strategiya, deb ataluvchi Gollandiya tajribasi o'zining mantiqiy yakunini giyohvandlik vositalarini oshkorlashtirish (legallashtirish) g'oyasidan olgan. Giyohvandlik vositalarini legallashtirish g'oyasi o'zining dolzarbligini ularni iste'mol qilishga qarshi kurash boshlanganidan buyon yo'qotmay kelmoqda. Ushbu nuqtai nazar vakillari vaqti-vaqti bilan giyohvandlik vositalaridan turli xil notibbiy maqsadlarda foydalanishning oshkorlashtirilishini hayotga tatbiq etishga urinadilar[3;28]. Giyohvandlik vositalarini legallashtirish haqidagi muammo o'n yillar oldin ham keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan edi. Keyingi yillarda esa unga yanada katta e'tibor berilmoqda. O'rganilayotgan muammoni targ'ib qilishga, nafaqat shov-shuv ko'taradigan jurnalistlar, balki mutaxassislar ham jalb qilinmoqdalar.

Bizning fikrimizcha, muammoga bunday yondashuv ishonchsiz va zararlidir, lekin yuqoridagi nuqtai nazar tarafdorlarining emotsional xavfli fikrlarining oldini olish uchun, giyohvandlik vositalarini legallashtirish tarafdorlari keltirgan dalillarning olimlar va keng jamoatchilik tomonidan tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ularning fikricha, «giyohvandlik vositalaridan qonunga xilof ravishda

foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatchilik miqdorini kamaytirish uchun «yumshoq» narkotiklar (marixuana, nashani) oshkorlashtirish zarurdir».

Haqiqatdan ham, umuman jinoyatchilikni qonuniy yo'li bilan «kamaytirish» mumkin, lekin bu jamiyat uchun xavfli bo'lgan boshqa huquqbuzarliklarni butunlay tugatmaydi. Jinoyatlardan huquqiy mazmunda voz kechish ularning moddiy jihatdan yo'qolishiga olib kelmaydi. «Yumshoq» narkotiklarni legallashtirish, shubhasiz, uni iste'mol qiluvchilar sonining keskin o'sishiga olib keladi. Buning isboti sifatida – 1991-yilda giyohvandlik vositalarni qonunga xilof ravishda iste'mol qilganlik uchun ma'muriy javobgarlikning bekor qilinishi natijasida ro'y bergan ahvolni ko'rsatish mumkin. Giyohvandlikning ko'payishi ko'pincha shoshib, puxta o'ylanmay qabul qilingan chora-tadbirlar bilan ham bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasiga binoan II, III va IV ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalardan faqat tibbiy maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda foydalanish mumkin.

Giyohvandlik vositalarini legallashtirish oqibatida ushbu vositalarga bo'lgan talab va taklifning bir muncha o'sishini tasavvur qilish qiyin emas. Bunday hol ro'y berishi bilan darhol «erkin bozor» qonunlari amal qila boshlaydi, ya'ni talabga qarab ushbu vositalarning ochiq yoki yashirin reklamasi, ishlab chiqarilishi ortib ketadi.

Giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirish «boshqalarning manfaatiga» zarar yetkazmaydigan, «inson huquqlarini» targ'ib qilish imkonini beradi. Muammoning bunday hal qilinishi beodoblighi, jamiyatda o'rnatilgan qoidalardan chetga chiqishi bilan mohiyatiga ko'ra huquqbuzarlikdan unchalik farq qilmaydi.

Shaxsning o'z joniga «qasd qilish huquqiga ega ekanligining» e'lon qilinishi, mutlaqo davlat siyosatining homiyligida bo'lishi mumkin emas. Davlat ijtimoiy

buzilishlarni rag‘batlantirish huquqiga ega emas, aks holda u amalda ijobiy o‘zgarishlar qila olmaydi va axloq normalariga asoslangan jamiyat qurish maqsadidan chetlashadi. Bundan tashqari, giyohvandlik hamma vaqt ham jamiyat uchun xavfli bo‘lgan, chunki u shaxsni, oilaviy munosabatlarni izdan chiqaradi, jamiyatga jinoiy faoliyatga asoslangan moddiy va ma‘naviy zarar yetkazadi. Giyohvandning «xatosi» jabrini nafaqat uning o‘zi, balki uning qarindoshlari, yaqin atrofidaqilar ham tortishadi. Va nihoyat, davlat ushbu kasallikka chalingan kishiga u yoki bu darajada g‘amxo‘rlik qilishga majburdir, shuning uchun bu muammolarni hal qilishda asossiz fikrlar va g‘oyalarga tayanish mumkin ham, kerak ham emas. Masalan, giyohvandlik vositalari sirasiga kiruvchi ayrim moddalar, inson hayoti uchun nisbatan xavfli emas, marixuananing tamakiga qaraganda ziyoni kamroq, shunga qaramay tamakini tarqatish jinoyat emas, degan fikrlarning olg‘a surilishi giyohvandlik vositalaridan xabarsiz va bu borada tajribaga ega bo‘lmagan jamoaga mo‘ljallangandir.

Olib borilgan tadqiqotlar, tamaki va marixuanani chekish tashqi tomondan o‘xshashligiga qaramay, ularni iste‘mol qilish natijasida ruhiy mexanizmida, fiziologik holatlarda ro‘y beradigan o‘zgarishlarda jiddiy farq mavjudligini tasdiqlaydi. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ham «kichkinagina baloning» ulkan zarari haqidagi haqiqatni esdan chiqarmasligimiz kerak, 90-95 % giyohvandlar o‘zlarining «giyohvandlik faoliyatini» asosan marixuana (kannabis) iste‘mol qilishdan boshlashgan[4;176]. «Yumshoq» narkotiklar kuchli giyohvandlik vositalarini iste‘mol qilish uchun pillapoya vazifasini o‘taydi, ularni iste‘mol qilish giyohvandlik vositalariga bog‘liqlikni, giyohvand shaxsda o‘ziga xos xususiyatni shakllantirishga «xizmat» qiladi. Giyohvandlik vositalarini shartli ravishda «kuchli» va «kuchsiz»ga ajratish shunchaki, narkotiklarni tarqatish ustidan nazorat samaradorligining yetarlicha emasligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi kabi giyohvandlik vositalarini shartli ravishda ikki guruhga ajratishning xavfliligi bir necha

marta BMT Komissiyalarida, giyohvandlik vositalar haqidagi xalqaro forum va konferensiyalarda ta‘kidlangan[5;18-28]. Masalan, kannabisni xavfsiz deb e‘lon qilish giyohvandlikning zararli oqibatlari yo‘qligiga inson ongini o‘rgatishi bilan juda ham xavlidir. Kannabisning oshkorlashtirilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashdan ozod qiladi, degan fikrlar ham mavjud. Ushbu fikrning asossiz, jiddiy emasligini quyidagi mulohazalarda ko‘rish mumkin:

1) kannabisni iste‘mol qilishni oshkorlashtirish uning ustidan ijtimoiy nazorat bo‘lishi lozimligini rad etmaydi. Chunki bunday moddani iste‘mol qilish mumkin bo‘lmagan sohalar (masalan, transport vositalarini boshqarish) mavjuddir. Bu esa shu sohalarda kannabis iste‘mol qilinmasligi ustidan nazorat qilish uchun qo‘shimcha ravishda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini jalb etishni talab qiladi;

2) giyohvandlik vositalarini tarqatish, iste‘mol qilish, ta‘qiqlangan joyda ularni sotmaslik qoidalarini belgilash va ularga rioya qilishni litsenziyalash bilan bog‘liq bo‘lgan yangi muammolar vujudga keladi[6;19], umuman muayyan hodisani butunlay ta‘qiqlashni tushuntirish chala ta‘qiqning mohiyatini tushuntirishdan ko‘ra osonroqdir;

3) aholi giyohvandligining oldini olish g‘oyasiga putur yetadi, chunki bunday holda dastlab yengil giyohvandlikning tarqalishiga yo‘l qo‘yib beriladi — da, keyin kasallik avjiga chiqqanida unga qarshi kurashga chaqiriladi. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan giyohvandlik vositalarini oshkorlashtirish g‘oyasining zararli ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

«Yumshoq» narkotiklarni oshkorlashtirish davlatning madaniylashganligi, jamiyatning liberallashganligi alomatidir bu yuqoridagi nuqtai nazar tarafdorlarining eng jiddiy asosi hisoblanadi. Uning an‘anaviyligi e‘tiborni jalb qiladi[7;4-5]. Bu nuqtai nazar vakillari patriarxallikni tanqid qilganlar, ijtimoiy hayotga qoloq, buzg‘unchi loyihalarni kiritishga harakat qilganlar. Shu bilan birga «reformatorlar» ularning fikrlari asosli

ekanligini isbotlovchi faktlarni, dalillarni yig'ishga juda ham mohirdirlar.

Muammoni obyektiv o'rganish «ilg'or» mamlakatlar giyohvandlik vositalari muomalasi ustidan nazoratni ta'minlashda liberal strategiyani amalga oshirmoqdalar, degan fikrlarning asossizligini ko'rsatadi. Masalan, turli davlatlarda narkotik (jumladan shartli ravishda «yumshoq» deb ataluvchi giyohvandlik vositalari)ni iste'mol qilganlik uchun:

- Yaponiyada 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish;
- Tailandda 1 yilgacha ozodlikdan mahrum etish;
- Fransiyada 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etish;
- Gretsiyada 2 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish;
- Shveysariyada 3 oygacha ozodlikdan mahrum etish;
- Yangi janubiy Uelsda (Avstraliya) 6 oygacha ozodlikdan mahrum etish, yoki 200 avstraliya dollari miqdorida jarima[8;327];
- Turkiyada 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish[9;148];
- Misrda 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Gollandiyada amalga oshirilayotgan giyohvandlik vositalarining muomalasi ustidan nazoratning liberal strategiyasi ushbu mamlakatda ham, butun dunyoda ham giyohvandlik darajasini pasaytirmadi. Aksincha, narkoturizm, giyohvandlik markazlari vujudga kelishi mumkinligi xavfi tug'ilganligi bu muammo haqida chuqurroq, jiddiyroq o'ylashni talab qiladi[10;4-5].

Narkotiklarni oshkorlashtirish tarafdorlari: «Giyohvandlik vositalarini oshkorlashtirish giyohvandlik vositalarining latentlik[11;258] darajasini pasaytiradi va uning ustidan nazoratni amalga oshirish uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi» deydilar. Real haqiqat ushbu fikrning ham xato ekanligidan dalolat beradi.

Ko'pincha «yashirin» (qonunga xilof bo'lgan «xufiya» iqtisod, ma'naviy sohadagi og'ishlar) nimanidir oshkorlashtirilishi o'sha hodisaning jadal ko'payishi va uning barobarida shu salbiy hodisa latentligining proporsional o'sishi bilan birga kechadi.

Narkomaniyaning latentligi giyohvandlik vositalari muomalasi o'sishiga proporsional ravishda ko'payib boradi, narkotizm qanchalik keng tarqalsa, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish hollarining ko'p qismi noma'lum bo'lib qolaveradi[12;71]. Biz ham yuqoridagi olimlarning fikriga qo'shilamiz, chunki ushbu hodisaga qarshi kurash olib boruvchi organlarning imkoniyatlari giyohvandlikning tarqalish darajasidan anchagina orqadadir.

Shunday qilib, giyohvandlik vositalarini oshkorlashtirish, hattoki, qisman oshkorlashtirish ham giyohvandlikning latentligini pasaytirmaydi, aksincha, uning natijasi salbiy bo'lishi ehtimoldan holi emas.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Giyohvandlik vositalarini oshkorlashtirish g'oyalari qabul qilib, uni hayotga tatbiq etib bo'lmaydi. Bunga misol sifatida aholi orasida giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishdan qo'rquv hissining yo'qligini aytish mumkin, ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida bu narsa yaqqol ko'rinadi.

Ilgari voyaga yetmaganlarning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi fojia, deb hisoblangan bo'lsa, hozirga kelib, unga nisbatan ota-onalar, hokimiyat organlari vakillari tomonidan salbiy hodisa sifatida keskin fikr bildirilayotganligi yo'q. Biroq hozirgi sharoitda yoshlarda axloqsizlik va ma'naviyatning pasayganligiga odatiy hol, deb qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Ma'naviy, axloqiy talablar o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv hususiyatiga egadir, shunday ekan fuqarolarni ushbu talablarga rioya qilishga o'rgatmog'imiz lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Казакова А.В. Обзор законодательства зарубежного государства по борьбе с распространением наркотиков. По материалам зарубежной печати. -М.: МВД. России —

1986. – С. 101-102.

2. Организационно-правовые основы борьбы с незаконным оборотом наркотиков в зарубежных странах. Академия МВД. Рос. -М. — 1995. — С. 26-27.

3. Бабаян Э. Либерализация наркотических средств и международное право. — М. — 1993. Информационный бюллетень. НЦБ Интерпола, в РФ. -М, 1993. №4. – С. 28.

4. Рексед Б., Эдмондсон К. Хан М., Самсон Р.Дж. Руководство по контролю над наркотиками ВОЗ. Женева, 1987.-С. 176.

5. Бездна: Пьянство. Наркомания. Спид. //Сост. Артюхов. — М.: Молодая гвардия. 1988, -С. 18-28.

6. Ўзбекистон Республикасининг «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги қонуни, Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №22. -Т.: Адолат, 2000. — С.19.

7. Сергеев А.О. О легализации наркотиков. //Информационный бюллетень НЦБ Интерпола в России. -1994. №9. -С. 4-5.

8. Уголовное законодательство зарубежных стран. –М.: Зерцало, 1998. – С.327.

9. Turk jaza kanuni. Ankara, 1997, B. 148.

10. Сергеев А.О. О легализации наркотиков. // Информационный бюллетень НЦБ Интерпола в России. — 1994. №9. –С. 4-5.

11. Латентлик — яширин, расмий рўйхатга олинмаган. / Усмоналиев М., Каракетов Ю. Криминология. Т.: 2001, –Б. 258.

12. Пахомов В.Д., Казанова В.А., Фирсаков С.В. Выявление уровня преступлений в сфере незаконного оборота наркотиков и характеристика лиц, осужденных за них. -М.: ВНИИ МВД России. 1995. –С. 71.

ETNOGRAFIYA

- Tursunov Saypulla Narzullayevich.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini mudiri, tarix fanlari doktori, professor.* Tabiat kultlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar (Surxon vohasi misolida).....4
- Dulanov Otabek Yuldashevich.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini katta o'qituvchisi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* Yuz (juz) larning Surxon vohasiga kirib kelishi va etnik tarkibi.....9
- Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini dotsenti v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* An'anaviy Surxon bozorlarining o'ziga xos jihatlari.....13
- Bo'riyev Ravshan Rustamovich.** *Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch doktoranti.* Surxon-Sherobod vohasi aholisining dafn marosimlaridagi etnik jihatlari.....20
- Normuratov Botir Ravshanovich.** *Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi.* Surxon vohasi aholisi xalq o'yinlarining etnografik tahlili.....26
- Ikrom Xolmuratov.** *Samarqand davlat veterenariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* Ona tili ta'limida integrativ yondashuv.....30
- Khalikova is the daughter of Mushtari Sultanali.** *Teacher of legal technical school of Surkhandarya region.* Syntaxes Expressed by negative Conjunctions..... 34

TARIX

- Шомат Саматов.** *Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori.* Махмудхўжа Бехбудийнинг ватан тарихига муносабати....38
- Қамбаров Абдумутал Аҳаджонович.** *Фарғона давлат университети профессори, falsafa fanlari doktori (DSc).* Илмий ва диний кадриятлар трансформацияси ва маърифатли авлодни тарбиялаш зарурати.....43
- Шариф Ёқубов.** *Termiz davlat universiteti доценти, филология fanlari номзоди.* Кўхитангдаги қадимги кончилар манзили.....49
- Tursunov Anvar Saypullayevich.** *Termiz davlat pedagogika instituti Tarix va uni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati shaharlari infratuzilmasidagi o'zgarishlar.....55
- Bokiyev Anvar Axmedovich.** *Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasini katta o'qituvchisi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* Amir Temur va Temuriylar tarixining Turkiyada o'rganilishi (Dissertatsiyalar misolida).....60
- Radjapova Sabohat Bobirovna.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasini dotsenti v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).* Surxondaryo viloyatida xotin-qizlar

- mehnatining muhofaza qilinishi (1995-2000-yillar).....66
- Mamarajabov G‘ayrat Abdulkakimovich.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.* Janubiy O‘zbekistonda hunarmandchilikning rivojlanishi va hunarmandchilik festivallarining o‘tkazilishi.....71
- Xo‘janazarov Absalom Ziyadullayevich.** *Termiz davlat universiteti Fuqarolik jamiyati kafedrasida katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).* O‘zbekistonda aholi genofondini mustahkamlash borasidagi tibbiy islohotlar.....76
- М.Н.Ибрагимова.** *Преподаватель Казахского национального университета имени Аль-Фараби Алматы, Республика Казахстан.* Сочинения Темуридов – источник по истории Ак Орды.....80
- Choriyev Raxmonberdi Yusufovich.** *Termiz davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi mutaxassisi.* Ikkinchi jahon urushida Surxondaryo viloyati harbiylarining jasorati.....90
- Yo‘ldosheva Zubayda Hamidovna.** *Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.* O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida Surxondaryo viloyati matbuoti.....94
- Toshpo‘latov Mamadali Zayniddin o‘g‘li.** *Navoiy davlat pedagogika instituti “Tarix” kafedrasida tayanch doktoranti.* Tomdi tumani yoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024).....99
- Eshqobilov Behzod Botir o‘g‘li.** *Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.* Buxoro amirligida irrigatsiya tizimining ahvoli va hukmdorlarning sug‘orish tizimiga munosabati.....110
- Temirova Munira Amirkulovna.** *Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti.* Sferokonus (simobko‘zacha) lar vazifasi xususida ayrim mulohazalar.....117
- Xolboyeva Dilnoza Mamayusupovna.** *Surxondaryo viloyati Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi mutaxassisi.* O‘zbekiston sovxozlari tarixi ilmiy tadqiqotlarda.....123
- Mirzayev Xusniddin Xolmo‘minovich.** *Surxondaryo viloyati Termiz shahar kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktori o‘rinbosari, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.* Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati qurilish sohasi tarixidan.....128
- Suvonov Jamshid Mashrab o‘g‘li.** *Termiz shahar IIB katta tezkor vakili, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.* Surxondaryo viloyati ichki ishlar tizimi faoliyatidan lavhalar.....133
- Ermuratov Ergash Chorshanbi o‘g‘li.** *Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi.* Surxon vohasi aholisining demografik jarayonlari o‘rganilishi tarixshunosligi.....138
- Суюнов Акмал Кўлдошевич.** *Termiz davlat universiteti Жаҳон тарихи кафедраси мустақил тадқиқодчиси.* Сурхондарё воҳаси аҳолисининг демографик

жараёнлари тарихи.....	142
Mamatkulova Shoxista Anvarovna. <i>Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.</i> Surxondaryo viloyatining ayrim madaniy meros obyektlari haqida.....	146
Jumayev Bekzod. <i>O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.</i> Sovet hukumatining islom diniga nisbatan munosabati.....	150
Qarajayeva Dilorom Namozovna. <i>Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.</i> Surxon vohasida sovet hokimiyati o'rnatilishiga qarshi qurolli harakatlar.....	155
Saitmurodov Najmiddin Nabijonovich. <i>Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.</i> Voyaga yetmaganlar giyovandligining oldini olishning tashkiliy-huquqiy choralari.....	160

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXHONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-2 2024

«СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida tursunovsafullo12@mail.ru elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo‘yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, dastlab yuqori chap tomondan UO‘K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so‘ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq, o‘zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG‘IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo‘yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o‘zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya’ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org platformasidan ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o‘rtacha 200-250 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Agar maqola o‘zbek va rus tilida yozilgan bo‘lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so‘zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so‘zlar o‘rtacha 8-12 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘oziyev.E.G. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.

2. Doniyorov H.T. O‘zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlash – ijtimoiy barorlikning bosh omili sifatida. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.

3. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing, 2020. – P.127-132.

4. Rahmatjonova K. Hindiy va o‘zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.

5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba’in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).

6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi.

Bog‘lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e’lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarini qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun ___ ming so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55